



O'ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN'ATI

ILMIY-USLUBIY, NAZARIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI



2026 / 3 (5)

ISSN 3093-8597

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT
INSTITUTI

**O‘ZBEKISTON MADANIYATI
VA SAN‘ATI**
ILMIY-USLUBIY, NAZARIY-AMALIY
JURNALI

Ushbu elektron jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 31-oktyabrdagi 376/5-son qarori bilan san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

2026 / 3 (5)

Toshkent – 2026

“O‘zbekiston madaniyati va san‘ati” ilmiy-uslubiy, nazariy-amaliy elektron jurnali

Bosh muharrir:

Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich

Tarix fanlari nomzodi, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Yakubov Baxtiyor Choriyevich

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ma‘sul kotib:

Xolmuninova Nigora Xankulovna

Texnik muharrir:

Abdulg‘oziyeva Ro‘zigul Normurod qizi

Jamoatchilik kengashi

Ozodbek NAZARBEKOV

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti

Shuhratilla RIZAYEV

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori, filologiya fanlari nomzodi, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

Otabek XASANOV

Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi direktori, siyosiy fanlari doktori (DSc)

Yodgor SA‘DIYEV

O‘zbek Milliy akademik drama teatri direktori, O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti

Nodira MUSTAFOYEVA

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi boshlig‘i, tarix fanlari doktori, professor

Kamola AKILOVA

O‘zbekiston tasviriy san‘at galereyasi direktori, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, san‘atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor

Jannat ISMOILOVA

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor

Umida TESHABOYEVA

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi direktori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sirojiddin SAYYID

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri

Rustam ABDULLAYEV

O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi, O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi

Tahrir hay‘ati

Akbar XAKIMOV

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

Nigora AXMEDOVA

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

Muhabbat TULYAXODJAYEVA

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

Abduxalil MAVRULOV

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, tarix fanlari doktori, professor

Oltinoy TOJIBOYEVA

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

Rustambek ABDULLAYEV

O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

Marfua XAMIDOVA

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

Viktor ALEMASOV

Falsafa fanlari doktori, professor

Sayyora TUYCHIYEVA

Falsafa fanlari doktori, professor

Muhammadjon QURONOV

Pedagogika fanlari doktori, professor

Absalom UMAROV

Sotsiologiya fanlari doktori, professor

Ma‘rufjon YULDOSHEV

Filologiya fanlari doktori, professor

Dilafuz QODIROVA

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

Ravshan YUNUSOV

O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, san‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Guzalxon ISAKOVA

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Aziza KURBONOVA

Pedagogika fanlari doktori, dotsent (DSc)

Shoira ASADOVA

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

O‘ktam NOSIROV

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Zoya ARISLANBOYEVA

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Aybek KOPADZE

San‘atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Oybek DAVLATOV

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasiba TURG‘UNOVA

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Zumriniso KOZIMOVA

Dotsent

Muhayyo MUXTOROVA

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Shahlo HAMIDOVA

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Gulnoza BOBONAZAROVA

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Robiya TURSUNMETOVA

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Scientific-methodological, theoretical-practical electronic journal “Culture and Art of Uzbekistan”

Editor-in-Chief:

Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich
Candidate of Historical Sciences, Professor

Deputy Editor-in-Chief:

Yakubov Baxtiyor Choriyevich
PhD in Art Studies, Associate Professor

Executive Secretary:

Xolmuninova Nigora Xankulovna

Technical Editor:

Abdulg‘oziyeva Ro‘zigul Normurod qizi

Public Council

Ozodbek NAZARBEKOV

Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan,
People’s Artist of the Republic of Uzbekistan

Shuhratilla RIZAYEV

Director of the Cinematography Agency under the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences, Professor, Honored Mentor of Youth of Uzbekistan

Otabek KHASANOV

Director of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment,
Doctor of Political Sciences (DSc)

Yodgor SA‘DIYEV

Director of the Uzbek National Academic Drama Theatre,
People’s Artist of the Republic of Uzbekistan

Nodira MUSTAFOYEVA

Head of the Department of Social and Humanitarian Sciences at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of History, Professor

Kamola AKILOVA

Director of the Gallery of Fine Arts of Uzbekistan, Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, Honored Cultural Worker of Uzbekistan, Doctor of Art Studies (DSc), Professor

Jannat ISMOILOVA

Director of the State Museum of History of Uzbekistan, Doctor of History, Professor

Umida TESHABOYEVA

Director of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi,
Doctor of Philosophy (PhD) in History

Sirojiddin SAYYID

Chairman of the Writers’ Union of Uzbekistan, People’s Poet of Uzbekistan

Rustam ABDULLAYEV

Chairman of the Composers’ Union of Uzbekistan, Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan

Editorial Board

Akbar KHAKIMOV

Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, Honored Mentor of Youth of Uzbekistan, Doctor of Art Studies, Professor

Nigora AKHMEDOVA

Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of Art Studies, Professor

Muhabbat TULYAKHODZHAYEVA

Doctor of Art Studies, Professor

Abduxalil MAVRULOV

Honored Mentor of Youth of Uzbekistan, Doctor of History, Professor

Oltinoy TOJIBOYEVA

Doctor of Art Studies, Professor

Rustambek ABDULLAYEV

Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Art Studies, Professor

Marfua XHAMIDOVA

Doctor of Art Studies, Professor

Viktor ALEMASOV

Doctor of Philosophy, Professor

Sayyora TUYCHIYEVA

Doctor of Philosophy, Professor

Muhammadjon QURONOV

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Absalom UMAROV

Sociology Sciences, Professor

Ma‘rufjon YULDOSHEV

Doctor of Philological Sciences, Professor

Dilafuz QODIROVA

Doctor of Art Studies, Professor

Ravshan YUNUSOV

Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Sciences in Art Studies, Professor

Guzalxon ISAKOVA

Doctor of Sciences (DSc) in Philology, Associate Professor

Aziza KURBONOVA

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Shoira ASADOVA

Candidate of Sciences Historical, Associate Professor

O‘ktam NOSIROV

Candidate of Sciences Philosophical, Associate Professor

Zoya ARISLANBOYEVA

Candidate of Sciences Historical, Associate Professor

Aybek KOPADZE

Candidate of Sciences in Art Studies, Associate Professor

Oybek DAVLATOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

Nasiba TURG‘UNOVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies, Associate Professor

Zumriniso KOZIMOVA

Associate Professor

Muhayyo MUXTOROVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies

Shahlo HAMIDOVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies

Gulnoza BOBONAZAROVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Robiya TURSUNMETOVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies

I. TEATR VA KINO SAN'ATI

Vahobjon Rustamov	<i>Uilyam Shekspirning "Qiyiq Qizning Quyilishi" asari Rejissyorlik tahlili</i>	6
Barno Nurmanova	<i>O'zbekistonda teatr festivallarining tarixiy rivojlanish bosqichlari</i>	16
Shaxlo Xamidova	<i>Dramatik asarlarda voha folklorini namoyon bo'lishi (Erkin Xushvaqto'v dramaturgiyasi misolida)</i>	24
Nigora Karimboyeva	<i>Ekransan'ati nutqi Madaniyati</i>	29
Shohrux Abdurasulov	<i>O'zbek teatrida ijodiy o'zgarishlar evolyutsiyasi (1950–1975- yillar misolida)</i>	34
Shaxnoza Rajabova	<i>O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti sahnasida zamonaviy talqindagi "Kuz" spektakli</i>	46
Adiba Umarova	<i>Yangi davr o'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar ma'naviy tarbiyasida teatrning tutgan o'rni (Tarjima asarlar misolida)</i>	55
Aybek Turganbayev	<i>Qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining asosiy yo'nalishlari</i>	65
Diyorbek Sa'dullayev	<i>Aktyorlik san'atida ichki kechinma: "Birinchii qaldirg'och" spektakli misolida</i>	75
Eroli Beknazarov	<i>Musiqali teatrdan dramatik holatdan ariyaga o'tish muammolari</i>	82
Malika Xudoyberdiyeva	<i>Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqining ahamiyati</i>	87
Rasuljon Tog'oykulov	<i>Teatr sahna asarlarini yaratishda generativ texnologiyalarning o'rni</i>	92
Sardorjon G'ulamov	<i>Vioyat teatrlarining rivojlanishida transformatsion yondashuv omillari</i>	101
Xurshida Ro'ziqulova	<i>Tarixiy obrazning dramaturgik va sahnaviy interpretatsiyasi: "To'maris" spektaklining badiiy-g'oyaviy xususiyatlari</i>	108

II. MUSIQA, RAQS, TASVIRIY SAN'AT

Mansur Shukurlayev	<i>Folklor raqslarini sahnaga moslashtirish muammolari (Qoraqalpoq raqslari misolida)</i>	114
Sed'yx Tatyana	<i>ЗНАЧЕНИЕ ФЕСТИВАЛЯ «NAVRO'Z SADOLARI» – «НАПЕВЫ НАВРУЗА» В ПРОЦЕССЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ</i>	119
Don'ner Agzamov	<i>АНАТОМИЯ МЕРТВОГО МИКСА: ПОЧЕМУ ТЕХНИЧЕСКИ ИДЕАЛЬНЫЙ ТРЕК ЗВУЧИТ СКУЧНО</i>	127
Xayru'llo Sultonov	<i>СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К АУДИОПРОИЗВОДСТВУ: ОТ АКУСТИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ ДО ФИНАЛЬНОГО МАСТЕРИНГА</i>	134
Akbar Basharov	<i>"Yalla" guruhining ijodiy faoliyati xususida</i>	139
Asadbek Abdusaminov	<i>Sharq musiqa merosi va an'anaviy ijrochilik san'atida repertuar tanlash an'analari</i>	148
Mashxura Komiljonova	<i>Konsert dasturlarida xoreografik sahna yechimlarining kompozitsion asoslari</i>	154
Otabek Jalliyev	<i>Ahmadjon Shukurov ijodiga bir nazar</i>	161
Jasmina Shermatova	<i>Dutor cholg'usi kuylarini inklyuziv ta'lim talabalarida idrok etish jarayoni</i>	167
Xumora Boymurotova	<i>Qo'qon ayollar ijodiga doir</i>	173

III. MADANIYATSHUNOSLIK, SOTSILOGIYA, SIYOSATSHUNOSLIK

Nodira Abdunazarova Shaxzodbek Rustamov Pirmuhammad Xolmaxmatov	<i>YOSHLAR MADANIYATINI YUKSALTIRISH: MAVJUD MUAMMOLAR, OMILLAR VA ISTIQBOLLI YECHIMLAR (O'zbekiston misolida)</i>	178
Mohira Xasanova Bahtiyorjon G'iyosov	<i>YOSHLAR MEDIA MADANIYATI: MILLIY VA HUQUQIY YONDASHUVLAR</i>	189
Mohira Xasanova Bahtiyorjon G'iyosov	<i>DIASPORA TUSHUNCHASI VA UNI TADQIQ ETISH BO'YICHA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR</i>	195
Mohira Xasanova Bahtiyorjon G'iyosov	<i>MADANIY GLOBALLASHUV VA TELEVIDENIYE</i>	205
Bobur Abdurahimov Anora Tursunaliyeva	<i>MILLIYAN'ANALAR VA ZAMONAVIY G'OYALAR SINTEZI: MADANIY TRANSFORMATSIYA MODELI (Namangan gullar festivali misolida)</i>	211
Bobur Abdurahimov Anora Tursunaliyeva	<i>YOSHLAR MADANIY TAFAKKURIGA TA'SIR ETUVCHI MAFKURAVIY VA AXBOROT TAHDIDLARINING KLASSIFIKATSIYASI</i>	218
Aziza Davronova Mohlarbegim Avazova	<i>SHARQ VA G'ARB FALSAFIY TA'LIMOTIDA MADANIYAT MASALALARI TALQINI</i>	227
Aziza Davronova Mohlarbegim Avazova	<i>MADANIY SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR: HUQUQIY-TASHKILY ASOSLARI</i>	235
Shavkat Bazarboyev Obidaxon Xamidova	<i>MARKAZIY OSIYO ALLOMALARINING E'TIQOD TO'G'RISIDAGI QARASHLARI</i>	241
Shavkat Bazarboyev Obidaxon Xamidova	<i>OMMAVIY BAYRAM, TOMOSHALARNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI, ROLI VA TARBIVAVIY AHAMIYATI</i>	247
Shavkat Bazarboyev Obidaxon Xamidova	<i>ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI – SHARQ ILM-FANI VA MADANIYATINING ZAMONAVIY TIMSOLI</i>	255

IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, KUTUBXONASHUNOSLIK

O'ktam Nosirov	<i>JADIDCHILIK, KUTUBXONALAR VA MUTOLAA</i>	261
Aziza Kurbanova	<i>RAQAMLI KOMPETENSIYALARNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI: MAZMUNI, MOHIYATI VA ILMY TALQINLARI</i>	270
Muborak Xakimova Mirali	<i>MA'RIFATPARVAR MALIKA: TEMURIYLAR RENESSANSINING AYOL SIYMOSI</i>	280
Maxmudov Raximova Sevara	<i>TA'LIMNING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA UNIVERSITET KUTUBXONALARINI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI SHARHI</i>	286
To'ychi Bayturayev	<i>O'ZBEKISTON QADIMGI DAVR SIVILIZATSIYALARIDAGI MODDIY VA MA'NAVY MADANIYATINI BIBLIOGRAFIK MA'LUMOTLARINI MODELLASHTIRISH (Baqtriya va Kushonlar davri misolida)</i>	293
Yusup Mannonov Ziyodullo Isokov	<i>AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATIDA JADIDCHILIK HAKKATI NAMOYANDALARINING TARG'IBOTI</i>	304
Mirsaat Isxakov	<i>KUTUBXONALAR – TARIX VA TARAQQIYOT KO'ZGUSIDA</i>	312
Людмила Муминходжаева	<i>BIBLIOTERAPIYANING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI HAMDA INSON RUHIY SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI O'RNI</i>	321
Людмила Муминходжаева	<i>СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА БИБЛИОТЕК В КОНТЕКСТЕ ВЫЗОВОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ</i>	327
Nilufar Ro'ziyeva	<i>O'ZBEK KUTUBXONACHILIGINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI</i>	337
Zebiniso Xudayberdiyeva Soatmurod Xushboqov	<i>OILALARDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB VA MAHALLA KUTUBXONALARI HAMKORLIGI</i>	352
Zebiniso Abduganiyeva	<i>AXBOROT-RESURS MARKAZLARI TIZIMIDA MULOQOT MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL</i>	359

Vahobjon Rustamov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası professori (v.b.)
E-mail: vahobrustamov81@gmail.com*

UITYAM SHEKSPIRNING "QIYIQ QIZNING QUYILISHI" ASARI

REJISSYORLIK TAHLILI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Uilyam Shekspirning "Qiyiq qizning quyilishi" asari misolida rejissyorlik tahlili qilingan. Tahlilda muallif haqidagi ma'lumotlar, asar mavzusi, g'oyasi, kompozitsion tuzilishi, oliy maqsadi kabi elementlarga izohlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** mavzu, g'oya, kompozitsion tuzilish, rejissyorlik tahlil, yetakchi xatti-harakat, janr, pyesa.*

DIRECTORIAL ANALYSIS OF WILLIAM SHAKESPEARE'S "THE TAMING OF THE SHREW"

***Abstract.** This article presents a directorial analysis of William Shakespeare's *The Taming of the Shrew*. The study examines key elements of the play, including information about the author, the theme and idea of the work, its compositional structure, and its super-objective. The article also explores the leading action and genre characteristics of the play.*

***Keywords:** theme, idea, compositional structure, directorial analysis, leading action, genre, play.*

Sahnalashtirish ishlarida manba tanlash eng muhim jarayonlardan hisoblanadi. Rejissyor Baxtiyor Sayfullayev aytganlaridek, "yaxshi, muvaffaqiyatli tanlangan asar spektaklning yarim muvaffaqiyatini ta'minlaydi" [1, 49-b]. Analiz, ya'ni, tahlil – o'zbek tilining izohli lug'atida: 1. Tekshirish obyektini fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilish usuli, sintez. 2. Analiz shunday bir mantiqiy usuldirki, uning yordami bilan biz buyumlarni, hodisalarni fikran qismlarga bo'lib, ularning ayrim qismlarini, belgilarini, xususiyatlarini ajratamiz

[2, 81-b], deb berilgan. Umuman olganda, tahlil qilish orqali asardagi voqealar ichidagi barcha jarayonlar o'rganiladi.

Har qanday asarni u xoh adabiy asar, xoh dramatik, xoh musiqali asar bo'lsin, uni tahlil qila olish shu asarning "mag'zini", muallifning pozitsiyasini, rejissyorning maqsadini aniqlab olish imkonini beradi. Rejissyorlik tahlil shuning uchun ham foydali jarayonki, bunda rejissyor o'z aktyorlariga maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishga, rolni to'g'ri talqin qila olishiga yordam beradi.

Adabiy asar tahlili, rejissyorlik tahlili, sahnalashtirish rejasi degan tushunchalarga duch kelamiz. Tahlil qilishda bu uchta jarayon alohida o'ziga xos yondashuvni taqozo qiladi. Mazkur maqolada asosan, rejissyorlik tahlil qay tarzda amalga oshirilishi haqida so'z yuritamiz. Xo'sh shunday ekan, uning punktlari nimalardan iborat?

Rejissyorlik tahlili deganda muallif tomonidan yozilgan asarni rejissyorlik nuqtayi nazaridan qaralishi tushuniladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishda uning ssenariysini yaratish alohida jarayon hisoblanadi. Spektaklni sahnalashtirishda esa ko'pincha tayyor dramatik manbaga murojaat qilinadi. Uilyam Shekspirning asarlari ichida "Qiyiq qizning quyilishi" asari juda ham xatti-harakatga boy, talabalarda aktyorlik mahoratini shakllantirish uchun katta imkoniyatlarni yaratib beradigan asarlardan hisoblanadi. Asarning nomi haqida so'z borganda uning o'zbekcha tarjimasini "Qaysar qizning quyilishi", ba'zi manbalarda esa "Qiyiq qizning quyilishi" deb berilgan.

Mazkur asarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ayol kishining (Katarina) eri (Petrucho) oldidagi majburiyatlarini qay darajada bajarishi uning baxtini, kelajagi, taqdirini belgilashda muhim o'rin egallashini anglatadi.

Ushbu maqolada U.Shekspirning "Qiyiq (qaysar) qizning quyilishi" komediyasini qisqacha mazmunini bayon qilib, uni tahlil qilishga harakat qilamiz.

U.Shekspirning ushbu asarida Lord, Kristofer Slay (misgar), qovoqxona bekasi, Mahram, aktyorlar, ovchi va xizmatchilar bilan muqaddima, asosiy

qahramonlar Baptista (Paduyalik boy, zodagon), Vinchensio (Pizalik keksa zodagon), Lyuchensio (Vinchensioning o'g'li, Byankaning oshig'i), Petruchcho (Veronalik zodagon, Katarinaning qallig'i), Byankaning xushtorlari (Gremio, Gortenzio, Tranio), Lyuchensioning xizmatkorlari (Tranio, Bondello, muallim), Baptistaning qizlari (Katarina, Byanka), Beva xotin va boshqalar ishtirokida voqealar boshlanadi.

Asarning qisqacha mazmuni shundan iboratki, zodagon o'g'li Lyuchensio Paduyaga o'qishga keladi. Bu erda u boy, zodagon Baptistaning kichik qizi Byankani ko'rib oshiq bo'lib qoladi. Lekin Baptista katta qizi – o'jar, qaysar va shaddod Katarinani turmushga bermaguncha kichik qizini hech kimga uzatmasligini aytadi. Lyuchensio o'z xizmatchisi Tranio bilan ajoyib hiyla ishlatishadi, ya'ni Petruchchoni ishga soladilar. Petruchcho Veronadan Paduyaga kelib, Katarinaning ta'rifini eshitadi va, albatta, unga uylanishini aytadi. Ammo, o'ta o'jar Katarinaga erishish Petruchchoga oson kechmaydi. Shunday bo'lsa ham Petruchcho o'z maqsadiga erishadi, ya'ni Katarinani o'ziga bo'ysindiradi. Voqea ana shunday qarama-qarshiliklar atrofida kechadi.

Rejissyorlik tahlilida quyidagi punktlar va savollarga javob berilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Muallif haqida ma'lumot. Bu asosan, dramatik asarlarga tegishli bo'lgan qismdir. Ommaviy bayram va tomoshalar ssenariysini yaratishda bir necha mualliflarning asarlaridan (namunalar, parchalar, she'r, kuy va qo'shiqlar)dan foydalanilgani uchun ham ularning barcha mualliflari haqida ma'lumot berish shart emas. Dramatik asarlarni tahlil qilganda esa uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Masalan, yuqoridagi asarni oladigan bo'lsak, asar muallifi V. Shekspir haqida qisqacha to'xtalamiz:

V. Shekspir (1564–1616) 23-aprelda Markaziy Angliyaning Stratford shahrida tug'ilgan. 1587-yilda Londonga boradi va teatrga xizmatga kiradi. Avval ishchi, suflyor yordamchisi, so'ngra aktyor, keyinchalik rejissyor, hatto teatrni boshqarishda direktor bilan hamkorlik qilgani ham ma'lum. Shekspir teatrdagi

faoliyati davomida dastlab boshqa avtorlarning pyesalarini qayta ishlab, ularni yangi mazmun bilan boyitdi va o'zi ham dramaturg sifatida nom chiqaradi. Uning adabiy faoliyati uch davrga bo'linadi. U 12ta poema, 154ta sonet va 37ta pyesa yaratdi. "Qiyiq qizning quyilishi" asari uning ijodining birinchi davriga to'g'ri keladi. V. Shekspir "Adashishlar komediyasi", "Veronalik ikki yigit", "Sevgining behuda kuchayishi", "O'n ikkinchi kecha yoki turfa hangomalar", "Romeo va Julietto", "Yuliy TSezar", "Otello", "Gamlet" kabi dramatik asarlar muallifidir.

2. Asarning mavzusi. Mavzu muallifning shu asardagi voqelikka bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Pyesada ham, ssenariyda ham mavzu bu – fikr-mulohaza yuritish uchun tanlangan obyekt, hayotning ma'lum masalalari va muammolaridir. Ommaviy bayram yoki tomoshalar biron sanaga bag'ishlab uyushtirilsa, uning umumiy mavzusi o'z-o'zidan vujudga keladi [3, 36-b]. Asarning mavzusi aniqlanayotganida, asar nima haqida, degan savolga javob bermog'i lozim.

"Qiyiq qizning quyilishi" komediyasida uylanish, sevgi orqali boylikka erishish uchun kurash mavzusi yoritilgan.

3. Asarning g'oyasi. G'oya – bu asarda yoki tadbirda ilgari suriladigan ijtimoiy fikr, maqsaddir. Nima uchun kurashga chaqirish, maqsadning nimaligi g'oyada ifodalanadi. 8-Mart bayramiga bag'ishlab o'tkazilayotgan tadbir rejissyori o'z-o'zidan ma'lumki, onalarni ulug'lash, ularni hurmatini joyiga qo'yish, ularning qadriga yetish kabi g'oyalarni ilgari surishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Dramatik asarlarda ham xuddi shunday bo'ladi. Rejissyorlik tahlilda – g'oyamuallif o'z asari orqali nima demoqchi, degan savolga javob bermog'i lozim. Yuqoridagi komediyaning g'oyasini hayotda uchrab turadigan ba'zi qaysar va o'jar qizlarning unchalik darajada yomon fe'lli bo'lmaslikka chaqirib, ularni to'g'ri yo'lga solishni ko'rsatib bergan asar, deb belgilash mumkin. Masalan:

Olov-olov bilan to'qnashar ekan,

Yonadi hammani qilgunicha kul.

Garchand o't chiqarur uchqundan shamol,

Uni o'chirishga qodirdir bo'ron.

Undan tashqari, har qanday o'jar yoki qaysar bo'lmasin muhabbat oldida bo'yin egishi mumkinligi g'oyasi ham voqealar rivoji jarayonida kuzatiladi.

4. Asarning janri. Janr bu asarning turi (tusi)dir. Dramatik asarlarning asosi pyesadir. Pyesa (fr.piese – butun yoki ulush, demakdir) – xilma-xil sahna asarlarining umumiy nomidir. Janrning to'g'ri belgilanishi sahnalashtiruvchi rejissyorlar, tashkilotchilar, ijrochilar vazifasini aniq belgilab olishlari, tomoshabinning asarning mazmun va mohiyatini tezda tushunib olishiga yordam beradi.

Bizlarga ma'lumki, dramatik asarlar tuzilishi jihatdan uch turga, ya'ni, drama, komediya va tragediyaga bo'linadi. U.Shekspirning biz tahlil qilayotgan asari ham komediya janrida hal qilingan. Bunday kulgili tortishuvlar, bahslar, qiziqarli xatti-harakatlar asosiga qurilgan bo'lib, tomoshabinda katta taassurot qoldiradi.

5. Konfliktlar (qarama-qarshiliklar)ni aniqlash. Bunda qarama-qarshi kuchlarning o'zaro to'qnashuvi nazarda tutiladi. Dramatik asarlarda ham, ssenariyda ham yaxshilik bilan yomonlik, sofdillik bilan g'arazgo'ylik, aql va nodonlik, xullas, qarama-qarshi kuchlar to'qnashuvi ham hayot uchun kurash jarayonining aks etishidir. Tashqi, ichki, tor va keng ma'nodagi qarama-qarshiliklar turlari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri va aniq belgilash tahlilni mohiyatini konkretlashtiradi.

Tashqi qarama-qarshilik – qahramonlar kurashining tashqi, fizik jihatdan namoyon bo'lishidir. Ichki qarama-qarshiliklar – qahramonlarning psixologik, ichki, ruhiy kurashlarida namoyon bo'lishi mumkin. Tor ma'noda qarama-qarshilikda – kurashlarning qisqa masshtabi nazarda tutilsa, keng ma'nodagi qarama-qarshilik esa o'z nomidan ma'lum bo'lib turibdiki, keng, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan to'qnashuv va qarama-qarshiliklar nazarda tutiladi. Dramatik asarlarda konflikt bo'lishi shart, ammo ommaviy bayram va tomoshalarda konfliktlar bo'lmasligi ham mumkin, chunki voqealar rivoji epizodlardan iborat bo'lib qolishi mumkin. Bundan ommaviy bayram yoki tomoshalarda qarama-qarshiliklar bo'lmaydi yoki qarama-qarshiliklar bo'lmasa ham bo'laveradi, degan fikr kelib chiqmasligi kerak.

Qarama-qarshiliklar va to'qnashuvlar asarda qanchalik yaqqol tasvirlansa, tomoshabin shunchalik sinchikov bo'ladi va to'qnashuvlar natijasini qiziqib kuzatib boradi, voqeaning nima bilan tugallanishini sabrsizlik bilan kutadi. Dramatik asarlarda qarama-qarshiliklar inson bilan inson o'rtasida, inson bilan tabiat va jamiyat o'rtasidagi va boshqa voqeliklarni tasvirlashda namoyon bo'lishi mumkin.

“Qiyiq qizning quyilishi” asarida ham Petrushcho va Katarina obrazlari o'rtasidagi qarama-qarshilik Petrushcho foydasiga hal bo'lishi bilan yakun topadi.

6. Asarning kompozitsion tuzilishi. “Kompozitsiya” (lot. “qurmoq”) – asar qismlarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning o'zaro bog'lanishidir. Asarning kompozitsion tuzilishi tarkibiga (adabiyotda ekspozitsiya, muqaddima yoki kirish), teatr san'ati, rejissura sohasi asosan xatti-harakat bilan bog'liq bo'lganligi uchun prolog, tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, yechim va epilog kiradi. Ommaviy bayram va tomoshalarda kompozitsiya – voqeliklarni dramaturgiya qonuniyatlari asosida qurish va bir-birlarini g'oyaviy ko'prik orqali bog'lovchi harakatlar qurilmasidir. Rejissyor-pedagog A.D.Silinning yozishicha, noan'anaviy sahnaviy kengliklarda o'tkaziladigan tadbirlarda kompozitsion tuzilishni prolog, epizodlar qatori va final [4, 178-b] deb belgilash maqsadga muvofiqdir.

Prolog – asarning kirish qismi bo'lib, voqeaning nima haqida ekanligiga avans beradi, ya'ni dastlabki tushuntirish beradigan debochasidir.

Tugun – asarda tub burilish yasaydigan qismi bo'lib, voqealar rivojiga turtki bo'ladi, ya'ni voqeaning rivojlanishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa, tomoshabinning fikri va his-tuyg'usining ma'lum bir jumboqqa qaratilishidir.

Voqealar rivojlanib borgan sari qarama-qarshiliklar kuchayib kulminatsion nuqtaga olib chiqadi.

Kulminatsiya – harakatlar, to'qnashuvlar rivojining eng yuqori nuqtasi hisoblanib, o'z-o'zidan echimga olib keladi.

Yechim – qarama-qarshiliklarning u yoki bu jihatdan hal qilinishi, tugunning yechilishidir. Kompozitsion tuzilishning bunday taqsimoti asosan dramatik

asarlarga tegishlidir. Ommaviy bayram va tomoshalarda kompozitsion tuzilishni prolog, epizodlar qatori va final deb belgilash mumkin.

U. Shekspirning “Qiyiq qizning quyilishi”da muqaddima (ekspozitsiya) – Lyuchensioning Baptistaning kichik qizi Byankani sevib qolishi bilan boshlanadi. Ammo, Baptista katta qizi Katarinani uzatmaguncha kichik qiziga yo‘l yo‘qligi asarning tuguni hisoblanadi. Asarning kulminatsion nuqtasini haddan tashqari qaysar va o‘jar qiz Katarinaning hammaning oldida Petruchchoga itoat etishi deb belgilash mumkin. Yechim esa Petruchcho va Katarinaning bir-birlari bilan til topishganligi va bundan Lyuchensio va Byankaning ham baxti uchun yo‘l ochilgani bilan xotimalanishidir.

7. Asosiy voqea va voqealar qatori. Rejissyorlik tahlilida asosiy voqea va voqealar qatori haqida yozilmasa ham xato hisoblanmaydi. Ammo, bu jarayonda ham ba’zi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Asosiy voqea-asarining mavjud bo‘lishiga sabab bo‘lgan voqea bo‘lib, uning rivojlanishiga sabab bo‘ladigan turtki desak ham bo‘ladi. Agar shu voqea sabab bo‘lmaganida umuman asarning o‘zi bo‘lmasdi, degan savolga javob berilishi kerak. Bunga misol qilib E. Vohidovning “Oltin devor” asarini keltirishimiz mumkin. Agar devor buzilmaganida Mo‘min ota oltin topib olmasdi va u har kungiday oddiy turmush tarzini kechirgan bo‘lard, devorning buzilib oltin topilishi esa voqeaning rivojlanib ketishiga sabab bo‘ldi. Demak, voqea rivojiga turtki bo‘ladigan, qahramon hayotida tub burilish yasaydigan jarayon bu – asosiy voqea deb belgilanadi. Dramatik asarlarda asosiy voqea bilan birgalikda bosh voqea, markaziy voqea va yakuniy voqealar ham aniqlanadi. Ko‘pgina holatlarda voqealar qatori kompozitsion tuzilish bilan bir xil ma’noda qo‘llanishi mumkin.

Biz tahlil qilishga urinayotgan komediyamizning asosiy voqeasi – Lyuchensioning Byankani sevib qolishi, ammo Katarina masalasini hal qilmay turib bunga imkon yo‘qligi bo‘lsa, Petruchcho Baptistaning kimda kim uning qiziga uylansa katta boylikka ega bo‘lishi haqidagi xabarni eshitishi bilan hech ikkilanmasdan qizining “xunuklar xunugi” bo‘lsa ham uylanishga qaror qilishi – bu

boshlang'ich voqea hisoblanadi. Kurashlar jarayonlarini markaziy voqea, ularning topishishlarini esa yakuniy voqea deb hisoblasak bo'ladi.

8. Yetakchi xatti-harakat. Bu oliy maqsadga olib boruvchi yo'ldir. Aktyor uchun yetakchi xatti-harakat bu qahramonlarining o'z maqsadlariga erishishidagi barcha harakatlari majmuidir. Yetakchi xatti-harakat butun voqea rivojining asosi bo'lib, voqealikka yuragi hisoblanadi va unda bo'layotgan kurashlarni ochib beradi.

Oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat Stanislavskiy sistemasining asosiy mag'zidir. Oliy maqsad – bu xohish, yetakchi xatti-harakat esa shuni bajarishga intilishdir. Lyuchenskiyning Byankaga etishishi yo'lidagi, Petruchchoning boylikka erishish maqsadidagi, qaysar Katarinani o'ziga tobe qilish yo'lidagi barcha intilishlari – yetakchi xatti-harakatdir.

9. Oliy maqsad. Rejissura fanida oliy maqsad tushunchasi juda ko'p sharoitlarda qo'llaniladi. Agar muallif o'zi yozgan asari orqali nima demoqchi ekanligi to'g'risida gapirganda g'oya tushunchasini anglasak, oliy maqsad tushunchasi esa, men rejissyor, shu asarni sahnalashtirish orqali nima demoqchiman, nimaga erishmoqchiman va bunga qanday vositalar orqali yetishishim mumkin, degan savollarga javob berishi kerak.

K.Stanislavskiy sistemasining beshta prinsipini esga olaylik:

- hayotiy haqiqat prinsipi;
- oliy maqsad to'g'risidagi ta'limoti;
- aktivlik va xatti-harakat prinsipi;
- aktyor ijodining organik (tabiiylik) prinsipi;
- aktyorning obrazga ijodiy yondashib, yashash prinsipi.

Stanislavskiy sistemasining mohiyatini belgilashda ham oliy maqsad tushunchasi muhim ahamiyat kasb etgan. Oliy maqsad rejissyorning xususiy fikri, shaxsiy, obyektiv nuqtayi nazari bo'lib, unda u o'z oldiga qo'ygan shaxsiy va jamiyatning ijobiy fikrlarini amalga oshirishga qaratiladi. Stanislavskiy o'zining "Aktyorning o'z ustida ishlashi" kitobida oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat masalalariga alohida bob ajratib, ularning mohiyatini yorqin misollarda ochib

beradi. “Qiyiq qizning quyilishi” asarining oliy maqsadi – har qanday qiyin sharoitda ham aql bilan ish yuritilsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkinligidir. Ommaviy bayram va tomoshalarda ham, dramatik asarlarda ham oliy maqsad – rejissyor o‘z oldiga qo‘ygan yuksak ma’suliyatidir.

10. Obrazlarga xarakteristika. Dramatik asarni tahlil qilganda, albatta, obrazlarga xarakteristika berilishi shart. Chunki berilgan xarakteristikadan kelib chiqqan holda rol va ijro traktovka qilinadi. Ommaviy bayram va tomoshalarda esa ishtirok etuvchilarning son jihatdan ko‘pligini hisobga olib ularga xarakteristika berish shart emas. Ba’zi hollarda dramatik asar mualliflari o‘zlari qahramonlariga xarakteristika berishga harakat qiladilar. Masalan, N.V.Gogolning “Revizor” komediyasida muallif asosiy obrazlarga chizgilar berib o‘tgan. U Xlestakovni quyidagicha tasvirlaydi: “Xlestakov, yigirma uch yoshlarda, oriq, jikkak bir yigit, tentakroq va kallasi puch odamlardan. Aytadigan gapini ham, qiladigan ishini ham mulohaza qilmaydi, biron fikrga diqqatini jalb qilishdan ojiz. So‘zlari pala-partish, tomdan tarasha tushganday. Bu rolni bajaruvchi kishi qanchalik samimiyat va soddalik ko‘rsatsa, shuncha yaxshi. Kiyimi modaga muvofiq”. Albatta, rejissyor aynan muallif ta’riflaganday emas, o‘z imkoniyatlari, qarashlari, rejissyorlik g‘oyalari nuqtayi nazaridan yondashishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchi – talaba-rejissyor mustaqil rejissyorlik ishlarida obrazlarga o‘zlari xarakteristika berishni mashq qilib, o‘rganib bormoqliklari lozimdir.

“Qiyiq qizning quyilishi” asarining asosiy qahramonlariga xarakteristika berishga harakat qilamiz. Petruchcho – Veronalik zodagon. Otasi vafot etgach, Paduyaga keladi va Katarinaning ta’rifini eshitib, o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun kurash boshlaydi va maqsadiga erishadi. Petruchcho – o‘ta qaysar, o‘jarlikda hech kim bas kela olmaydigan, aytganini qildiradigan sho‘x yigit. Yoshi 29–30larda. O‘z maqsadiga erishish uchun hech narsadan tap tortmaydigan qo‘rqmas, qo‘pol, aqlli va ayyor yigit. Uning maqsadi Katarinaga uylanish; uylanishdan maqsadi esa boylikka ega bo‘lish; u hatto Katarinaning otasi Baptista bilan kelinning “sepi”ni ham kelishib oladi.

Katarina – haddan tashqari qaysar, o'jar qiz. Yoshi 24da. Singlisi Byankaga ko'p sovchilar kelganidan u battar qaysarlashadi. Uning maqsadi – nima qilib bo'lsa ham Petruchchodan ustun kelish. Ammo asar nihoyasida u o'zini qo'lga oladi va boshqalarni, atrofdagilar va ayniqsa, erlarini hurmat qilishga chaqiradi.

Baptista – Katarinaning otasi. 75–79 yoshlardagi yumshoq xarakterdagi boy, zodagon. Byankani Katarinadan oldin erga bermoqchi emas. U Katarinaning dastidan doimo uyalib yuradi. Uning maqsadi qanday qilib bo'lsa ham, kimga bo'lsa ham Katarinani amallab uzatish va Byankaning baxtiga yo'l ochib berish. Gortenzio – shu uyning xizmatkori, musiqachi. 45–50 yoshlarda. U Katarinaga musiqa o'rgatmoqchi bo'ladi, ammo Katarina unga qo'pollik qiladi. Uning o'jarliklari, qaysarliklariga bardosh berolmay doim xafa bo'lib yuradi. Uning ham birdan-bir maqsadi – Katarinadan qutulish. Shuning uchun ham Petruchchoning unga uylanishini juda xohlaydi [5, 4-b]. Obrazlarga xarakteristika berilganda ularning yoshi, jismoniy tuzilishi, boshqalardan ajratib turadigan xarakterli xususiyatlari, qiziqishlari, kiyinishlari, dunyoqarashlari va eng asosiysi uning maqsadini aniq ifodalamoq zarur.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, asarni to'g'ri tahlil qilish rejissyorning spektaklni sahnalashtirishida muhim ish bosqichlaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Rustamov V. Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari.* – Toshkent, 2006. – 200 b.
2. *O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jild.* – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006–2008. – 3000–3500 b.
3. *Qoraboyev U. Badiiy ommaviy tadbirlar.* – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – 245 b.
4. *Silin A. Театр выходит на площадь: Специфика работы режиссёра при постановке массовых театрализованных представлений под открытым небом и на больших нетрадиционных сценических площадках.* – Москва: ВНИЦТИКПП, 1991. – 179 b.

Barno Nurmanova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Musiqali teatr san'ati" kafedrası dotsenti (v.b.)
E-mail: layli.shirin00@gmail.com*

O'ZBEKISTONDA TEATR FESTIVALLARINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda teatr festivallarining joriy qilinishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda festival an'anasining genezisi, sovet davri merosidan tortib mustaqillik yillaridagi institutsional transformatsiyagacha bo'lgan jarayon kompleks ravishda o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** teatr, festivali, festival tizimi, "Yevroosiyo" xalqaro festivali, TURKSOY, madaniyat, siyosat, diplomatiya, pedagogika, bosqich.*

HISTORICAL DEVELOPMENT STAGES OF THEATRE FESTIVALS IN UZBEKISTAN

***Abstract.** This article presents a scientific and theoretical analysis of the emergence of theatre festivals in Uzbekistan and the stages of their historical development. The study comprehensively examines the genesis of the festival tradition, tracing its evolution from the legacy of the Soviet period to the institutional transformations that occurred during the years of independence. Particular attention is paid to the role of theatre festivals in cultural exchange, international cooperation, and the promotion of national theatrical art.*

***Keywords:** theatre, festival, festival system, Eurasia International Festival, TURKSOY, culture, politics, cultural diplomacy, pedagogy, stage art.*

Teatr festivallarining genezisi va tarixiy rivojlanishini tadqiq etish zamonaviy teatrshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. XXI asrda teatr festivallari global madaniy tizimning ajralmas qismiga aylanib, milliy teatr san'atini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, madaniy almashinuvni ta'minlash va professional

tajriba almashishning eng samarali mexanizmlaridan biriga aylandi. Zamonaviy teatr festivallari nafaqat san'at namoyishi, balki madaniy ko'priklar qurish va xalqlararo hamjihatlikni rivojlantirishning strategik vositasi sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonda teatr festivallarining shakllanishi va rivojlanishini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish milliy madaniy siyosatning evolyutsiyasini, teatr san'atining institutsional transformatsiyasini hamda mamlakatning xalqaro madaniy makonga integratsiyalashuv jarayonlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hozirgacha O'zbekistonda teatr festivallarining huquqiy bazasi va tarixiy rivojlanishi xususida kompleks ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mavjud adabiyotlar asosan festivallarning tavsifiy ma'lumotlari bilan cheklangan bo'lib, ularning huquqiy-institutsional tahlili va madaniy siyosat tizimidagi o'rni atroflicha o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishdagi tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda teatr festivallari an'anasining shakllanishini tahlil qilishda sovet davrida to'plangan tashkiliy tajribani inobatga olish metodologik jihatdan zarurdir. Sovet davrida Toshkent Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari kinofestivallari uchun yirik xalqaro platforma sifatida faoliyat yuritib, keng ko'lamli madaniy tadbirlarni tashkil etishda muhim infratuzilmaviy va kadrlilik salohiyatini yaratdi. Ushbu tajriba mustaqillik davrida teatr festivallari tizimini joriy etish uchun zaruriy zamin bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi O'zbekiston madaniy hayotida tub burilish yasadi. Mustaqillik yillarida madaniy hayotda tub o'zgarishlar yuz berdi, bu avvalo teatr san'ati rivojlanishida yaqqol namoyon bo'la boshladi va yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. Teatr infratuzilmasining kengayishi ushbu davrning xarakterli xususiyati bo'ldi: 1991-yilda Farg'ona, 1993-yilda Xorazmda davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi, 1994-yilda Qashqadaryo va Namangan viloyat teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlari, 2001-yilda esa Surxondaryo viloyat qo'g'irchoq teatri ochildi [1]. Bundan tashqari, O'zbek davlat akademik drama (2001-yil) va

O'zbekiston akademik rus drama teatrlari (1999-yil) kabi poytaxt hamda viloyat teatr jamoalariga yangi binolar qurildi va ta'mirlandi.

Ushbu infratuzilmaviy rivojlanish mustaqil madaniy siyosatni shakllantirishga qaratilgan strategik harakatlarning natijasi bo'lib, keyinchalik festival tizimini mamlakatning turli hududlariga yoyish imkonini berdi. Biroq bu bosqichda xalqaro teatr festivallari tizimi hali institutsional shaklga kelmagan edi, bu esa milliy teatr san'atining xalqaro hamjamiyat bilan tizimli aloqalarini cheklab turardi.

O'zbekistonda teatr festivallarining zamonaviy tarixi 1993-yilda "Teatr: Sharq va G'arb" xalqaro festivalining o'tkazilishi bilan boshlanadi. Ushbu tadbir milliy teatrshunoslikda festival an'anasining boshlang'ich nuqtasi sifatida e'tirof etiladi. 1993-yilning 23–30-oktyabr kunlari Toshkentda o'tkazilgan "Teatr: Sharq va G'arb" xalqaro festivali O'zbekistonda dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan sahna san'atkorlari qatnashgan birinchi yirik tadbir ekanligi bilan ahamiyatli bo'ldi [1]. Ushbu festivalning tarixiy ahamiyatini bir necha konseptual jihatdan tahlil qilish mumkin. Birinchidan, festival O'zbekistonning mustaqil madaniy siyosatini xalqaro miqyosda amalga oshirishning birinchi amaliy namunasi bo'ldi. U yangi mustaqil davlatning madaniy suverenitetini va xalqaro madaniy munosabatlardagi subyektivligini namoyon etdi. Ikkinchidan, festival nomining o'zi – "Sharq va G'arb" – chuqur ramziy va konseptual mazmunga ega bo'lib, O'zbekistonning o'zini Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi madaniy ko'prik sifatida pozitsiyalashini aks ettiradi. Bu pozitsiyalash mamlakatning geografik-madaniy o'ziga xosligini va sivilizatsiyalararo dialogdagi vositachilik rolini strategik jihatdan ifodaladi. Uchinchidan, festivalda milliy teatr institutlarining faol ishtiroki ularning xalqaro hamkorlikka tayyorligini ko'rsatdi. Bu borada O'zbekiston Yoshlar teatri, Ilhom teatri va Qashqadaryodagi "Eski masjid" teatr-studiyasi faol bo'ldi [1]. Aynan eksperimental va innovatsion yo'nalishdagi teatr jamoalarining festival tashabbuskori sifatida maydonga chiqishi O'zbekiston teatr san'atining ijodiy salohiyatini namoyish etdi.

Festival turli mamlakatlardan teatr jamoalarini jalb etgan holda, O'zbekiston teatr san'atini xalqaro hamjamiyatga taqdim etish imkoniyatini yaratdi va keyingi yillarda muntazam xalqaro festivallar o'tkazish uchun metodologik hamda tashkiliy asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston teatr festivallari tarixida 1998-yilning 26-marti muhim sana hisoblanadi, chunki aynan shu kuni festival faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni sahna ijodiyoti taraqqiyotida burilish nuqtasi bo'ldi [2]. Ushbu hujjat doirasida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda teatr arboblarning faol ishtirokini ta'minlash hamda milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlari yaratish maqsadida "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Mazkur farmonning festival tizimini institutsionallashtirish nuqtayi nazaridan ahamiyati shundaki, u festivallarni davlat madaniy siyosatining tarkibiy qismi sifatida huquqiy jihatdan mustahkamladi. Farmon doirasida teatr jamoalari, rejissyorlar, dramaturglar, bastakorlar, rassomlar va baletmeysterlarga dolzarb mavzularda buyurtmalar berish, respublika va xalqaro miqyosda ko'rik-tanlovlar hamda festivallar o'tkazish, xorijiy mamlakatlarga gastrollar uyushtirish, ilmiy anjuman, simpozium va seminarlar o'tkazish, turli mukofot va sovrinlar ta'sis etish vazifalari belgilandi.

"O'zbekteatr" birlashmasining tashkil etilishi festival tizimini institutsionallashtirishning hal qiluvchi bosqichi bo'ldi. Mazkur tuzilma Teatr ijodkorlari uyushmasi, teatr tashkilotlari va hududiy bo'limlarga ega bo'lgan mustaqil ijodiy-ishlab chiqarish strukturasi sifatida, mulkchilik shakllari va idoraviy mansubligidan qat'i nazar, mamlakatdagi barcha davlat teatrlari, teatr-studiyalari hamda xalq teatrlari jamoalarini ixtiyoriy ravishda birlashtirdi. Ushbu tashkiliy mexanizm festivallarni muvofiqlashtirish, professional mezonlarni ta'minlash va resurslarni maqbul taqsimlash imkonini yaratib, festival tizimining markazlashtirilgan boshqaruv modelini shakllantirdi.

XXI asrning birinchi o'n yilligi O'zbekistonning turkiy madaniy makonga integratsiyalashuv davri sifatida xarakterlanadi. Ushbu jarayonning institutsional asosini Turkiy madaniyat xalqaro tashkiloti (TURKSOY) tashkil etdi. 1993-yilda tashkil etilgan TURKSOY ko'pincha "Turkiy dunyoning YUNESCO"si deb ataladi [3] va turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi asosiy tashkilot hisoblanadi. O'zbekiston TURKSOY a'zosi sifatida turkiy teatr festivallarida faol ishtirok eta boshladi. Tashkilot tomonidan o'tkaziladigan ART-ORDO teatr festivallari O'zbekiston teatr jamoalari uchun turkiy dunyo bilan madaniy aloqalarni mustahkamlash platformasiga aylandi. Mazkur festivallar doirasida turli turkiy va qardosh xalqlar teatr jamoalari – Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkiya hamda boshqa mamlakatlardan – yuqori darajadagi sahna asarlarini taqdim etdilar.

Ushbu bosqichning metodologik jihatdan muhim xususiyati shundaki, O'zbekiston teatr festivallari ikki parallel yo'nalishda rivojlana boshladi: bir tomondan, milliy festival an'anasini mustahkamlash, ikkinchi tomondan, xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish. Bu dualistik rivojlanish modeli milliy o'ziga xoslikni saqlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qildi.

O'zbekiston teatr festivallarining zamonaviy tarixida "Yevroosiyo" xalqaro teatr san'ati festivalining tashkil etilishi sifat jihatidan yangi bosqichni belgiladi. Ushbu festival O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan Toshkent shahrida tashkil etilib, har yili oktyabr oyining birinchi haftasida o'tkaziladi. Festivalning maqsadi o'zbek teatr san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish va rivojlantirish, xalqlar o'rtasida do'stlik hamda birodarlikni mustahkamlash, xalqaro darajada ijodiy hamkorlik va madaniy aloqalarni kengaytirishdan iborat [4].

Festivalning ishtirokchilar geografiyasi uning konseptual qamrovini namoyon etadi: festivalda Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Rossiya, Turkiya, Gruziya, Ozarbayjon, Belarus Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekistondan teatr guruhlarini

ishtirok etadi. Ishirokchi mamlakatlarning keng doirasi – Markaziy Osiyo, Janubiy Kafkaz va Sharqiy Yevropani qamrab olishi – festival konsepsiyasining geosiyosiy muvozanatligini ko'rsatadi. “Yevroosiyo” nomining o'zi O'zbekistonning Yevroosiyo madaniy makonidagi strategik o'rnini aks ettirib, festivalning madaniy diplomatiya vositasiga aylanganligini tasdiqlaydi.

2023-yil O'zbekiston teatr festivallari tarixida innovatsion bosqichning boshlanishini belgiladi – talabalar teatr festivallari tizimining joriy etilishi. 2023-yil 22–26-may kunlari Toshkentda TURKSOY tashabbusi va O'zbekiston Madaniyat va turizm vazirligi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bilan hamkorlikda “Turkiy dunyoning 1-talabalar teatr festivali” bo'lib o'tdi [5].

Ushbu festival teatr ta'limi va festival tizimini birlashtiruvchi innovatsion shakl sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Festivalning konseptual mohiyatini TURKSOY Bosh kotibi Sultan Rayev o'z nutqida quyidagicha izohladi: ushbu teatr platformasi nafaqat festival, balki ta'lim jarayonining yangi shakli hisoblanadi; bu teatrning kelajagini bitta platformada birlashtiradigan, o'zaro munosabatni ta'minlaydigan, aktyorlik aloqalarini mustahkamlaydigan, yosh teatr san'atkorlari o'z iste'dodlari va g'oyalarini baham ko'rishlari uchun mukammal muhit yaratadigan platformadir. Mazkur yondashuv teatrshunoslikda “festival-pedagogika” konsepsiyasining amaliy namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Festival Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkiya va Turkmaniston universitetlari talabalarining teatr spektakllarini birlashtirdi. O'zbekiston ushbu festivalda yuqori natija ko'rsatdi: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining “Dramatik teatr va kino aktyorligi” yo'nalishi talabalari tomonidan kurs badiiy rahbari M. Abduqunduzov hamda aktyorlik mahorati fani o'qituvchisi X.Qobilov rahbarligida Abdulhamid Cho'lpon asari asosida sahnalashtirilgan “Kunduzsiz kechalar” spektakli birinchi o'ringa munosib deb topildi. Mazkur natija institutda olib borilayotgan ta'lim jarayonining tizimlilik va samaradorligidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida O'zbekistonda teatr festivallarining tarixiy rivojlanishini quyidagi davriy bosqichlarga ajratish mumkin. Har bir bosqich o'ziga xos tashkiliy, huquqiy va konseptual xususiyatlarga ega bo'lib, festival tizimining bosqichma-bosqich murakkablashuvini aks ettiradi:

Tahlil natijalari festival tizimining evolyutsiyasi O'zbekiston madaniy siyosatining strategik yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq holda kechganini ko'rsatadi. Teatr festivallari milliy teatr san'atining xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi va ayni vaqtda milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishi o'rtasidagi dialektik munosabatni namoyon etib, nafaqat estetik, balki ijtimoiy-siyosiy va diplomatik funksiyalarni ham bajaruvchi kompleks hodisa sifatida shakllandi. Demak, O'zbekistonda teatr festivallarining joriy qilinishi va tarixiy rivojlanishi milliy madaniy siyosatning institutsional yetukligini va mamlakatning xalqaro madaniy makondagi faol subyektga aylanish jarayonini ifodalaydi.

O'zbekistonda teatr festivallarining joriy qilinishi va tarixiy rivojlanishini tadqiq etish natijasida bir qator ilmiy-nazariy xulosalarga kelish mumkin.

- O'zbekiston teatr festivallari tizimi mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich shakllanib, oddiy madaniy tadbirdan murakkab, ko'p funksiyali institutsional tizimga aylandi. Ushbu jarayonni besh asosiy bosqichga ajratish tadqiqotning metodologik yangiligi bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos tashkiliy, huquqiy va konseptual xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

- 1993-yildagi "Teatr: Sharq va G'arb" festivali milliy festival an'anasining boshlang'ich nuqtasi sifatida nafaqat madaniy, balki ramziy-konseptual ahamiyatga ega bo'ldi. U yangi mustaqil davlatning madaniy suverenitetini va O'zbekistonning sivilizatsiyalararo dialogdagi vositachilik rolini namoyon etdi.

- 1998-yilgi farmoni va "O'zbekteatr birlashmasi tashkil etilishi" festivali faoliyatining Prezident huquqiy-institutsional asoslarini yaratib, festivallarni davlat madaniy siyosatining qismlariga mustahkamlangan. Bu festival markazlashtirilgan boshqaruv modelini boshqarishda hal qiluvchi omil bo'ldi.

- festival rivojlanishi ikki parallel yo'nalishda – milliy an'anani dunyoviy xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish – kechgani uning dualistik tabiatini ko'rish. TURKSOY orqali turkiy madaniy makonga integratsiya va “Yevroosiyo” festivali orqali keng geosiyosiy hamkorlik bu yo'nalishlarning amaliy ifodasidir.

- 2023-yilda joriy etilgan talabalar teatr festivali “festival-pedagogika” konsepsiyasining shakllariga zamin yaratdi va ta'lim bilan festivalni amaliyotini bir-biri bilan hisoblashish innovatsion model teatr sifatida e'tirof etilishi kerak.

Xulosa shuki, milliy tadqiqot teatr festivali milliy teatr san'atining xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi hamda o'ziga xoslikni saqlab qolishi o' ichidagi dialektik munosabatni namoyon etuvchi, estetik, ijtimoiy-siyosiy va diplomatik funksiyalarni bajaruvchi kompleks o'quv jarayoni asoslanadi. O'zbekistonda teatr festivallarining joriy etilishi va tarixiy rivojlangan milliy madaniy siyosat institutsional yetukligini va mamlakatning xalqaro madaniy makonda faol subyektga jarayonini ifodalaydi. Kelgusi yuqorida alohida festivallarning tahlili, festival auditoriyasining sotsiologik o'rganilishi hamda festivalni yig'ish metodologiyasini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishlar bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *XX asr 90-yillarida teatr, kino va musiqa san'atining rivojlanishi. – Elektron resurs. URL: <https://oefen.uz>*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1980 son “O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida”gi Farmoni. 26.03.1998.*
3. *TURKSOY – Turkiy madaniyat xalqaro tashkiloti. Rasmiy ma'lumotlar. URL: <https://www.turksoy.org>*
4. *“Yevroosiyo” xalqaro teatr san'ati festivali. Markaziy Osiyo festivallari kalendari. URL: <https://www.central-asia.com>*
5. *The First Festival of Theater Students of the Turkic World came to an end. TURKSOY. URL: <https://www.turksoy.org>*

Shaxlo Xamidova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası dotsenti (v.b.),
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: shaxloxamidova@gmail.com*

DRAMATIK ASARLARDA VOHA FOLKLORINI NAMOYON

BO'LISHI (Erkin Xushvaqtov dramaturgiyasi misolida)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada dramaturg Erkin Xushvaqtov ijodida voha folklori, xususan, Qashqadaryo vohasiga xos milliy urf-odatlar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi namunalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Dramaturgning "Chimildiq", "Qalliq o'yin" kabi asarlarida xalqona tafakkur, milliy qadriyatlar va folklor elementlarning sahnaviy ifodasi yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** drama, dramaturgiya, folklor, teatr, marosim, ijro, spektakl.*

THE REPRESENTATION OF OASIS FOLKLORE IN DRAMATIC WORKS (A Case Study of Erkin Khushvaktov's Dramaturgy)

***Abstract.** This article analyzes the artistic interpretation of oasis folklore, particularly the national customs, rituals, and oral traditions characteristic of the Kashkadarya oasis, in the works of playwright Erkin Khushvaktov. The playwright's works Chimildik and Kallik Oyin highlight the theatrical expression of folk thought, national values, and folkloric elements.*

***Keywords:** drama, dramaturgy, folklore, theater, ritual, performance, spectacle.*

Zamonaviy o'zbek teatri o'z an'anaviy qadriyatlarini saqlab kelayotgan, shu bilan birga insoniyatning eng nodir yutuqlarini o'zida singdirgan san'atdir. Axloqiy qadriyatlar, insoniylik, tarix va zamonaviylik – bugungi o'zbek teatrini o'ziga jalb etmoqda. Hayotni o'zida oynadek aks ettirgan teatr san'ati insonning ma'naviy dunyosini kengaytirish, o'z kamchiliklarini chetdan turib kuzatish imkonini beradi. Davr teatrning ana shu jihatlarini hisobga olgan holda bugungi kunda zamondoshlarimizga ibrat bo'larli salmoqli asarlar yaratishni taqozo etmoqda.

Keyingi yillarda teatrlarimizda zamonaviy mavzularda asarlar yaratilib, sahnalashtirish yildan yil sezilarli tus oldi. Zamonaviy mavzular, asosan melodrama, komediya, tragikomediya janrlari doirasida ishlanmoqda. Ayniqsa teatrlarda etnografiya va folklor manbalar vositalaridan foydalanish butun bir uslubiy yo'nalish sifatida ko'zga yaqqol tashlanib, o'zbek sahna san'atining o'ziga xosligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Sahna asarlarida unut bo'layozgan qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar qayta tiklanib, tomoshabinga taqdim etilmoqda. Aynan, ushbu sahnalar orqali bugungi kun muammolari oila rishtasi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi mehr oqibatning aks etishi tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu asarlarning aksari komediya janrida o'z ifodasini topmoqda. Komediya hamma zamonlarda ham ijtimoiy hayotda uchraydigan nuqsonlar, kishilar fe'lidagi salbiy illatlarni qoralagan. Dramaturglar o'z asarlarida muammo va kamchiliklarni satira va yumor orqali ko'rsatishga, jamiyatga, hayotiy muammolarga o'z tanqidiy munosabatlarini bildirishga intilganlar. Ma'lumki komediya jamiyatda ma'naviy-ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan davrlarda paydo bo'ladi. Demak shunday ekan, komediya tomoshabinlarda ko'tarilgan mavzu yuzasidan mushohada qilishga, kulgi zamiridagi achchiq haqiqatni anglashga, xizmat qilmog'i lozim.

Ana shunday spektakllardan biri Milliy teatrdan sahnalashtirilgan dramaturg E.Hushvaqto'vning "Chimildiq" asaridir. Dramaturgning deyarli barcha asarlari katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Nafaqat poytaxt, balki viloyat teatrlarida ham tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. "Chimildiq"ni sahnalashtiruvchi rejissyorlar T.Azizov va M.Abdullayeva aktyorlar ijrosidan tortib, dekoratsiya va liboslargacha folklor-etnografik uslubda aks ettirishga intildilar. Qashqadaryo hududiga xos bo'lgan marosim va urf odatlar aks ettirilgan folklor asosida sahnalashtirilgan spektaklda voqea o'zbekona to'ydan keyingi bo'ladigan hodisalar atrofida kechadi. Asarda yoshlarimiz uchun hamma vaqt nozik masala hisoblangan umr yo'ldosh, jufti halol tanlash "savdosi" samimiy va yumshoq kulgi, hamda yengil didaktik ruhiyatga ega.

Tomoshabin kelinchakning orzu-umidlari, iztiroblariga hamdard bo'lsa, yigitning muhabbat fojiasidan qayg'uga tushadi. Spektakl o'ziga xos rejissyorlik talqini bilan ajralib turadi. Voha nikoh marosimi qoidalari va shakli asosida qo'yilgan spektaklda tomoshabinlarni ana shu to'yga tashrif buyurgan mehmonlar deyish mumkin. Yorqin bo'yoqlar milliy kuy-qo'shiqlar, o'yin-kulgilar barchasi o'zbek xalqining o'ziga xos milliyliigi-yu, samimiy, ochiqko'ngil ekanligini ko'rsatadi. Sahna jihozidan ufurib turgan milliylik, qahramonlarning kiyimlari, aktyorlar ijrosidagi samimiyat ham spektaklning muvaffaqiyatini ta'minlagan.

Spektakldan ko'zlangan maqsad nafaqat "Chimildiq"ni muqaddasligini ko'rsatish, balki o'zbek xalqining oilaga bo'lgan munosabatini, milliy urf-odatlarimizni ham ifodalashdan iborat.

"Chimildiq"ning muvaffaqiyatini avvalo Erkin Hushvaqtov pyesasidagi ifoda uslubi belgilab bergan. Uning pyesalarida baxt izlab, halol, pok va mustahkam oila qurish kabi inson taqdiri, o'y-fikrlari, orzu umidlarini milliy urf-odatlar, udumlar orqali aks ettirilishi kuzatiladi. Birin-ketin yaratilgan "Qirmizi olma", "Qalliq o'yin" pyesalarida Respublikamizning janubiy viloyatlari Qashqadaryo va Surxondaryoga xos bo'lgan marosim va urf odatlar aks ettirilgan.

Dramaturgning "Qalliq o'yin" asarida janubiy vohalarga xos unashtirish va to'y oldi marosimlari markaziy o'rinni egallaydi. Asarda xalqona qo'shiqlar, laparlar, qiz va yigit o'rtasidagi aytishuvlar sahnaviy harakatning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu holat voha folklorining dramatik asar tuzilishiga singdirilganini ko'rsatadi. Asarda urf-odatlardan unumli foydalanilganligi spektakl tomoshaviyligini yanada oshirgan.

"Qalliq o'yin" spektaklida rejissyor T.Azizov Xamida Maxmudova bilan ijodiy hamkorlikda bo'ldi. Spektaklni tomosha qilar ekansiz rassom Baxtiyor To'rayev, libos tanlovchi Sevara Zunnunova ham o'z ishlarini sidqidildan bajarganliklarini guvohi bo'lasiz.

Asar bosh qahramoni yigit Chonnoma rolini Toxir Saidov qiz Xolbeka rolini esa Muqaddas Xoliqova ijro etadi. Spektaklda yana bir asosiy qahramon Momo

obrazidir. Momo rolini teatrning yetakchi aktrisalardan biri Dilbar Ikromova sahnaga olib chiqdi. Spektakl sahnaga Momo – Dilbar Ikromovaning kirib kelishi bilan yanada jonlanadi. Bu ayol faqat savob ishlar qilishga insonlarning hojatini chiqarishga qo'lidan kelgancha og'irini yengil qilishga intiluvchi insondir. U ro'zg'orning ikir-chikirlarini ko'raverib ko'zi pishgan, idroki teran ayol. Momo nima qilib bo'lsa-da shu ikki yoshni qovushtirish niyatida “qalliq o'yin”ni boshlaydi. Bu o'yin o'zbek xalqining qadimiy nikoh va unashtirish marosimlari tarkibiga kiruvchi folklor-etnografik udumlardan biri hisoblanadi. U asosan Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida keng tarqalgan bo'lib, kelin va kuyovning to'ydan oldingi munosabatlari, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi samimiylik va qudachilik an'analarini ifodalaydi. “Qalliq o'yin”da qizlar va yigitlar tomonidan laparlar, hazil-mutoyibalar aytishuvlar va milliy raqs elementlari ijro etiladi. Marosim orqali ikki oilaning yaqinlashuvi ramziy tarzda namoyon bo'ladi. Spektakl davomida ikki yosh bir-birini sinab ko'rib agar bir-birlariga ma'qul bo'lsalar turmush quradilar. Ana shu “o'yin” yigit va qizni bir-birlarini sinash yaqinroq bilish uchun turtki bo'ladi.

Toxir Saidov Chonnoma obrazini ochiq, toza qalbli, mehribon, ko'ngilchang inson sifatida yaratgan. “Qalliq o'yin”ga kelgan yigit qizni ko'rib ko'ngli joyiga tushadi. Qiz bilan suhbat qurgandan so'ng ko'rinishi erkakshoda bo'lganligi bilan uning qalbida his-tuyg'u borligini, aqli, odamiyligi borligini bilib unda o'z baxtini ko'radi. Og'ir damlarida unga bemalol suyana olishini anglaydi. Muqaddas Xoliqovanning Xolbekasi ko'rinishidan qo'pol shaddod qaysar lekin uning ichki dunyosi go'zal. U ham boshqa ayollarga o'xshab sevimli yor bo'lishni, uni ham ayoldek ko'rishlarini istaydi lekin u o'z tuyg'ularini ichida saqlaydi. Hech kimga bildirmaydi. Xolbeka yigitni ko'rsa haqiqatdan ham maymoq aslida yigit tuzuk momoning qistovi bilan o'zini oqsoq qilib ko'rsatadi. Sababi momo unga qiz sening tashqi qiyofangni emas, balki ichki dunyoingni sevsin. Agar u faqat tashqi qiyofangga e'tibor bersa unday qiz senga loyiq emas deydi. Qiz avval yigitni bundayligini ko'rib ranjiydi lekin u bilan suhbatlashish jarayonida yigitning qalbi tozaligini ko'radi. Uning ortida o'zini mustahkam devor ortida turganday bo'lishini

biladi va unga nisbatan qalbida mehr uyg'onadi. Yigitni birgina kamchiligi oqsoqligi ham qizga bilinmay ketadi.

Asar tomosha janrida yozilgan bo'lib, bunda Qashqadaryo, Surxondaryo vohalaridagi an'ana udumlar to'ygacha bo'lgan marosimlar xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanilganligi spektaklning tomoshabopligini ta'minlaydi. Spektaklda sahna bezagidagi obrazlilik ramziy timsollardan keng foydalanish milliylik yaqqol ko'rinib turadiki bu rassom Baxtiyor To'rayevning yutug'idan dalolat beradi.

Qashqadaryo vohasi o'zining boy folklor merosi, baxshichilik san'ati, laparlari, xalq qo'shiqlari va to'y marosimlari bilan ajralib turadi. Erkin Xushvaqto'v ushbu manbalardan samarali foydalanib, milliy ruhdagi sahna asarlarini yaratgan. Uning dramatik konfliktlari xalq hayotidan olingan bo'lib, qahramonlar nutqida xalqona iboralar, maqollar va matallar keng qo'llaniladi.

Erkin Xushvaqto'v dramaturgiyasi o'zbek milliy teatrida voha folklorini badiiy ifodalashning yorqin namunasi hisoblanadi. Dramaturg Qashqadaryo vohasiga xos urf-odatlar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarni sahna tili orqali qayta yaratgan. Ayniqsa, "Chimildiq", va "Qalliq o'yin" asarlari folklor-etnografik dramaturgiyaning muvaffaqiyatli namunalari sifatida milliy teatr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M., Muxtorov E. *O'zbek Milliy akademik drama teatri*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2003. – 268 b.
2. Xushvaqto'v E. *Chimildiq*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 2009. – 89 b.
3. Yakubov B. *Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016): san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, 2019. – 172 b.

Nigora Karimbayeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Sahna nutqi" kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent (v.b.)
E-mail: nigorkarimbaeva@gmail.com*

EKRAN SAN'ATI VA SAHNAVIY NUTQ MADANIYATI

Annotatsiya. Maqolada ekran san'ati mahsuli bo'lmish ko'rsatuv va filmlarning bugungi kundagi nutq masalasi haqida fikr va mulohazalar bildiriladi, taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ekran san'ati, nutq madaniyati, televideniye, ko'rsatuv, film, adabiy til, lahja, jargon.

SPEECH ART AND SPEECH CULTURE

Abstract. This article contains thoughts and comments about the issue of today's speech of shows and films that are products of screen art, are informed, suggestions and recommendations are given.

Keywords: screen art, theatre, speech culture, tv, tv art, shows, film, literary language, dialect.

O'zbek xalqi qadimdan dunyo sivilizatsiyasiga, umumbashariy qadriyatlar rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqda va bunda ona tilimizning xizmati katta. Usiz Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk"i, Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Alisher Navoiyning "Xamsa"si, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"i, Cho'lpon va Abdulla Oripov hamda Muhammad Yusufning o'tli she'riyati yaralmagan bo'lardi. Usiz onalarimiz allasi tinglanmagan, zarur hayotiy bilim va tushunchalar ong-u shuurimizga singdirilmagan, odobu axloqimiz va fe'l-u atvorimiz o'git-u nasihatlar asosida shakllanmagan bo'lardi. Bugungi kunda ona tilimiz imkoniyatlaridan keng foydalanish, xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish, zamonaviy soha va tarmoqlarda faol qo'llanilishini ta'minlashga qaratilgan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish yo'lidagi asosiy

omil ona tili bo'lib, uning targ'ibotida ekran san'ati va nutq madaniyatining o'rni hamda ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda har bir xonadonda mavjud bo'lgan "televizor" orqali kishilarning axborotga bo'lgan ehtiyojini asosan berilayotgan yangiliklar qondirib, unda namoyish etilayotgan axborot hamda turli mavzudagi ko'rsatuvlar tomoshabinlar uchun ishonchli va qulayligi bilan ahamiyatga molik bo'lishi shart. Oddiy ko'rsatuvni tayyorlashdan tortib, uni efirga uzatishgacha bo'lgan muddat ichida o'nlab kishilarning mehnati yotadi. Qisqa xabarni tayyorlash uchun ham ijodkorning, qolaversa, texnik xodimlarning bir necha soatlab tayyorgarlik ko'rishiga va o'sha xabar ustida ishlashiga to'g'ri keladi. Avvalo boshlovchi, muharrir, jurnalist va rejissyor xabarning asl mazmuni va mohiyati, dolzarbligi haqida tushunchaga ega bo'lishi, tasvirga tushirish jarayonida nimalarga e'tibor berishi zarurligini chamalab olishi kerak. Undan so'ng tasvirga tushirish ishlari amalga oshiriladi. Montaj davrida esa matnda urg'u berilgan voqealar, xabar mazmuniga qarab kadr tanlanadi. Shundan so'nggina tayyor xabar dasturga kiritilib, efirga uzatiladi. Bu jarayon, avvalo, xalqqa sifatli va mazmunli xizmat qilishni maqsad etadi. Unda yetkazilayotgan har bir so'zning ahamiyati juda muhimdir. Shuning uchun boshlovchi va yoki bevosita ekran san'ati bilan mashg'ul kasb egalariga katta mas'uliyat yuklaydi.

S.Xaytmatovning "Становление и развитие телевизионного художественного кино в Узбекистане", K.Kalantarning "Кинорежиссёрское искусство А.Бекназарова", B.Ahmedovning "O'zbek kinosining rivojlanish tarixi", F.Fayziyevaning "O'zbekiston badiiy televideniyesining shakllanishi (1956–2000-yillar)", I.Rahmatullayevaning "O'zbekiston televideniyesida yoshlar ko'rsatuvlari (badiiy mahorat muammolari)", O.Sultonovning "O'zbekiston televideniyesi kulgi san'ati" dissertatsiyalari mavzuni o'rganishda qimmatli bo'lib, asosiy muammo va yechimlar chuqur tahlil etilgan. Ekran san'atida nutqning o'rni va ahamiyati haqida esa S.Inomxo'jayevning "Badiiy o'qish asoslari", "Notiqlik san'ati asoslari", "O'tmish sharq notiqligi", L.Xo'jayevaning "Badiiy so'z san'ati",

I.Jumanovning “Badiiy so‘z mahorati”, G.Xoliqulovanning “Sahna nutqi mahoratini egallashda uslub va vositalar”, Sh.Yusupovning “Boshlovchilik mahorati”, “Sahna nutqi. Mikrofon bilan ishlash”, R.Usmonova “Nutq san’atida tez aytishning ahamiyati”, M.Yo‘ldoshevning “Suxandonlar”, M.Xojimatovanning “Sahna nutqi (nutq texnikasi)” kabi qator adabiyot va qo‘llanmalardan mavzuni yoritishda ma’lumotlar olamiz.

Ekran san’atidagi aktyorlik, notiqlik, boshlovchilik nutq vositasida tinglovchi yoki tomoshabinga muayyan g‘oya va maqsadlarni yetkazish, tushuntirish, ta’sirlantirish, ma’lum yo‘nalishga safarbar qilishni ko‘zda tutib, ko‘proq mazmun va mantiqiy asoslarga tayanadi. E’tiborni tortish, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ma’lum o‘rinlarda dialektal, jargon so‘zlarni ishlatish mumkin. Nutq madaniyati esa madaniy nutq, adabiy til me’yorlari, nutqning kommunikativ sifat va uslublari, talaffuz sofligi, fikrning aniq va ravonligini nazarda tutib, yot so‘zlarni ishlatishga ruxsat bermaydi.

Stanislavskiy ta’kidlaganidek, har qanday san’atda uni shakllantirishning tovush, rasm, harakatda ifodalanadigan uzluksiz, to‘xtab qolmaydigan chizig‘i mavjud bo‘lishi zarur. San’at sohasining barcha yo‘nalishi televideniya mujassamlashgan. Ya’ni konsert, shou, kinoteatr, teatrlarga tashrif buyurmasdan, televideniya orqali kuy va navoni tinglab, spektakl, konsert, shou yoki kinoni tomosha qilish mumkin. Bu televideniyaning eng katta yutuqlaridan biridir. Buning uchun televideniya xodimlari, umuman, san’at sohasining har bir yo‘nalishidagi ijodkor qobiliyatli bo‘lib, o‘z ustida tinmay ishlashini taqozo etadi.

Haligacha adabiy til normalarini saqlab qolgan ko‘rsatuvlar va namuna sifatida tilga olinadigan ko‘plab filmlar bor. Misol uchun, “Assalom O‘zbekiston”, “Qishloqdagi tengdoshim”, “Oqshom ertaklari”, Zakovat”, “Diydor shirin” kabi ko‘rsatuvlar, mashhur kinorejissyor Shuhrat Abbosovning “Mahallada duv-duv gap” filmini olaylik. Hali-haligacha odamlar bu ko‘rsatuv va filmlarni sevib tomosha qiladilar. Bundan tashqari, kinodagi sahna ko‘rinishlarini, kinodagi gap-so‘zlarni, iboralarni eslab qolib, vaqti kelganda hayotda ham qo‘llab turishadi. Bunga o‘xshash

yana ko'p filmlarni misol keltirish mumkin: "Sen yetim emassan", "Suyunchi", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Ulug'bek yulduzi", "Alisher Navoiy", "Tohir va Zuhra", "O'tgan kunlar", "Dilbarim", "Maftuningman" va hokazo. Bu filmlarning barchasi mashhur bo'lib, ularni hozirga qadar zavq bilan tomosha qilamiz.

Bugungi axborot asrimiz taraqqiyotida ekran san'ati va nutq madaniyati uyg'unligining mevalaridan biri – yangiliklar dasturidir. Yangiliklarni yetkazuvchi boshlovchi esa katta bilim va ko'nikma sohibi bo'lishi darkor. Bu borada tajribali diktora va pedagog Sh.Yusupovning "Boshlovchilik mahorati" kitobida qator metodlar keltirilgan. Ayniqsa, quyidagi pauza, lyuft pauza, urg'ular ustida ishlash metodi mavzuning yoritilishida asosiy o'rin egallaydi:

- matn o'qilayotgan vaqtda nafasni yetkazish;
- mantiqiy urg'u oladigan so'zlarni ajratish;
- ijroda pauza va lyuft pauza joylarini aniq belgilash;
- ovoz liniyasini o'zgartirmasdan urg'u, pauza va lyuft pauza qo'llash;
- so'zdan so'zga yengil o'tish.

Misol uchun deb fikrini mustahkamlaydi: "Assalomu alaykum (pauza) efirda (lyuft pauza) Davr yangiliklari (lyuft pauza) studiyada Dilfuza Yusupova". E'tibor bergan bo'lsangiz ushbu matndagi to'xtalish holati va urg'uni qayerga qo'yish lozimligi ko'rsatilgan [1, 43-b].

Yana bir tajribali diktora A.O'tbosarov bilan o'tkazilgan "Matn ustida qanday ishlanadi" nomli master klassdagi quyida keltirilgan andozalar bugungi kun uchun dasturulamaldir:

Artikulyatsiya mashqlari unchalik ko'p emas. 10, 15 ta xolos. Ularning ayrimlarini keltiramiz:

- lablarni yig'iq holda avval oldinga cho'chchaytirish, tish qatorlarini ko'rsatmasdan ikki tomonga yopish;
- lablarni yumgan holda o'ngga, chapga, yuqoriga, pastga va aylanma bo'yicha (tishlar jiplashgan holda) harakatlanish;
- pastki jag'ni oldinga, o'ngga, chapga, yuqoriga, pastga harakatlantirish.

O'z ishiga mas'uliyat bilan yondashgan boshlovchi efirga chiqish oldidan ushbu mashqlarni bajarsa, foydadan holi bo'lmaydi. Boshlovchi bitta bo'lsa, tomoshabinlar soni milliondan oshadi. Bu esa tomoshabinlar ichida ravon nutqning farqiga boradigan va eshitmoqchi bo'lganlar ham juda ko'p ekanligidan dalolat [2].

Televideniye kelajagi texnikaning o'sishi va undan studiyalarda foydalana olish, kadrlar tayyorlash hamda televideniye dasturlarini tayyorlash, boshlovchi va muharrir sifatida voqealar, reportajlar matnini ishlash, geografiyasini keng bo'lishini ta'minlash kabilar bilan chambarchas bog'liq.

Televideniye orqali hozirgi kun talabiga javob bera oladigan dasturlar, teleko'rsatuvlar tayyorlansa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Imkon qadar har bir kanal va undagi personallar ixtisoslashgan hamda o'ziga xos uslubga ega bo'lishi lozim.

TV hech qachon yengiltaklikni targ'ib etuvchi qo'shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan "o'ldir-o'ldirlardan iborat" videofilm, kino korxonasi bo'lib qolmasligi kerak. Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupov Sh. *Boshlovchilik mahorati: o'quv qo'llanma.* – Toshkent: Navro'z, 2014. – 62 b.

2. O'tbosarov A. *Matn ustida qanday ishlanadi: master-klass // Sado gazetasi.* – 2014. – № 37. – B. 3.

Shohrux Abdurasulov

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
San'atshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim
E-mail: abdurasulov.shohruh@mail.ru*

O'ZBEK TEATRIDA IJODIY O'ZGARISHLAR EVOLYUTSIYASI

(1950–1975- yillar misolida)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida (1950–1975) o'zbek teatrida yuz bergan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Xususan, dramaturgiya va rejissura san'atidagi yangilanishlar, mavzu, janr hamda repertuardagi o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Ushbu davrda yaratilgan e'tiborga molik spektakllarning badiiy-estetik va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyatlari ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** o'zbek teatri, XX asrning ikkinchi yarmi, dramaturgiya, rejissura, spektakl, sahnaviy talqin.*

THE EVOLUTION OF CREATIVE CHANGES IN UZBEK THEATRE:

A CASE STUDY OF THE YEARS 1950–1975

***Abstract.** This article analyzes the changes that took place in Uzbek theatre during the second half of the 20th century (1950–1975). In particular, it examines innovations in dramaturgy and directing, as well as changes in themes, genres, and repertoire. The artistic-aesthetic and socio-ideological characteristics of notable performances created during this period are also explored.*

***Keywords:** uzbek theatre, second half of the 20th century, dramaturgy, directing, performance, stage interpretation.*

O'zbek teatri XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan jarayonlar bevosita adabiyot va san'atga ham ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan madaniy iliqlashuv siyosati tufayli san'at asarlarida birmuncha erkin fikrlash, davrning dolzarb masalalarini

ilgari surish, milliy va umuminsoniy g'oyalarni ifodalovchi asarlar yaratishga keng imkoniyat yaratildi.

Ikkinchi jahon urushi nihoyasiga yetgach, millatning ruhiy qiyofasini qayta tiklash, urush asoratlari, qutqularidan xalos bo'lish, ertangi kunga umid, ishonch tuyg'ularini uyg'otishga chorlovchi sahna asarlari yaratish teatr ijodkorlarining kun tartibiga qo'yildi. Xususan, Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik katta teatr jamoasi bu jarayonda alohida faollik ko'rsatdi. Milliy dramaturgiyamizga Abdulla Qahhor, Izzat Sulton, Uyg'un, Bahrom Rahmonov, Odil Yoqubov singari iste'dodli ijodkorlar kirib keldi. Ularning asarlarida insoniy munosabatlar, ijtimoiy-axloqiy masalalar, ta'lim-tarbiya mavzusiga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, urushdan keyingi yillarda xalqimiz ahvoli, dunyoqarashi, turish-turmush tutumlariga bir nazar tashlandi. Atoqli adib Abdulla Qahhorning dramaturgik ijodi fikrimizga misol bo'la oladi. Yozuvchi qalamiga mansub komediyalarda satirik ruh kuchli bo'lsa-da, muallif yangi davr kishilarining qiyofasi, fe'l-atvorini muayyan ma'noda tasvirlay olgan ("Shohi so'zana"). Iste'dodli dramaturg Bahrom Rahmonovning "Yurak sirlari" komediyasi ham o'sha yillari teatr hayotida voqea bo'lgan, har bir inson turmushida uchrovchi oilaviy munosabatlar, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni kabi mavzular xalqimiz tomonidan o'zgacha qiziqish bilan kutib olingan edi. Hozir oilaviy muammolarga bag'ishlangan maishiy mavzudagi tomoshalarni sahnalashtirish teatrlarimiz uchun odatiy holga aylangan bo'lsa-da, o'sha davrda bu mavzu o'zbek sahna san'ati uchun tamomila yangilik edi. Shu vaqtga qadar asosan ijtimoiy doiralardan chetga chiqolmagan o'zbek teatri asta-sekin inson qalbi, his-tuyg'ulariga yaqin mavzular sari yo'l izlay boshladi, bu esa o'zbek teatrida yangi davr boshlanayotganidan dalolat berardi.

1954-yili xalqimizning sevimli adibi Oybekning "Qutlug' qon" nomli klassik romani zabardast rejissyor Toshxo'ja Xo'jayev tomonidan sahnalashtirilib, madaniy hayotimizda katta voqeaga aylandi. Romanni sahna uchun rejissyorning o'zi inssenirovka qildi. "Teatr ijodiy jamoasi va inssenirovkachi romanda mavjud

bo'lgan g'oyaviy mazmuni spektaklda yorqin ifodalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib oldi" [1, 49-b].

“Qutlug' qon” – badiiy jihatdan nihoyatda teran, o'tkir ijtimoiy ruh, rang-barang xarakterlar, kuchli konfliktlar zamiriga qurilgan, davr, shaxs va inson taqdirining murakkab ziddiyatlari ifoda etilgan monumental mumtoz epik asar. Binobarin, romanning adabiy-badiiy qimmatini, ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlarini sahnada to'la-to'kis namoyon etish uchun rejissyorning muallif bilan ijodiy hamkorlik qilishi tabiiy holat edi. Rejissyor T.Xo'jayev romanning sahnaviy talqinini yaratish ustida izlanar ekan, adib Oybek bilan ko'p bora suhbatlashadi, yozuvchi qalamga olgan voqelikni eng mayda tafsilotlarigacha o'rganib, badiiy asarni bor jozibasi, ko'lami bilan sahnada gavdalantirishga harakat qiladi.

Sahna asarining muvaffaqiyatini belgilab bergan asosiy omillardan biri kuchli salohiyatga ega, baquvvat aktyorlar ansambli ishtirok etgani, ijroda har bir obrazga xos xarakter xususiyatlari topilgani, aktyorlar o'z “men”ini ko'rsata olgani bilan bog'liq. Xususan, Shukur Burhonov, Sa'dixon Tabibullayev, Nabi Rahimov, Quadrat Xo'jayev, Amin Turdiyev, Yayra Abdullayeva kabi benazir san'atkorlarning turfa obrazlari roman mazmun-mundariyasi va qahramonlar dunyosiga mos spektakl yaratilishini ta'minlagan edi.

Oradan bir necha yil o'tib, akademik teatr jamoasi avlodlar almashinuvi deb atalmish murakkab hodisani boshdan kechirdi va katta sahnaga endigina institutni tamomlab, ulkan maqsadlar sari talpinayotgan yosh, iste'dodli aktyorlar kirib keldi. Ularning ijodiy g'ayrati va dramatik imkoniyatlarini yaxshi his qilgan rejissyor T.Xo'jayev avval sahnalashtirgani “Qutlug' qon”ga ikkinchi daf'a murojaat qilishni lozim topdi. Bu galgi talqinda Turg'un Azizov, Iroda Aliyeva, Zikir Muhammadjonov, Po'lat Saidqosimov singari teatrning ikkinchi avlodiga mansub aktyorlar ustozlar an'anasini davom ettirib, o'ziga xos “estafeta”ni qo'lga olishdi. Spektaklda voqealar tarang va murosasiz ruhiyatda kechishi, fojeaviy pafos va dardli ohanglarning kuchliligi, xalq ichidan chiqqan qahramonlar va zulm-zo'ravonlikka tashna yovuz kimsalar o'rtasidagi kurash motivining badiiy-haqqoniy ziddiyatlarga

asoslanishi, milliy xarakter va dunyoqarash epik qamrovlarda aks ettirilgani sababli asar uzoq vaqt sahnadan tushmadi.

Dunyodagi turli xalqlar va millatlar hayoti, turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy ahvoli, fuqarolar qalbi va ongida shakllanayotgan yangi qarash va yondashuvlar, ozodlik, erk masalasi, xullas, bashariyat boshdan o'tkazayotgan murakkab davrlar 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek teatri ijodkorlarini izlanishga chorladi. Shu yillardan e'tiboran milliy teatrimizning mavzu doirasi, janr imkoniyatlari kengaydi, umuminsoniy mavzularga murojaat kuchaydi. 1956-yili hind xalqining buyuk adibi Robindranath Thokurning ijtimoiy-maishiy mavzuda yozilgan "Halokat" romani rejissyor A.Ginzburg inssenirovkasi va rejissyorligida "Gang daryosining qizi" nomi bilan sahna yuzini ko'radi. Romanda hind xalqining ingliz mustamlakachilariga qarshi isyoni va uzoq davrlardan beri millat oyog'iga tushov bo'lib kelayotgan qoloq an'ana va urf-odatlardan voz kechish g'oyasi badiiy talqin etilgan bo'lib, ayni jihati bois asar o'z vaqtida ko'plab tazyiqu qutqularga ham uchragan edi. "Gang daryosining qizi" spektakli romantik-psixologik talqinda, shoirona-falsafiy uslubda sahnalashtirilgani bois milliy teatrimiz repertuari umuminsoniy tuyg'ulardan so'z ochuvchi, g'oyaviy mazmundor spektakl bilan boyidi. Rejissyor A.Ginzburg sahna rassomi H.Ikromov va kompozitor S.Yudakov bilan hamkorlikda inson qalbining eng nozik qatlamlariga yo'l topuvchi, badiiy va estetik jozibasi yuksak sahna asarini ijod qilishdi. Spektaklda barcha komponentlar badiiy yaxlitlik kasb etib, Tagor g'oyalari hamda rejissyor maslagini ifoda etishga, shuningdek, aktyorlar ijrosini hissiy-emotsional kayfiyat bilan boyitishga xizmat qiladi.

1957-yili jazoyirlik yozuvchi Muhammad Dibning "Katta xonadon" nomli romani asosida sahnalashtirilgan va o'zbek tomoshabinini ham chuqur hayajonga solgan "Jazoir – mening Vatanim" spektakli ana shu sa'y-harakatlar mahsuli sifatida maydonga keldi. Muallif romanda milliy mustaqillik uchun fransuz mustamlakachilariga qarshi turgan Jazoir xalqining isyonkor va mardona kurashini g'oyat haqqoniy va ehtirosli bo'yoqlarda tasvirlab beradi. Shu o'rinda, olis Afrika

qit'asida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqelikni bizga ne daxli bor? – deya iddao qiluvchilar ham uchrab qoladi. Aslida san'at, xususan teatrning umumestetik mohiyati shundaki, u hech qachon milliy an'ana va chegaralar qobig'ida o'ralashib qolmaydi, doimo dunyoviy miqyoslar, umumbashariy qadriyatlar sari intiladi. Buni insoniyat taraqqiyotining barcha sohalari qatori bugun madaniyat va san'atda ham sodir bo'layotgan universallashtirish va globallashtirish hodisalari misolida ko'rish mumkin.

Ketma-ket sahnalashtirilgan “Gang daryosining qizi” va “Jazoir – mening Vatanim” spektakllari o'zbek teatri jahon adabiyoti namunalarini sahnalashtirish borasida qanday tajribaga egaligini baholi qudrat ko'rsatib berdi. Shuningdek, istibdoddan aziyat chekkan, ozodlik yo'lida chinakam jasorat ko'rsatgan mazlum Sharq xalqlari hayoti, turish-turmushi, dard-u iztiroblari o'zbek tomoshabiniga bamisoli real hodisadek ma'lum bo'ldi.

Oltmishinchi yillarning birinchi yarmida Hamza teatri jamoasi Izzat Sultonning “Iymon” (1960), “Noma'lum kishi” (1963), Odil Yoqubovning “Olma gullaganda”, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek” (1961), Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush” (1962), Sarvar Azimovning “Yulduzlar jamoli”, Uyg'unning “Qotil” (1965) singari tarixiy va zamonaviy mavzudagi pyesalarini sahnalashtirdi. Ushbu davr teatri va dramaturgiyasida ko'zga tashlanuvchi jihat shundaki, insonlar orasida uchrovchi ma'naviy-axloqiy munosabatlarga ko'proq e'tibor qaratildi. Bu xususiyat ayniqsa, atoqli adabiyotshunos olim va dramaturg Izzat Sultonning “Iymon” dramasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Asar 1960-yil yosh rejissyor Anatoliy Qobulov va tajribali aktyor Qudrat Xo'jayev tomonidan sahnalashtirilgan bo'lib, Olim Xo'jayev, Sayfi Olimov, Sora Eshonto'rayeva, Zikir Muhammadjonov, Rixsi Ibrohimova kabi o'zbek sahna san'atining mohir aktyorlari ijrosida tamomila qiyomiga yetgan, xalqimiz hayoti, o'y-qarashlariga yaqin chinakam milliy drama yaratilgan edi. Ayniqsa, O'zbekiston xalq artisti, xassos san'atkor Olim Xo'jayev talqinidagi professor Yo'ldosh Komilov obrazi ziyoli tabiati, falsafiy mushohadasi, kuchli irodasi va halol, pok tiynati bilan

o'ziga xos ma'naviy idealga aylangan, aytish joizki, obrazga xos barcha fazilatlar aktyor shaxsiyatiga g'oyat mos va hamohang tushgan edi.

Iymon degan muqaddas tushuncha inson vujudi, qalb-u shuuriga singib ketgan, uni ishonch, e'tiqod, ixlos va muhabbatga undovchi beqiyos manba, jamiyki ezgu fazilatlarni targ'ib qiluvchi axloqiy qadriyatdir. Iymon bilan ish tutish insonni sharaflaydi, yuksak maqom-u martabaga ko'taradi, aksincha, iymondan mosuvo bo'lish halokatga, ma'naviy tanazzulga sabab bo'ladi. Shu bois dramaning bosh qahramoni professor Yo'ldosh Komilov jurnalist kuyovining "Erishgan muvaffaqiyatlaringizning bosh sababi nimada?" degan savoliga hech kutilmaganda, "Iymonimning butunligi va sofliqi" deb javob beradi. Kutilmagan deyishimizning boisi pyesa yozilgan davrda "iymon", "din", "e'tiqod" singari so'zlar til-u zabonimizda baralla yangramas, badiiy asarda, qahramonlar tili orqali "iymon"ning fazilati xususida so'zlash uchun ijodkorda katta jur'at va jasorat bo'lmog'i lozim edi. Drama muallifi Izzat Sulton shunday jasorat uchun o'zida kuch topa bildi va haqiqiy ziyolilikning yorqin namunasini ko'rsatdi.

"Noma'lum kishi" dramasida esa muallif XIX asrning oxiri XX asr boshlarida mustamlakachilikka qarshi bosh ko'targan Namoz Pirimqul o'g'li timsolida vatanparvarlik, mardlik, jasorat g'oyalarini tarannum etadi. Pyesada "Namoz" dostonini yozgan xalq baxshisi Nurmon Abduvoy o'g'li obrazi asos qilib olingan bo'lsa-da, voqealar davomida Namozning qahramonligi, mardligi kitobxon va tomoshabinni ko'proq hayajonga soladi.

1961-yili rejissyor Aleksandr Ginzburg tomonidan sahnalashtirilgan "Mirzo Ulug'bek" (Maqsud Shayxzoda) tarixiy fojiasi o'zbek teatrining yuksalishi yo'lida yana bir dadil qadam bo'ldi. Pyesa nainki dramaturgiya, balki milliy adabiyotimizda ham chinakam hodisa sifatida e'tirof etildi. Rosmana she'riy joziba, poetik ruh, fojiviy pafos, tarixiy va to'qima obrazlar uyg'unligi, zamon va jamiyat manzarasining aniq-yorqin tasviri, eng muhimi, buyuk alloma va adolatli hukmdor Mirzo Ulug'bek hayoti va qismatining haqqoniy ifodasi asar muvaffaqiyatini ta'minlagani ayni haqiqat. Shu bois adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni

Ozod Sharaffidinov “Mirzo Ulug‘bek” dramasi hech bir ikkilanmagan holda jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorga qo‘ysa bo‘ladi. Agar bu fikrga qo‘shilmaydigan biror odam bo‘lsa, marhamat o‘rtaga chiqsin – men u bilan har qancha bahs qilishga tayyorman” – deya ehtiros ila jo‘shib yozgan edi. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasining eng muhim xislati shundaki, ma’lum, haqiqatdan ham bo‘lib o‘tgan tarixiy faktlar uning syujetini, ya’ni dramaturgiyasini tashkil qiladi. Tarixiy faktlar asar qahramonlari xarakterini yorituvchi, ular faoliyatini shakllantiruvchi dramatik sharoitni yaratadi. Tragediyaning bu fazilatida novatorlik belgilari mavjud deyish mumkin” [2, 87-b]. Asarning sahnaviy talqini ham milliy teatrimiz solnomasidan mustahkam o‘rin egalladi, Mirzo Ulug‘bek siyosini yaratgan ustoz san’atkor Shukur Burhonov ijrosi tillarda doston bo‘ldi.

Urushdan keyin Muqimiy nomidagi musiqali teatr repertuarida ham ijodiy o‘zgarishlar yuz berdi. 1948-yil teatr Toshsovet nomidagi Yangiyo‘l musiqali drama teatri bilan birlashtiriladi va yangi binoga ko‘chib o‘tadi. Xalq ertak va dostonlari, mumtoz adabiyot namunalari asosida ko‘plab badiiy-barkamol spektakllar yaratildi, yangi iste‘dodlar, noyob ovoz sohiblari kashf etildi. R.Hamroyev (1959–1976-yillarda bosh rejissyor), H.Umarov, M.Isroilov, O‘.Qoraboev, M.Orifboev, S.Po‘latov, B.Ixtiyorov, H.Sharipov, M.Ixtiyorova, N.Po‘latova, F.Ahmedov, T.Nazarova, M.Mirtolipov, V.Raykova kabi iste‘dodli aktyor va rejissyorlarning teatr ijodiy tarkibiga kelib qo‘shilishi qator muvaffaqiyatli spektakllarning dunyoga kelishiga sabab bo‘ldi. “Alpomish” (S.Abdulla, T.Jalilov, G.Sobitov), “Farhod va Shirin” (K.Yashin, Yu.Rajabiy, G.Mushel), “Muqimiy” (S.Abdulla, T.Jalilov, G.Mushel), “Surmaxon” (B.Rahmonov, T.Jalilov, L.Stepanov), “Ravshan va Zulxumor” (K.Yashin, T.Jalilov, G.Mushel) singari sahna asarlari teatrning ijodiy mavqeyini yuksaltirdi.

50–60-yillarga kelib Muqimiy teatri repertuari milliy xarakter va mazmunga ega qator spektakllar bilan boyidi. “Oltin ko‘l” (Uyg‘un, M.Leviyev), “Vatan ishq” (Sh.Sa’dulla, Z.Fatxullin, S.Boboyev), “Toshbolta oshiq” (H.G‘ulom, M.Leviyev), “Momo yer” (Ch.Aytmatov, I.Akbarov), “Nodira” (H.Razzoqov, K.Jabborov,

S.Hayitboyev) va boshqalar shular jumlasidan. Shu yillarda yaratilgan eng mashhur sahna asari – “Toshbolta oshiq” komediyasi edi. Mashhur komik aktyor, O‘zbekiston xalq artisti Soyib Xo‘jayev gavdalandirgan Toshbolta oshiq obrazi o‘zbek aktyorlik maktabining katta yutuqlaridan biri bo‘ldi. Aktyor mazkur obrazni 500 martadan ko‘proq ijro etgan bo‘lib, har gal sahnaga chiqqanida, tomoshabinlar olqishiga erishar, kutilmagan xatti-harakatlari, noyob ovozi, badihago‘ylik qobiliyati bilan teatrga yig‘ilganlarni go‘yoki sehrlab olardi.

Shuningdek, respublikamizning barcha viloyatlarida teatrlar tashkil etildi, bolalar teatri rivojlandi. Asosan bolalar va o‘smir yoshdagi muxlislar uchun spektakllar namoyish etuvchi Respublika Yosh tomoshabinlar teatrining faoliyat boshlashi (1941) kelajak avlodni ma‘nan barkamol insonlar qilib tarbiyalash yo‘lidagi muhim islohotlardan biri bo‘ldi. To‘g‘ri, dastlab Rus yosh tomoshabinlar teatri negizida tuzilgan jamoa O‘zbekiston Yosh tomoshabinlar teatriga aylantirilgach, sovet hukumati tomonidan mafkuraviy tazyiqlarga uchraydi, hatto bir muddat faoliyatini to‘xtatib qo‘yadi. 1948-yili teatr qayta tiklanadi va “Bizning o‘g‘il” (T.To‘la, A.Muxtor), “Po‘lat qanday toblandi?” (N.Ostrovskiy), “Yosh gvardiya” (A.Fadeyev) spektakllarini sahnaga olib chiqadi.

1970-yillarda mamlakat teatrlari yangi ijodiy jarayonlar, an‘ana va uslublarni o‘zlashtirib bordi. Bu xususiyat o‘sha yillari sahnalashtirilgan spektakllar misolida yorqin ifodasini topdi. Hamza nomli teatrga yosh rejissyor Bahodir Yo‘ldoshevning ishga kelishi va teatrning ijodiy qiyofasi, mazmun-mohiyatini yangilashga intilishi u sahnalashtirgan spektakllarda namoyon bo‘ldi. Spektakllardagi mazmundorlik, shakliy va uslubiy o‘ziga xoslik, romantik ehtiros va pafos o‘zbek rejissurasiga yangi ovoz kirib kelayotganidan dalolat berardi. Bahodir Yo‘ldoshev Hamza teatrida sahnalashtirgan ilk ijodiy ishlari – “Ajal minorasi” (A.Dyuma) va “Oy tutilgan tunda” (M.Karim) spektakllari bilanoq teatr jamoatchiligi e‘tiboriga tushdi, rejissurada hech kimnikiga o‘shamas dasxati borligini isbotladi. E‘tiborlisi, B.Yo‘ldoshev teatrga bosh rejissyor etib tayinlanganida endigina yigirma sakkiz yoshni qarshilagan edi. Butun Ittifoq mamlakatlari orasida hech kim bu yoshda

mamlakatning yetakchi teatriga bosh rejissyor bo'lmagani B.Yo'ldoshevning favqulodda iste'dodini ko'rsatib turardi.

“Ajal minorasi” diplom spektaklida B.Yo'ldoshev sahna kengligi, keyinchalik rivojlanib boruvchi, maishiydan tortib shartligacha bo'lgan turli uslubiy yechimlarda tobora ko'proq erkinlik va ozodlikka ega bo'lgan sahna kengligini “jonlantirish” uquvini namoyon qila bildi. Spektaklda zanjirlar shaqir-shuquri, shiftdan tomgan suv tomchilarining chak-chaki, oyoq ostidagi balchiqli loyning pilch-pilchi eshitilib turgan nimqorong'ilik qo'ynidagi ayanchi muhit qayta gavdalandiriladi” [3, 89-b].

1970-yillarning ikkinchi yarmida o'zbek teatri mavjud andozalardan birmuncha chekinib, yangi uslub va yo'nalishlar, novatorlik topilmalari va ifoda vositalari bilan boyidi. Ayni jarayon ham bevosita va bilvosita Bahodir Yo'ldoshev faoliyati bilan bog'liq. Shu kezlarda, “Teatr ochiq publisistik asarlar qidirishda o'z kuchini sinar ekan, nasr asarlariga murojaat qiladi. Rejissurada yangi uslubiy tamoyillar e'tirof etildi, janr sohasida xilma-xil izlanishlar olib borildi, qator yangi spektakllar qo'yildi” [3, 89-b]. Yozuvchi B.Vasilev qissasi asosida Bahodir Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan “Ro'yxatlarda yo'q” spektakli shu yillarning muvaffaqiyatli izlanishlaridan biri bo'ldi.

“Mazkur spektakl shakl va mohiyat jihatidan milliy teatrimiz uchun kutilmagan hodisa edi” – deya xotirlaydi taniqli aktyor Afzal Rafiqov – “Esimda, spektakl maketini badiiy kengashga topshirish jarayonida ko'plab atoqli teatr arboblari hech narsaga tushunolmay, savollar girdobida qolishdi. Ilk bor ushbu asarda o'rindiqlar sahnaga ko'chirilib, tomosha zali to's-to'polon bo'layotgan jang maydoniga aylantirildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – tomoshabinni asar ruhiyatiga chuqurroq olib kirish, voqealarning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki ishtirokchisiga aylantirish edi. Tabiiyki, an'anaviy uslub va ijroga ko'nikib qolgan ustoz san'atkorlarning aksariyati ancha vaqtgacha bu yangilikni hazm qilolmay yurishdi” [4].

Darhaqiqat, rejissyor B. Yo'ldoshevning rassom G. Brim bilan o'ylab topgan sahnaviy yechimi har qanday tomoshabinni butunlay o'zgacha sahna estetikasiga oshno etadi. Zalda g'ira-shira qorong'ilik, g'alati bir sukunat, tomosha o'rindiqlari mato bilan qoplanib, janggoh aurasini hosil qilgan, voqealar makoni esa bamisoli shahid ketgan harbiylarning ramziy qabrini yodga soluvchi bosh kiyimlar bilan ajratilib, tomoshabinlar joyi yarim doira shaklida shu muhit ichiga singdirib yuborilgan. Ha, aynan shu spektaklda B. Yo'ldoshev teatr va tomoshabin o'rtasidagi "to'rtinchi devor" tushunchasidan butunlay voz kechdi va sahnani xalqqa yanada yaqin qildi.

Darhaqiqat, ushbu sahna asari o'zbek tomoshabinlarining teatr haqidagi an'anaviy qarashlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Shakl, mazmun va ifoda vositasiga ko'ra "Ro'yxatlarda yo'q" spektakli milliy teatrimiz hayotida haqiqiy yangilik bo'ldi.

Shundan so'ng Bahodir Yo'ldoshev "Komissiya" (O'lmas Umarbekov), "G'ariblar" (V. Delmar), "O'n uchinchi rais" (O. Abdullin) singari spektakllarni sahnalashtirdi. Mazkur tomoshalar ham ohorli rejissyorlik topilmalari, aktyor izlanishlari, noodatiy dekorasiyalari va boshqa xususiyatlari bilan teatr repertuaridan mustahkam o'rin egalladi. O'lmas Umarbekovning "Komissiya" pyesasi asosida sahnalashtirilgan spektaklda bir umr faol mehnat qilib, jamiyat orasida hurmat-e'tibor qozongan, biroq o'tmishda qilgan xato-yu kamchiliklari uchun vijdon azobini boshdan kechirayotgan zavod direktori Said Karimov misolida insonning ruhiy iztiroblari, o'y-kechinmalari badiiy talqin etiladi. Spektakl tomoshabin qalbi, botinini bedor qiluvchi psixologik ta'sir quvvatiga ega edi.

Umuman, 70-yillarda Hamza teatri repertuaridan o'rin olgan zamonaviy mavzudagi spektakllarning aksariyati taniqli adib va jamoat arbobi O'lmas Umarbekov ijodiga daxldor edi. Uning "Kuzning birinchi kuni", "O'z arizasiga ko'ra", "Shoshma, quyosh", "Qiyomat qarz" kabi pyesalari muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilib, teatr mutaxassislari va muxlislar tomonidan ijobiy kutib olinadi. Eng qizig'i, bu dramalarning deyarli barchasi sahnamizning biror bir buyuk

darg'asiga bag'ishlab yozilgan. "Qiyomat qarz" Shukur Burhonovga, "Shoshma quyosh" Sora Eshonto'raevaga, "Kuzning birinchi kuni" Zikir Muhammadjonovga atalgan.

70-yillarning eng mashhur spektakllaridan biri hanuzgacha xalqimiz tomonidan sevib tomosha qilinadigan "Oltin devor" (E.Vohidov asari) komediyasi bo'ldi. Pyesani rejissyor Toshxo'ja Xo'jayev sahnalashtirib, xalqona, yumor va istehzoga boy, tomoshabop spektakl yaratdi. Shoir Erkin Vohidovning ushbu asari zohiran yengil kulgiga asoslangan bo'lsa-da, aslida muallif boylik, mol-mulk, nafs istaklariga mag'lub bo'lgan insonlarning ayanchli qiyofasini mohirona aks ettiradi. 40 yil devor-darmiyon qo'shni bo'lib yashagan Mo'min va Abdusalom nogoh topilgan "sirli xumcha" tufayli turli ziddiyatlarga boradi, boylik insonlarni ne ko'ylarga solishi, insoniy fe'l-atvorni qanchalik izdan chiqarishi voqealar davomida ayonlashadi.

Spektaklda Mo'min rolini gavdalantirgan O'zbekiston xalq artisti G'ani A'zamov kulgi va badihaga moyil ijrosi bilan uzoq vaqt tomoshabinlar xotirasida yashab qoldi. Hanuzgacha spektakl televideniye orqali namoyish qilinganida, ustoz san'atkor ijrosidan zavqlanamiz, miriqib-miriqib kulamiz. Ushbu ajoyib obraz o'zbek aktyorlik san'atining o'chmas solnomasiga aylandi.

Agar spektaklni bevosita transformatsion hodisa sifatida o'rgansak, tomoshada qator yangiliklar, ijodiy o'zgarishlar amalga oshirilgani va bularning barchasi ijodkorlarning g'oyaviy maqsadini ochishga xizmat qilganini ko'ramiz. Jumladan, sahnalashtiruvchi rejissyor Toshxo'ja Xo'jayev (bu rejissyorning so'nggi spektakli edi) xalqona an'ana va qadriyatlarimizning go'zal tajassumini spektakl tagmatnlariga singdirib yubordi, teatrlarimiz uchun milliy ruhdagi tomoshalar zarur ekanini ochiq-oydin ta'kidladi. "T.Xo'jayev tomonidan sahnalashtirilgan "Oltin devor" spektakli 15 yil davomida sahnadan tushmadi. Rejissyorning avvalgi spektakllariga xos bo'lganidek, ushbu spektaklda uning milliy o'ziga xoslikni, xalqimiz xarakteridagi betakror qirralarini yaxshi bilishligi seziladi" [3, 69-b].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, XX asrning ikkinchi yarmida, xususan 1950–75-yillarda o'zbek teatri o'ziga xos taraqqiyot evolyutsiyasini bosib o'tdi. Milliy teatrimizning mavzu va janr imkoniyatlari kengaydi, dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san'atida yangi ijodkorlar maydonga chiqdi. To'g'ri, teatr ijodkorlarini turli mafkuraviy qarashlar chetlab o'tgani yo'q. Biroq shunday sharoitda ham ular abadiyatga daxldor, umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etuvchi spektakllar yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirov T. *Zamon, teatr, ekran.* – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 219 b.
2. Islomov T. *Tarix va sahna.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – 212 b.
3. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M., Muxtorov I. *O'zbek Milliy akademik drama teatri tarixi.* – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. – 268 b.
4. “Hayot so'qmoqlari” hujjatli filmi (Bahodir Yo'ldoshev portretiga chizgilar). – Toshkent, 2014.
5. Туляходжаева М. *Режиссура Узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы).* дисс... докт. искус. наук. – Ташкент: 1996. – 205 с.
6. Rahmonov M. *O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari).* – Toshkent: Fan, 1968. – 428 b.
7. Rahmonov M. *Hamza teatri tarixi. Birinchi kitob.* – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 325 b.

Shaxnoza Rajabova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik" kafedrasida doktoranti
E-mail: rajabovashaxnoza47@gmail.com*

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI SAHNASIDA ZAMONAVIY TALQINDAGI "KUZ" SPEKTAKLI

***Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Teatr san'ati fakulteti, "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati" kafedrasida, 3-kurs "Estrada aktyorlik san'ati" ta'lim yo'nalishi talabalarining "Kuz" nomli diplom spektakli haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** spektakl, rejissyor, talqin, eksperiment, aktyor, kuz, obraz.*

A MODERN INTERPRETATION OF THE PLAY "AUTUMN" ON THE STAGE OF THE UZBEKISTAN STATE INSTITUTE OF ARTS AND CULTURE

***Abstract.** The article discusses the graduation performance titled "Autumn" by the third-year students of the "Variety Acting Art" program at the Department of Variety and Mass Performance Arts, Faculty of Theatre Arts, Uzbekistan State Institute of Arts and Culture.*

***Keywords:** performance, director, interpretation, experiment, actor, autumn, character.*

Teatr san'ati doimo inson ijodiy tafakkurini, his-tuyg'ularini va jamiyatdagi jarayonlarni aks ettiruvchi kuchli vosita bo'lib kelgan. Zamonaviy davrda esa an'anaviy teatr shakllaridan tashqarida, yangi va innovatsion usullar bilan sahnaga chiqqan eksperimental spektakllar tobora keng tarqalmoqda. Ayniqsa, talabalar teatrida eksperimental spektakllar ijodiy o'sish, texnika va dramaturgiya bilan tajriba qilish imkoniyatini beradi. Bunday spektakllar orqali talabalar nafaqat sahnadagi rollarni o'rganadi, balki yangi sahna tili, interaktivlik va vizual-texnologik yechimlarni sinab ko'rish orqali o'zlarining professional salohiyatini oshiradi [1].



2026-yilning 18-fevral kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatrida xuddi shu maqsad yo'lida xizmat qiluvchi, zamonaviy va eksperimental uslubda sahnalashtirilgan "Kuz" spektakli namoyishi bo'lib o'tdi.

Spektaklni Teatr san'ati fakulteti "Estrada aktyorligi san'ati" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari ishtirokida kafedra professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi Temur Rashidov sahnalashtirgan bo'lib, kurs badiiy rahbari professor Mahmud Rashidov hamda "Aktyorlik mahorati" fani o'qituvchisi Shavkat Rasulovlar hamkorligida ushbu ijodiy ish sahna yuzini ko'rdi. Spektakl mashhur shved dramaturgi Avgust Strindberg qalamiga mansub "Kuz" hikoyasi hamda O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she'riyati asosida "kollaboratsiya" uslubida sahnalashtirilgan. Unda inson umri uch faslga bo'linib, uch avlod ko'rinishida talqin etiladi. Bahor fasli-yosh avlod (Hakimov Shoxruh va Nuriddinova Aziza), kuz fasli-o'rta avlod (Lutfullayev Ramziddin va Islomjonova Oydinoy), qish fasli-keksa avlod (Azimov Sardor va Istatkulova Shahina) tarzida talqin etilgan.



Barcha tomoshabinlarga manzur bo'lgan ushbu spektakl yangicha rejissyorlik talqinida, eksperimental uslubda sahnalashtirilgan bo'lib, sahnada ortiqcha dekoratsiyalar, yorqin sahna grimplari hamda liboslar ko'zga tashlanmaydi. Barchasi ramziy tarzda, spektakl g'oyasini ochishga xizmat qiladigan eng zarur detallar va buyumlardan foydalanilgan holda sahnalashtirilgan. Eng muhimi sahnada sodir bo'layotgan voqealar hamma tomoshabin uchun yaqqol tushunarli va ta'sirli. Sahnadagi aktyorlar ijrosi, mahorat bilan qo'yilgan sahnaviy chiroqlar, mavzuga mos tanlangan buyuk polyak bastakori Frederik Shopen asarlari asosidagi musiqalar tomoshabinni teatrning sehrlil olamiga olib kirib ketadi. Umuman olganda har qanday millat va har qanday dindagi, har xil ijtimoiy holatdagi tomoshabin uchun birday tegishli mavzudagi ushbu spektakl barchani falsafiy yondashuv orqali tomoshabinga ko'zga tutdi. Spektaklni bir soatlik vaqt davomida har bir insonning yuragiga kirib bora olgan va teatrning eng katta maqsadi bo'lgan unga ta'sir eta olgan haqiqiy, professional ijodiy ish deyish mumkin.



“Kuz” spektaklida inson qalbidagi iztirob, murakkab tanlovlar, sog‘inch va umid fasllari badiiy ifoda vositalari orqali teran talqinda ochib beriladi. Adabiyotda fasllar va tabiat tasvirlari ko‘pincha inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Xususan, Avgust Strinbergning “Kuz” hikoyasi bu jihatdan muhim namuna hisoblanadi. Hikoya turmush, o‘tkinchilik va insoniy his-tuyg‘ularni kuz fasli orqali ramziy tarzda ochib beradi. Strinberg qahramonlarning ichki dunyosini tabiat bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlash orqali o‘quvchiga inson hayotining o‘zgaruvchanligi va vaqtning o‘tishi bilan bog‘liq falsafiy mulohazalarni yetkazadi. “Kuz”da turmush va oilaviy hayotning murakkabliklari, insonning ichki iztiroblari va sog‘inch hisi psixologik tahlil bilan birga tasvirlanadi. Qahramonlar o‘zaro munosabatlar, oilaviy majburiyatlar va shaxsiy his-tuyg‘ular orqali o‘quvchiga ijtimoiy va individual psixologik realitetni ochib beradi [2].

Strinbergning falsafiy hikoyasiga hamohang tarzda tanlangan O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim qalamiga mansub she‘rlar namunasi spektaklni yanada

ta'sir kuchini oshirgan. Bu ikki qalamkashning asarlari bir-biriga uyg'unlashib, yaqqol sahna asariga aylangan. Albatta, bu yerda rejissyorning g'oyasi va uni mohirona talqin etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida spektaklda foydalanilgan Usmon Azimning "Kuzgi bog'" she'riy to'plamidan olingan she'rlaridan satrlar:

Hasrating ham xushdir,
Sog'inching ham xush.
Sevging katta kuchdir,
Sevging ozod burch.
Ruhimni olding sen,
Tanimni olding.
Ohangimni olding,
Rangimni olding.
Tiriklig-u o'lmoq,
Nimadir farqi.
Hayot seni ko'rmoq,
O'lim hajr sharhi.
Yuksak qayg'ularni ko'ngil ko'chadir,
Faqat ruh uchadir tinmay uchadir.

Bahor faslidagi ilk sevishgan qalblarning ichki tuyg'ularini ifoda etgan ushbu satrlar, jo'shqin hamda tug'yonlar og'ushida talabalar tomonidan mahorat bilan ijro etildi va har bir tomoshabinning yoshligini, "umr bahori"ni beixtiyor yodga soladi.

Mehrga eltmadi yozdagi yo'lim:
Shodlik – o'yinqaroq, g'ussa – tamizli...
Kuz – mening sen tomon uzatgan qo'lim,
Bog'ga cho'z qo'lingni... Yarashamizmi?
Osmonga qaragin, kengayib ketdi,
Qancha g'ussa bo'lsa sig'ar olamga.
Kelgin, yarashaylik...Dard yomon etdi –

Dardning zarrasi ham ulkan odamga...

Oilaviy hayotda “bahor” sevgi fasli bo‘lsa, “yoz” esa bu juftliklarning baxtli, beg‘ubor davri. Ular bir-birini tushunadi, mehr ko‘p bo‘ladi. Lekin vaqt o‘tib, turmush tashvishlari, tushunmovchiliklar paydo bo‘ladi. “Kuz” munosabatlar sinovdan o‘tadigan davridir. Ular bir uyda yashasa ham, qalban uzoqlashadi xuddi spektakldagi o‘rta avlod juftliklari singari. Beka yorini yo‘qotishni istamaydi, barcha turmushning mayda tashvishlarini unutishni va jufti bilan yarashishni, oilasini saqlab qolishni istaydi. Ammo yigit...



Yigit ham vaqt o‘tib, jufti va oilasidan uzoqlashgandan so‘ng ularni qanchalik qadrli ekanligini anglaydi. O‘zini yolg‘iz his etadi, xatosini tushunadi, lekin qaytishga jur‘at topolmaydi. Beka ham ichida kechirishga tayyor, lekin ranjigani uchun jim turadi. Spektaklda oilaviy hayotning past-balandliklari va aytilmagan tuyg‘ulari bitta she‘r orqali mohirona yetkaziladi. Oila – bu faqat sevgi emas, balki sabr, kechirim va bir-biriga qo‘l uzata olishdir degan g‘oya ilgari suriladi.

Zamin bilan osmon – sen-u menman,
Sahar bilan oqshom – sen-u menman.
Yeru osmon aro bir ishq bordir –
Ishqdan bunyod hijron – sen-u menman.
Kuzdagi ikki yaproq – sen-u menman,
Bargdagi mitti firoq – sen-u menman.
Jonim, firoq aro bir sevgi bor,
Firoqda qolgan chiroq sen-u – menman...


Xayollarida biroz muddatga bo'lsa-da yoshlikdagi ilk navbahor faslining qaynoq muhabbatini sog'ingan ikki qariya, bir lahzaga bo'lsa o'sha sevgining taftini his qilish istagida yangragan ushbu satrlarda yuraklarning tub-tubidagi haqiqiy ishqni tasvirlagandek ijro etilgan.

Qahraton o'tkinchi – to'nmoq o'tkinchi,
Bahor o'tkinchidir – unmoq o'tkinchi.
Yoz ham o'tkinchidir – to'lmoq o'tkinchi –
Faqat kuzak cheksiz – so'lmoq cheksizdir.
Qahraton o'ldirsa – muzlik lahzadir,
Bahor telba etsa – gullik lahzadir,
Yoz faqat bahorga qullik lahzadir –
O, sening ishqingda o'lmoq cheksizdir... [3].

Spektaklning qish fasli sahnasida ijro etilgan ushbu satrlar ikki juftlikning umr sarhisobi davrida yana qaytadan sevgiga bo'lgan sog'inchlarini ifoda etadi. She'r ijrosiga hamohang musiqa, talabalarning ijro mahorati she'rning ta'sirchanligini oshirib, beixtiyor tomoshabin ko'ziga yosh keltiradi. Insonning ichki orzu va armonlarini junbushga keltiradigan satrlar orqali rejissyor tomoshabinga o'z orzularingizni asrang, ularni armonga aylanishiga yo'l qo'ymang deganday bo'ladi.

Umuman olganda, insonlar o'rtasidagi sevgi, ayriliq, sog'inch, g'urur, kechirish kabi eng nozik tuyg'ularni rejissyor o'zining yangicha yondashuvi orqali Avgust Strinbergning hikoyasi, Usmon Azim she'riyati, Frederik Shopen musiqalari

hamda talaba-yoshlarning ijrosi bilan “kollaboratsiya” qilgan holda ulkan falsafiy g'oyani ochib bera olgan.



Rejissyor tomonidan qo'llangan zamonaviy sahna vositalari, plastik harakatlar va ramziy obrazlar tomoshabinni voqealar rivojiga faol jalb etadi. Spektaklda dramatik konflikt tashqi voqealardan ko'ra qahramonlarning ichki kechinmalari orqali ochib beriladi. Bu esa zamonaviy teatr san'atiga xos psixologik yondashuvning namunasidir.

Aktyorlar ijrosi obrazlarning ichki dunyosini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Ularning sahnadagi tabiiy harakati, nutq madaniyati va hissiy ifodasi spektaklning badiiy yaxlitligini ta'minlagan. Ayniqsa, bosh qahramonning ruhiy iztiroblari va hayot haqidagi falsafiy mushohadalari tomoshabinga ta'sirchan tarzda yetkazilgan.

“Kuz” spektaklining yana bir muhim jihati shundaki, unda zamonaviy insonning ma'naviy izlanishlari, yolg'izlik hissi va hayot mazmunini anglashga

bo'lgan intilishi badiiy talqin etiladi. Shu jihatdan asar bugungi kun tomoshabini uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu spektakl inson hayotining eng muhim ma'naviy qadriyatlaridan biri bo'lgan sevgi va oilaviy munosabatlarni falsafiy va badiiy jihatdan chuqur talqin etadi. Spektakl tomoshabinni insoniy munosabatlarning mohiyati haqida o'ylashga, vaqtni qadrlashga, yaqin insonlarning qadriga yetishga undaydi. Asarda ilgari surilgan asosiy g'oya shundan iboratki, haqiqiy sevgi vaqt sinovlaridan o'tadi, ammo uni asrab qolish uchun sabr, kechirim va jasorat zarur. Shu jihatdan mazkur sahna asari nafaqat badiiy-estetik, balki chuqur tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatga ham ega bo'lib, zamonaviy teatr san'atining muhim yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti sahnasida namoyish etilgan zamonaviy talqindagi "Kuz" spektakli o'zining badiiy-estetik qiymati, rejissyorlik yechimlari va aktyorlik ijrosi bilan e'tiborga loyiq sahna asarlaridan biridir. Spektakl inson hayoti, vaqt, xotira va ma'naviy qadriyatlar haqidagi falsafiy qarashlarni zamonaviy teatr vositalari orqali ifodalab, tomoshabinda chuqur taassurot qoldiradi. Ushbu sahna asari yosh ijodkorlarning izlanishlari hamda milliy teatr san'atining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi muhim ijodiy tajriba sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azim U. *Kuzgi bog'*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2007. – 133 b.
2. Usmon Azim. *Kuzgi bog' she'rlari*. <https://tafakkur.net/kuzgi-bog-ii/usmon-azim.uz>
3. Avgust Strindberg asarlari elektron kutubxonasi.
<https://www.gutenberg.org/ebooks/author/2787>
4. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rasmiy sayti. <https://dsmi.uz>
5. Zamonaviy teatr nazariyasi haqida maqolalar. <https://www.theatre-library.ru>

Adiba Umarova

*Fanlar Akademiyasi San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti
stajyor-tadqiqotchisi
E-mail: Umarovaadiba3@gmail.com*

**YANGI DAVR O'ZBEKISTON DAVLAT YOSH TOMOSHABINLAR
MA'NAVIY TARBIYASIDA TEATRNING TUTGAN O'RNI
(Tarjima asarlar misolida)**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada yangi davr yosh tomoshabinlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida teatr san'atining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, bolalar va o'smirlar uchun sahnalashtirilayotgan tarjima asarlar asosida teatrning tarbiyaviy imkoniyatlari, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli hamda yosh avlodning estetik didini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** teatr, yosh tomoshabin, ma'naviy tarbiya, tarjima asarlar, sahnalashtirish, estetik tarbiya, madaniyat, axloqiy qadriyatlar.*

**THE ROLE OF THEATRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL
DEVELOPMENT OF YOUNG AUDIENCES IN CONTEMPORARY
UZBEKISTAN**

(Based on translated works)

***Abstract.** This article analyzes the role and significance of theatre in the spiritual and moral education of young audiences in the modern era. In particular, it highlights the educational potential of theatrical performances based on translated literary works, their contribution to the formation of universal values, and their importance in developing the aesthetic taste and cultural awareness of the younger generation.*

***Keywords:** theatre, young audience, spiritual education, translated works, stage adaptation, aesthetic education, culture, moral values.*

Teatr qadim zamonlardan buyon inson ma'naviyatini boyituvchi, estetik didini shakllantiruvchi, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yorituvchi muhim san'at turi hisoblanadi. Globallashuv, internet hamda ommaviy madaniyat kuchaygan

bugungi davrda yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda teatr katta ahamiyat kasb etadi. Teatr inson qalbiga bevosita ta'sir qiluvchi san'atdir. Sahnadagi voqealar, aktyorlarning jonli ijrosi, musiqa va dekoratsiyalar tomoshabinni o'ylashga, his qilishga undaydi. Yosh tomoshabin spektakl orqali yaxshilik – yomonlik, adolat – insofsizlik, vatanparvarlik – insonparvarlik kabi tushunchalarni chuqurroq anglaydi. Ayniqsa, tarixiy va milliy ruhdagi spektakllar yoshlarning o'z xalqiga, tiliga va madaniyatiga bo'lgan mehrini oshiradi. Teatr yoshlarni kitobxonlikka, tafakkur qilishga, mustaqil fikrlashga chorlaydi. Bugungi yoshlar ko'p hollarda internet, ijtimoiy tarmoqlar va virtual olam bilan band bo'lib qolmoqda. Bu esa ba'zan ularning ma'naviy dunyosiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Teatr esa yoshlarni jonli muloqot, real hissiyot va haqiqiy hayotiy voqealar bilan yuzlashtiradi. Zamonaviy teatrlar innovatsion texnologiyalar, multimedia va zamonaviy sahna yechimlaridan foydalanib, yoshlarni san'atga qiziqtirmoqda. Natijada teatr nafaqat hordiq chiqarish vositasi, balki tarbiyaviy maktab vazifasini ham bajarmoqda.

Teatr, albatta, u tomoshabinlarni yuragiga yo'l topa bilishi, o'z sahna asarlari bilan saboq berishi, xullas, san'atning sehrli kuchini namoyish qilishi, bu kuchni ular ongiga singdira bilishi kerak. Bundan tashqari teatrga nisbatan muhabbat va aksincha san'atning shu turiga nisbatan loqaydlik hissi ham bolalarda O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatridan boshlanadi. Bu borada tarjima asarlarning O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatr repertuaridan joy olgani alohida ahamiyat kasb etadi. Tarjima asarlarga murojaat qilinar ekan, teatr ijodkorlari O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri bu masalaga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Chunki tarjima asarlarning yosh tomoshabinlarimiz ongida nafaqat bizning xalqimiz, balki qardosh va qo'shni xalqlarning madaniyatini, urf-odat, an'analarini shakllantirishda o'rni katta.

Yaqin yillar ichida ushbu O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatr jamoasi jajji yoshdagi tomoshabinni talabidan va psixologiyasidan kelib chiqqan holda bir qancha spektakllarni sahnalashtirib kelmoqda desak, yanglishmaymiz.

Aynan bog'cha bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun D.Urban "Sichqonlar pishloqni yaxshi ko'radi" asari asosida rejissyor A.Kudryavsev 2006-yilda "Jon-u dilim pishloq" spektaklini sahnalashtirdi [1]. Asardagi voqealar kulrang va oq sichqonlar orasidagi mojarolar atrofida kechadi. Spektakl davomida ikki sichqon oilasida kelisholmasdan bir-biri bilan tortishadilar va voqealar so'nggida afsungar sichqon yordamida nizolar bartaraf etiladi. Sahnadagi qahramonlar ya'ni sichqonlar obrazini iste'dodli aktyorlar Zebiniso Qodirova, Zafar Asqarov, Bahrom Usmonov, Akrom Bo'ronov va Nafosat Pozilova kabi aktyorlar ijro etganlar. Spektakl bolajonlar ko'nglidan joy olishini istagan bu ijodkorlar berilgan rolni maromiga etkazib ijro etgan. Masalan iste'dodli aktrisa Nafosat Pozilovanning kichik qahramoni haqida fikr yuritadigan bo'lsak, u oq sichqonning Frunzi ismli qizi obrazini ijro etgan. Aktrisa sahnada xuddi sichqonlardek harakat qiladi. Uning yurishlari, xatti-harakatlari, ovozing mayinligi, barcha-barchasidan o'z rolini qanchalik maromiga etkazib ijro etganini anglaymiz. Aktrisaning ijrosi berilgan obrazga shunaqangi moslashganki sahnada yashay olgan va har doim sahnaga chiqqanda kichik tomoshabin iliq olqishlar bilan kutib olishidan qanchalik qalbgaga yaqin qahramonligini ko'ramiz.

Rejissyorning muvaffaqiyati aktyorlarni to'g'ri tanlay olgani bilan birgalikda spektaklga turli kuy-ko'shiqlarni ham kiritgan. Boisi tomoshabin har xil sichqonlar tomonidan ko'shiq kuylansa qarsak chalib, ularga jo'r bo'lishdi. Sahna asarini spektakl holatiga keltirishda bir jamoani boshqaradigan boshqaruvchi rejissyor bo'ladi. Bola nazari bilan ishlash rejissyor uchun ikki karra mehnat talab qiladi. Albatta buni uddasidan chiqa olgan sababi sahnadagi dekoratsiyalar ham aynan sichqonlar yashaydigan muhitni holatini bergan.

Spektakl g'oyasi va maqsadi do'stlik va o'z navbatida turli kelishmovchiliklar, urush-janjallarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishdir. Aynan bog'cha yoshidagi bolalar bilan ko'proq muloqotga kirishib ijroni davom ettirishi lozim. Ularga sodda va jo'n tilda voqeani etkazib berish kerak. Mana shu jihatni inobatga olgan holda rejissyor aynan shu asarga qo'l urgan. Bu spektaklni

kichik yoshdagi tomoshabin zavq bilan tomosha qilsa, ikkinchidan mehribon bo'lishga va atrofdagilarga xushmuomalali bo'lishga o'rganadi. Asar yosh tomoshabinga yaxshilik, do'stlik hamma narsadan g'olib kelishini o'rgatadi [2, 33-b].

Rejissyor ham aynan yosh tomoshabin psixologiyasi va jajji tomoshabinlar ko'proq hayvonlar bilan do'stlashishni xush ko'rishlarini inobatga olgan holda teatr repertuarini ko'proq hayvonlar qahramon qilib olingan spektakllar bilan boyitdi.

Bundan tashqari O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrda, xitoy xalq ertagi hisoblangan "Sehrli dur" asarini yosh rejissyor To'lqin Rahmatov tomonidan 2008-yilda sahnalashtirildi. Spektakl voqeasi sahnaga masxarabozlar chiqishi bilan boshlanadi. Ular turli harakatlar, o'yin-kulgi orqali spektakl boshlanishidan darak beradilar [3, 47-b].

Spektaklning qisqacha syujeti Dumen ismli yigit sehrli dur topib oladi. Uni guruchga solib, guruch ko'paytiradi. So'ng atrofdagilar unga pul ko'paytirishni maslahat berishadi. Qarabsizki, Dumen oddiy dehqondan amaldor, bo'yg'a aylanadi. Keyinchalik esa Dumen qo'rqqanidan oxir-oqibat sehrli durni og'ziga solib uxlaydigan bo'ladi. Shunday kunlarning birida u durni yutib yuboradi va ajdahoga aylanib qoladi. O'z holiga qaytishni juda-juda istagan Dumenga spektakl oxirida tabiat malikasi yordam beradi. Uning ko'magi bilan Dumen o'z holiga qaytadi.

Rejissyor yosh bo'lishiga qaramasdan aynan yosh tomoshabinlar talabiga javob bera oladigan asarni sahnaga qo'yishga erishgan desak yanglishmaymiz. Rejissyorning yana bir yutug'i garchi asar Xitoy xalq ertagi bo'lsa-da, uni o'zbek xalq masxarabozlari ijrosi bilan boyitgan. Ya'ni To'lqin Rahmatov spektaklga o'zbekona ruhni ham kirita olgan. Aktyorlar jamoasi ham yaxshi tanlangan. Raxmatilla Qurbonov, Nafosat Pozilova, Baxtiyor Pozilov, Nargiza Mo'minova, Sherzod Ahmedov, Abduvohid Sariqov kabi iste'dodli aktyorlar ansambli yaratilgan. Sahna dekoratsiyalarida ham Xitoy xalqiga xos muhitni bera olgan.

"Sehrli dur" spektakli aynan kichik yoshdagi bolalar toifasiga mo'ljallangan. Uning g'oyasi ham bitta, ya'ni peshona teri bilan topilmagan boylik yaxshilikka olib

kelmaydi. Darvoqe, bosh qahramon Dumenning ochko'zlik va ziqnaligi o'zining boshiga etadi. Teatr jamoasi bu asar bilan bolalarni ochko'zlikdan osonlik bilan pul topishga o'ch bo'lmaslikka o'rgatadi. Har bir spektaklda bo'lgani kabi "Sehrli dur"da ham yaxshilik va yomonlik o'rtasida konflikt yuz beradi. Sahnadagi turli xatti-harakatlar voqealarni tomosha qilgan jajji tomoshabin qalbida ham atrofidagi hodisalarga munosabat tug'diradi. Ular ham mana shu sahnadan voqealar orqali nima yaxshi-yu, nima yomonligini tez anglay olishadi [4].

Ma'lumki, bolalar va yoshlar tarbiyasi – jamiyatimizning yangi ijtimoiy shart-sharoitlarda olg'a qarab siljishidagi tub masaladir. Bundan ko'rinadiki, tomoshabinlari doimo bolalar va o'smirlar bo'lgan O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri ijodiy jamoasi zimmasida nihoyat darajada og'ir, nozik va mas'uliyatli vazifalar turadi. Zero xalqimiz ularga nodir bo'lgan bolalar ma'naviy dunyosini, murg'ak qalbni, turmushda uchraydigan har bir narsa, voqea va hodisalarni nazardan qochirmaydigan, ishq-muhabbat haqida ham jiddiy bosh qotirishga urinuvchi yoshlarni ishonib topshirgan. Teatr, albatta, u tomoshabinlarni yuragiga yo'l topa bilishi, o'z sahna asarlari bilan saboq berishi, xullas, san'atning sehrli kuchini namoyish qilishi, bu kuchni ular ongiga singdira bilishi kerak. Bundan tashqari teatrga nisbatan muhabbat va aksincha san'atning shu turiga nisbatan loqaydlik hissi ham bolalarda yosh tomoshabinlar teatridan boshlanadi.

Ana shunday maqsadlar ila ijod qilishga shaylangan O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri yana bir spektaklini bolajonlar e'tiboriga havola etdi. Xitoy xalq ertagi hisoblangan "Sehrli dur" asarini yosh rejissyor To'lqin Rahmatov tomonidan sahnalashtirildi. Spektakl voqeasi sahnaga masxarabozlar chiqishi bilan boshlanadi. Ular turli harakatlar, o'yin-kulgi orqali spektakl boshlanishidan darak beradilar.

Spektaklning qisqacha syujeti Dumen ismli yigit sehrli dur topib oladi. Uni guruchga solib, guruch ko'paytiradi. So'ng atrofdagilar unga pul ko'paytirishni maslahat berishadi. Qarabsizki, Dumen oddiy dehqondan amaldor, boyga aylanadi. Keyinchalik esa Dumen qo'rqqanidan oxir-oqibat sehrli durni og'ziga solib uxlaydigan bo'ladi. Shunday kunlarning birida u durni yutib yuboradi va ajdahoga

aylanib qoladi. O'z holiga qaytishni juda-juda istagan Dumenga spektakl oxirida tabiat malikasi yordam beradi. Uning ko'magi bilan Dumen o'z holiga qaytadi [5].

Rejissyor yosh bo'lishiga qaramasdan aynan yosh tomoshabinlar talabiga javob bera oladigan asarni sahnaga qo'yishga erishgan desak yanglishmaymiz. Rejissyorning yana bir yutug'i garchi asar Xitoy xalq ertagi bo'lsa-da, uni o'zbek xalq masxarabozlari ijrosi bilan boyitgan. Ya'ni To'lqin Rahmatov spektaklga o'zbekona ruhni ham kirita olgan desak mubolag'a qilmaymiz. Aktyorlar jamoasi ham yaxshi tanlangan. Raxmatilla Qurbonov, Nafosat Pozilova, Baxtiyor Pozilov, Nargiza Mo'minova, Sherzod Ahmedov, Abduvohid Sariqov kabi iste'dodli aktyorlar ansambli yaratilgan. Sahna dekoratsiyalarida ham Xitoy xalqiga xos muhit hukmron.

“Sehrli dur” spektakli aynan kichik yoshdagi bolalar toifasiga mo'ljallangan. Uning g'oyasi ham bitta, ya'ni peshona teri bilan topilmagan boylik yaxshilikka olib kelmaydi. Darvoqe, bosh qahramon Dumening ochko'zlik va ziqnaligi o'zining boshiga etadi. Teatr jamoasi bu asar bilan bolalarni ochko'zlikdan osonlik bilan pul topishga o'ch bo'lmaslikka o'rgatadi. Har bir spektaklda bo'lgani kabi “Sehrli dur”da ham yaxshilik va yomonlik o'rtasida konflikt yuz beradi. Sahnadagi turli xatti-harakatlar voqealarni tomosha qilgan jajji tomoshabin qalbida ham atrofidagi hodisalarga munosabat bildiradi. Ular ham mana shu sahnadan voqealar orqali nima yaxshiyu, nima yomonligini tez anglay olishadi.

Kichik yoshdagi tomoshabinlar uchun qiziqarli va ibrat bo'ladigan yana bir polyak dramaturgi Maysi Voytishko qalamiga mansub ertak-pyesa asosida 2011-yil rejissyor A.Gamirov tomonidan “Malikani kim qutqaradi?” spektakli sahnalashtirildi. Ushbu asar E.Usmonov tomonidan tarjima qilingan bo'lib, yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, mardlik va qo'rqqoqlik, quvonch va tashvishlar haqida hikoya qiladi [6, 58-b].

Spektaklda rejissyor imkon qadar asarning asl mohiyatini saqlashga, uni bolalarga tushunarli samimiy tilda tushunishini ta'minlashga harakat qilgan. Spektakl voqealari bir qaraganda sodda, biroq qiziqarli tarzda rivojlana boradi. Asar

boshlanishi bilanoq tugun tashlanadi, ya'ni mamlakatga dahshatli ajdahod raxna solayotgani va u malikaning hayoti xavf ostida qolgani ma'lum bo'ladi va bu qo'rqinch uyg'otuvchi musiqiy ovozlar bilan aks ettiriladi. Shundan keyin xavfni oldini olish uchun dovyurak kishilar kerakligi haqida e'lon qilinadi va keyingi sahnalarda Xlopusha Pitardovich (Y.Ermatov), olifta kovboy Jek (B.Ahmedov), samuray Xarakiri (V.Sariqov)lar paydo bo'ladilar. Ular malika Shirmonoyni ajdahodan himoya qilishga, mamlakatni qutqarib qolishga kirishadilar. Sahnadagi maqtanchoq "bahodirlar" raqib ko'ringuniga qadar og'iz ko'pirtirib, tog'ni talqon qilgudek ko'rinsalar-da, dushman ko'ringan onlarda, ayniqsa, ajdahod na'ra tortgan onlarda qochib qolishadi. Ma'lum vaqt vaziyat keskinlashadi. Biroq ana shunday holatlar insonni qahramon bo'lishga undaydi. Buning uchun esa insonda pok qalb, ezgu niyat, oliyjanoblik, ko'pchilik dardi bilan yashay olishni va eng muhimi samimiy muhabbat bo'lishi kerak degan hikmatning natijasi namoyon bo'ladi. Aslida bu voqealarning hammasi mamlakatdagi sehrgar tomonidan sahnalashtirilgan tomosha edi. Bu asar oxirida ayon bo'ladi. Buning sababi Malika Shirmonoy (D.Arabova) hamda Anton (Sh.Turonov) o'rtasidagi muhabbatdan xabardor bo'lgan sehrgar o'z muhabbatini aytolmay qiynalib yurgan Antonga yordam berishga qaror qilganligi aniqlanadi. Bu usul, albatta, o'z samarasini berdi Malika va mamlakatni ajdahodan qutqargan Anton uning muhabbatiga sazovor bo'ladi [7].

Ushbu asar kichkintoylarga olam-olam taassurotlar bilan birgalikda ma'naviy ibrat bo'lib xizmat qiladi. Murg'ak qalb sohiblarining yuragida oliyjanob tuyg'ular uyg'otgan ushbu spektakl har bir tomoshabinni ezgulik tomon chorlaydi.

Yosh tomoshabinlar teatri jamoasi bugun ham kichik tomoshabinlarni yangidan yangi sahna asarlari bilan xushnud etib kelmoqdalar. Yaqinda teatr ijodkorlari tomonidan kichik yoshdagi tomoshabinlar uchun Z.Asqarov insseniroykasi asosida "Bolakay va Madagaskar" spektakli namoyish etildi. Spektakl besh yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan tomoshabinlar uchun mo'ljallangan. Rejissyor Z.Nigmatova sahna asarini yaratishga harakat qilgan. Spektakl boshlanishi

bilan sahnada bolakay (Sh. Turonov) namoyon bo'ladi. Uning bugun tug'ilgan kuni, biroq bolakayning do'stlari bu kunni unutib qo'yishadi. Bolakayni eslashmaydi ham. U esa Madagaskar qahramonlari kelishini chin dilidan orzu qiladi. Buni qarangki, shu payt sirli musiqa yangrab, Madagaskar qahramonlari bo'lgan zebra Martin (F.Xudoyberdiyev), jirafa Melvin (Sh.Isroilov) , sher Aleks (B.Turg'unov) va begemot Gloriya (D.Ahmedova) qiyofasidagi qahramonlar paydo bo'lishadi [8, 27–30-b]. Avvaliga bolakay hayratga tushadi keyin sevinadi, orzusi ushalganidan xursand bo'ladi. Qahramonlar esa bolakayning tug'ilgan kuniga bayram uyushtiradilar, qo'shiqlar aytishadi. Ana shu sahnalarda jajji tomoshabinlar orzuning, albatta, ro'yobga chiqishini, faqat uning ushalishiga chin dildan ishonish lozimligini tushunadilar. Shunday qilib, spektakl syujeti bolakayga uyushtirilgan bayram dasturining nishonlanishi bilan yakunlanadi.

Bir qarashda bu spektakl bolajonlarga iliq kayfiyat, ko'tarinkilik, ulashishi mumkin. Biroq, uni "Tomoshaxona" deya atalgan dargoh o'z vazifasini qay maqsadda bajarishi lozim?" kabi savolga javob olishga qiynalamiz.

Respublika O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri repertuarida bir oyda to'rt martaba namoyish etilayotgan ushbu spektakl voqealari multfilm qahramonlari soyasida qolib ketgan. Tomoshabin sahnaviy talqindagi voqealar rivojiga emas, multfilm orqali bolajonlarning sevimli qahramonlariga aylanib qolgan zebra, jirafa, sher va begemotlarning harakatlariga e'tibor qaratadi. Axir sahna spektakl tomoshabinni ezgulik sari etaklab, qalbini ruhini forig' etish kerak emasmi? Katta tomoshabinlardan farqli o'laroq, yosh tomoshabinlarni ishontirish qiyin albatta. chunki ular zehni, ziyrak bo'lishadi [9]. Lekin shuni unutmasligimiz lozimki, kichkintoylar egiluvchan niholdek qay tomonga boshlasak, shu tarafga qarab o'sadilar.

Spektakl kamchiliklardan holi emas albatta. Multfilm orqali bola yuragini zabt etgan qahramonlarning o'zbek estradasi yulduzlari qo'shiqlarini taqlidan ijro etish sahnasi, orqali bolajonlarga nima demoqchi ekanligini tushunish qiyin. Madagaskardan kelgan qahramonlarning harakatlari esa bolajonlarni ortidan

ergashtirib, tarbiyaviy muhit yaratish, ularga ibrat bo'lish o'rniga qandaydir yulduzlariga aylanib qolishdi xolos. Kichkintoylar esa bu maskanga, aslida multfilm qahramonlarini ko'rish uchun tashrif buyurishgandek go'yo. Bolakayga xos harakatlar to'liq ochib berilmagan. Uning harakatida birozgina injiqlik, erkalik harakatlari bo'lganda, balki ishonarli ijro bo'lardi.

Aslida yosh tomoshabinlar uchun mo'ljallangan spektaklda aktyorlar o'z qahramonlarining xarakterini ishonarli tarzda o'ziga xos mimikalar orqali ifodalashi lozim. Bunda, albatta, grim va liboslar ham alohida o'rin egallaydi. Spektaklga mos libos yaratish asar g'oyasini talqinining deyarli ellik foizini tashkil etadi. Biroq ushbu spektaklda sahna ijodkorlari katta qo'g'irchoqlardan foydalanishgan. Aktyorlar garchi yaratayotgan qahramoni qiyofasidagi kostyumlarda namoyon bo'lsa-da, ularning yuzida qahramoniga xos xarakter ifodasi bo'lishi kerak. Biroq afsuski "Bolakay va Madagaskar" spektaklidagi qahramonlarda bunday sifatlar o'rnini qo'g'irchoqning harakatsiz qiyofasi egallagan. Sahnaviy bezaklarning asosiysi bo'lmish sahna dekoratsiyasi o'zida tropik o'lkalar manzarasini mujassam etgan.

Avvalo, sahna asari yaratilayotganda uning kassabopligi emas, ma'naviy saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Teatr ijodkorlari yosh tomoshabinlarga har tomonlama ibrat bo'ladigan, milliy qadriyat va an'analarni o'zida mujassamlashtirgan spektakllarni yaratishi lozim. O'ylaymizki, O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri ijodkorlari bu vazifani albatta bajaradilar.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, yangi davr yosh tomoshabinlar ma'naviy tarbiyasida teatrning o'рни beqiyosdir. Ayniqsa, tarjima asarlar asosida sahnalashtirilgan spektakllar yosh avlodni jahon adabiyoti hamda madaniyati bilan tanishtirib, ularning ma'naviy dunyosini boyitadi. Bunday asarlar yoshlarning estetik didini rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash hamda umuminsoniy g'oyalarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois teatr san'atini qo'llab-quvvatlash va tarjima dramaturgiyasi namunalarini sahnalashtirish ishlarini yanada rivojlantirish bugungi kunning muhim

vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko'proq tarjima asarlarga murojaat qilinsa, jajji tomoshabinlar jahon ertaklari va asarlarini spektakl orqali ko'rishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'aniyev S., Abug'afforov A. *Navoiy va adabiy ta'sir masalalari*. – Toshkent: Fan, 1968. – 237 b.
2. Qodirov M. *Teatr nazariyasi asoslari*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2010. – 256 b.
3. Mahmudov T. *Teatr va tomoshabin*. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 184 b.
4. Hamidov H. *O'zbek teatr san'ati tarixi*. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 320 b.
5. Stanislavskiy K. *Aktyorning o'z ustida ishlashi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 432 b.
6. *San'at: ilmiy-amaliy jurnal*. – Toshkent, 2020–2025.
7. *Jahon adabiyoti jurnali*. – Toshkent, 2020–2025.
8. Nusratova Sh. *Ezgulikka da'vat // Teatr jurnali*. – 2012. – №4. – B. 27–30.
9. *O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy maqolalar to'plami*. – Toshkent, 2021–2025.

Aybek Turganbayev

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Teatr san'ati mutaxassisligi magistranti
E-mail: aybektur08@gmail.com*

QORAQALPOQ BOLALAR DRAMATURGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari hamda uning o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Xususan, asarlarning bosh g'oyasini tashkil etuvchi sadoqatli do'stlik, ezgulikning tantanasi, yomonlikka qarshi murossasiz kurash va yuksak jasorat kabi an'anaviy mavzular chuqur tahlilga tortilgan. Maqolada mazkur dramaturgik asarlarning yosh avlodni vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ularning ijtimoiy dunyoqarashini kengaytirishdagi pedagogik va estetik ahamiyati asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasi, rivojlanish yo'nalishlari, qo'g'irchoq teatri, rejissyor mahorati, sahna asari, do'stlik va jasorat, dunyoqarash.*

THE MAIN DIRECTIONS OF KARAKALPAK CHILDREN'S DRAMATURGY

***Abstract.** This article examines the formation and development stages of Karakalpak children's dramaturgy, along with its unique ideological and artistic characteristics. Specifically, it provides an in-depth analysis of traditional themes that constitute the core ideas of these works, such as loyal friendship, the triumph of goodness, the uncompromising struggle against evil, and sublime courage. Furthermore, the article substantiates the pedagogical and aesthetic significance of these dramatic works in fostering patriotism and spiritual-moral values among the younger generation, as well as in expanding their social worldview.*

***Keywords:** Karakalpak children's dramaturgy, developmental trends, puppet theater, directorial skill, stage play, friendship and courage, worldview.*

Qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasida ekologik muammolar, tabiatni asrash va unga bo'lgan munosabat, shuningdek do'stlik, yovuzlikka qarshi kurash, adolat va jasurlik kabi mavzular asarlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Ushbu mavzudagi pyesalar nafaqat ko'ngilochar funksiyani bajaradi, balki yosh tomoshabinlarning dunyoqarashini shakllantirishda hamda ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim pedagogik-estetik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur dramatik asarlarda tabiat va inson munosabatlari, atrof-muhitni asrash hamda hayvonot dunyosiga nisbatan insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalalari yetakchi o'rin egallaydi. Shu bilan birga, do'stlik, sadoqat, yovuzlikka qarshi kurash, adolat va jasurlik kabi yuksak insoniy xislatlar qahramonlar timsoli orqali yosh tomoshabinlar ongiga singdirib boriladi. Qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasi o'zbek va qoraqalpoq xalq ertaklari asosida tashkil topgan. Asarlarda mardlik, jasurlik va vatanparvarlik milliy g'oyalari ilgari surilgan. Bolalar ongiga tarbiyaviy xususiyatlarni singdirishda yosh tomoshabinlar va qo'g'irchoq teatrlarining o'rni beqiyos.

Yosh tomoshabinlarni vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, do'stlikni ulug'lash, yomon illatlardan forig' bo'lish, ilm olish kabi fazilatlarni singdirishda, albatta, teatr san'atining o'rni beqiyos. "Hammamizga yaxshi ma'lumki, inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosi, ong-u tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy aytganlaridek, teatr haqiqatan ham ibratxona, qutlug' tarbiya va ma'rifat maskanidir" [1, 16-b].

Qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasida dastlabki asarlar 1980-yili Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida Kengenbay Raxmanovning "To'g'iz tonqildaq bir shankildek", 1987-yili Kenesbay Karimovning "Oltin tanga" singari qoraqalpoq xalq ertaklari asosida yozilgan asarlari mahoratli rejissyor R. Toreniyazov tomonidan muvaffaqiyatli sahnalashtirildi. Ushbu bolalar dramaturgiyasidagi dastlabki asarlar tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Bu spektakllarda asosan yaxshilik, yomonlik, halollik singari g'oyalar ilgari suriladi.

Kenesbay Karimovning xalq ertaklari asosida yaratilgan dramasi ikki qism, olti ko'rinishdan iborat. Spektaklda inson o'z mehnati orqali baxtga erishishi, har qanday zulm va zolimlikdan halollik har doim ustunligi, oxir-oqibat faqat yaxshilik g'alaba qozonishi yaqqol tasvirlab berilgan. Ya'ni "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli", – degan maqolga rioya qilgan kishi hech vaqt adashmasligi, inson faqat o'z mehnati orqali kamolotga erishishi mumkinligini ko'rsatib bera olgan. Bu mavzudagi spektakllar bolalar dramaturgiyasining yanada gullab-yashnashida katta o'rin egallaydi. Bu spektakl bilan teatr jamoasi yaxshi natijalarga erishdi, jumladan, aktyor Irzamurat Aybatov spektakldagi Qoraboy obrazi uchun "Yilning eng yaxshi milliy obrazi" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Endigina rivojlanish bosqichiga o'tgan qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasida dramaturglar asosan xalq ertaklarini o'z asarlariga syujet qilib oldilar, bu esa bolalar dramaturgiyasida ijod qilish imkoniyatini yarata oldi. Bolalar dramaturgiyasidagi asarlarga ko'p hollarda ertak xalq motivlari olindi va dramaturglarning mahorati sababli mukammal sahna asarlari yuzaga keldi. Qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining yanada rivojlanishida qo'g'irchoq teatrining o'rni beqiyos va sahnalashtirilgan spektakllar yuksak natijalarga erishib kelmoqda. Ulardan 1995-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan qo'g'irchoq teatrlari festivalida M.Begimovning "Bedana va Tulki" spektakli bilan, 2000-yili Samarqand shahrida o'tkazilgan VI Respublika qo'g'irchoq teatrlari festivalida M.Begimovning "Sho'm eshak", 2003-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan qo'g'irchoq teatrlari festivalida M.Begimovning "Bedana va Tulki" spektakli bilan, 2005-yili 19–24-dekabr kunlari Buxoro viloyatida o'tkazilgan Respublika qo'g'irchoq teatrlarining VII ko'rik-festivalida P.Aytmuratovning "Otam aytgan afsona" ("Eng yaxshi bolalar dramaturgiyasi" nominatsiyasi bilan mukofotlangan), 2009-yili 8–15-dekabr kunlari Andijon viloyatida o'tkazilgan mazkur festivalning VIII an'anaviy ko'rik-festivalida P.Aytmuratovning "Sahrodagi do'stlik" ("Eng dolzarb mavzu" nominatsiyasini olgan) spektakllari respublika miqyosidagi festivallarda munosib qatnashib, yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Bu esa qo'g'irchoq teatri, hattoki

qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining yutuqlari hisoblanadi. Mazkur yutuqlar orqali qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasi ancha ilgarilaganini ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatri tashkil etilgandan keyingi repertuariga nazar tashlasak, Kenesbay Karimovning "Oriq mergan", Q.Matmurovning "Oq uloq bilan ko'k uloq", A.Esimbetovning "Maqtovg'a loyiq ish", "Sehrli qamchi", "Jodulangan shahar", Orazbay Abdiraxmanovning "Guldirsin", Jabbar Xojanovning "Yetti iqlimga sayohat", Polat Aytmurovning "Oltin baliq", "Chatoq bola", Murat Begimovning "O'g'irlikning jazosi – xorlik", "Oltin bug'doy", "Sho'm eshak", "Sodiq do'stlar", "Toshbaqa va tulki", Mehribon Xojanovning "Do'stingga yomonlik qilma", G.Tursinovaning "Sinov" (ertak), "Chegarasiz do'stlik", "O'g'irlikning oqibati", "Sehrli o'yinchoq" singari spektakllar bolalar dramaturgiyasining asosiy yo'nalishlarini belgilab berganini ko'rishimiz mumkin. Mazkur asarlar orqali qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining muhim rivojlanish bosqichini ko'rishimiz mumkin. Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatri o'z faoliyatining dastlabki yillaridanoq milliy dramaturgiyaga tayangan holda yuksak natijalarga erisha boshlagan. Xususan, teatr 1991-yilda qadimiy shaharlardan biri Samarqand shahrida qo'g'irchoq teatrlari festivalida Kenesbay Karimovning "Oriq mergan" spektakli bilan munosib ravishda ishtirok etdi. Mazkur nufuzli anjumanda ijodiy jamoa dastlabki muvaffaqiyatga erishdi. Ya'ni festivalda mahoratli aktyor Qoblan Qalilyev "Eng yaxshi aktyor" nominatsiyasiga loyiq deb topilishi faqat teatr ijodiy jamoasining yutug'i emas, balki qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining ulkan g'alabasi hisoblanadi.

Qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining mazmun va mohiyat jihatdan o'ziga xos yo'nalishlarini belgilab, qaysidir ma'noda bugungi kun spektakllarining mukammal darajada sahnalashtirilishi va tomoshabin qalbiga kirib borishida zamin yaratgan sahna asarlari haqida to'xtalib o'tishimiz mumkin. Dramaturg Qipshaqbay Matmurovning "Oq tekesh bilan ko'k tekesh" asari haqida to'xtalib o'tsak. Asar ilk bor 1992-yil Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatrida rejissyor R.Toreniyazov tomonidan sahnalashtirildi. Spektakl hayvonlar obrazida sahnalashtirilgan bo'lib,

ya'ni asosiy qahramonlar ikki iloqcha bo'ladi, birining ismi Oq tekesh bo'lsa, ikkinchisining ismi Ko'k tekesh. Ularning biri aqlli bo'lsa, biri esa injiq.

Ya'ni, Ko'k tekesh aqlli, muloyim va onasining gapini aslo ikki qilmaydigan odobli farzand timsoli bo'lsa, Oq tekesh esa aksincha – o'z fikridan sira qaytmaydigan, onasi tayyorlagan kundalik taomlarni ham injiqlik qibly yemaydigan qaysar va erkatoiy iloqchadir. Syujet rivojida yosh tomoshabinni ogohlikka chorlovchi dramatik burilishlar yuzaga keladi: Oq tekesh va Ko'k tekesh quvlashmachoq o'ynab yurgan pallada, ularning har bir harakatini Bo'riboy pana qilib, poylab kuzatib yuradi. Fursat topib, Bo'riboy kutilmaganda Oq tekeshni o'g'irlab ketadi. Bu mudhish voqeadan xabar topgan jasoratli Ho'kizboy Oq tekeshni qutqarishga bel bog'laydi, Bo'riboyning izidan borib, uni topadi va munosib jazosini beradi.

Iloqchani bo'rining qopqonidan omon-eson qutqargan Ho'kizboyga ularning onasi – Echkibeka o'zining cheksiz minnatdorchiligini bildiradi. Asar mazmunan "Do'stlik bor joyda g'alaba bo'ladi", degan hayotiy falsafani yosh avlod ongiga singdiradi. Xayrli va ibratli xotima bilan yakunlanuvchi ushbu spektakl asosan 5 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan tomoshabinlarga mo'ljallangan bo'lib, bolalarda bir-biriga bo'lgan o'zaro hurmat-ehtirom va ahillik fazilatlarini shakllantirishda pedagogik-estetik ahamiyatga egadir. Mazkur sahna asari oradan yillar o'tib, Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatrida 2019-yilda iqtidorli rejissyor Qoblan Qalillayev tomonidan yangicha talqin va zamonaviy yondashuv asosida qayta sahnalashtirildi. Buning asosiy sababi – pyesada ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalar, tarbiyaviy motivlar hamda ma'naviy-axloqiy muammolar bugungi kun yosh tomoshabinlari dunyoqarashini shakllantirish uchun hamisha dolzarb va katta ahamiyatga ega ekanligidadir. "Dramaturg qo'liga qalam olganda o'quvchi va tomoshabinlarning manfaatleri, qiziqishlari, badiiy didlarini nazarda tutib ijod etadi. Lekin ayrim didi past tomoshabinlarda muvaffaqiyet qozonaman, deb yengil-yelpi narsalarni, masxarabozlikka oid qiliqlarni yoki buzuq ishlarga boshlaydigan qilmishlarni asarga kirita bermaslik kerak" [2, 108-b]. Qoraqalpoq bolalar

dramaturgiyasida do'stlik haqidagi mavzular asosiy yo'nalishlarning biriga aylanib bordi. Mazkur mavzu yuzasidan Qoraqalpoq qo'g'irchoq teatrida bir qancha spektakllar sahna yuzini ko'rdi. 2001–2020-yillar qo'g'irchoq teatri repertuariga nazar tashlasak, spektakllarning ancha boyiganiga guvoh bo'lamiz, ya'ni Murat Begimov “Sodiq do'stlar”, “Otam aytgan ertak”, “Cho'pon bola”, Polat Aytmuratov “Chatoq bola”, “Bolalar kulsin” singari spektakllar bilan bolalar dramaturgiyasi boyib bordi. Bolalar dramaturgiyasi ancha rivojlanish darajasiga yetdi va keyinchalik yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Ulardan 2005-yili M.Begimov sahnalashtirgan P.Aytmuratovning “Otam aytgan afsona” spektakli Buxoro shahrida o'tkazilgan Respublika qo'g'irchoq teatrlarining VII festivalida “Eng yaxshi bolalar dramaturgiyasi” nominatsiyasiga munosib topildi. 2009-yili Polat Aytmuratovning “Sahrodagi do'stlik” spektakli O'zbekiston miqyosida o'tkazilgan VIII dasturiy festivalda eng dolzarb muammolarni ko'rsatib bergani uchun “Eng dolzarb mavzu” nominatsiyasini qo'lga kiritdi.

Bu kabi yutuqlar ijodkorlar uchun, ya'ni nozik qalb egalari bo'lmish, tinimsiz izlanish va mehnatda bo'ladigan ijod ahli uchun katta yutuq va kelgusi faoliyatida yanada yuksak marralar va baland parvozlar etishi uchun xizmat qiladi. Jo'ra Mahmudning fikricha: “Bolalar dunyosi beg'ubor, unda zarracha ham g'ubor yo'q. Shuning uchun bolalar uchun yozilgan asarlarda g'am-tashvish va iztirobga katta o'rin bermaslik kerak. Bolalar hayotni quvnoq, sho'x-shodon kunlardan iborat deb biladi. Ularga xuddi o'zlari bilgandek hayotni ko'rsatib berishimiz, hayotning faqat yaxshi, go'zal tomonlari haqida so'zlashimiz lozim” [3, 56-b]. Qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining oldiga qo'ygan maqsadi ham aynan shu, ya'ni bolalarning sho'x o'yin-kulgilari va bolalik davrining qiziqarli voqealarini sahnada aks ettirish, ularning hayotlarini ko'rsatib berishni maqsad qilgan. Teatr sahnasida bolalar uchun namoyish etilayotgan spektakllar do'stlik, yaxshilik har doim yomonlik ustidan g'alaba qozonishi, hayvonot dunyosiga befarq bo'lmaslik kabi voqealarni tasvirlab bermoqda.

Qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan, yosh tomoshabinlar teatrida rejissyor va aktyor sifatida faoliyat yuritgan ijodkorlardan biri bu – Irzamurat Aybatovdir. U faqat rejissyorlik bilan cheklanib qolmay, bolalar uchun o'zi asar yozib sahnaga olib chiqdi, bu asarlar bolalar dramaturgiyasining ravnaqiga katta hissa qo'shdi. Teatrdagi faoliyatini aktyorlikdan boshlagan Irzamurat Aybatov keyinchalik o'zini rejissyorlikda ham sinab ko'ra boshlagan. Ya'ni bolalar uchun mo'ljallangan spektakllarda rejissyorlik mahoratini boyitib bordi. U dramaturg Guloyim Tursinovaning “Chegarasiz do'stlik”, “O'g'irlikning oqibati”, “Sehri o'yinchoq”, “Sinov” singari asarlarini sahnada jonlantira oldi.

Aktyorlik va rejissyorlik sohasida biroz tajriba va muvaffaqiyatga erishgandan keyin ham tinib-tinchimagan ijodkor o'zini bolalar dramaturgiyasida ham sinab ko'rdi va yaxshi natijalarga erishdi. Uning “Bolaligim – sho'xligim”, “O'n oltiga chiqmaganlar kiritilmaydi”, “Afsona”, “Yangi yil tomoshalari” kabi asarlariga mustaqil ravishda rejissyorlik qilib, ijodiy faolligini aniq namoyish eta oldi. Irzamurat Aybatov o'zining ijodiy faolligi tufayli bir qator mukofotlarga erishdi. Jumladan, 1987-yili Kenesbay Karimovning xalq ertagi asosida sahnalashtirilgan “Oltin tanga” spektaklidagi Qoraboy obrazi uchun “Yilning eng yaxshi milliy obrazi” nominatsiyasi g'olibi bo'ldi; 1990-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston yosh tomoshabinlar teatri festivalida “Eng yaxshi ijro etilgan epizodik roli uchun” nominatsiyasiga loyiq deb topildi. Uning qilgan mehnatlari munosib baholanib, 1994-yili Qoraqalpog'iston “Yoshlar mukofoti” sovrindori bo'ldi. 2007-yili Turkmaniston Respublikasi Ashgabat shahrida o'tkazilgan “Milliy folklor va teatr san'ati” festivalida, shu yili Misrning Qohira shahrida o'tkazilgan IX “Xalqaro eksperimental teatrlar” festivalida eng yuqori nominatsiyaga ega bo'ldi. 2011-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan “Theatre. UZ” ikkinchi xalqaro teatr festivalida teatr jamoasi sovrinli o'ringa munosib topildi. 2011-yili O'zbekistonga xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoni berildi.

Bu yuksak natijalar ijodkorni har doim ijod qilishdan to'xtamaslikka chorladi. Ijodkor ko'p yillik tajriba va mehnatlaridan kelib chiqib, teatr haqida bunday fikrlarni keltirib o'tadi: "Teatr bu mening umrim. Teatr – bu bizning uyimiz. Bu yerdagi barcha hamkasblarimiz bir tug'ishganmiz", – degan iboralarini xotirlashadi. Matbuotdagi maqolasi: "Umrimning qariyb barcha esda qolarli damlari teatr bilan bog'liq. Ushbu maskanga kelganimda mendan baxtli odam yo'q edi. Bu voqeaga 37 yildan oshayapti. Shu davr mobaynida sahnalashtirgan bir qancha spektakllarim Ashgabat shahrida o'tkazilgan "Milliy folklor va teatr san'ati", Qohirada bo'lib o'tgan IX Xalqaro teatr festivallarida yuqori o'rinlarga va nominatsiyalarga munosib deb topildi. Mehnat, albatta, insonni toblaydi, vaqti kelganda mukofotlar bilan ham siylaydi. Ijodda bir daqiqa ham to'xtamaslik rejissyorning oltin qoidasidir..." [4, 40-b]. Mazkur fikrlar orqali ko'rishimiz mumkinki, rejissyor hech qachon bolalar teatrida ijod qilishdan charchamagan.

Uning bolalar dramaturgiyasida yozgan asarlari ham tahsinga loyiq. Uning muallifligidagi "16 ga to'lmaganlar kiritilmaydi" asari 2003-yili sahnalashtirildi. Spektakl rassomi – I.Muxitov. Spektakl yosh bolalarga mo'ljallangan bo'lib, ya'ni asosan maktab o'quvchilarining hayotidagi ro'y beradigan voqealarni tasvirlaydi. Bolalar dramaturgiyasining murakkabligi va o'ziga yarasha qiyinchiliklari haqida Qoraqalpog'iston san'at arbobi, dramaturg Polat Aytmuratov bunday fikrlarni ta'kidlab o'tgan: "Aslida bolalar dramaturgiyasi eng qiyin janr hisoblanadi. Sababi kattalar uchun spektakl sahnalashtirilganda qahramonning ichki kechinmalarini tilda, harakatda yetkazib berish mushkul emas va bu katta yoshdagi tomoshabinlar uchun tabiiy holat.

Ya'ni ular harakat bilan ham yetkazilgan voqelikni tushunib yeta oladi. Bolalarga esa voqelikni bola tilidan, ularning dunyoqarashlaridan kelib chiqib ko'rsatish kerak" [5, 47-b]. Bolalar dramaturgiyasi haqida gap ketganda, Guloyim Tursinovaning ijodini ham tilga olsak arziydi. Dramaturgning asarlari qoraqalpoq yosh tomoshabinlar teatri repertuarini boyita olgan. Uning asarlari qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasi yanada oldinga ilgari hissa qo'shdi. Muallifning "Sinov"

ertak dramasi rejissyor I.Aybatov sahnada jonlantirdi. Rassom I.Muxitov tomonidan spektaklga mos dekoratsiya ishlandi. Spektakl ertak-musiqali drama bo'lib, maktab va maktabgacha bo'lgan tomoshabinlarga mo'ljallangan. Asarda dastavval muloqotlar she'riy shaklda berilgan bo'lsa, keyinchalik nasriy yo'ldan unumli foydalanilgan. Bolalar dramaturgiyasi ham ancha rivojlandi, qo'g'irchoq teatri repertuarida ham mahalliy dramaturglarning asarlari sahnada jonlandi. Dramaturg Jabbarbergen Xojanovning "Yetti iqlimga sayohat", "Bahodir botir haqida ertak", "Mardlik va yovuzlik" singari asarlari ham qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining boyishiga xizmat qildi. Xususan, qoraqalpoq bolalar dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksalishida sahnalashtirilgan yangi asarlar muhim o'rin tutadi. Bunga taniqli dramaturg Mehribon Xojanovning "Do'stingga yomonlik qilma" pyesasini misol tariqasida keltirish mumkin. Ushbu asar 2014-yilda Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatrida iqtidorli rejissyor Qoblan Qalillayev tomonidan mahorat bilan sahnalashtirildi.

Ertak janrining o'ziga xos an'analari asosida yaratilgan mazkur spektaklda hayvonlarning allegorik obrazlari orqali inson tabiatiga xos bo'lgan turli xarakter xususiyatlari ochib berilgan. Xususan, sahna asarida Tulkining ochko'zligi, makkorligi hamda Tipratikanga nisbatan ishlatgan hiyla-nayranglari va uning salbiy oqibatlari badiiy talqin qilingan. Syujet chizig'iga ko'ra, Tulki va Tipratikan qorinlarini to'ydirish maqsadida bog'bonning uzumzoriga o'g'rilikka tushishga qaror qiladi. Bu jarayonda Tulki o'zining g'arazli maqsadlarini ko'zlab, makkorlik bilan Tipratikanning aql-zakovati va topqirligidan unumli foydalanishga urinadi. Biroq Tulkining bu nayranglarini va uning sotqinlikka moyil tabiatini vaqtida anglagan Tipratikan o'zining hushyorligi tufayli uni aldab, xavfdan qutulishga muvaffaq bo'ladi. Natijada xalqimizning "O'ziga choh qazigan ozi yiqilar", degan dono maqoliga muvofiq, Tulkining ayyorligi o'z boshiga balo bo'ladi va u o'zi qazgan tuzoqqa o'zi tushadi. Spektakl Tipratikanning Tulkiga qarata aytgan "Do'stingga yomonlik qilma, o'zing qolarsan uyatga" degan chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega iborasi bilan yakunlanadi. Mazkur sahna asari yosh tomoshabinlarni

to'g'rilikka, rostgo'ylikka, do'stlikka sodiq qolishga va ahil bo'lishga undashi bilan ulkan pedagogik-psixologik qimmatga egadir. Yosh avlodning tarbiyasi haqida so'z ketganda teatr san'atining o'rni beqiyos katta. Zero, teatr san'ati qadimiy san'at bo'lishi bilan ham alohida ahamiyatli, chunki asrlar osha bizgacha yetib kelishining asl mohiyati ham shundaki, teatr hech bir davrda tomoshabin uchun begona bo'lmagan. U qaysi davrni olib qarasangiz ham inson ruhiy kamoloti uchun muhim vosita bo'lishi bilan birga, jamiyat hayotini aks ettiruvchi oyna vazifasini o'tab kelgan. Aynan ana shu jihat ham e'tiborga loyiq, chunki teatr o'z davrining og'riqli muammolarini dramaturgik jihatdan kuchli tasvirlashi natijasida uning shakl va mohiyati yanayam takomillashib borgan, shu bilan birga bolalar hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan. Natijada bolalar dramaturgiyasi ham o'zining ma'lum bir darajasiga yetgan. Aynan bolalarni teatr orqali tarbiyalash, ularga sahnadagi real voqealarni badiiy obrazlar orqali yetkazishning yana bir ahamiyatli tarafi shundaki, jamiyat hayotini yoki turmush tarzini insoniy fazilatlar, ezgulik va yovuzlik, oq va qora kabi hayotiy tafovutlarni ularga yoshlik chog'idan singdirish, ularni insoniy fazilatlar asosida vatanga muhabbat, yurt ravnaqi yo'lida faol va ma'naviy dunyosi boy inson sifatida tarbiyalashda aynan teatr san'atining o'rni alohida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Mirziyoyev Sh. O'zbekiston teatr xodimlariga // Yangi O'zbekiston. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 16.*
2. *Abdusamtov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: Gafur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 2000. – 298 b.*
3. *Ubaydullayeva M. Zamonaviy bolalar dramaturgiyasi muammo va yechimlar. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – B. 56.*
4. *Seytov A. Qoraqalpoq yosh tomoshabinlar teatri rejissurasining asoschilaridan biri // Teatr. – Toshkent, 2021. – №1. – B. 40.*
5. *Aytmuratov P. Bolalar va qo'g'irchoq teatrlarida milliy dramaturgiyaning ulishi // Teatr jurnali. – Toshkent, 2020. – №5. – B. 47.*

Diyorbek Sa'dullayev

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Dramatik teatr va kino aktyorligi
mutaxassisligi magistranti
E-mail: diyor.sadullayev.0590@gmail.com*

AKTYORLIK SAN'ATIDA ICHKI KECHINMA: “BIRINCHI QALDIRG‘OCH” SPEKTAKLI MISOLIDA

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada aktyorlik san'atida ichki kechinmaning o'rni, ijodkor shaxsning jamiyatdagi ahamiyati hamda teatr san'atining boshqa san'at turlari orasidagi alohida mavqei yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy sahnalashtirish uslublari misolida O'zbek Milliy Akademik Drama Teatri sahnasida namoyish etilgan “Birinch qaldirg'och” spektakli orqali teatr san'atining bugungi avlod uchun ma'naviy va madaniy ahamiyati ochib berilgan. Maqolada ayniqsa aktyorning ichki kechinmasi, obrazga kirish jarayoni hamda tarixiy shaxs – Ma'suma Qoriyeva obrazi misolida sahna haqiqatining badiiy talqini tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** san'at, ijodkor, teatr san'ati, aktyorlik mahorati, Stanislavskiy tizimi, sahna ijodi, tomoshabin, zamonaviy teatr, madaniyat, spektakl, rejissyorlik.*

INTERNAL EXPERIENCE IN ACTING: ON THE EXAMPLE OF THE PLAY “THE FIRST SWALLOW”

***Abstract.** This article discusses the role of internal experience in acting, the importance of the creative individual in society, and the special position of theatre art among other forms of art. The spiritual and cultural significance of theatre for contemporary audiences is explored through the play *The First Swallow*, staged at the Uzbek National Academic Drama Theatre using modern directing and staging techniques. Particular attention is paid to the actor's internal experience, the process of embodying a character, and the artistic interpretation of stage reality through the portrayal of the historical figure Masuma Qoriyeva.*

Keywords: *art, creativity, theatre art, acting skills, Stanislavsky's system, character portrayal, audience, modern theatre, culture, performance, directing.*

Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida teatr san'ati jamiyat hayotida tobora muhim ijtimoiy va ma'naviy vazifani bajarib bormoqda. Teatr – bu nafaqat sahnadagi tomosha, balki inson tafakkuri, ruhiyati va dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchli badiiy makondir. Shu ma'noda teatr san'ati jamiyatni tarbiyalaydigan, insonni o'ziga qaytaradigan va zamon muammolarini badiiy talqin orqali ochib beradigan vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va qarorlarida san'at va madaniyatni Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim ustunlaridan biri sifatida e'tirof etib kelmoqda. Davlat rahbari san'atni inson qalbiga yo'l topa oladigan, yoshlarni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalaydigan va milliy o'zlikni mustahkamlaydigan bebaho boylik deb baholaydi. Xususan, xalqaro madaniy anjumanlar va san'at festivallaridagi chiqishlarida u san'at, jumladan teatr va musiqa insoniyatni tinchlik, ezgulik va hamjihatlik g'oyalariga chorlovchi kuch ekanini ta'kidlagan. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 22-noyabr kuni madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, xususan, teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Bu haqda o'tgan yil 22-dekabrda bo'lgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida aytilgan edi. Mutasaddilar shu borada ishlab chiqilgan chora-tadbirlar to'g'risida axborot berdi. Unga ko'ra, 2025–2030-yillarda teatrlarda “Milliy qahramon” va “Inson qadri uchun” mavzularida 32 ta turkum spektakllar yaratish taklif etilmoqda [1].

Teatr san'atida olib borilayotgan islohotlar nafaqat bugungi tomoshabin, balki ertangi avlod uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Spektakllarda yangi talqinlar, zamonaviy sahnaviy yechimlar, texnik imkoniyatlar hamda aktyorlikning yangicha ifoda vositalari qo'llanilayotgani teatr san'atining yanada rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bugungi teatr tomoshabinni faqat baland ohang

yoki uzun monologlar bilan emas, balki ichki psixologik ta'sir, sahna ritmi va obrazning tabiiyligi bilan o'ziga jalb qilmoqda.

Har bir kasbning o'ziga xos murakkab jihatlari mavjud. Ayniqsa ijod sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat iste'dod, balki ulkan sabr, matonat va o'z kasbiga muhabbat talab etiladi. Bu borada Pelening quyidagi fikrlari e'tiborga loyiq: "Muvaffaqiyat tasodif emas. Bu mashaqqatli mehnat, qat'iyat, o'rganish, o'qish, fidoyilik va eng muhimi, qilayotgan ishingizga bo'lgan muhabbatdir". Ushbu fikr aktyorlik san'atiga ham to'liq taalluqlidir. Chunki aktyorning ijodiy yo'li aniq qolip yoki tayyor formulaga ega emas. Har bir ijodkor o'z imkoniyati, dunyoqarashi va ichki hissiyotlaridan kelib chiqib obraz yaratadi [2, 120-b].

Tomoshabin esa doimo yangilik izlaydi. Bir xillik san'atning ta'sir kuchini susaytiradi. Shu sababli zamonaviy teatr aktyordan faqat matnni yod olishni emas, balki obrazning ichki ruhiy olamini chuqur his qilishni talab etadi. Bu esa aktyorlik mahoratining eng muhim jihatlardan biri bo'lgan ichki kechinma san'ati bilan chambarchas bog'liqdir. Aktyorning ichki kechinmasi – bu obrazning ruhiy holatini chinakam his qilishi, uni tomoshabinga tabiiy va samimiy tarzda yetkaza olishidir. Konstantin Stanislavskiy tomonidan yaratilgan aktyorlik mahorati maktabida ham ichki kechinma va sahnadagi ishonchlilik asosiy mezon sifatida qaraladi. Stanislavskiy aktyordan "rolni o'ynash"ni emas, balki unda yashashni talab qilgan. Chunki tomoshabin sun'iylikni tez sezadi, samimiyatni esa qalbi bilan qabul qiladi [2, 45-b].

Teatr miloddan avvalgi davrlardan boshlab bugungi kungacha o'z muxlislarini yo'qotmay kelmoqda. Uning o'ziga xos muhiti, tomoshabin hayajoni, sahna ortidagi tayyorgarlik jarayoni va aktyorlarning fidoyiligi teatrni boshqa san'at turlaridan ajratib turadi. Parda ochilishi bilan sahnada rassom, kompozitor, dramaturg, grimyor va rejissyorning ijodi bir nuqtada birlashadi. Ushbu ijodiy uyg'unlik markazida esa aktyor turadi.

Bugungi kunda teatr san'atining rivojlanayotgani tomosha zallaridagi tomoshabinlar sonida ham yaqqol sezilmoqda. Bu esa xalqimizning ma'naviy va

madaniy ozuqaga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa tarixiy va ma'rifiy mavzulardagi spektakllar yosh avlodning milliy o'zlikni anglashida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunday spektakllardan biri – “Birinci qaldirg'och”dir. Ushbu spektakl Ma'suma Qoriyeva hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lib, unda o'zbek teatr san'atining ilk jasoratli ayollaridan birining murakkab taqdiri sahna orqali yorqin ochib berilgan. Spektaklda o'tmish, tarix va insoniy fojia zamonaviy teatr tili orqali talqin etiladi.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar yuz berayotgan bir davrda sahnaga chiqqan ayol – bu jasorat timsoli edi. Ma'suma Qoriyeva yashagan davrda ayollarning omma oldida ko'rinishi qoralangan. Shunday murakkab sharoitda uning san'atni tanlashi oddiy kasb tanlash emas, balki ma'rifat va erkin fikr yo'lini tanlash edi. U jadidchilik g'oyalari ta'sirida shakllangan yangi teatr harakatiga qo'shildi. Jadidlar teatrni xalqni uyg'otish, jaholat va savodsizlikka qarshi kurash vositasi deb bilishgan. Ma'suma Qoriyeva ham sahna orqali ayollar taqdiri, jamiyatdagi tengsizlik va inson qadr-qimmatini yoritishga intilgan. Spektaklda jadidlar ruhining berilishi ham alohida e'tiborga loyiq. Jadidlar xalqni ilm-ma'rifat orqali uyg'otishga harakat qilgan bo'lsa, teatrni ham ma'naviy qurol sifatida ko'rgan. Shu sababli sahnadagi har bir jadid obrazi o'zida ma'rifatparvarlik ruhini mujassamlashtiradi. Ularning dialoglari va sahnaviy harakatlari orqali tomoshabinga o'sha davr ijtimoiy muhiti, xalqning og'riqli muammolari va erkinlik uchun olib borilgan kurash hissi yetib boradi [3, 95-b].

Qahramonning ijod yo'li oson kechmagan. Jamiyat bosimi, tahdidlar, haqoratlar va ta'qiblar o'sha davr aktrissalarining hayotiga aylangan edi. Shunga qaramay, Ma'suma Qoriyeva o'z e'tiqodi va san'atga bo'lgan muhabbatidan voz kechmadi. U nafaqat sahnada rol ijro etdi, balki o'z hayoti bilan jamiyat stereotiplariga qarshi chiqdi.

Spektaklda aynan mana shu ichki kurash va ruhiy iztirob kuchli drammatizm bilan ko'rsatilgan. Obrazni Lola Eltoyeva mahorat bilan gavdalantirgan. Aktrisaning

ijrosida Ma'suma Qoriyevaning dardi, qo'rquvi, matonati va san'atga sadoqati chuqur seziladi. Obrazni o'rganish va uni ichki jihatdan his qilish jarayoni aktrisa uchun ham murakkab kechgani sezilib turadi. Chunki ichki kechinma aktyordan nafaqat texnik mahorat, balki ruhiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Shuningdek, spektaklda aktyorning ichki kechinmasini ochishda sukut, nigoh va tana harakatlarining o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki haqiqiy sahna san'atida aktyor faqat matn bilan emas, balki ichki hissiyotlarini tashqi ifoda orqali ham tomoshabinga yetkazadi. Ayniqsa dramatik sahnalarda birgina qarash yoki qisqa sukut ba'zan uzun monologdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. "Birinchi qaldirg'och" spektaklida ham mana shu jihatlar muvaffaqiyatli qo'llanganini kuzatish mumkin.

Spektakldagi sahnaviy yechimlar ham alohida e'tiborga loyiq. Xususan, sahnadagi aylanuvchi poyezd obrazi ramziy ma'no kasb etadi. U Ma'suma Qoriyevaning hayoti qanday keskin burilishlarga boy bo'lganini ifodalaydi. Poyezdning har bir aylanishida tomoshabin yangi makon, yangi ruhiy holat va yangi fojiaga duch keladi. Bir lahzada u teatr sahnasini anglatga, boshqa bir holatda sud yoki advokatlik idorasiga aylanadi. Ushbu ramziy detal qahramonning tinch hayotdan fojiaga tomon tezkor siljishini ifoda etadi. Spektakldagi ayrim sahnalarda aktyorlarning ortiqcha baland pafoslarsiz, tabiiy va hayotiy ijro uslubidan foydalangani tomoshabinni voqealarga yanada yaqinlashtiradi. Bu esa zamonaviy teatrning asosiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Sababi bugungi tomoshabin sun'iylikni emas, samimiyatni qabul qiladi. Ayniqsa tarixiy obrazlarni gavdalantirishda aktyordan katta mas'uliyat talab etiladi. U nafaqat tarixiy shaxsning tashqi ko'rinishini, balki ruhiy olami, dunyoqarashi va dardini ham his qilishi kerak bo'ladi. Spektaklning musiqiy yechimlari ham ichki dramatismni kuchaytirishga xizmat qilgan. Musiqa ayrim sahnalarda qahramon ruhiyatini ochib beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Xususan, qayg'uli va fojiviy sahnalarda kuy va sahna sukunatining uyg'unligi tomoshabin qalbiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Bu esa rejissyorning sahna ritmini to'g'ri his qilganidan dalolat beradi.

Ma'suma Qoriyevaning hayoti sinovlarga boy edi. Uning eri va qaynotasi "xalq dushmani" sifatida olib ketiladi, farzandlari urushga jo' naydi, o'zi esa teatrdan chetlashtiriladi. San'atni hayotining mazmuniga aylantirgan inson uchun sahnadan ayrilish eng katta fojiaga aylanadi. Aynan shu sahnalarda aktyorlarning ichki kechinmasi tomoshabinga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Spektakl davomida tomoshabin aktyorlar ijrosi orqali nafaqat tarixiy voqealarni ko'radi, balki inson qalbining iztiroblarini ham his qiladi. Bu esa teatr san'atining eng katta kuchidir. Teatr insonni o'ylashga, his qilishga va xulosa chiqarishga undaydi. Teatr san'atining boshqa san'at turlaridan farqli jihati ham shundaki, unda aktyor va tomoshabin o'rtasida jonli aloqa mavjud bo'ladi. Kino yoki ekran orqali tomoshabin tayyor mahsulotni ko'rsa, teatrdan barcha jarayon aynan shu vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Aktyorning hissiyoti, hayajoni va ichki energiyasi bevosita tomoshabinga o'tadi. Shu sababli teatr doimo tirik san'at turi sifatida qadrlanadi.

Spektakl rejissyori Asqar Xolmo'minov sahnalashtirish jarayonida har bir detalga alohida e'tibor qaratgan. Musiqa, dekoratsiya, yorug'lik va aktyor plastikasining uyg'unligi spektaklning badiiy ta'sirini yanada kuchaytirgan. Ayniqsa ichki kechinmaga asoslangan sahnalar tomoshabinning hissiy olamiga bevosita ta'sir etadi. "Birinchisi qaldirg'och" spektakli bugungi yosh avlod uchun ham muhim ma'naviy ahamiyatga ega. Chunki unda jasorat, fidoyilik, san'atga muhabbat va insoniy matonat kabi tushunchalar ulug'lanadi. Ayniqsa Ma'suma Qoriyeva obrazi orqali o'zbek ayolining sabr-toqati, iroda kuchi va ma'rifat yo'lidagi kurashi yorqin ifodalangan. Bu esa yoshlarni tarixni anglashga, milliy qadriyatlarni qadrlashga va san'atga hurmat bilan qarashga undaydi. Ushbu spektakl o'zbek teatr san'atidagi tarixiy xotira, ayol jasorati va aktyorlik mahoratini o'zida mujassam etgan sahna asaridir. Unda aktyorning ichki kechinmasi orqali obrazning ruhiy olami chuqur ochib beriladi. Bu esa teatrning inson qalbiga eng yaqin san'at turlaridan biri ekanini yana bir bor namoyon qiladi. Bugungi o'zbek teatrining yutug'i ham aynan ana shunday tarixiy mavzularni zamonaviy teatr tili orqali tomoshabinga yetkazib bera

olayotganidadir. Teatr inson qalbini tarbiyalaydigan, uni o'tmish bilan yuzlashtiradigan va kelajak haqida o'ylashga majbur qiladigan buyuk ma'naviy maskan bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, aktyorlik san'atida ichki kechinma obrazning badiiy va ruhiy mukammalligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aktyorning sahnadagi samimiyligi, obraz ruhiyatini chuqur his etishi hamda uni tomoshabinga ishonarli tarzda yetkazishi teatr san'atining ta'sirchanligini belgilaydi. "Birinchi qaldirg'och" spektakli misolida ko'rish mumkinki, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini sahnada gavdalantirish jarayonida aktyorning ichki kechinmasi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Ma'suma Qoriyeva obrazining talqini orqali aktyorning ruhiy holatni chuqur anglash, his qilish va ifodalash mahorati spektaklning g'oyaviy-badiiy qiymatini oshirgan.

Shuningdek, mazkur spektakl teatr san'atining yosh avlodni milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va tarixiy xotiraga hurmat ruhida tarbiyalashdagi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Stanislavskiy tizimiga asoslangan ijodiy yondashuv aktyorga obraz ichki dunyosini ochishda samarali metod sifatida xizmat qilgan. Demak, aktyorlik san'atida ichki kechinma nafaqat obraz yaratishning muhim elementi, balki sahna haqiqatini yuzaga chiqaruvchi va tomoshabin qalbiga ta'sir etuvchi eng kuchli badiiy vositalardan biridir. "Birinchi qaldirg'och" spektakli esa ushbu tamoyillarning amaliy ifodasi sifatida zamonaviy o'zbek teatr san'atida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://president.uz/oz/lists/view/7722>
2. Всеволод М. Театр ва саҳна назарияси. – Москва: Санъат, 1982. – 600 б.
3. Константин С. Актёрнинг ўз устида ишлаши. – Москва: Искусство, 1989. – 511 б.
4. Tangriyeva D., Mirzayev B. Aktyorlik mahorati. – Toshkent, 2022. – 200 b.
5. www.madaniyat.uz (Madaniyat vazirligi rasmiy sayti)

Eroli Beknazarov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Musiqali teatr aktyorligi mutaxassisligi magistranti
E-mail: erolibeknazarov@gmail.com*

MUSIQALI TEATRDA DRAMATIK HOLATDAN ARIYAGA O'TISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musiqali teatr san'atida aktyorning dramatik holatdan ariyaga o'tish jarayoni, ariyaning sahnaviy va musiqiy jihatdan tug'ilishi, uning dramaturgik vazifasi ilmiy-nazariy asoslarda yoritiladi. Maqolada dramatik harakat va musiqiy ifoda o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, aktyorning ichki kechinmalari, psixofizik holati, vokal va aktyorlik texnikasining uyg'unlashuvi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *musiqali teatr, ariya, dramaturgiya, dramatik holat, aktyor mahorati, vokal ijrochiligi.*

CHALLENGES OF TRANSITIONING FROM A DRAMATIC SITUATION TO AN ARIA IN MUSICAL THEATRE

Abstract. *In this article, the process by which an actor in musical theatre transitions from a dramatic state to an aria, the stage-related and musical emergence of the aria, and its dramaturgical function are examined on the basis of scientific and theoretical principles. The study analyzes the organic interconnection between dramatic action and musical expression, the actor's inner experiences, psychophysical state, and the integration of vocal and acting techniques.*

Keywords: *musical theatre, aria, dramaturgy, dramatic state, acting mastery, vocal performance.*

Musiqali teatrda drama, vokal va plastik harakat munosabatlari o'zaro uyg'unlashib, yaxlit badiiy-estetik yaxlitlikni tashkil etadi. Insoniyat madaniyati taraqqiyotiga nazar tashlasak, ruhiy kechinmalarning nutqiy ifodadan musiqiy ohangga, ya'ni qo'shiqqa evrilishi azaliy va qonuniyatli jarayon ekanligini ko'ramiz.

Ushbu janrning o'ziga xosligi qahramonning ichki iztiroblari va emotsional holati eng yuqori kulminatsiya nuqtasiga ko'tarilgan pallada musiqaning yetakchi vositaga aylanishi bilan belgilanadi.

Sahnadagi dramatik voqealikning ariyaga o'tish jarayoni ijrochidan universal mahoratni talab etuvchi eng nozik konseptual nuqtadir. Mazkur transformatsiya shunchaki shakliy o'zgarish emas, balki qahramon psixologiyasidagi sifat yangilanishining natijasidir. Shu bois, musiqali teatr aktyori dramatik talqin mahorati bilan bir qatorda, akademik vokal texnikasini ham professional darajada egallashi, eng muhimi, ularni sahnada uzviy bog'lay olishi zarur. Bu sohada aktyorlik mahorati fani sahna ijrochiligini vokal, nutq, raqs va harakat kabi muhim yo'nalishlar bilan bir butunlikda birlashtiradi.

Musiqali spektakllarda har bir harakatning mazmuniy salmog'i bevosita musiqiy dramaturgiyaga tayanadi, chunki bu janrda aktyorlik ijodining ko'p jihatlari avvaldan partitura bilan aniq muvofiqlashtirilgan bo'ladi. K.S.Stanislavskiy ta'kidlaganidek, "Musiqali teatr aktyorlari, sozandalar, xonandalar, raqqoslar – baxtli odamlar, chunki, ularda tempo-ritm muammosi oldindan hal qilingan. Musiqa bizda tuyg'ularni uyg'otadi, lekin aktyor shu tuyg'ularni sahnaviy xatti-harakatlarga ko'chira bilishi kerak. Musiqa bizga tuyg'ular mantig'ini ochib beradi, uning yordamida sahnaviy xatti-harakat mantig'i teriladi va mana shu xatti-harakatlarni bajara borib biz ijod jarayonida musiqa bergan tuyg'ularga qaytamiz" [1, 27-b]. Haqiqatan ham, musiqa aktyorga qahramonning ichki dunyosini va his-tuyg'ulari mantig'ini ochib beruvchi asosiy vositadir. Aktyor musiqadagi ana shu tuyg'ularni sahnaviy xatti-harakatlarga aylantira olishi natijasida asarning ta'sir kuchi yanada ortadi va ijodiy jarayon o'zining tugal yechimini topadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ushbu ixtisoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayoni o'zining murakkab va konseptual vazifalariga ega. Talaba o'z ijodiy faoliyatida akademik vokal qonuniyatlarini saqlagan holda, professional aktyorlik psixotexnikasini namoyon etishi, nafas va ovoz imkoniyatlarini dinamik sahna harakati bilan sinxronlashtirishi lozim.

Musiqqa aktyorda tuyg'ular mantig'ini uyg'otib, uni muayyan xatti-harakatlar tizimiga yo'naltiradi. Aktyor musiqadagi ana shu hissiy quvvatni aniq sahnaviy harakatga aylantira olishi natijasida asarning badiiy ta'sir kuchi ortadi. Binobarin, musiqiy teatr bo'limida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislar oldida nafaqat musiqani tinglash, balki undagi ohangni aniq harakatga ko'chirish va bastakor belgilagan vaqt o'lchami doirasida yaxlit obraz yaratishdek murakkab vazifa turadi. Talabaning musiqiy usulga bo'ysunishi uning har bir harakatini ichki psixologik asos bilan to'ldirishi bilan qimmatlidir. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislar tayyorlash jarayonida pedagogik metodikaning o'ziga xos maktabi yaratilishi bilan belgilanadi. Bu borada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Musiqali teatr san'ati" kafedrasida professori Nasrullo Qobilovning ilmiy-pedagogik faoliyati hamda uning muallifligidagi "To'da" musiqali dramasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarning yaratilish tarixi bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lib, u aynan soha talabalarining professional imkoniyatlari va aktyorlik mahorati mezonlaridan kelib chiqqan holda dramaturgik jihatdan pishiq ishlangandir.

Mazkur asarning badiiy qimmatini va pedagogik salmog'i, shuningdek, musiqiy partiturada ham yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston san'at arbobi, professor Bahrullo Lutfullayev tomonidan maxsus yozilgan musiqalar talabalarining ovoz diapazoni, vokal imkoniyatlari hamda sahna harakati bilan bog'liq bo'lgan fiziologik jihatlarni to'liq inobatga olgan. Binobarin, "To'da" spektakli nafaqat badiiy asar, balki talabalar uchun dramatik holatdan ariyaga o'tish ko'nikmalarini shakllantiruvchi o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'taydi.

Asar voqealari Yoshlar hayotidan olingan bo'lib ushbu asarda "inson va giyohvandlik" o'rtasidagi kurash kabi og'riqli muammo bosh mavzu qilib olingan. Pyesaning asosiy g'oyasi-dunyoni go'zallik, poklik va ezgulik har qanday balodan qutqara olishi haqidagi ijtimoiy-axloqiy aqidaga tayanadi. Talabalar mazkur asar ustida ishlar ekanlar, hayotning og'ir sinovlarini va insoniy poklikni saqlab qolish mas'uliyatini nafaqat so'z, balki musiqiy-sahnaviy harakatlar orqali ifoda etish imkoniga ega bo'ladilar. Asarning markaziy voqealaridan birida bosh qahramon

Komola va uning onasi o'rtasidagi murakkab dramatik to'qnashuv o'z ifodasini topadi. Voqea yarim tunda, jamiyatning zararli illatlari uyasiga aylangan eski masjid binosida kechadi. Komola o'zi ko'ngil qo'ygan inson-ma'naviy inqirozga yuz tutgan Samandar bilan ko'rishish uchun kelganida, uni xavotir bilan izlab kelgan onasi ustidan chiqadi. Bu sahnada ona o'z jigarbandini xatardan qutqarishga, uni bu noto'g'ri yo'ldan qaytarishga bor kuchi bilan urinadi. Biroq Komola onasidan faqat bir narsani -Samandar bilan birga bo'lishi uchun rozilik berishini o'tinib so'raydi. Qizning o'z qarorida qat'iy turishi va onaning nasihatlariga quloq solmasligi vaziyatni eng yuqori dramatik nuqtaga olib chiqadi.

Onaning qalbida kechayotgan ichki tug'yonlar, qizining taqdiri uchun chekayotgan iztiroblari oddiy nutq doirasidan chiqib, musiqiy obraz-ariya darajasiga ko'tariladi. Mazkur holatda aktyor uchun so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan dardni musiqiy ohanglar orqali yetkazish ehtiyoji tug'iladi. Natijada ushbu hayajonli lahzalar "Alla" ariyasiga ulanib ketadi. Bu sahnada alla ona mehrining, farzand pokligi uchun qilinayotgan nido va duoning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Musiqiy teatr aktyori uchun ushbu ariyani ijro etishda nafaqat vokal mahorati, balki onaning ichki kechinmalarini musiqiy usul va temp-ritmgga bo'ysundirgan holda xatti-harakatlarda ko'rsatib berish muhim vazifa hisoblanadi. Bu xususida professor H.Mahmudova quyidagi fikrni ilgari suradi. "Aktyor ijrosida xatti-harakatni aniq belgilash muhim ahamiyatga egadir. Agar belgilangan xatti-harakat hissiyotlarni qo'zg'atishga xizmat qilmasa, bu belgilanishdan naf yo'q" [2, 45-b].

Ustoz Nasrullo Qobilovning "aktyor rolda o'ynamasligi, balki unda yashashi shart" degan konseptual yondashuvi Said Ahmadning "Ufq" romani asosida sahnalashtirilgan spektakl misolida ham dramatik holatning ariyaga aylanish jarayonini mahorat bilan ochib beradi. Xususan, betob Nizomjonning onasini qo'msab bosinqirashi va bu holatni ko'rib yurak-bag'ri qon bo'lgan Jannat ayaning ichki tug'yoni so'z qolipi ichiga sig'may qolishi natijasida ariyaning tug'ilishi musiqali teatrning oliy maqsadi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, ushbu jarayonda aktrisa qahramonning dardini chin dildan his qilib yig'lagan pallada nafas

yo'llarining bo'g'ilishi va jismoniy toliqish yuzaga kelishi vokal texnikasini maromiga yetkazib ijro etishda jiddiy to'siqlarni keltirib chiqaradi, bu esa bo'lajak mutaxassislardan emotsional hayajonni vokal oqimiga to'g'ri yo'naltirish mahoratini talab qiladi. Xuddi shuningdek, Tursunboy obrazining onasi vafotidan so'ng yolg'iz qolishi va dahshat girdobiga tushishi natijasida yuzaga kelgan ariya ham dramatik matndan musiqa o'tishdagi psixofizik tayyorgarlik pallasining yorqin namunasi. Shu nuqtayi nazardan, dramatik holatdan ariyaga o'tishdagi ziddiyatlarni ilmiy asosda o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq qilish, aktyorning ichki kechinmalarini vokal texnikasining imkoniyatlari bilan sinxronlashtirish zamonaviy musiqali teatr san'atining ijrochilik saviyasini oshirishda dolzarb metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'lajak mutaxassislar tayyorlashda aktyorning ichki kechinmalarini vokal texnikasi imkoniyatlari bilan ilmiy asoslangan holda sinxronlashtirish lozim. Mazkur integratsiya musiqali teatrda ariyani shunchaki estetik element sifatida emas, balki qahramon ruhiy holatining eng oliy ifodasi sifatida shakllantiradi. Demak, dramatik vaziyat va vokal ijrosi o'rtasidagi ushbu uzviylik zamonaviy musiqali teatr san'atida ijrochilik saviyasini metodologik jihatdan takomillashtirishning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кресту Г. *К.С.Станиславский в оперном театре.* – Москва: Искусство, 1967. – 368 с.
2. Mahmudova H. *Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili: Darslik.* – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2015. – 160 b.
3. Qobilov N., Dadamirzayev O. *Aktyorlik mahorati fanini o'qitish metodikasi.* – Toshkent: Navro'z, 2021. – 192 b.

Malika Xudoyberdiyeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Qo'g'irchoq teatri aktyorligi
mutaxassisligi magistranti
E-mail: malikazulfiqorova02@gmail.com*

QO'G'IRCHOQ TEATRIDA SAHNA NUTQINING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada qo'g'irchoq teatri san'atida sahna nutqining o'rni, uning obraz yaratishdagi funksional ahamiyati hamda badiiy ifoda vositasi sifatidagi roli ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, aktyor nutqining texnik va estetik jihatlari, nutq madaniyati hamda uning zamonaviy teatr jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** qo'g'irchoq teatri, sahna nutqi, aktyor nutqi, diksiya, intonatsiya, ovoz, obraz.*

THE SIGNIFICANCE OF STAGE SPEECH IN PUPPET THEATRE

***Abstract.** This article examines the importance of stage speech in puppet theater, its role in character creation, and its expressive potential. The technical and aesthetic aspects of an actor's speech and the significance of speech culture in modern theatrical practice are analyzed.*

***Keywords:** puppet theater, stage speech, actor speech, diction, intonation, voice, character*

Qo'g'irchoq teatri insoniyat madaniy taraqqiyotining qadimiy qatlamlariga borib taqaladigan san'at turlaridan biri hisoblanadi. Uning dastlabki ko'rinishlari qadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo hududlarida shakllangan bo'lib, dastlab marosimiy va diniy xarakter kasb etgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, qo'g'irchoqlar orqali turli mifologik obrazlar ifodalangan va ular yordamida jamiyatdagi muhim ijtimoiy g'oyalar targ'ib qilingan. Bu jarayonda nutq, ayniqsa, og'zaki ifoda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Vaqt o'tishi bilan qo'g'irchoq teatri asta-sekin mustaqil san'at turi sifatida rivojlana boshladi. Markaziy Osiyoda qo'g'irchoq o'yinlari xalq tomoshalari

shaklida keng tarqaldi. Bu tomoshalarda so'z san'ati, ya'ni nutq, asosiy badiiy vosita sifatida qo'llanildi. Aynan nutq orqali tomoshabin bilan bevosita aloqa o'rnatildi va sahna jarayonining mazmuni yetkazildi. Shunday qilib, sahna nutqi qo'g'irchoq teatrining tarixiy rivojlanishida muhim o'rin egallagan.

Qo'g'irchoq teatrining keyingi taraqqiyot bosqichlarida uning shakl va mazmun jihatdan boyishi kuzatildi. Ayniqsa, Yevropa teatr maktablarining rivojlanishi natijasida qo'g'irchoq teatrida professional yondashuv shakllandi. Bu davrda sahna nutqiga bo'lgan talablar keskin oshdi. Nutq nafaqat matnni yetkazish vositasi, balki obraz yaratishning asosiy komponentiga aylandi [1, 65-b].

O'zbek qo'g'irchoq teatri ham boy tarixiy an'analarga ega. Xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ushbu san'at turida nutq orqali obraz yaratish an'anasi qadimdan shakllangan. Xalq tomoshalarida qo'g'irchoq qahramonlari o'ziga xos nutq uslubi bilan ajralib turgan. Bu esa sahna nutqining milliy xususiyatlarini yuzaga keltirgan.

Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqining ahamiyati uning funksional vazifalari bilan belgilanadi. Avvalo, nutq kommunikativ vazifani bajaradi, ya'ni tomoshabinga axborot yetkazadi. Biroq uning bundan ham muhimroq vazifasi – badiiy ifoda vositasi sifatida obrazni shakllantirishdir. Nutq orqali obrazning xarakteri, ichki dunyosi va psixologik holati ochib beriladi [2, 44-b].

Qo'g'irchoq teatrida aktyor sahnada ko'rinmaydi, shu bois uning ovozi obrazning asosiy tashuvchisi hisoblanadi. Ovoz orqali tomoshabin obrazni idrok etadi va unga nisbatan munosabat bildiradi. Shu jihatdan ovozning tembri, kuchi, balandligi va ohangdorligi katta ahamiyat kasb etadi. Har bir obraz uchun alohida nutq uslubi tanlanadi va bu obrazning individual xususiyatlarini belgilaydi.

Sahna nutqining asosiy elementlaridan biri bu diksiya hisoblanadi. Diksiya – tovushlarning aniq va ravon talaffuz qilinishidir. Qo'g'irchoq teatrida diksiya ayniqsa muhim, chunki tomoshabin aktyorni emas, balki uning ovozini qabul qiladi. Talaffuzdagi kichik xatolik ham obrazning qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Intonatsiya sahna nutqining emotsional jihatini belgilaydi. Nutqdagi ohang o'zgarishlari orqali obrazning kayfiyati, ruhiy holati va ichki kechinmalari ifodalanadi. Intonatsiya yordamida dramatik vaziyatlar kuchaytiriladi va tomoshabinning hissiy qabul qilish darajasi oshiriladi.

Nutqning tempi va ritmi sahna jarayonining ichki harakatini belgilaydi. Temp obrazning xarakteriga mos ravishda tanlanadi. Masalan, sokin xarakterdagi obrazlar sekin va mulohazali nutq bilan ifodalanadi, faol obrazlar esa tez va jo'shqin nutq bilan ajralib turadi. Ritm esa nutqning musiqiyligini ta'minlaydi.

Ovoz tembri qo'g'irchoq teatrida obrazni individuallashtiruvchi muhim vositadir. Turli tembrlar orqali obrazlar o'rtasida aniq farq yaratiladi. Bu esa tomoshabinga har bir qahramonni alohida idrok etish imkonini beradi.

Sahna nutqida nafas olish texnikasi muhim rol o'ynaydi. To'g'ri nafas olish nutqning barqarorligini ta'minlaydi va uzoq matnlarni ravon ifodalash imkonini beradi. Nafasni boshqarish aktyor nutqining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir [3, 29–30-b]. Artikulyatsiya nutq apparatining to'g'ri ishlashini ta'minlaydi. Lab, til va jag' harakatlarining uyg'unligi natijasida tovushlar aniq chiqadi. Artikulyatsiya ustida ishlash nutqning ravonligini oshiradi va talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etadi.

Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqi obrazni jonlantirish bilan birga tomoshabin bilan emotsional aloqa o'rnatadi. Nutq orqali tomoshabin voqealarga jalb etiladi va sahna jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu jihatdan nutqning ifodaviyligi spektakl muvaffaqiyatining muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy qo'g'irchoq teatrida sahna nutqiga bo'lgan talablar yanada ortib bormoqda. Texnologik rivojlanish natijasida teatr san'atida yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Ovoz texnologiyalari, mikrofon tizimlari va ovozni qayta ishlash vositalari nutqning yangi darajada ifodalanishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrida sahna nutqi nafaqat an'anaviy usullar, balki innovatsion yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Multimediya

texnologiyalarining qo'llanilishi nutq imkoniyatlarini kengaytirmoqda va yangi badiiy shakllarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar sahna nutqini o'qitish jarayoniga ham joriy etilmoqda. Maxsus treninglar, fonetik mashqlar va amaliy mashg'ulotlar orqali aktyorlarning nutq mahorati oshirilmoqda.

Hozirgi davrda qo'g'irchoq teatri global madaniy jarayonlarning bir qismi sifatida rivojlanmoqda. Xalqaro festivallar, ijodiy almashinuvlar va hamkorlik loyihalari sahna nutqining yangi qirralarini ochib bermoqda [4, 98-b]. Natijada sahna nutqi qo'g'irchoq teatrlarining asosiy badiiy komponenti sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda va yangi sharoitlarda yanada takomillashib bormoqda. Uning rivojlanishi teatr san'ati taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois sahna nutqini ilmiy asosda o'rganish, uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Qo'g'irchoq teatri san'atida sahna nutqining o'rni va ahamiyati olib borilgan ilmiy tahlillar asosida shuni ko'rsatadiki, mazkur san'at turida nutq obrazni shakllantiruvchi va uni tomoshabinga yetkazuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Qo'g'irchoqning tashqi harakati va vizual ifoda imkoniyatlari cheklangan sharoitda aynan nutq orqali uning ichki mazmuni, xarakter xususiyatlari va dramatik vazifasi to'liq ochib beriladi. Shu bois sahna nutqi nafaqat texnik mahorat, balki chuqur badiiy tafakkur mahsuli sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, sahna nutqining sifat darajasi spektaklning umumiy badiiy qiymatini belgilovchi muhim mezonlardan biridir. Nutqning aniqligi, ifodaliligi va emotsional ta'sir kuchi tomoshabinning sahna jarayonini qabul qilish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatrida ovozning tembr imkoniyatlari, intonatsion boyligi va ritmik uyg'unligi obrazning individualligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sahna nutqining shakllanishi aktyorning kasbiy tayyorgarligi, nutq madaniyati va pedagogik yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlanadi. Nutq ustida tizimli ishlash, maxsus fonetik va artikulyatsion mashqlarni

muntazam bajarish aktyor mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki ijodiy tafakkurni ham boyitadi.

Zamonaviy teatr jarayonida sahna nutqining ahamiyati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy sahna yechimlari nutqning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirib, yangi badiiy shakllarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy nutq madaniyatini saqlab qolish va uni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, qo'g'irchoq teatrida sahna nutqi san'atning markaziy elementi sifatida o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uni ilmiy asosda o'rganish, amaliy jihatdan takomillashtirish va zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish teatr san'ati taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Shonbrunn qo'g'irchoq teatri va YUNESCO nomoddiy madaniy merosi.* – YUNESCO rasmiy nashrlari.
2. *Qodirov M., Qodirova S. O'zbek qo'g'irchoq teatri tarixi.* – Toshkent: Talqin, 2006. – 160 b.
3. *O'zbekiston madaniyat festivallari va xalqaro hamkorlik // "Madaniyat va san'at" jurnali.* – 2022. – №4. – B. 29–30.
4. *Rahimov A. O'zbek xalq ertaklari asosida qo'g'irchoq spektakllarini sahnalashtirish.* – Toshkent: Fan, 2021. – 140 b.

Rasuljon Tog'oykulov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Dramatik teatr rejissyorligi mutaxassisligi magistranti
E-mail: rasulbek0215@gmail.com*

TEATR SAHNA ASARLARINI YARATISHDA GENERATIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada teatr sahna asarlarini yaratish jarayonida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, sahna asari syujetini ishlab chiqish, personajlar dialoglarini yaratish, dekoratsiya va kostyum dizaynlarini loyihalash hamda tomoshabinlar bilan interaktiv aloqani tashkil etishda generativ texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyalarning teatr san'ati rivojiga ta'siri, afzalliklari va mavjud muammolari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** generativ sun'iy intellekt, teatr san'ati, sahna asari, dramaturgiya, raqamli texnologiyalar, kreativ industriyalar, interaktiv teatr.*

THE ROLE OF GENERATIVE TECHNOLOGIES IN CREATING THEATRICAL STAGE PRODUCTIONS

***Abstract.** This article analyzes the possibilities of using generative artificial intelligence technologies in the process of creating theatrical stage productions. In particular, it highlights the significance of generative technologies in developing plotlines, generating character dialogues, designing stage scenery and costumes, and organizing interactive communication with audiences. The article also provides a scientific analysis of the impact of these technologies on the development of theatrical art, their advantages, and the existing challenges associated with their application.*

***Keywords:** generative artificial intelligence, theatrical art, stage production, dramaturgy, digital technologies, creative industries, interactive theatre.*

XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanib, jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida chuqur transformatsion jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot va boshqaruv tizimlari bilan bir qatorda madaniyat hamda san'at sohalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ijodiy faoliyatning yangi shakllarini vujudga keltirib, an'anaviy san'at turlarini zamonaviy texnologik yechimlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. So'nggi yillarda generativ sun'iy intellekt tizimlarining paydo bo'lishi ijodkorlik va texnologiya o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Generativ texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida yangi matnlar, tasvirlar, musiqalar, videolar va boshqa turdagi raqamli mahsulotlarni yaratishga qodir bo'lgan zamonaviy sun'iy intellekt tizimlari hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat texnik jarayonlarni avtomatlashtirish, balki insonning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangi badiiy g'oyalarni shakllantirish imkoniyatini ham yaratmoqda. Natijada, san'atning turli yo'nalishlarida innovatsion yondashuvlar paydo bo'lib, ijodiy mahsulotlarni yaratish mexanizmlari sezilarli darajada takomillashmoqda.

Teatr san'ati insoniyat madaniy merosining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u tarix davomida jamiyatning ma'naviy, estetik va madaniy ehtiyojlarini qondirishda alohida o'rin egallab kelgan. Teatr sahna asarlari dramaturgiya, aktyorlik mahorati, rejissura, sahna bezagi, musiqiy yechimlar va tomoshabin bilan muloqot kabi ko'plab ijodiy elementlarning uyg'unlashuvi natijasida yaratiladi. Shu sababli teatr san'ati doimo yangi g'oyalar va innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj sezadigan murakkab ijodiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda generativ sun'iy intellekt texnologiyalari teatr sahna asarlarini yaratishning turli bosqichlarida samarali qo'llanilmoqda. Xususan, ular dramaturgik syujetlarni shakllantirish, dialoglar yaratish, personajlarning xarakter xususiyatlarini ishlab chiqish, sahna dekoratsiyalarini loyihalash hamda musiqiy va vizual

kontentlarni tayyorlash jarayonlarida muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bunday imkoniyatlar ijodkorlarga qisqa vaqt ichida ko'plab variantlarni ishlab chiqish, turli badiiy konsepsiyalarni sinovdan o'tkazish va spektakllarning badiiy sifatini oshirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, generativ texnologiyalarning teatr faoliyatiga integratsiyalashuvi tomoshabinlar bilan interaktiv aloqalarni rivojlantirish, virtual va kengaytirilgan reallik elementlarini sahna san'atiga tatbiq etish hamda yangi formatdagi raqamli spektakllarni yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq mazkur texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq mualliflik huquqi, yaratilgan kontentning originalligi, estetik sifat va inson ijodkorligining o'rni kabi masalalar ham ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sun'iy intellekt va kreativ industriyalar o'rtasidagi bog'liqlik masalalari ko'plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. N.Negroponte, H.Simon, M.Boden va R.Florida kabi tadqiqotchilar raqamli texnologiyalarning ijodiy faoliyatga ta'sirini o'rganganlar. So'nggi yillarda generativ sun'iy intellektning san'at sohasida qo'llanilishi bo'yicha ilmiy izlanishlar soni sezilarli darajada ortdi.

Teatr san'atida esa texnologik innovatsiyalar asosan multimedia, virtual reallik va interaktiv sahna tizimlari bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Biroq generativ sun'iy intellektning sahna asarlarini yaratishdagi amaliy imkoniyatlari hali ham chuqur o'rganishni talab etadi. Shu sababli mazkur tadqiqot teatr san'ati va generativ texnologiyalar integratsiyasining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv usullardan foydalanildi. Shuningdek, teatr san'ati va sun'iy intellekt bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar hamda zamonaviy teatr loyihalari tajribalari o'rganildi.

Generativ texnologiyalarning teatr faoliyatidagi o'rni dramaturgiya, rejissura, sahna bezagi va tomoshabinlar bilan muloqot kabi asosiy yo'nalishlar kesimida tahlil qilindi.

Zamonaviy teatr san'atida generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi ijodiy faoliyatning mazmuni va tashkiliy mexanizmlarida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu texnologiyalar matn, tasvir, audio va video kontentlarni avtomatik yaratish imkoniyatiga ega bo'lib, teatr sahna asarlarini tayyorlashning deyarli barcha bosqichlarida samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada spektakllarni yaratish jarayonlari tezlashib, ijodiy jamoalarning yangi badiiy g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyatlari kengaymoqda.

Avvalo, generativ texnologiyalar dramaturgiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy dramaturgiyada asar syujeti, konflikt tizimi va personajlar xarakterini shakllantirish ko'p vaqt talab qiladigan ijodiy jarayon hisoblanadi. Sun'iy intellekt esa mavjud adabiy manbalar, dramaturgik uslublar va syujet modellarini tahlil qilgan holda turli ssenariy variantlarini taklif qilishi mumkin. Bu esa dramaturg va rejissyorlarga yangi g'oyalarni ishlab chiqish, syujet rivojining muqobil yo'nalishlarini baholash hamda badiiy tajribalarni amalga oshirish imkonini beradi.

1-jadval

Generativ texnologiyalarning dramaturgiya jarayonidagi imkoniyatlari

Faoliyat yo'nalishi	An'anaviy usul	Generativ texnologiyalar imkoniyati
Syujet yaratish	Muallif tomonidan uzoq muddat ishlab chiqiladi	Bir necha variantdagi syujetlarni qisqa muddatda yaratadi
Dialog yozish	Qo'lda yoziladi va qayta ishlanadi	Personajlarga mos dialoglarni avtomatik taklif qiladi
Personaj xarakteri	Muallif tajribasiga bog'liq	Turli xarakter modellarini shakllantiradi
Ssenariy tahriri	Ko'p bosqichli tahlil talab etadi	Xatolar va mantiqiy nomuvofiqliklarni aniqlashga yordam beradi

Bundan tashqari, generativ tasvir yaratish texnologiyalari sahna dizaynini loyihalashda keng qo'llanilmoqda. Spektaklning badiiy ta'sirchanligi ko'p jihatdan dekoratsiya, kostyum va yoritish tizimlariga bog'liq. Sun'iy intellekt vositalari yordamida sahna ko'rinishlarining turli konseptual variantlari qisqa vaqt ichida ishlab chiqilishi mumkin. Bu esa rejissyor va rassomlarga yakuniy dizayn yechimini tanlashda qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, tarixiy va fantastik janrdagi spektakllarda generativ texnologiyalar murakkab vizual kompozitsiyalarni yaratishda katta samara bermoqda.

2-jadval

Generativ texnologiyalarning sahna bezagi va vizual dizayndagi afzalliklari

Yo'nalish	Qo'llanilish shakli	Natija
Dekoratsiya yaratish	Raqamli eskizlar va maketlar tayyorlash	Vaqt va mablag' tejaladi
Kostyum dizayni	Turli uslubdagi modellar ishlab chiqish	Ijodiy variantlar soni ortadi
Yoritish tizimi	Sahna yoritilishining virtual simulyatsiyasi	Optimal yoritish sxemasi tanlanadi
Vizual effektlar	3D va multimedia elementlarini yaratish	Spektaklning estetik ta'siri kuchayadi

Teatr faoliyatida audio texnologiyalar ham muhim o'rin tutadi. Generativ sun'iy intellekt vositalari yordamida musiqiy kompozitsiyalar, fon tovushlari va maxsus audio effektlarni yaratish mumkin. Bu ayniqsa kichik byudjetli teatrlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, qo'shimcha xarajatlarsiz sifatli ovoqli materiallarni tayyorlash imkonini beradi. Shuningdek, generativ texnologiyalar aktyorlarning nutqini tahlil qilish, talaffuz va intonatsiyani takomillashtirishda ham foydalanilmoqda. So'nggi yillarda interaktiv teatr loyihalarining rivojlanishi sun'iy intellektning yangi qo'llanilish yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. Bunday spektakllarda tomoshabinlarning hissiy reaksiyalari, ovoqli javoblari yoki raqamli

platformalardagi faolligi tahlil qilinib, sahna voqealari rivoji mos ravishda o'zgartirilishi mumkin. Natijada tomoshabin passiv kuzatuvchidan ijodiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Shunga qaramasdan, generativ texnologiyalarni teatr amaliyotida qo'llash bilan bog'liq qator muammolar ham mavjud. Eng avvalo, mualliflik huquqi masalasi dolzarb hisoblanadi. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentning muallifi kim ekanligi bo'yicha xalqaro miqyosda yagona yondashuv shakllanmagan. Bundan tashqari, ayrim hollarda algoritmlar tomonidan yaratilgan badiiy mahsulotlar inson ijodkorligiga xos hissiy chuqurlik va estetik ta'sirchanlik darajasiga erisha olmaydi. Alohida e'tibor talab etadigan muhim muammo – generativ texnologiyalarning yosh avlod ijodkorlariga ko'rsatadigan salbiy ta'siridir. Tayyor ssenariy va dialog variantlarini avtomatik olish imkoniyati yosh dramaturg va rejissyorlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini susaytirishi mumkin.

3-jadval

Generativ texnologiyalarni teatr san'atida qo'llashning afzalliklari va muammolari

Afzalliklar	Muammolar
Ijodiy jarayon tezlashadi	Mualliflik huquqi bilan bog'liq masalalar mavjud
Yangi g'oyalar va konsepsiyalar yaratiladi	Kontentning originalligi bo'yicha bahslar mavjud
Xarajatlar qisqaradi	Texnologik qaramlik yuzaga kelishi mumkin
Vizual va audio imkoniyatlar kengayadi	Inson hissiyotlarini to'liq aks ettira olmaydi
Interaktiv spektakllarni yaratish imkonini beradi	Axloqiy va huquqiy cheklovlar mavjud

Ijodning ta'mal toshi hisoblangan tasavvur (fantaziya)ning rivojlanishi uzoq muddatli mushohada, izlanish va tajribaga asoslanadi; agar yosh ijodkor dastlab sun'iy intellektga murojaat qilsa, bu jarayon to'xtatib qo'yiladi.

Natijada texnologiyaga bog'liqlik kuchayib, o'z uslubini topa olmagan, original badiiy g'oyadan mahrum ijodkorlar avlodi yuzaga kelishi xavfi tug'iladi. Shu sababli generativ texnologiyalardan foydalanishda "vosita sifatida" va "o'rinbosar sifatida" chegarasini aniq belgilab olish pedagogik va siyosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy tajriba nuqtayi nazaridan, mazkur tadqiqot muallifi Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali Teatrida sahnalashtirilayotgan "Xumoy" spektakli ustida ishlash jarayonida generativ texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini bevosita sinab ko'rilyapti. Xususan, spektaklning dramaturgik asosini yaratishda syujet variantlarini tez ko'rib chiqish, dekoratsiya va kostyum g'oyalarni vizuallashtirishda generativ tasvir vositalaridan – ya'ni spektakl jarayonida visual effektlardan: video namunalardan foydalanildi. Shu bilan birga, yakuniy badiiy qarorlar rejissyor va ijodiy jamoaning mustaqil fikri asosida qabul qilindi – texnologiya ko'mak berdi, lekin ijodkor o'rnini bosmadi. Ushbu tajriba shuni ko'rsatdiki, generativ texnologiyalar amaliy teatr ishida vaqtni tejash va muqobil g'oyalarni baholash uchun samarali vosita bo'la oladi, biroq spektaklning ruhini, milliy koloritini va tomoshabin bilan hissiy aloqasini yaratish – bu faqat inson ijodkorligining mevasidir.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar generativ texnologiyalar teatr san'atida inson ijodkorligini almashtirish emas, balki uni qo'llab-quvvatlash va yangi imkoniyatlar bilan boyitishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalardan oqilona va maqsadli foydalanish sahna asarlarining badiiy sifati, texnologik darajasi hamda tomoshabinlar bilan muloqot samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kelajakda generativ sun'iy intellekt va teatr san'ati integratsiyasi yanada rivojlanib, yangi shakldagi innovatsion spektakllarning yaratilishiga zamin yaratishi kutilmoqda.

Tadqiqot natijalari generativ texnologiyalar teatr sahna asarlarini yaratish jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganini ko'rsatdi. Ular dramaturgiya, sahna dizayni, musiqiy bezak va tomoshabinlar bilan interaktiv muloqotni tashkil etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Kelgusida teatr muassasalarida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi, teatr xodimlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda sun'iy intellekt va san'at integratsiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Demak, generativ texnologiyalar teatr san'atining an'anaviy qadriyatlarini saqlagan holda uning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida baholanishi mumkin.

Teatr sahna asarlarini yaratishda generativ texnologiyalardan foydalanish zamonaviy sahna san'atining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Sun'iy intellekt va generativ tizimlar dramaturgiya, sahna bezagi, kostyum dizayni, vizual effektlar hamda musiqiy yechimlarni ishlab chiqishda ijodkorlar uchun samarali yordamchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalar ijodiy jarayonni tezlashtirish, yangi g'oyalarni shakllantirish va innovatsion sahna yechimlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, generativ texnologiyalar teatr san'atining asosiy omili bo'lgan inson ijodkorligini to'liq almashtira olmaydi. Ular rejissyor, dramaturg va rassomlarning badiiy qarashlarini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim. Teatr san'atining hissiy ta'sir kuchi, aktyor mahorati va jonli muloqotga asoslangan tabiati inson omilining ustuvorligini saqlab qoladi.

Xullas, generativ texnologiyalar va an'anaviy teatr san'ati uyg'unligi sahna asarlarining badiiy-estetik salohiyatini oshirish, tomoshabinning qiziqishini kuchaytirish hamda milliy teatr san'atining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boden M. *Artificial Intelligence and Natural Man*. – Hassocks: Harvester Press, 1977. – 537 p.
2. Florida R. *The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life*. – New York: Basic Books, 2019. – 512 p.
3. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. 4th ed. – Hoboken, NJ: Pearson Education, 2021. – 1136 p.
4. McKinsey Global Institute. *The Economic Potential of Generative AI: The Next Productivity Frontier*. – New York: McKinsey & Company, 2023. – 68 p.
5. UNESCO. *Artificial Intelligence and Cultural Creativity*. – Paris: UNESCO Publishing, 2024. – 56 p.
6. Luckin R. *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century*. – London: UCL IOE Press, 2018. – 166 p.
7. Manovich L. *Cultural Analytics*. – Cambridge, MA: The MIT Press, 2020. – 336 p.
8. European Commission. *Generative AI and Creative Industries Report*. – Brussels: European Commission, 2024. – 48 p.
9. Yo'ldoshev Q. *Sun'iy intellekt va ijodkorlik: imkoniyatlar va muammolar // O'zbekiston san'ati va madaniyati*. – Toshkent, 2023. – № 2. – B. 45–52.
10. Tursunov A., Xasanov B. *Raqamli texnologiyalar va teatr san'ati // San'atshunoslik masalalari: ilmiy maqolalar to'plami*. – Toshkent: O'zDSMI nashriyoti, 2022. – B. 78–85.
11. O'zbekiston Respublikasi. *Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasi*. – Toshkent, 2023. – 24 b.

Sardorjon G'ulomov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Musiqali teatr aktyorligi mutaxassisligi magistranti
E-mail: gulomovsardorjon@gmail.com*

VILOYAT TEATRLARINING RIVOJLANISHIDA TRANSFORMATSION YONDASHUV OMILLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada viloyat teatrlarining rivojlanishida transformatsion yondashuv omillari tahlil etiladi. Maqolada teatr san'atining hududiy darajada o'zgarishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, boshqaruv islohotlari, ijodiy strategiyalar va iqtisodiy omillar kabi asosiy transformatsion yo'nalishlar ko'rib chiqilgan. Ilmiy tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va empirik metodlardan foydalanilgan. Xulosa sifatida viloyat teatrlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** viloyat teatri, transformatsion yondashuv, teatr boshqaruvi, raqamli texnologiyalar, madaniy siyosat, ijodiy strategiya, hududiy rivojlanish.*

THE ROLE OF TRANSFORMATIONAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF REGIONAL THEATRES

***Abstract.** This article analyzes the role of transformational factors in the development of regional theatres. The study examines the main directions of transformation, including changes in theatre art at the regional level, the introduction of digital technologies, management reforms, creative strategies, and economic factors. Comparative analysis, a systematic approach, and empirical methods were employed in the research process. Based on the findings, practical recommendations were developed to ensure the sustainable development of regional theatres.*

***Keywords:** regional theatre, transformational factors, theatre management, digital technologies, cultural policy, creative strategy, regional development.*

So'nggi yillarda respublikamizda san'at va madaniyat sohalarini rivojlantirish borasida katta islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning teatr sohasiga doimiy e'tibori, bu borada qabul qilingan qator farmon va qarorlari milliy teatrimiz va viloyat teatrlarimizni yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasi va xodimlar salohiyatini mustahkamlash, xalqimiz o'rtasida teatr san'atiga bo'lgan qiziqish va e'tiborini yanada kuchaytirmoqda. 2024-yil 22-noyabrda qabul qilingan "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda teatr sohasi vakillari hamda San'at va madaniyat sohasi professor o'qituvchilariga qator vazifalar yuklandi. Mamlakatimizda teatr san'atini yanada rivojlantirish, teatrlar faoliyatini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohada ijodiy hamkorlik va erkinlikni ta'minlash, spektakllarning badiiy saviyasini oshirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, budjet mablag'lari va boshqa resurslardan samarali foydalanish, sohaga jahon teatr san'atining ilg'or tajribalari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qator maqsadlar olg'a surildi. Ushbu qaror nafaqat poytaxt, balki viloyat teatrlarining yanada yuksalishiga turtki bo'ldi.

Mamlakatimizga XX asr boshlarida kirib kelgan Yevropa rusumidagi professional teatr bugungi kunda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotiga butunlay singib ulgurdi. Milliy teatr san'atining tarixi, bugungi kuni va istiqboli haqida aniq hamda tugal tasavvur hosil qilish uchun poytaxt teatrlari bilan yonma-yon vujudga kelgan viloyat teatrlarining, o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy rivojlanish jarayonlaridan xabardor bo'lish lozim. Zamonaviy jamiyatda madaniyat va san'at muassasalari, jumladan teatrlar, nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni ham bajaradi. Viloyat teatrlari mahalliy aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, milliy o'zlikni saqlash va yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, globallashtirish jarayonlari, raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida viloyat teatrlari jiddiy transformatsion bosimga duch kelmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda madaniyat sohasini isloh qilish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

2017–2021-yillarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida madaniy meros va san’atni qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida e‘tiborga olingan. Ushbu davlat siyosati viloyat teatrlarining innovatsion rivojlanishiga yangi imkoniyatlar ochib berdi. Shu bilan birga, teatrlarning an’anaviy moliyalashtirish modellari, ijodiy kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va tomoshabinlar auditoriyasining o‘zgarishi kabi muammolar hal etilishini talab qilmoqda hamda viloyat teatrlarining transformatsion rivojlanishini ta’minlovchi omillarni ilmiy asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati mavjud. Ushbu maqola ushbu masalani kompleks tarzda o‘rganishga qaratilgan.

Transformatsion yondashuv dastlab iqtisodiyot va boshqaruv nazariyasida qo‘llanilgan bo‘lib, keyinchalik madaniyat sohasiga ham kirib kelgan. J.M.Burns (1978) tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion liderlik nazariyasi tashkilotlarni tizimli o‘zgartirish, innovatsiyalar joriy etish va yangi qadriyatlarni shakllantirish asosida quriladi [2, 45-b]. Teatr san’atiga nisbatan qo‘llanganda, ushbu yondashuv quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: repertuarni zamonaviylashtirish ya’ni, bugungi kundagi yurtimizda kuzatilayotgan dolzarb muammolarni yoritish va ularning oqibatlari, texnologik yangilanish va tomoshabinlar bilan munosabatlarni o‘zaro mustahkamlash ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston sharoitida viloyat teatrlarining transformatsiyasi bir nechta jihatdan o‘ziga xosdir. Bulardan, milliy an’analarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik, mablag‘ cheklanganligi hamda professional kadrlar tanqisligi. Shunga qaramay, ushbu cheklovlar yangi ijodiy yechimlarni izlashda davom etmoqda.

Raqamli transformatsiya zamonaviy teatr faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. UNESCO ning 2021-yilgi hisobotiga ko‘ra, COVID-19 pandemiyasi davomida xorijda 90% dan ortiq teatrlar onlayn formatga o‘tishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, ushbu jarayon ularga yangi auditoriyani jalb etish imkoniyatini ham yaratgan [3, 18-b]. O‘zbekistonda ham ushbu pandemiya paytida viloyat teatrlari onlayn formatga o‘tishdi. Bunda har bir viloyat teatrlari ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlarining sayti va sahifalarini joriy etdilar. Bugungi kunga kelib esa obunachilar va ko‘rishlar

soni jadal o'sib bormoqda. Shu bilan birgalikda sahna dizaynida video proyeksiya va texnologiyalaridan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli marketing orqali tomoshabinlar bilan muloqot o'rnatish, onlayn chiptalar sotish tizimlari va virtual spektakllarni tashkil etish yo'lga qo'yildi.

Raqamli yondashuv viloyat teatrlarining geografik cheklanganligini bartaraf etishga yordam beradi. Masalan, Samarqand, Namangan va Farg'ona viloyat teatrlari ijtimoiy tarmoqlarda aktiv bo'lganidan so'ng tomoshabinlar oqimi o'rtacha 30-40% ga oshganligi qayd etilgan [3, 126-b]. Biroq raqamli transformatsiya sof texnologik masala emas – u ijodiy jamoa a'zolarining raqamli savodxonligini oshirishni, yangi kasb ko'nikmalarini egallashni talab qiladi. Viloyat teatrlarining transformatsion rivojlanishida boshqaruv tizimini isloh qilish hal qiluvchi omil hisoblanadi. An'anaviy davlat moliyalashtirish modeli viloyat teatrlarini tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan zaif qiladi. Shu sababli, ko'plab mamlakatlar aralash moliyalashtirish modeliga o'tmoqda: davlat dotatsiyasi, tijoriy faoliyatdan tushum, homiylik va grant mablag'larining kombinatsiyasi shular sirasiga kiradi [4, 180-b].

Rossiya Federatsiyasi tajribasi viloyat teatrlari uchun dolzarb: 2006-yildan amalga oshirilgan "Milli loyihalar" dasturi doirasida hududiy teatrlar moliyaviy avtonomiya va boshqaruv mustaqilligiga ega bo'ldi. Natijada Yekaterinburg, Novosibirsk kabi shaharlar teatrlari xalqaro miqyosda tan olingan ijodiy markazlarga aylandi. O'zbekistonda ham xuddi shunday pilot loyihalarni sinab ko'rish maqsadga muvofiq, chunki bu teatrlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Boshqaruv islohotlari doirasida "ijodiy direktor" lavozimining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mutaxassis teatrning badiiy va iqtisodiy strategiyasini muvofiqlashtiradi, tashqi hamkorlarni jalb qiladi va xalqaro aloqalarni rivojlantiradi. Yevropa teatrlarida bu amaliyot keng tarqalgan bo'lib, O'zbekiston viloyat teatrlari uchun ham samarali natijalar berishi mumkin.

Transformatsion yondashuvning markazida teatrning ijodiy strategiyasi turadi. Repertuar siyosati – bu nafaqat qanday spektakllar qo'yilishi, balki kim

uchun, qanday maqsadda va qanday metodologiya asosida qo'yilishi haqidagi konseptual qarordir. Zamonaviy viloyat teatri uchun quyidagi repertuar modeli optimal hisoblanadi: an'anaviy milliy dramaturgiyani (30%), zamonaviy o'zbek muallif asarlarini (25%), jahon klassikasining mahalliyashtiruvchi interpretatsiyalarini (25%) va eksperimental ijodiy loyihalarni (20%) o'z ichiga olgan muvozanatlashgan repertuar [3, 27-b]. Ayniqsa, yoshlar uchun mo'ljallangan teatr loyihalari transformatsion omil sifatida alohida e'tiborga loyiq. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 16–30 yoshdagi yoshlarning teatrga qiziqishi so'nggi o'n yilda sezilarli pasaygan. Bu muammoni hal etish uchun Qashqadaryo va Surxondaryo viloyat teatrlari zamonaviy mualliflarning asarlarini sahna ga qo'yish hamda workshop va masterclass formatidagi ta'lim-amaliy tadbirlar o'tkazish orqali yosh tomoshabinlar auditoriyasini qayta jalb etishga erishgan. Teatrning transformatsiyasi, avvalo, uning ijodiy jamoasining sifatiga bog'liq. Viloyat teatrlarida professional kadrlarning yirik shaharlarga ko'chib ketish tendensiyasi ("beyin drain" hodisasi) asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bu muammoni hal qilishda quyidagi yondashuvlar samarali ekanligi isbotlangan: mahalliy universitetlar bilan hamkorlikda amaliyot bazasini tashkil etish, yosh iste'dodlarga grant va stipendiya berish, viloyat teatrlarida ijodiy laboratoriyalar va rezidensiya dasturlarini joriy etish.

Xorijiy tajribalarda viloyat teatrlari o'zining hududiy xosligini ijodiy brendga aylantirishi mumkin. Masalan, Polshaning Gdansk shahridagi teatr mahalliy dengiz folklorini, arxitektura merosini va hududning tarixi bilan bog'liq spektakllar orqali Yevropa miqyosida o'z identifikatsiyasini yaratdi. Shu qatorda O'zbekistonning har bir viloyati o'ziga xos tarix, musiqa va raqsga ega bo'lib, bu boyliklarni teatr san'atida ijodiy ko'rinishda taqdim etish transformatsion imkoniyat hisoblanadi.

Viloyat teatrlarining transformatsion rivojlanishi ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqarildi: birinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish viloyat teatrlarining geografik va demografik cheklanganligini bartaraf

etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ikkinchidan, boshqaruv islohotlari va moliyalashtirish modellarini diversifikatsiyalash teatrlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Uchinchidan, muvozanatlashgan repertuar siyosati an'ana va zamonaviylikni uyg'unlashtirish orqali turli yoshdagi tomoshabinlarni jalb etadi. To'rtinchidan, kadrlar tayyorlash va ijodiy laboratoriyalar tashkil etish insoniy kapitalning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Amaliy tavsiya sifatida quyidagilar taklif etiladi: viloyat teatrlari uchun alohida davlat dasturi ishlab chiqish, teatrlarga byudjet mablag'laridan tashqari grant mexanizmlari orqali qo'shimcha moliyalashtirish ta'minlash, xalqaro teatr festivallari va almashinuv dasturlarini kengaytirish va teatr – ta'lim tizimi hamkorligini institutsional jihatdan mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, viloyat teatrlarining rivojlanishi zamonaviy madaniy jarayonlar, boshqaruv tizimidagi islohotlar va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, transformatsion yondashuv teatrlarning ijodiy salohiyatini oshirish, tomoshabinlar auditoriyasini kengaytirish hamda madaniy xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Xususan, raqamli texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqish, boshqaruvning samarali mexanizmlarini joriy etish va ijodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash viloyat teatrlarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash teatrlarning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu bois transformatsion yondashuv omillaridan kompleks foydalanish viloyat teatrlarini yangi bosqichga olib chiqish va ularning milliy madaniyat taraqqiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlash imkonini beradi. viloyat teatrlarining rivojlanishida transformatsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv usullari, innovatsion texnologiyalar, ijodiy izlanishlar hamda tomoshabinlar ehtiyojlariga moslashish teatr faoliyatining samaradorligini oshiradi. Natijada viloyat teatrlari madaniy-

ma'rifiy markaz sifatida yanada rivojlanib, milliy san'at taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2024-yil, 22-noyabr.*
2. *Nishonova G. O'zbekiston viloyat teatrlarida raqamli marketingning ta'siri // Madaniyat va san'atshunoslik masalalari. – 2022. – №3. – B. 45–52.*
3. *Tursunov A. Teatr repertuar siyosati va tomoshabin auditoriyasi munosabati // O'zbekiston san'ati va madaniyati. – 2021. – №2. – B. 18–26.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi statistik to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 180 b.*

Xurshida Ro'ziqulova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Dramatik teatr rejissyorligi mutaxassisligi magistranti
E-mail: xurshidaroziqulova09@gmail.com*

TARIXIY OBRAZNING DRAMATURGIK VA SAHNAVIY INTERPRETATSIYASI: "TO'MARIS" SPEKTAKLINING BADIY-G'OYAVIY XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek teatr san'atida tarixiy shaxs obrazlarini sahnaviy talqin etish masalasi "To'maris" spektakli misolida tahlil qilinadi. Tahlil davomida spektaklning dramaturgik tuzilishi, sahna kompozitsiyasi, rejissura yechimi hamda aktyorlik ijrosining badiiy xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, To'maris obrazining sahna talqini orqali vatanparvarlik, milliy g'urur, jasorat va ayol matonati kabi g'oyalar qanday ifodalanganligi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "To'maris" spektakli o'zbek teatr san'atida tarixiy obrazlarni zamonaviy sahna interpretatsiyasi orqali yoritishda muhim badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'lib, tomoshabinlarda milliy tarix va madaniy merosga nisbatan qiziqish va hurmat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** teatr san'ati, tarixiy obraz, sahna interpretatsiyasi, dramaturgiya, To'maris, rejissura, aktyorlik mahorati, sahna kompozitsiyasi, vatanparvarlik g'oyasi.*

DRAMATURGICAL AND STAGE INTERPRETATION OF A HISTORICAL CHARACTER: THE ARTISTIC AND IDEOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PLAY "TOMYRIS"

***Abstract.** This article analyzes the issue of stage interpretation of historical figures in Uzbek theatrical art using the example of the play "Tomyris". The study examines the dramaturgical structure of the performance, stage composition, directing solutions, and the artistic features of acting performance. In addition, the paper analyzes how ideas such as patriotism, national pride, courage, and female resilience are expressed through the stage interpretation of the character of*

Tomyris. The results of the study indicate that the play "Tomyris" has significant artistic and aesthetic importance in presenting historical characters in modern Uzbek theatre and contributes to the development of audience interest and respect for national history and cultural heritage.

Keywords: *theatre art, historical character, stage interpretation, dramaturgy, Tomyris, directing, acting skills, stage composition, idea of patriotism.*

Bugungi kunda teatr san'ati milliy tarix va madaniy merosni targ'ib qilishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini sahna asarlari orqali yoritish tomoshabinlarda milliy o'zlikni anglash, tarixga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq tarixida muhim o'rin tutgan qahramonlarning badiiy talqini teatr san'atining dolzarb masalalaridan biridir [1, 22-b].

Ana shunday tarixiy siymolardan biri To'maris obrazidir. U qadimiy massagetlar malikasi sifatida tarix sahifalarida jasorat, qat'iyat va vatanparvarlik timsoli bo'lib qolgan. To'maris haqidagi rivoyatlar va tarixiy manbalar asosida yaratilgan sahna asarlari tomoshabinga nafaqat tarixiy voqealarni yetkazadi, balki insoniy fazilatlar, erk va ozodlik uchun kurash g'oyalarini ham targ'ib etadi. O'zbek teatr san'ati tarixida tarixiy shaxslar obrazini sahnada talqin etish muhim badiiy-estetik yo'nalishlardan biri hisoblanadi [2, 45-b]. Tarixiy obrazlar orqali xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari hamda milliy o'zlik haqidagi tasavvurlari badiiy shaklda ifodalanadi. Teatr san'ati ushbu jarayonda nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi san'at turi sifatida, balki tarixiy ongni shakllantiruvchi hamda milliy identifikatsiyani mustahkamlovchi muhim madaniy institut sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday tarixiy asarning muvaffaqiyati avvalo dramaturgik yechimning mukammalligiga bog'liq. "To'maris" spektaklida bosh qahramon obrazi nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki murakkab ruhiy kechinmalarga ega inson sifatida gavdalantiriladi. Dramaturg To'marisning davlat rahbari, ona va jasur sarkarda sifatidagi qirralarini uyg'unlashtirishga intiladi.

Asarda voqealar rivoji davomida To'marisning xarakteri bosqichma-bosqich ochib boriladi. Dastlab u o'z xalqining tinchligi va farovonligini ko'zlagan dono hukmdor sifatida namoyon bo'lsa, keyinchalik yurt mustaqilligiga tahdid tug'ilganda qat'iyatli va qo'rqmas sarkarda sifatida gavdalanadi. Bu esa obrazning dramatik kuchini oshiradi hamda tomoshabinda qahramonga nisbatan hurmat hissini uyg'otadi. Dramaturgik talqinning muhim jihatlaridan biri konflikt masalasidir. Spektakldagi asosiy ziddiyat To'maris va bosqinchi kuchlar o'rtasidagi kurash orqali namoyon bo'ladi. Ushbu kurash faqat harbiy to'qnashuv emas, balki ezgulik va yovuzlik, erkinlik va qullik, vatanparvarlik va bosqinchilik o'rtasidagi g'oyaviy qarama-qarshilik sifatida talqin qilinadi.

To'maris obrazi orqali ayolning jamiyatdagi o'rnini ham alohida ko'rsatib beriladi. Spektaklda ayol siymosi nafaqat mehr-muhabbat va sadoqat timsoli, balki xalq taqdirini hal qila oladigan kuchli shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu esa asarning zamonaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Tarixiy obrazni tomoshabinga ta'sirchan yetkazishda sahnaviy interpretatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. "To'maris" spektaklida rejissura, aktyorlik mahorati, sahna bezagi, kostyum va musiqiy yechimlar yagona badiiy konsepsiyaga bo'ysundirilgan. Rejissyor tarixiy voqealarni sahnada jonlantirish jarayonida monumental sahna ko'rinishlaridan foydalanadi. Jang sahnalari, xalq yig'inlari va tantanali marosimlar tomoshabinda tarixiy davr ruhiyatini his etish imkonini beradi. Shu bilan birga, qahramonning ichki kechinmalari aks etgan lirik sahnalar obrazning ruhiy dunyosini ochishga xizmat qiladi. Aktyorning To'maris obrazini yaratishdagi mahorati spektakl muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Obraz ijrosida qat'iyat, jasorat, mehribonlik va donishmandlik kabi sifatlarning uyg'unligi kuzatiladi. Mimika, plastika va nutq madaniyati orqali qahramon xarakteri yanada yorqin ifodalanadi.

Sahna bezaklarida qadimiy turkiy va massaget madaniyatiga xos elementlardan foydalanish spektaklning tarixiy muhitini yaratishga yordam beradi. Dekoratsiyalardagi soddalik va ramziylik voqealarning mazmunini kuchaytiradi. Masalan, keng sahna makoni erkinlik va cheksizlik ramzi sifatida talqin qilinishi

mumkin. Musiqiy bezak ham spektaklning badiiy ta'sirchanligini oshiruvchi vositalardan biridir. Milliy ohanglar va qahramonlik ruhidagi kuylar sahna harakati bilan uyg'unlashib, tomoshabinning hissiy olamiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy teatr nazariyasida tarixiy obrazlarning sahna talqini dramaturgik struktura, sahna kompozitsiyasi hamda aktyorlik interpretatsiyasi orqali ifodalanishi ta'kidlanadi. Teatrshunos olimlar fikriga ko'ra, sahna asarida tarixiy shaxs obrazining muvaffaqiyatli talqini dramaturgik konflikt, badiiy obraz tizimi hamda rejissura konsepsiyasining uyg'unligi bilan belgilanadi. Qadimgi tarixiy manbalarda tilga olingan To'maris obrazi ana shunday sahna talqini uchun boy dramaturgik material hisoblanadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lib, o'z xalqining mustaqilligi va ozodligi uchun kurash olib borgan jasur hukmdor sifatida tarix sahifalarida muhim o'rin egallagan. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, To'maris fors podshohi Kir II ning bosqinchilik siyosatiga qarshi kurash olib borgan hamda o'z xalqining erkinligini himoya qilish yo'lida qat'iy siyosiy qarorlar qabul qilgan.

Aynan mana shu tarixiy voqelik teatr dramaturgiyasi uchun muhim badiiy asos bo'lib xizmat qiladi. "To'maris" spektaklida tarixiy voqealar badiiy talqin asosida sahnada ifodalanadi hamda markaziy obraz sifatida To'maris shaxsiyati ko'p qirrali badiiy obraz sifatida ochib beriladi. Spektakl dramaturgiyasida asosiy konflikt To'maris va bosqinchi kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida rivojlanadi. Ushbu dramatik konflikt syujet rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Konfliktning bosqichma-bosqich rivojlanishi tomoshabinni voqealar rivojiga faol jalb etadi hamda sahna dramatzimini kuchaytiradi.

Dramaturgik jihatdan spektakl syujeti epik ruh bilan boyitilgan bo'lib, unda tarixiy voqealar ketma-ketligi sahna kompozitsiyasi orqali ifodalanadi. Sahna asarida To'maris nafaqat hukmdor, balki o'z xalqining taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his qiluvchi dono siyosatchi sifatida tasvirlanadi. Bu esa obrazning psixologik murakkabligini ko'rsatadi.

Spektaklning sahna talqinida rejissura konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Rejissura yechimida sahna makonining monumental tashkil etilishi spektaklning epik ruhini kuchaytiradi. Sahna dekoratsiyalari qadimgi tarixiy muhitni yaratishga xizmat qiladi hamda voqealarning tarixiy ko'lamini ifodalashga yordam beradi. Sahna kompozitsiyasining asosiy elementlaridan biri sifatida yorug'lik va musiqiy yechimlar ham muhim rol o'ynaydi. Sahna yorug'ligi dramatik vaziyatlarni kuchaytirishga xizmat qilsa, musiqiy fon spektaklning emotsional ta'sirini oshiradi. Ayniqsa, jang sahnalarida sahna plastikasining faol qo'llanilishi spektakl dramtizmini yanada kuchaytiradi.

Teatr nazariyasida aktyorlik interpretatsiyasi sahna obrazining badiiy ifodasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi [3, 87-b]. "To'maris" spektaklida markaziy obrazni ijro etgan aktrisaning sahnadagi ifodaviyligi, nutq madaniyati hamda psixologik talqini obrazning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. Aktrisa obraz orqali hukmdor qat'iyati, ayollarga xos noziklik hamda onalik mehrini uyg'un holda ifodalay olgan. Bu esa To'maris obrazining sahnadagi badiiy talqinini yanada ta'sirchan qiladi. Stanislavskiy aktyorlik maktabi nazariyasiga ko'ra, sahna obrazining ishonchliligi aktyorning psixologik holatni tabiiy ifodalashi bilan belgilanadi. Mazkur spektaklda ham aktyorlik interpretatsiyasi aynan shu tamoyillar asosida namoyon bo'ladi.

Spektaklda ikkinchi darajali obrazlar ham dramaturgik rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu obrazlar orqali To'maris shaxsiyatining turli qirralari yanada chuqurroq ochib beriladi. Ayniqsa, qarama-qarshi kuchlar bilan yuzaga kelgan dialoglar sahna dramtizmini kuchaytiradi. Spektaklning badiiy-g'oyaviy mazmunida vatanparvarlik g'oyasi yetakchi o'rin egallaydi. Asarda xalq ozodligi va mustaqilligi uchun kurash g'oyasi markaziy mavzu sifatida namoyon bo'ladi. To'maris obrazi orqali ayol jasorati, matonati va fidoyiligi yuksak badiiy darajada ifodalangan [4, 143-b].

Bugungi kunda tarixiy mavzudagi sahna asarlari yosh avlodning tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday spektakllar tomoshabinni milliy tarix

bilan tanishtirish orqali ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar obrazini sahnada ko'rish tomoshabinda milliy o'zlik va tarixiy merosga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi.

Zamonaviy o'zbek teatr san'atida tarixiy spektakllarni sahnalashtirish jarayoni yangi badiiy izlanishlar bilan boyib bormoqda. Rejissura talqinining yangilanishi, sahna texnologiyalarining rivojlanishi hamda aktyorlik maktabining takomillashuvi bunday spektakllarning badiiy darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, "To'maris" spektakli o'zbek teatr san'atida tarixiy obrazlarni sahnaviy talqin etish borasidagi muhim badiiy yutuqlardan biri hisoblanadi. Mazkur spektakl orqali tomoshabinga milliy tarix, jasorat va vatanparvarlik g'oyalari yetkaziladi. Shuningdek, sahna san'ati vositasida tarixiy xotirani tiklash va milliy qadriyatlarni targ'ib qilish imkoniyatlari keng namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov B. *O'zbekiston tarixi*. – Toshkent: Fan, 2017. – 320 b.
2. Rahimov M. *O'zbek teatr san'ati tarixi*. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. – 256 b.
3. Abdullayev R. *Teatr san'ati nazariyasi*. – Toshkent, 2015. – 224 b.
4. Sodiqov T. *O'zbek dramaturgiyasi rivojlanish bosqichlari*. – Toshkent: Akademya nashr, 2018. – 288 b.

Mansur Shukurlayev

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i o'rinbosari
E-mail: mansursodiqboyevich@gmail.com*

FOLKLOR RAQSLARINI SAHNAGA MOSLASHTIRISH

MUAMMOLARI

(Qoraqalpoq raqslari misolida)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada folklor raqslarini sahnaga moslashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Qoraqalpoq xalq raqslari misolida folklor an'analari va sahnaviy talqin o'rtasidagi munosabat yoritiladi. Raqs harakatlarining autentikligini saqlash, ularni sahna talablari asosida qayta ishlash masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot folklor raqslarini sahnalashtirishda ilmiy yondashuv zarurligini asoslaydi.*

***Kalit so'zlar:** folklor raqsi, qoraqalpoq raqslari, sahnaviy talqin, xoreografiya, milliy an'ana, sahnalashtirish.*

CHALLENGES IN THE STAGE ADAPTATION OF

FOLKLORE DANCES

(The Case of Karakalpak Dances)

***Abstract.** This article analyzes the problems of adapting folk dances to stage performance. Using the example of Karakalpak folk dances, the relationship between folklore traditions and stage interpretation is examined. Special attention is given to preserving the authenticity of dance movements while adapting them to stage requirements. The study emphasizes the need for a scientific approach to staging folk dances.*

***Keywords:** folk dance, Karakalpak dance, stage interpretation, choreography, national tradition.*

Folklor raqs san'ati xalqning tarixiy tajribasi, estetik qarashlari va ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim badiiy hodisa hisoblanadi. Xalq raqslari odatda marosimlar, bayramlar, xalq yig'inlari hamda mehnat jarayonlari bilan

chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli folklor raqslari xalq madaniyatining nomoddiy madaniy merosi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi [1, 23-b]. Ular professional sahna san'atidan farqli ravishda aniq dramaturgik kompozitsiyaga ega bo'lmaydi, aksincha, tabiiy harakatlar, improvizatsiya elementlari va kollektiv ijod tamoyillariga asoslanadi [2, 41-b].

Folklor raqslarini professional sahnaga moslashtirish jarayoni xoreografiya san'atida sahnaviy talqin yoki xoreografik transformatsiya deb ataladi. Bu jarayon davomida folklor muhitida shakllangan raqs elementlari sahna talablariga muvofiq qayta ishlanadi, harakatlar tizimi kompozitsion jihatdan tartibga solinadi va dramaturgik mazmun bilan boyitiladi [3, 56-b]. Biroq bunday jarayon folklor raqslarining autentik shakli va mazmuniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, qoraqalpoq xalq raqslarini sahnalashtirish jarayonida an'anaviy raqs plastikasini saqlab qolish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Qoraqalpoq xalq raqs san'ati o'zining plastik ifodaviyligi, ritmik tuzilishi va obrazlilik darajasi bilan ajralib turadi. Bu raqslarda qo'l va yelka harakatlarining nafisligi, tana plastikasining ritmik uyg'unligi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Raqs davomida ijrochining mimikasi, qo'l harakatlari va tana plastikasining uyg'unligi orqali turli obrazlar yaratiladi [4, 67-b]. Masalan, qoraqalpoq xalq raqslaridan biri bo'lgan "Qizlar oyini" ayol obrazining estetik talqinini ifodalovchi raqslardan hisoblanadi. Ushbu raqsda qo'l harakatlari mayin va silliq tarzda bajarilib, ayol latofati va nazokati ifodalanadi. Barmoqlarning nozik harakati, yelka plastikasining ritmik tebranishi hamda mayin qadamlar raqsning asosiy ifoda vositalari hisoblanadi. Biroq sahnaviy talqin jarayonida bu raqs ko'pincha guruhli kompozitsiya shaklida qayta ishlanadi, natijada an'anaviy harakatlar tizimi murakkablashadi va raqs dramaturgiyasi kuchaytiriladi.

Qoraqalpoq xalq raqslarining yana bir namunasi "Kelin salom" raqsidir. Mazkur raqs an'anaviy nikoh marosimlari bilan bog'liq bo'lib, unda yangi kelinning odobi, kamtarligi va hurmat ifodasi tasvirlanadi. Raqs jarayonida ijrochi bosh va qo'l harakatlari orqali salomlashish marosimini ramziy tarzda ifodalaydi. Bunda

qo'llarning asta-sekin ko'tarilishi va pastga tushirilishi, boshning mayin egilishi orqali kelinning hurmati va odob-axloqi aks ettiriladi. Sahna talqinida esa ushbu raqs ko'pincha ko'p ijrochili kompozitsiya shaklida namoyish etilib, raqqosalar o'zaro uyg'un harakatlar orqali marosimiy muhitni yaratadilar.

Shuningdek, qoraqalpoq xalq raqslari orasida "Ayqulash" nomi bilan mashhur bo'lgan raqs ham mavjud bo'lib, unda qushlarning harakati va tabiat manzaralari ramziy plastika orqali ifodalanadi. Mazkur raqsda qo'llarning keng yoyilishi, yelkalarining ritmik tebranishi hamda aylanish harakatlari orqali qushlarning parvozi tasvirlanadi. Bu esa raqsning obrazlilik darajasini oshiradi va tomoshabinda tabiat bilan uyg'unlik hissini uyg'otadi.

Folklor raqslarini sahnaga moslashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ayniqsa qoraqalpoq xalq raqslari misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq raqs san'ati o'zining nozik qo'l plastikalari, yelka harakatlarining ritmik tebranishi va ichki ritmga asoslangan ifoda tizimi bilan ajralib turadi. An'anaviy folklor muhitida bu raqslar erkin ijro etilib, ijrochining individual hissiyoti va marosimiy kontekst bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Biroq sahnaviy talqin jarayonida qoraqalpoq raqslari aniq dramaturgik kompozitsiya va xoreografik struktura asosida qayta ishlanadi. Natijada an'anaviy folklor muhitiga xos bo'lgan improvizatsiya elementlari kamayib, raqs harakatlari standartlashtiriladi. Bu holat qoraqalpoq raqsularining tabiiy plastikasiga va erkin ifoda shakliga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, sahnalashtirish jarayonida qoraqalpoq raqsulariga xos bo'lgan mayin qo'l harakatlari va yelka plastikasining nozik ritmik tebranishi ko'pincha sahna talablariga moslashtirilgan dinamik harakatlar bilan almashtiriladi. Buning natijasida an'anaviy raqs plastikasining ichki ritmik tuzilmasi o'zgarishi mumkin. Qoraqalpoq folklor raqslarini sahnalashtirishda yana bir muhim muammo ularning musiqiy uyg'unligi bilan bog'liq. Folklor muhitida raqs harakatlari milliy cholg'ular ijrosiga tabiiy ravishda moslashgan bo'lsa, sahnaviy talqinda musiqaning qayta ishlanishi yoki orkestrlashtirilishi raqsning an'anaviy ritmik tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada raqs harakatlari va musiqiy ritm o'rtasidagi tabiiy uyg'unlik

ma'lum darajada o'zgaradi. Bundan tashqari, sahnalashtirish jarayonida qoraqalpoq raqslarining semantik va etnografik mazmuni ham ba'zan soddalashtiriladi. An'anaviy folklor muhitida raqslar xalqning turmush tarzi, estetik qarashlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim ifoda vositasi bo'lsa, sahnaviy talqinda ular ba'zan faqat dekorativ sahna harakatlari tizimi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu sababli qoraqalpoq xalq raqslarini sahnalashtirish jarayonida ularning plastik tuzilmasi, ritmik tizimi va etnografik xususiyatlarini chuqur o'rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Folklor raqslarini professional sahnaga moslashtirish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, qoraqalpoq xalq raqslarini sahnalashtirishda ularning an'anaviy harakat plastikasini, musiqiy ritmik tuzilishini va semantik mazmunini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy asoslangan xoreografik yondashuv orqali folklor raqslarining badiiy qiymatini saqlab qolish hamda milliy madaniy merosni zamonaviy sahna san'ati orqali keng targ'ib etish mumkin.

Folklor raqslarini sahnaga moslashtirish jarayoni, ayniqsa qoraqalpoq xalq raqslari misolida, murakkab ijodiy va ilmiy yondashuvni talab qiladi. Sahnaviy talqin jarayonida raqslarning kompozitsiyasi, harakat tizimi va musiqiy tuzilmasi o'zgarishi mumkin. Shu sababli qoraqalpoq xalq raqslarini sahnalashtirishda ularning an'anaviy plastikasini, ritmik xususiyatlarini va milliy obrazini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Folklor va sahna san'ati o'rtasida muvozanatni ta'minlash orqali qoraqalpoq raqs san'atining asl badiiy qiymatini saqlagan holda uni zamonaviy sahnada muvaffaqiyatli namoyish etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, folklor raqslarini sahnaga moslashtirish jarayoni milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uni zamonaviy tomoshabinga yetkazishning muhim vositasidir. Qoraqalpoq xalq raqslari misolida ko'rib chiqilganidek, sahnalashtirish jarayonida raqslarning o'ziga xos harakatlari, uslubi va ma'naviy mazmunini saqlab qolish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, sahna

talablari raqs kompozitsiyasini qayta ishlash, harakatlarni boyitish va tomoshaboplikni oshirishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, folklor raqslarini sahnalashtirishda autentiklik va sahnaviylik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarur. Buning uchun xoreograflar va tadqiqotchilar tomonidan folklor manbalarini chuqur o'rganish, ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shundagina qoraqalpoq xalq raqslari va boshqa milliy folklor namunalarining asl qiyofasi saqlangan holda, ularning sahnaviy talqini yanada mukammal va ta'sirchan bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allambergenov A. *Qoraqalpoq xalq madaniyati*. – Nukus: Qoraqalpoqstan, 2015. – 150 b.
2. Karimov B. *O'zbek va qoraqalpoq xalq raqslari tarixi*. – Toshkent: Fan, 2018. – 288 b.
3. Tursunov R. *Xoreografiya san'ati asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 156 b.
4. Qosimov B. *Markaziy Osiyo xalqlari raqs san'ati*. – Toshkent: San'at, 2016. – 350 b.
5. YUNESCO. *Intangible Cultural Heritage and Traditional Performing Arts*. – Paris, 2017.

Седых Татьяна

доктор философии (PhD) по
искусствоведению, доцент кафедры
«Инструментальное исполнительство»
факультета «Народное творчество»
Государственного института искусств и
культуры Узбекистана
E-mail: muzik.sedykh@gmail.com

ЗНАЧЕНИЕ ФЕСТИВАЛЯ «NAVRO‘Z SADOLARI» – «НАПЕВЫ НАВРУЗА» В ПРОЦЕССЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается значение XII Международного Фестиваля «Navro‘z Sadolari» – «Напевы Навруза», основанного на выполнении Государственной программы по музыкальному воспитанию молодого поколения при исполнении на узбекских национальных инструментах, ознакомлению с новыми произведениями композиторов Узбекистана, изучению и исполнению широкого репертуара, формированию уважения к традициям и развитию музыкальной культуры. Влияние педагогов-руководителей на профессиональные исполнительские качества студентов, их стремление к знаниям и концертной деятельности на развитие музыкальной личности, профессионализм, коллективное исполнительство.

Ключевые слова: музыка, искусство, фестиваль, музыкант-исполнитель, узбекские музыкальные национальные инструменты, ансамбль, оркестр, репертуар, слушатель.

THE SIGNIFICANCE OF THE FESTIVAL “NAVRO‘Z SADOLARI” (“CHANTS OF NAVRUZ”) IN THE PROCESS OF MUSICAL EDUCATION

Abstract. This article examines the significance of the XII International Festival “Navro‘z Sadolari” (“Chants of Navruz”) in the process of musical education. The study highlights the festival’s role in implementing state programs aimed at the musical education of the younger generation through performance on

Uzbek national musical instruments, familiarization with new works by Uzbek composers, the study and performance of a diverse repertoire, the promotion of respect for national traditions, and the development of musical culture. The article also analyzes the influence of pedagogical guidance, students' pursuit of knowledge, and concert activities on the formation of musical personality, professional competence, and collective performance skills.

Keywords: *music, art, festival, musician-performer, Uzbek national musical instruments, ensemble, orchestra, repertoire, audience.*

«... счастлив будет тот народ,
если с музыкой живёт...»
Абдулла Авлони («Музыка»)

Во всех сферах музыкального образования Нового Узбекистана происходят существенные изменения, как результат обновления социально-культурной и духовной жизни общества. Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев подчёркивает: «Нынешняя стремительно меняющаяся жизнь ставит перед нами все новые непростые вопросы, и, принимая меры для их решения, мы еще раз убеждаемся в том, что это зависит, в первую очередь, от образования и воспитания молодежи, формирования ее мировоззрения на основе современных знаний, духовности и просвещения» [1, 365-с]. Осуществляется планомерная работа по повышению качества преподавания, разработка новых методических направлений, способствующих подготовке высококвалифицированных специалистов, развитию и воспитанию гармоничной, талантливой и глубоко мыслящей молодёжи.

Отрадно, что празднование одного из государственных праздников, а именно «Навруз», в музыкальной культуре Узбекистана ознаменовано с важным и уникальным проведением Международного Республиканского фестиваля «Navro'z Sadolari» – «Напевы Навруза» [1, 22-с] многоголосных ансамблей [2] и оркестров [3] национальных инструментов. основополагающим принципом работы с творческой молодежью является

подход к изучаемому репертуару, основанный на мудром высказывании Сенатора Олий Мажлиса Республики Узбекистан, первого ректора Государственного института искусств и культуры Узбекистана, профессора Бахтиёра Сайфуллаева: «Национальные особенности каждого народа отражаются в культуре. Узбекистан – многонациональная страна с древнейшей культурой» [2, 19-с].

Организованный в 1996 году при поддержке Министерства по делам культуры и спорта и Лауреатом Международного конкурса «Golden trophy» и Международных фестивалей Государственным камерным оркестром народных инструментов «Согдиана», стал проводиться Республиканский фестиваль многоголосных ансамблей и оркестров народных инструментов. За годы проведения он был расширен и в 2015 году приобрёл статус Международного, в котором участвовали музыкальные коллективы из Азербайджана, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, России, Монголии. С 2017 года в деятельности Фестиваля принимает участие молодёжное общественное движение «Камолот» (Центральный Совет Союза Молодёжи), в 2018-2019 гг. Шайхонтохурский районный совет демократической партии Узбекистана «Миллий тикланиш».

Его организаторами являются – Министерство культуры Республики Узбекистан, Агентство по делам молодёжи, Государственная консерватория Узбекистана, Государственная филармония Узбекистана. Координатор фестиваля – Заслуженный деятель Республики Узбекистан, профессор Абдурахимова Фируза Равшановна [4]. На Открытии фестиваля с вступительным словом выступили: Заместитель министра культуры Республики Узбекистан Б.М.Ахмедов; Первый заместитель директора Агентства по делам



молодёжи Д.С.Каттаханова; Ректор Государственной консерватории К.Т.Уринбаев; Генеральный директор Государственной филармонии Узбекистана А.Ю.Тажибаев. Торжественное открытие XII Международного Фестиваля многоголосных ансамблей и оркестров национальных инструментов «Navroʻz Sadolari» – «Напевы Навруза» состоялось 30 марта 2026 года. Следует отметить, что в рамках фестиваля были организованы Мастер-классы по оркестровому классу, дирижированию и сольным инструментам в Государственной консерватории Узбекистана. Проведение Международных фестивалей такого уровня является очень важным и ответственным в плане развития творческой деятельности артиста-музыканта. Участниками конкурса являются две возрастные группы. Один год выступают ученики Детских школ музыки и искусства, следующий год в фестивале участвует молодёжь от 16 до 23 лет.

При подготовке проведения музыкального фестиваля был разработан **Кубок** для награждения участников музыкального фестиваля. Изначально он был изготовлен из стекла, изображал узбекские народные инструменты дутар и дойру, размещённые на пятистрочном нотоносце со скрипичным ключом. Далее, окрашенный вариант из дерева, а в настоящее время он изготовлен из современного прозрачного материала с золотым орнаментом и гравировкой на государственном и русском языках. Создателем Кубка является уникальный, талантливый музыкант и педагог, Лауреат Международного конкурса имени Гаджибекова (Баку), Лауреат III, IV Республиканских конкурсов Узбекистана исполнителей на узбекских национальных инструментах – Мухиддинхужа Атаходжаев.



Кубок

Интерес к фестивалю с каждым годом растёт, поэтому увеличивается количество его участников. Отрадно, что в фестивале «Navro'z Sadolari» – «Напевы Навруза» участвуют студенты Государственного института искусств и культуры Узбекистана под руководством педагогов кафедры «Чолгу ижрочилиги» («Инструментальное исполнительство»), которую возглавляет доцент Хакимова Ф.А., рассказавшая: «Мы рады, что наши студенты участвуют в этом престижном Международном фестивале. Они имеют возможность выступить в лучших концертных залах Узбекистана – «Туркистон», в Большом зале Государственной консерватории Узбекистана. Это очень ответственно, повышается уровень профессионального исполнения ансамбля и оркестра. Педагоги делятся своими знаниями со студенческой молодёжью» [4]. Участниками фестиваля 2026 года были 22 многоголосных ансамбля и 22 оркестра национальных инструментов из разных регионов Узбекистана, а также из зарубежных стран, такие как: ансамбль Нукусского филиала Государственной консерватории Узбекистана (руководитель – Уктам Джуманиязов); ансамбль РСШИ им. М.Абдраева Республики Кыргызстан (руководитель – Сагынай Керимова); ансамбль колледжа искусств им. С.Хафиза города Худжанд Согдийской области Республики Таджикистан (руководитель – Замира Джураева); ансамбль Национальной Консерватории Таджикистана имени Т.Сатторова (руководитель – Абдурасул Исмаилов).

Обязательными произведениями фестиваля 2026 года были – «Радость» Т.Курбанова (для ансамбля) и «Атмосфера праздника» А.Карабаева (для оркестра), о которых стало известно за месяц до ответственного выступления. Необходимо было выучить и слаженно играть не только музыкальный текст, но и раскрыть художественную образность, стиль композитора, донести до слушателя всю драматургию на высоком исполнительском уровне.

Многоголосный ансамбль Государственного института искусств и культуры Узбекистана выступал под руководством Заслуженного артиста Республики Узбекистан (2004) Камильжона Эркиновича Шерматова, который

рассказал о творческой заинтересованности участия в этом фестивале студентов, об их подготовке, сценическом волнении, наличии национальных костюмов. Ансамбль состоит из 12 студентов I-III курсов, которые играют на чанге, конуне, дутар-басе, контрабасе, дойре. Отрадно, что ансамбль звучал как единый живой организм, который исполнил произведения: А.Бабаева – «Я встретил девушку» (солист – Асадбек Гайратов, магистр 1-го курса – най), В.Гаврилина – «Тарантеллу» из балета «Анюта».

Анализируя исполнение ансамблистов, следует сказать о работе руководителя К.Э.Шерматова, который является концертирующим музыкантом-исполнителем на конуне, участником легендарного ансамбля «Registan» group. Его игра завораживает слушателей своей музыкальной образностью. Так, например, звучащий бегущий ручей, запечатлён в каскадах глиссандирующих пассажей, светлые, прозрачные тембровые краски создают неповторимое очарование. Именно эти и другие приёмы исполнения Устожа студенческая молодёжь стремится перенять и усвоить, многократно слушая его выступления в концертном зале «Туркистон», на сцене Учебного театра родного ВУЗа. Именно такой педагог профессионально руководит ансамблем, обучает студенческую молодёжь тонкому искусству ансамблевой игры, умению слышать партнёров, гибкой фразировке музыкального произведения.

Участниками фестиваля также были: оркестр Нукусской специализированной школы культуры Республики Каракалпакстан (руководитель – Сардорбек Базарбаев); студенческий концертный оркестр Государственной консерватории Узбекистана (руководитель – Гайрат Абраров). В исполнении оркестра узбекских национальных инструментов Государственного института искусств и культуры Узбекистана под руководством дирижёра [5] старшего преподавателя Жавохира Туратова прозвучали произведения: Д.Норматова – «Дилторим» (солист – Шахзод Рашидов – Бакалавр 3-го курса, кашгарский рубаб), Дж.Россини – «Увертюра» к опере «Вильгельм Телль». Своим исполнением оркестранты стремились

передать замысел композиторов, характер произведений, раскрыть музыкальный образ и тембровые краски каждого инструмента. Коллектив оркестра удостоен II-го места. Дирижёр Жавохир Туратов, обладает многими достоинствами – авторитетом, уникальной памятью, с помощью мануальной техники (пластики жестов рук), актёрского мастерства, подобно полководцу одним взглядом,



одним движением, стоя за дирижёрским пультом, он увлекает коллектив за собою. Необходимо отметить, что в этом году хорошо было организовано проведение фестиваля – созданы все условия для проживания приезжих участников, которые были размещены в комфортабельных номерах гостиницы «Узбекистан». Также, участники были обеспечены качественным питанием и транспортом для поездок по городу.

В проведении фестивалей такого плана имеются сложнейшие стороны касающиеся личности участника, ибо им надо приехать из мест проживания в Ташкент, преодолеть расстояние на поезде, автобусе. Большая ответственность возлагается на руководителя коллектива. Кроме подготовки профессионального исполнения ряда произведений, руководитель отвечает за физическое здоровье участников коллектива, дружеское отношение между собой и взаимопонимание. Проведение XII Международного фестиваля «Navro'z Sadolari» – «Напевы Навруза» – процесс интеллектуального воспитания молодёжи, через музыкальное исполнительство на национальных инструментах. Он становится серьёзным фактором культурного развития раскрывая молодые таланты, укрепляя связь поколений, открывая путь в будущее. Ибо студенческая молодёжь расширяет свой кругозор в изучении музыкального репертуара, состоящего из произведений композиторов

Узбекистана, русской и зарубежной классической музыки, а также приобретения профессиональных навыков игры на инструменте, развитию коллективного исполнительства, владению качествами сценического действия, умению владеть собой, силой воли, выдержкой и смелостью.

Отрадно, что одновременно с проведением такого престижного фестиваля, осуществляется учебно-образовательный процесс. Праздник искусства демонстрирует высокий уровень исполнительского мастерства участников фестиваля. Имеет неопределимое значение для повышения интеллектуального уровня общества, для развития и процветания музыкальной культуры Узбекистана.

Использованная литература

1. Мирзиёев Ш. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Выступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании Олий Мажлиса. – Тошкент: Ўзбекистан, 2016.

2. Сайфуллаев Б. Система музыкального образования в Узбекистане // «Musiq». www.konservatoriya.uz. – Тошкент, 2018. – №1. – С. 100.

3. Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. – Тошкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1972. – 360 с.

4. Абдурахимова Ф. Роль культуры национального инструментализма в развитии музыкальной исполнительской среды Узбекистана // Согдиана: измерения мастерства. NISHON-NOSHIR. – Toshkent, 2013. – С. 25.

5. Седых Т. «Волшебный» най в педагогической и творческой деятельности Шукрулло Ахмеджанова (к 85-летию со дня рождения). «O'zbek milliy cholg'ulari sozgarligining o'ziga xos ilmy-tarixiy evolyutsiyasi» mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent: Javohir-ilm-nashr, 2025. – С. 235–239.

6. Музыкальный энциклопедический словарь. Ред. Келдыш Г. – Москва: Советская энциклопедия, 1991. – 672 с.

Дониер Агзамов

Старший преподаватель
кафедры «Музыкальная звукорежиссура»
Национального института эстрадного
искусства имени Батыра Закирова при
Государственной консерватории Узбекистана
E-mail: doniyoragzatom7@gmail.com

АНАТОМИЯ МЕРТВОГО МИКСА: ПОЧЕМУ ТЕХНИЧЕСКИ ИДЕАЛЬНЫЙ ТРЕК ЗВУЧИТ СКУЧНО

Аннотация. В статье исследуется феномен «мертвого микса» – фонограммы, которая при полном соответствии техническим стандартам (выверенный частотный баланс, отсутствие фазовых проблем, идеальная динамика) не вызывает у слушателя эмоционального отклика. Автор, опираясь на педагогическую и студийную практику, анализирует причины избыточной цифровой стерильности в современной музыкальной звукорежиссуре. В работе рассматриваются негативные последствия злоупотребления инструментами автоматической коррекции (Grid, Auto-Tune, жесткий клиппинг), а также предлагаются практические методики сохранения «живой» ткани произведения через управление микродинамикой, психоакустические эффекты и контролируемый хаос.

Ключевые слова: звукорежиссура, сведение, микродинамика, сатурация, цифровая стерильность, психоакустика, музыкальная эмоция, автоматизация.

ANATOMY OF A DEAD MIX: WHY A TECHNICALLY PERFECT TRACK SOUNDS BORING

Abstract. The article explores the phenomenon of the “dead mix” – a phonogram that, despite fully complying with technical standards (calibrated frequency balance, absence of phase issues, ideal dynamics), fails to evoke an emotional response from the listener. Drawing on pedagogical and studio practice,

the author analyzes the causes of excessive digital sterility in modern music sound engineering. The paper examines the negative consequences of overusing automatic correction tools (Grid, Auto-Tune, hard clipping) and proposes practical methods for preserving the “live” character of a musical work through micro-dynamics management, psychoacoustic effects, and controlled chaos.

Keywords: *sound engineering, mixing, micro-dynamics, saturation, digital sterility, psychoacoustics, musical emotion, automation.*

Развитие цифровых технологий в сфере звукозаписи и музыкального производства кардинально изменило ландшафт современной звукорежиссуры. Переход от аналоговых магнитофонов и крупноформатных микшерных консолей к цифровым рабочим станциям (DAW) стёр технические барьеры, десятилетиями ограничивавшие индустрию. Современный звукорежиссер функционирует в технологической среде, обладающей теоретически безупречным динамическим диапазоном, бесконечным запасом по перегрузке внутри 32- и 64-битных пространств обработки, а также возможностью деструктивной и недеструктивной хирургической коррекции любых элементов аудиосигнала.

Однако этот технологический триумф обнажил глубокий эстетический и педагогический кризис. На кафедрах музыкальной звукорежиссуры высших учебных заведений педагоги и эксперты все чаще сталкиваются со специфической формой профессиональной деформации у студентов и молодых специалистов. Обучающиеся, обладая доступом к прецизионным визуальным анализаторам спектра, измерителям фазовой корреляции и автоматизированным системам выравнивания, создают фонограммы, демонстрирующие идеальные графические показатели. Анализаторы спектра фиксируют выверенную «розовую» или «серую» кривую шума, приборы контроля фазы неподвижно застыли в зоне абсолютной стабильности, а частотные конфликты полностью устранены узкополосной фильтрацией. Тем

не менее при прослушивании такой материал обнаруживает полное отсутствие художественной ценности: он звучит плоско, статично, стерильно и не вызывает у слушателя эмоционального отклика [1, 28-с].

Этот феномен в профессиональной среде получил дескриптивное название «эстетика мёртвого микса». Проблема заключается в концептуальном разрыве между инженерно-технической точностью и музыкальной экспрессией. Музыкальная фонограмма – это не просто сумма изолированных и очищенных частотных диапазонов, а сложная динамическая система, психоакустическая ткань которой живёт по законам человеческого восприятия, а не математических алгоритмов.

Целью данной статьи является детальный аналитический разбор анатомии «мёртвого микса». Мы рассмотрим ключевые методологические и практические ошибки, совершаемые в процессе сведения, проанализируем деструктивное влияние избыточного применения цифровых инструментов коррекции на эмоциональное восприятие музыкального произведения, а также предложим педагогические и практические стратегии, позволяющие сохранить и подчеркнуть «живую» природу аудиозаписи в условиях цифрового продакшена.

Синдром «идеальной сетки» (Over-quantization) – Первый шаг к уничтожению жизни в треке – это тотальная квантизация (выравнивание всех элементов строго по сетке темпа). Музыкальное время нелинейно. Живой барабанщик или пианист всегда интуитивно смещает доли (микротайминг) для создания ощущения «драйва» (Push) или, наоборот, расслабленности (Layback). Когда звукорежиссер или саунд-продюсер принудительно стягивает все транзиенты к сетке со стопроцентной точностью, исчезает так называемый грув [2].

Совет преподавателя: Оставляйте «воздух». Выравнивайте только те элементы, которые откровенно разрушают ритм. Пользуйтесь функцией

Humanize или сдвигайте малые барабаны и перкуссию на несколько миллисекунд вручную, чтобы создать движение внутри ритм-секции.

Хирургическая эквалаизация и потеря «характера» – Современные визуальные эквалайзеры приучили студентов «сводить глазами». Видя резонансный пик на графике, студент тут же вырезает его узкой полосой (высокая добротность Q). Повторив эту операцию двадцать раз на разных треках, он получает идеально вычищенный, но абсолютно истощенный микс [3, 57-с].

Музыкальные инструменты ценны своими несовершенствами. Резонанс деки гитары, специфическая грязь в нижнем среднем диапазоне малого барабана – это их ДНК. Вырезая «всё лишнее», мы стираем индивидуальность исполнителя и тембра.

Использование чрезмерно высокой добротности для вырезания частот оправдано при устранении технического брака (гул сети, явный свист микрофона). Для формирования музыкального баланса этот подход губителен.

Смерть от компрессии: уничтожение макро и микродинамики – Желание сделать микс «громче, чем у конкурентов» приводит к чрезмерному увлечению компрессорами, лимитерами и клипперами. Зажимая трек в плотный кирпич, звукорежиссер уничтожает разницу между тихими и громкими долями (микродинамику) и между куплетом и припевом (макродинамику).

Если припев не звучит шире и громче куплета, слушатель не получает эмоционального взрыва. Музыка становится монотонным шумом, от которого слух устаёт уже на второй минуте. Цифровая стерильность против контролируемого хаоса – Цифровая среда по умолчанию стерильна. В ней нет воздуха, тепла и случайных физических процессов. «Живой» же микс всегда состоит из микро-ошибок и акустических взаимопроникновений.

Когда мы пишем барабаны в студии, звук бочки неизбежно проникает в микрофон малого барабана (Bleed). Начинающие звукорежиссеры пытаются

полностью изолировать треки с помощью жестких гейтов. В результате микс распадается на изолированные слои.

Как оживить микс: Стратегия для звукорежиссера – чтобы превратить технически правильный макет в живое произведение, необходимо внедрить в практику три концепции:

Психоакустическая автоматизация – это не просто выравнивание громкости вокала. Это инструмент драматургии. Сделайте припев на 0.5 дБ громче и шире по панораме, чем куплет. Чуть приподнимите высокие частоты на гитарном соло в кульминации. Движение микса должно следовать за эмоцией песни [4, 15-с].

Эмуляция аналогового хаоса (Сатурация) – используйте плагины, моделирующие поведение аналоговых приборов (лента, лампы, трансформаторы). Они добавляют гармоники, незаметно склеивают микс и насыщают его плотностью, которой нет в чистом «цифровом» звуке.

Вместо жесткой компрессии трека используйте параллельную компрессию. Это позволит сохранить быструю атаку и динамику основного сигнала, добавив к нему плотность и вес от перекомпрессированного дубликата.

Проведенный анализ феномена цифровой стерильности в современной звукорежиссуре позволяет сделать вывод, что ключевая причина деградации эмоционального содержания микса кроется в подмене художественных ориентиров технологическими. Стремление к абсолютной технической безупречности, продиктованное визуальным контролем над интерфейсами плагинов, зачастую приводит к полной аннигиляции микро и макродинамической структуры музыкального произведения. Тотальная квантизация, бескомпромиссная хирургическая эквалализация и жёсткое ограничение динамического диапазона ради достижения конкурентной громкости превращают живое исполнение в механистический макет [5].

Для преодоления этой тенденции в рамках образовательного процесса и студийной практики необходимо сместить акцент с чисто инженерного контроля на сотворчество и понимание законов психоакустики. Техническая грамотность – стабильная фаза, отсутствие клиппинга, грамотная организация частотного пространства – должна рассматриваться исключительно как гигиенический минимум, базовый фундамент, на котором выстраивается художественная концепция, но вовсе не как конечная цель сведения.

Звукорежиссер обязан развивать в себе навыки критического, «контекстного» слушания, при котором несовершенства тембра, микроструктурные флуктуации ритма (групп) и контролируемые акустические взаимопроникновения (Bleed) воспринимаются не как брак, подлежащий уничтожению, а как уникальный ДНК исполнительского мастерства и характера произведения. Возвращение в цифровую среду элементов контролируемого аналогового хаоса – через осознанную межканальную сатурацию, динамическую автоматизацию пространственных эффектов и сохранение естественных транзиентов – позволяет вдохнуть жизнь в самую статичную фонограмму.

В конечном счёте, финальным арбитром в работе звукорежиссера выступает не спектроанализатор или измеритель LUFs, а психоэмоциональная реакция слушателя. Музыка – это искусство передачи состояний и смыслов через звуковые волны. Позволяя миксу быть слегка несовершенным, но подвижным и «дышащим», звукорежиссер выполняет свою главную задачу: преобразует сухие физические параметры децибел и герц в подлинное эстетическое переживание. Внедрение данных принципов в методологию обучения будущих специалистов позволит выпускать профессионалов, способных создавать не просто стерильный цифровой продукт, а живое, долговечное аудиоискусство.

Использованная литература

1. Диков А. Музыкальная акустика и звукозапись: учебное пособие для вузов. – Москва: Издательство Юрайт, 2023. – 215 с.
2. Ижиков Ю. Теория и практика звукорежиссуры. Сведение и мастеринг фонограмм. – СПб.: Лань, 2022. – 340 с.
3. Кейс А. Звуковые эффекты. Озвучивание, сведение и пространственная обработка звука = *Sound FX: Unlocking the Creative Potential of Recording Studio Effects.* / Пер. с англ. – Москва: Гуманитарный центр, 2019. – 412 с.
4. Овсински Б. Настольная книга звукорежиссера. Руководство по сведению = *The Mixing Engineer's Handbook.* / 4-е изд. – Лос-Анджелес: Bobby Owsinski Media Group, 2017. – 320 с.
5. Сеньор М. Сведение в стиле “Art”: секреты звукорежиссуры от профессионалов = *Mixing Secrets for the Small Studio.* / Пер. с англ. – Москва: ДМК Пресс, 2021. – 450 с.

Хайрулло Султанов

*Кафедра «Музыкальная звукорежиссура»
Национального института эстрадного
искусства имени Батыра Закирова при
Государственной консерватории Узбекистана
E-mail: sultanovhayrullo702@gmail.com*

СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К АУДИОПРОИЗВОДСТВУ: ОТ АКУСТИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ ДО ФИНАЛЬНОГО МАСТЕРИНГА

***Аннотация.** В данной статье рассматривается комплексный научно-практический подход к современному аудиопроизводству, объединяющий этапы акустического проектирования, фиксации первичного звукового сигнала и финального мастеринга. На основе фундаментальных трудов в области звукорежиссуры анализируются ключевые физические и психоакустические закономерности, такие как распределение мод резонанса в замкнутых пространствах, закон обратных квадратов при размещении микрофонных систем, а также принципы сохранения микродинамики аудиосигнала. Работа демонстрирует неразрывную связь между инженерно-техническими параметрами тракта и эстетическими характеристиками финального фонографического продукта.*

***Ключевые слова:** аудиопроизводство, акустика помещений, звукозапись, закон обратных квадратов, мастеринг, дизеринговые шумы, K-система, динамический диапазон.*

A SYSTEMATIC APPROACH TO AUDIO PRODUCTION: FROM ACOUSTIC DESIGN TO FINAL MASTERING

***Abstract.** This article examines a comprehensive scientific and practical approach to modern audio production, integrating the stages of acoustic design, primary audio signal capture, and final mastering. Based on foundational works in sound engineering, key physical and psychoacoustic patterns are analyzed, such as*

the distribution of resonance room modes in enclosed spaces, the inverse-square law in microphone placement, and the principles of preserving audio signal micro-dynamics. The work demonstrates the inextricable link between the engineering and technical parameters of the signal path and the aesthetic characteristics of the final phonographic product.

Keywords: *audio production, room acoustics, sound recording, inverse-square law, mastering, dither noise, K-System, dynamic range.*

Современное аудиопроизводство представляет собой сложную междисциплинарную область знаний, находящуюся на стыке физической акустики, электроники, цифровой обработки сигналов и психоакустики. Создание высококачественной фонограммы, способной конкурировать на международном рынке, требует от звукорежиссера и инженера глубокого понимания процессов, происходящих на каждом этапе сигнального тракта – от зарождения звуковой волны в пространстве до её окончательной подготовки к дистрибуции. Настоящая статья призвана систематизировать научно-методические принципы, изложенные в классических руководствах по звукозаписи и акустике, и проследить синергию между подготовкой помещения, технологией фиксации звука и прецизионным мастерингом. Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью преодоления эмпирического подхода в пользу строгого научного обоснования технологических процессов в студийной практике.

Фундаментом любой профессиональной работы со звуком является среда, в которой происходит запись или слуховой мониторинг. Физика закрытых пространств характеризуется сложным поведением звуковых волн, среди которых наиболее деструктивными выступают комнатные моды и стоячие волны. Интерференция прямых и отражённых волн ведёт к образованию зон экстремального подъёма и затухания звукового давления,

особенно на низких частотах, что критически искажает восприятие фонограммы инженером (Alton Everest & Pohlmann, 2015).

Слуховой аппарат человека адаптируется к пространственным характеристикам благодаря бинауральному эффекту и закону первого волнового фронта. Данный закон определяет, что локализация источника звука происходит по первому прибывшему импульсу, даже если последующие отражения имеют большую амплитуду. Для минимизации тембральных дефектов и оптимизации времени реверберации применяется акустическая коррекция, включающая установку басовых ловушек, резонаторов Гельмгольца и диффузоров, обеспечивающих равномерное рассеивание звуковой энергии. Использование специализированных конструкций, таких как Tube Traps, позволяет эффективно поглощать избыточную энергию в низкочастотном спектре, стабилизируя акустический отклик комнаты (Alton Everest & Pohlmann, 2015). Перенос акустических колебаний в электрическую и цифровую форму подчиняется жестким физическим законам, среди которых центральное место занимает закон обратных квадратов. Распространяя этот закон на практику звукозаписи, исследователи формулируют эмпирические правила, согласно которым при каждом удвоении расстояния от источника до микрофона уровень звукового давления падает на шесть децибел (Rose, 2015). Игнорирование этого правила в условиях избыточной комнатной реверберации приводит к потере разборчивости и эффекту удалённости, что особенно критично при записи диалогов в кинематографе или сольных инструментов в музыкальной индустрии.

Профессиональная практика фиксации звука требует использования высококлассных портативных рекордеров и преампов, таких как Sound Devices 722, обеспечивающих необходимый запас по перегрузке и низкий уровень собственного шума. В условиях стационарной студии критически важным элементом становится точный мониторинг с использованием активных мониторов ближнего поля, которые позволяют инженеру

объективно оценивать тембр, панораму и баланс без избыточного влияния геометрии помещения (Bartlett & Bartlett, 2009). Неотъемлемой частью технологической дисциплины также является детальное документирование сессий в мастер-логах, что позволяет воссоздать условия записи при последующем сведении или пересведении материала.

Завершающим этапом аудиопроизводства является мастеринг, который выполняет роль моста между процессом творческого сведения и промышленным тиражированием (Katz, 2007). Мастеринг-инженер решает задачи тональной и динамической оптимизации фонограммы, работая с тончайшими нюансами аудиосигнала. Использование параметрических и шельфовых эквалайзеров позволяет деликатно сбалансировать частотный спектр, а применение специализированных фильтров высоких и низких частот (High-Pass/Low-Pass), включая знаменитую кривую Баксандалла, обеспечивает прозрачность в области инфранизких частот и придает миксу «воздушность». В области динамической обработки ключевое значение имеет сохранение баланса между макродинамикой произведения и его конкурентной громкостью. Чрезмерное пиковое лимитирование разрушает микродинамическую структуру трека, лишая его выразительности. Для борьбы с деструктивной «войной громкостей» Бобом Катцем была разработана К-система индикации (K-System), предлагающая стандартизированные шкалы уровней (K-20, K-14, K-12), привязанные к калиброванной громкости мониторинга, что возвращает инженерам возможность осознанно управлять динамическим диапазоном (Katz, 2007). Наконец, при подготовке финального файла к публикации обязательным правилом является применение дизеринга – добавления псевдослучайного шума при понижении разрядности (например, из 24-битной рабочей среды в 16-битный стандарт Red Book), что позволяет маскировать нелинейные искажения квантования и сохранять глубину сцены на малых уровнях сигнала.

Анализ ключевых этапов аудиопроизводства показывает, что создание профессионального звукового продукта возможно только при системном контроле всего сигнального пути. Технологические фазы не могут существовать изолированно: невозможно компенсировать ошибки, допущенные на этапе акустического проектирования студии или первичной записи звука, инструментами финального мастеринга. Каждое звено – от оптимизации резонансных мод помещения и грамотного пространственного размещения микрофонов до subtilной эквализации и дизеринга – вносит свой вклад в итоговую фонографическую ценность.

Понимание физических процессов распространения звука в пространстве и законов цифрового преобразования избавляет современного инженера от слепого следования трендам, таким как деструктивная максимизация громкости. Современный специалист в области звукорежиссуры должен сочетать в себе квалификацию физика-акустика, инженера электроники и художника, способного через призму строгих технических стандартов подчеркнуть и сохранить первоначальный творческий замысел автора произведения. Только комплексная синергия науки и искусства позволяет достичь безупречного технического качества, отвечающего мировым стандартам индустрии звукозаписи, телевидения и кинематографа.

Использованная литература

1. Alton E., Pohlmann K. *Master Handbook of Acoustics*. – 6th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2015. – 720 p.
2. Bartlett B., Bartlett J. *Practical Recording Techniques*. – 5th ed. – Burlington: Focal Press, 2009. – 408 p.
3. Katz B. *Mastering Audio: The Art and the Science*. – 2nd ed. – Burlington: Focal Press, 2007. – 314 p.
4. Rose J. *Producing Great Sound for Film and Video: Expert Tips from Preproduction to Final Mix*. – 4th ed. – New York: Focal Press, 2015. – 488 p.

Akbar Basharov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi mutaxassisligi magistranti
E-mail: akbaramusic@gmail.com*

“YALLA” GURUHINING IJODIY FAOLIYATI XUSUSIDA

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Yalla” guruhining ijodiy faoliyati, uning tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari va o'zbek estrada san'atiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Maqolada guruhning turli davrlardagi tarkibi, musiqa yo'nalishidagi o'zgarishlar hamda ijodiy faoliyatining asosiy bosqichlari ketma-ketlik asosida yoritilgan. Shuningdek, guruhning milliy va zamonaviy musiqa uyg'unligini yaratishdagi o'rni ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** Yalla, estrada, o'zbek musiqasi, ansambl, ijodiy faoliyat, musiqa rivoji, tarixiy bosqichlar.*

THE CREATIVE JOURNEY OF THE YALLA ENSEMBLE: STAGES OF HISTORICAL DEVELOPMENT

***Abstract.** This article analyzes the creative work of the “Yalla” ensemble, including its formation, stages of development, and contribution to Uzbek pop music. The study examines changes in the group's lineup over different periods, transformations in musical style, and the main stages of its creative evolution in chronological order. Special attention is given to the combination of national musical traditions with modern trends.*

***Keywords:** Yalla, pop music, Uzbek music, ensemble, creative activity, music development, historical stages.*

O'zbek milliy estradasi XX asrning ikkinchi yarmida jadal rivojlanish bosqichiga kirib, an'anaviy musiqa elementlari va zamonaviy estrada uslublarining uyg'unlashuvi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonda turli ijodiy jamoalar shakllanib, ular milliy musiqaning yangi ifoda shakllarini yaratishda muhim rol o'ynadi. Shunday jamoalardan biri “Yalla” guruhi bo'lib, u o'z faoliyati davomida o'zbek estrada san'atining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan.

“Yalla” guruhi tashkil topgan davrdan boshlab milliy kuy-ohanglarni zamonaviy musiqiy aranjirovkalar bilan uyg'unlashtirishga intildi. Natijada guruh o'ziga xos ijodiy yo'nalishni shakllantirib, keng tinglovchilar auditoriyasining e'tiborini qozondi. Guruhning faoliyati davomida uning tarkibi bir necha bor o'zgarib turgan bo'lsa-da, asosiy ijodiy yo'nalish saqlanib qoldi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, “Yalla” guruhining ko'p yillik ijodiy faoliyati o'zbek estrada san'atining tarixiy rivojlanish jarayonlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu bois, guruh faoliyatini bosqichma-bosqich tahlil qilish orqali milliy estrada taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini aniqlash mumkin. Maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad – “Yalla” guruhining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari, tarkibiy o'zgarishlari hamda musiqa yo'nalishidagi evolyutsiyani ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. “Yalla” guruhining ijodiy faoliyatini yorituvchi manbalar asosan uning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va turli davrlardagi ijodiy o'zgarishlarini ketma-ketlik asosida tasvirlaydi. Tahlil qilingan adabiyotlarda guruhning faoliyati bir necha asosiy davrlarga bo'lib o'rganiladi.

Dastlabki manbalarda 1970-yillarda guruhning shakllanish jarayoni bayon etiladi. Ushbu davrda jamoa yosh ijrochilardan tashkil topib, estrada va milliy musiqa elementlarini birlashtirishga harakat qilgan. Guruhning dastlabki tarkibi va ijodiy yo'nalishi aynan shu bosqichda shakllangan bo'lib, unda jonli ijro, ko'p ovoqli kuylash va zamonaviy cholg'u asboblaridan foydalanish muhim o'rin egallagan [1, 17–20-b]. Keyingi bosqichga oid manbalarda guruhning nom qozonishi va professional jamoaga aylanish jarayoni yoritiladi. Bu davrda “Yalla” tarkibi barqarorlashib, unda professional musiqachilar faoliyat yurita boshlagan. Guruh repertuarida milliy kuy va qo'shiqlar estrada uslubida qayta ishlanib, yangi musiqiy shakllar paydo bo'lgan. Aynan shu bosqichda guruh keng ommaga tanilgan va uning ijodiy faoliyati hududiy chegaralardan chiqib, kengroq miqyosda rivojlangan [1, 25-b]. 1980–1990-yillarga oid materiallarda guruh faoliyatining eng sermahsul davri tasvirlanadi. Ushbu bosqichda tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ijodiy izlanishlar davom etgan. Guruh repertuari kengayib, unda turli janr

elementlari qo'llanilgan. Musiqiy aranjirovkalar murakkablashib, sahna madaniyati va ijro uslubi yanada takomillashgan. Bu davrda guruh estrada san'atida o'z o'rnini mustahkamlab olgan [3, 48-b].

Mustaqillikdan keyingi davrga oid manbalarda "Yalla" guruhining yangi sharoitdagi faoliyati ko'rib chiqiladi. Guruh milliy musiqa an'analariga ko'proq e'tibor qaratgan holda o'z ijodini davom ettirgan. Shu bilan birga, zamonaviy estrada yo'nalishlari bilan uyg'unlik saqlangan. Tarkibda tajribali ijrochilar bilan bir qatorda yangi ishtirokchilar ham faoliyat olib borgan [2]. So'nggi bosqichga oid materiallarda guruhning zamonaviy davrdagi faoliyati va uning tarixiy merosi yoritiladi. 2000-yillardan keyingi davrda guruh o'zining an'anaviy uslubini saqlab qolgan holda sahna faoliyatini davom ettirgan. Shu davrda ayrim ijodiy loyihalar yakunlangan, jumladan, 2016-yilda Shahboz Nizomutdinovning vafotidan so'ng "Retro Yalla" faoliyati to'xtatilgan. Bu voqea guruh tarixida muhim bosqichlardan biri sifatida qayd etiladi [2]. Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar "Yalla" guruhining ijodiy faoliyatini izchil rivojlangan jarayon sifatida ko'rsatadi. Har bir davrda tarkibiy o'zgarishlar va musiqa yo'nalishidagi yangilanishlar kuzatilgan bo'lsa-da, guruhning asosiy xususiyati – milliy va zamonaviy musiqaning uyg'unligi saqlanib qolgan.

Mazkur maqolani amalga oshirishda asosiy ma'lumot manbasi sifatida "Yalla" guruhining tarixiy rivojlanishi bosqichma-bosqich yoritilgan ilmiy-publitsistik maqolalar tanlab olindi. Xususan, guruhning tashkil topishi, nom qozonishi, ijodiy yuksalishi va zamonaviy davrdagi faoliyati haqida ma'lumot beruvchi to'rtta asosiy manba tahlil qilindi [4, 48–50-b].

Maqolaga materiallar sifatida quyidagi jihatlar ajratib olindi:

- guruhning tashkil topgan davri va dastlabki tarkibi;
- turli yillardagi tarkibiy o'zgarishlar;
- ijodiy faoliyat bosqichlari;
- musiqa yo'nalishi va uslubidagi o'zgarishlar.

Ma'lumotlar faqat faktik axborotlarga tayangan holda saralandi. Jumladan, yillar, guruh a'zolari va ijro etilgan musiqa yo'nalishlariga oid ma'lumotlar asosiy e'tibor markazida bo'ldi. Intervyu, subyektiv fikrlar va shaxsiy qarashlar maqola doirasiga kiritilmadi.

Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **tarixiy metod** – “Yalla” guruhining faoliyatini vaqt ketma-ketligida o'rganish uchun;
- **tizimlashtirish metodi** – turli manbalardagi ma'lumotlarni yagona mantiqiy tuzilishga keltirish uchun;
- **solishtirma tahlil** – guruh faoliyatining turli davrlarini o'zaro taqqoslash uchun;
- **umumlashtirish metodi** – olingan natijalarni yakuniy xulosaga keltirish uchun.

Ushbu yondashuv orqali “Yalla” guruhining ijodiy faoliyati izchil va aniq ketma-ketlikda o'rganilib, uning asosiy rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Maqolada “Yalla” guruhining ijodiy faoliyati tarixiy ketma-ketlik asosida tahlil qilinib, uning rivojlanishi bir necha bosqichlarga ajratildi. Har bir bosqich guruh tarkibi, musiqa yo'nalishi va ijodiy faolligi bilan farqlanadi.

1. Shakllanish bosqichi (1970–1974-yillar).

Ushbu davrda “Yalla” guruhi tashkil topdi va dastlabki ijodiy yo'nalish shakllandi, guruhni yaratish g'oyasi Baxodir Jurayev va Sergey Avanesovga tegishli bo'lgan. Guruh avval Via “TTXI” nomi bilan faoliyat yuritdi, ammo 1971-yilda kinodramaturg, kinorejissyor va aktyor Anatoliy Kabulov guruhning “Allo mi ishem talanti” konlursga tayyorgarlik jarayonida guruhga “Yalla” nom berdi. Guruh tarkibi:

Aliaskar Fatxulin (klavish);

Vitaliy Zubarev (gitara);

Grigoriy Pushen (bass - gitara, vokal);

Vladimir Sherin (zarbli cholgʻu, faqat 1970–1973-yillar);
Baxodir Jurayev (gitara);
Sergey Avanesov (gitara);
Yevgeniy Jirayev (vokal, gitara, puflama cholgʻular, musiqiy rahbar);
Igor Xalikov (puflama cholgʻular);
Farrux Zokirov (vokal, doira, gitara, puflama cholgʻular, 1972-yildan);
Jamshid Zokirov (gitara, faqat 1972-yilda);
Ismoil Jalilov (vokal);
Dmitriy Tsirin (zarbli cholgʻular);
Shahboz Nizomutdinov (dutor, rubob, tambur);
German Roshkov (Badiiy rahbar, pianino).

Dastlabki tarkibda milliy – estrada yoʻnalishida faoliyat yurituvchi yosh musiqachilar ishtirok etdi. Bu bosqichda guruh repertuari xalq kuylariga asoslangan qoʻshiqlar va zamonaviy estrada elementlari bilan boyitilgan asarlardan iborat boʻldi. Koʻp ovozli ijro, jonli cholgʻu asboblari va sahna madaniyatiga eʼtibor asosiy xususiyat sifatida shakllandi.

2. Nom qozonish davri (1975–1979-yillar).

Mazkur davrda guruh professional milliy – estrada jamoasiga aylandi. Tarkib nisbatan barqarorlashdi va unda bir qator muhim ijrochilar faoliyat olib bordi, ammo guruhni asoschilardan biri boʻlgan Sergey Avanesov 1974-yilda, 1975-yilda German Roshkov tark etdi. Bu davrda guruhning tarkibi:

Aliaskar Fatxulin (klavish);
Grigoroy Pushen (bass - gitara, vokal);
Baxodir Jurayev (bass gitara);
Yevgeniy Jirayev (vokal, gitara, puflama cholgʻular, badiiy - musiqiy rahbar);
Igor Xalikov (puflama cholgʻular);
Farrux Zokirov (vokal, gitara);
Ismoil Jalilov (vokal, 1976-yilgacha);
Dmitriy Tsirin (zarbli cholgʻular);

Shahboz Nizomutdinov (dutor, rubob, tambur);

Davron Gaipov (bass gitara, faqat 1979-yilda).

1976-yilda Yevgeniy Jirayev guruhni tark etib, Farrux Zokirov guruhning badiiy rahbari bo'ldi. Va shu yili Ismoil Jalilov ham yakkaxon ijodga qadam bosib, guruhni tark etdi, ammo guruhga Larisa Kandalova, Nargiz Boyxonova, Raxim Orifxojayev, Natalya Nurmuxammedova, Mamura Qurbonova, Saima Abduraimova, Eson Kandov bek – vokal ijrochi sifatida kelib qo'shilishdi. 1978-yilda esa Mamura Qurbonova va Saima Abduraimova o'rniga Yelena Jivayeva va Svetlana babaxanyans olinib bek vokalchilar sonini o'zi 5 taga yetdi. Shu davrda "Yalla" guruh shoir Turob To'la bilan hamkorlik qildi.

3. Ijodiy inqiroz va ikkinchi nafas davri (1979–1994-yillar).

1979-yilga kelib, Yalla guruhi ijodiy inqirozga uchradi. Guruhni qator qatnashchilari guruh milliy ijrochiligida saqlab qolish, qator qatnashchilar estrada tomon bo'lishni xohlashdi, bazibirlari chet davlatga ketishdi. Shu davrda Aliaskar Fatxulin uzbekfilmga hamda "Navo" guruh badiiy rahbarligiga, Shahboz Nizomutdinov radio va televideniye orkestrga, Raxim Orifxojayev sportga, Baxodir Jurayev Konservatoriyaga musiqiy san'atshunos bo'lib o'tdi. Shu yili guruh tarkibi yangilanib oldin Botir Zokirov bilan do'stona munosabatda bo'lgan Javlon To'xtayev gitaraga, Rustam Ilyasov bass gitaraga, Doni Ilyasov klavishchi kelib qo'shilishdi. Ammo Doni Ilyasov guruhda ko'p qolmadi va oz muddatdan keyin guruhni tark etdi. Maqom milliy musiqiy elementlarni qisqartirish maqsadida ayol bek-vokal ijrochilar guruhdan chiqarildi. 1980-yildan guruh bilan barabanchi Alisher To'laganov, Aliaskar Fatxulin shogirdi bo'lgan klavishchi – aranjirovshik Abbas Aliyev, gitarachi Boris Gershkovich, bastakor va klavishchi Sarvar Kaziyev ishlashni boshlashdi, Farrux Zokirov guruhning vokal ijrochi va badiiy rahbari sifatida faoliyatni davom ettirdi, Igor Xalikov esa puflama cholg'u ijrochiligidan guruhning direktor-prodyuser lavozimiga o'tdi, Ziyod Ishanxodjayev guruhni Uchquduq shahridagi chiqishlarida qo'shimcha gitarachi bo'ldi. Shu davrda guruh estrada tomon ko'proq og'di, Turob To'la bilan hamkorlik davomiy bo'ldi va shu

qatori Yuriy Entin she'rlariga murojat qilindi. Shu bilan guruh milliylikdan cheklanib sof Estrada yo'nalishdagi guruhga aylandi. Guruh 1981, 1982, 1984, 1985, 1988 – yillarda guruh “Yil qo‘shig‘i”, “Yil guruhi” sovrinlarga sazovor bo‘ldi, musiqiy ijodida 5ta katta albom va qator mini-albomlar chiqarlidi. Bu davrda ovoz rejissyor Igor Iosis Yalla bilan hamkorligini boshladi. Yallaning “Xalqlar do‘stligi” san’at saroyidagi konsertlarni o‘tqazishda Igor Iosis ovoz kuchaytirish uskunalarni qo‘ydi va shu qatori guruhning tayyorlov – repititsiya xonadonida ovoz yozish studiya tashkil etdi. 80-yillar oxirida “Yalla” guruhi Moskvada yozilgan repertuarlarni olib Igor Iosis bilan mini disklarda chiqarishni boshlashdi. Mini disklarni o‘zi Aqshdan konsertlar mobaynida olib kelindi.

4. Mustaqillikdan keyingi davr (1994–2000-yillar).

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, guruh faoliyatida milliylik omili kuchaydi. Repertuarda o‘zbekona ruh, xalq kuylariga asoslangan kompozitsiyalar ustunlik qildi. Tarkibda tajribali ijrochilar asosiy o‘rinni egalladi. Shu bilan birga, yangi ishtirokchilar ham jalb qilindi. Guruh o‘zining klassik uslubini saqlagan holda zamonaviy estrada yo‘nalishiga moslashdi. Ammo 1994-yilda bass gitarachi Rustam Ilyasov guruhni tark etib, Aqshga ketdi va shu davr mobaynida guruh faoliyati sekinlashdi.

5. Zamonaviy bosqich va parallel loyihalar (2000-yillardan keyin).

2003-yillardan boshlab guruh o‘zining shakllangan ijodiy uslubini davom ettirgan holda katta sahnaga qaytdi. Shu davrda “Yalla” guruhga parallel ravishda “Retro Yalla” loyihasi tashkil etilib, Farrux Zokirov, Shahboz Nizomutdinov, Raxim Orifxojayev, Aliaskar Fatxulin, Igor Xalikov, Dmitriy Tsirin, original “Yalla”da Javlon To‘xtayev, Abbas Aliyev, Alisher Tulaganov qatnashishdi. Bu davr “Yalla” guruhi va parallel “Retro Yalla” loyihasi doirasida musiqiy ijodkorlar yangi bosqichga ko‘tarilishdi va guruh tarkibi to‘la birlashdi. “Retro Yalla” loyiha orqali asosan 1970–1975-yillarda “Yalla” guruh yozib olingan ammo ommaviy chiqarilmasdan lentalarda qolib ketgan klassik repertuarlarni jam qilib yangi musiqiy to‘plam chiqarishga muvaffaq bo‘lishdi. 2016-yilda Shahboz

Nizomutdinov uzoq davom etgan kasallikdan so'ng vafot etdi. Shu voqea natijasida "Retro Yalla" loyihasi faoliyati yakunlandi. Bu holat "Yalla" guruh tarixida muhim bosqich sifatida qayd etildi. Keyingi yillarda guruhda qatnashgan qator musiqiy ijodkorlar vafot etdi – Raxim Orifxojayev, Nargiz Boyxonova, Yevgeniy Jirayev. 2021-yilda "Yalla" guruhning yangi va remikslangan qo'shiqlari taqdim etildi. 2022-yilda Rustam Ilyosov guruhga qaytib keldi, ammo shu payti Alisher Tulaganyov guruh bilan hamkorligini tugatdi va birinchi tarkibdan bo'lgan Dmitriy Tsirin vafot etdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, "Yalla" guruhining faoliyati davomida tarkib bir necha bor o'zgargan bo'lsa-da, asosiy ijodiy yo'nalish saqlanib qolgan. Guruh faoliyatining barcha bosqichlarida milliy musiqa elementlari, zamonaviy estrada uslubi, professional sahna ijrosi uzviy uyg'unlikda rivojlangan. Shuningdek, guruh tarkibida faoliyat yuritgan ijrochilar o'zbek estrada san'atining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

O'rganilgan materiallarni xulosa qilib aytganda, "Yalla" guruhi o'zbek estrada san'atining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutgan ijodiy jamoalardan biridir. Guruh faoliyati bir necha o'n yilliklarni qamrab olgan bo'lib, bu davrlar davomida u turli bosqichlarni bosib o'tgan: shakllanish, nom qozonish, ijodiy yuksalish, yangi sharoitga moslashuv va zamonaviy faoliyat bosqichlari. Har bir davrda guruh tarkibida o'zgarishlar bo'lib turgan, yangi ijrochilar qo'shilgan va ayrimlari faoliyatini yakunlagan. Shunga qaramay, jamoaning asosiy yo'nalishi – milliy musiqa bilan zamonaviy estrada uslubini uyg'unlashtirish – doimiy ravishda saqlanib qolgan. Aynan shu jihat "Yalla" guruhining o'ziga xosligini belgilab bergan va uni boshqa jamoalardan ajratib turgan. Maqola davomida aniqlanishicha, guruh nafaqat ijodiy faoliyati bilan, balki sahna madaniyati, ko'p ovozli ijro va professional yondashuvi bilan ham o'zbek estradasining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Turli davrlarda faoliyat yuritgan ishtirokchilar ushbu jarayonda muhim rol o'ynagan va guruhning uzluksiz rivojlanishiga hissa qo'shgan. Shuningdek, keyingi yillarda guruh faoliyatida tarixiy merosni saqlash va uni yangi avlodga

yetkazish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Ayrim loyihalarning yakunlanishi, jumladan "Retro Yalla" faoliyatining tugashi, guruh tarixidagi muhim burilish nuqtasi sifatida baholanadi. Umuman olganda, "Yalla" guruhi faoliyati oddiy musiqa jamoasi doirasidan chiqib, o'zbek estrada san'atining muhim qismi sifatida shakllangan. Uning ijodi orqali milliy musiqa yangi shaklda rivojlanib, zamonaviy estrada bilan uyg'unlashgan holda davom etmoqda. Shu sababli, "Yalla" guruhining ijodiy merosi nafaqat o'tgan davr mahsuli, balki bugungi kun va kelajak uchun ham ahamiyatli madaniy hodisa sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Страницы истории музыкальной эстрады Узбекистана: Yalla – обретение имени. – URL: <https://nuz.uz/2023/09/07/straniczy-istorii-muzykalnoj-estrady-uzbekistana-yalla-obretenie-imeni/>
2. Страницы истории музыкальной эстрады Узбекистана: Yalla – первая часть пути. – URL: <https://nuz.uz/2023/09/14/straniczy-istorii-muzykalnoj-estrady-uzbekistana-yalla-pervaya-chast-puti/>
3. Страницы истории музыкальной эстрады Узбекистана: Yalla – второе дыхание. – URL: <https://nuz.uz/2023/09/21/straniczy-istorii-muzykalnoj-estrady-uzbekistana-yalla-vtoroe-dyhanie/>
4. Страницы истории музыкальной эстрады Узбекистана: Yalla – новейшая история. – URL: <https://nuz.uz/2023/10/26/straniczy-istorii-muzykalnoj-estrady-uzbekistana-yalla-novejshaya-istoriya/>
5. Yalla haqida umumiy ma'lumotlar. – URL: <https://en.wikipedia.org/wiki/Yalla>
6. Farrux Zokirov faoliyati haqida umumiy ma'lumotlar. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Farrux_Zokirov
7. O'zbekiston estrada san'ati tarixi bo'yicha umumiy manbalar. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/O%27zbek_estradasasi
8. Игорь Иосис: О шоу-бизнесе в Узбекистане. – URL: www.spot.uz/ru/2018/08/25/iosis/

Asadbek Abdusaminov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti: ashula va raqs mutaxassisligi magistranti
E-mail: asadbekabdusaminov@icloud.com*

SHARQ MUSIQA MEROSI VA AN'ANAVIY IJROCHILIK SAN'ATIDA REPERTUAR TANLASH AN'ANALARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sharq musiqa merosida repertuar tanlash an'analari va ularning an'anaviy ijrochilik san'atidagi o'rni tahlil qilinadi. Repertuar tanlashning tarixiy, estetik, ma'naviy va ijtimoiy-madaniy asoslari yoritilib, Al-Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning musiqiy qarashlari hamda Shashmaqom an'analari repertuar shakllanishiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, ustoz-shogird tizimi, talqin san'ati va mavsumiylik tamoyillarining an'anaviy xonandalik repertuaridagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada Sharq xalqlari musiqa madaniyatlari misolida repertuarining nafaqat badiiy, balki ma'naviy-ruhiy qadriyat sifatidagi mohiyati asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Sharq musiqa merosi, repertuar, an'anaviy ijrochilik, xonandalik san'ati, Shashmaqom, maqom, ustoz-shogird an'anasi, talqin.*

TRADITIONS OF REPERTOIRE SELECTION IN EASTERN MUSICAL HERITAGE AND THE ART OF TRADITIONAL PERFORMANCE

***Abstract.** This article examines the traditions of repertoire selection in Eastern musical heritage and their significance in the art of traditional performance. The historical, aesthetic, spiritual, and socio-cultural factors influencing repertoire formation are analyzed through the musical views of thinkers such as Al-Farabi, Avicenna (Ibn Sina), and Alisher Navoi, as well as the role of the Shashmaqom tradition in shaping performance repertoire. Particular attention is paid to the master-disciple tradition, the art of interpretation, and the principles of repertoire selection in maqom performance practice. The study demonstrates that*

repertoire selection in Eastern musical culture serves not only as an artistic practice but also as a means of preserving spiritual and cultural values.

Keywords: *Eastern musical heritage, repertoire, traditional performance, vocal art, maqom, Shashmaqom, master-disciple tradition, interpretation.*

Sharq musiqa madaniyatida repertuar tanlash an'analari – bu bir-biriga uzviy bog'liq uch jihatni o'z ichiga oluvchi ko'p qatlamli tizimdir: birinchidan, ijrochining estetik-badiiy dunyoqarashi va professional maktabi; ikkinchidan, an'anaviy musiqa madaniyatining ichki qonuniyatlari va mezonlari; uchinchidan, ijtimoiy-madaniy muhitning talablari va kutilmalari. Ushbu uch jihatning o'zaro ta'siri tufayli Sharq musiqa an'anasida repertuar tanlash oddiy ijrochi qaroriga emas, balki chuqur ma'noga ega madaniy aktga aylanadi. Sharq musiqa madaniyatlarida repertuarning nazariy asoslanishi qadimgi ilmiy-falsafiy maktablardan boshlanadi. Al-Forobiy (872–950) o'zining “Musiqqa haqida katta kitob” (Kitob al-musiqqa al-kabir) asarida musiqaning inson ruhiga ta'siri mexanizmlarini tahlil qilib, turli kuy va ohanglarning psixofiziologik samarasini ilmiy jihatdan asosladi. Forobiyning konsepsiyasiga ko'ra, to'g'ri tanlangan musiqa ruhni sog'lomlashtiradi, hissiyotlarni uyg'otadi va aqlni keskinlashtiradi. Bu g'oya an'anaviy Sharq musiqa maktablarida repertuarni “ma'naviy davo vositasi” sifatida talqin qilishning nazariy asosini tashkil etadi [1, 54-b]. Ibn Sino (980–1037) “Ash-Shifo” va “Al-Qonun fit-tibb” asarlarida musiqaning terapevtik va psixologik ta'sirini batafsil ko'rib chiqdi. U kuylarni his-tuyg'ularga ta'siri bo'yicha tasnifladi va turli kayfiyat hamda holatlar uchun mos kuylarni tanlash qoidalarini belgiladi. Ushbu qoidalar keyinchalik maqom tizimining estetik asosiga aylandi. Ibn Sino konsepsiyasida repertuar tanlash – “insonning ruhiy holati va asar o'rtasidagi uyg'unlikni topish san'ati” deb ta'riflanadi. Bu ta'rif o'zbek xonandalik estetikasining “to'g'ri maqom” konsepsiyasi bilan deyarli bir xil mazmun kasb etadi.

O'rta Osiyoda musiqa madaniyatining klassik davri – Temuriylar hukmronligi (XIV–XVI asrlar) – xonandalik repertuarining institutlashishi uchun alohida ahamiyatli bo'ldi. Bu davrda Samarqand va Hirotdagi saroy madaniyati yuqori

darajadagi professional talablarni shakllantirdi. Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro boshchiligida gurullagan madaniy muhit xonandadan nafaqat ovoz go'zalligi va texnik mahoratni, balki adabiy va falsafiy bilimdonlikni ham talab qildi. Shoir-xonandalar – ya'ni o'z she'rlarini o'zlari kuylab ijro etuvchilar – bu davrning repertuar idealini gavdalantirgan.

Alisher Navoiy ijodi xonandalik repertuarining tarixiy evolyutsiyasida o'ziga xos “sifat sakrashi”ni ta'minladi. Navoiy g'azallarining musiqiy interpretatsiyasi xonandadan yangi repertuar malakalarini talab qildi: she'r mazmunining chuqur falsafiy talqini, turkiy va fors-tojik musiqa an'analarini sintez qilish qobiliyati, vokal liniyasini she'riy ritmga mukammal moslash. Bu talablar xonandalik repertuarining badiiy-intellektual darajasini yangi cho'qqiga ko'tardi. Navoiy g'azallari zamondan zamonga o'tib, bugungi kunda ham o'zbek xonandaligi repertuarining markaziy qismini tashkil etadi [2, 231-b].

Buxoro shashmaqomi an'anasi XVI–XVII asrlarda an'anaviy Sharq repertuar tizimining eng mukammal namunasini yaratdi. Shashmaqomning oltita siklidan (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq) iborat yaxlit tizimi repertuarni tashkil etishning qat'iy tamoyillarini belgilab berdi. Har bir sikl ichida qo'shiqlar aniq tartibda joylashtirilgan bo'lib, ular bir-biridan ritmik, ohangi va emotsional jihatdan farq qiladi. Bu tartib asosida “keng va tor” (katta va kichik) shakllardagi qismlari navbatma-navbat keladi, asta-sekin emotsional kulminatsiyaga yetib, keyin sokinlikka qaytadi. Shashmaqom an'anasida repertuarni egallash jarayoni o'ziga xos “kognitiv xarita” asosida amalga oshirilgan. Shogird dastlab har bir maqomning asosiy intonatsion yadrosini – “maqom ruhini” – o'zlashtiradi. Keyin bu yadro atrofida joylashgan qo'shiq va kuylarni asta-sekin o'rganadi. So'ng butun maqomni yaxlit tizim sifatida his qilishga erishadi. Bu jarayon bir necha yildan o'n yilgacha davom etishi mumkin. Ushbu metodologiya hozirgi dissertatsiya kontekstida shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'zbek xonandaligi maktabida repertuarni egallash – bu faqat qo'shiqlarni yodlash emas, balki butun musiqa dunyoqarashini o'zlashtirish demakdir.

Sharq musiqa an'anasida “ustoz-shogird” tizimining repertuarni shakllantirish jarayonidagi o'rnini alohida tahlilni taqozo etadi. Bu tizim – faqat bilim uzatish mexanizmi emas, balki repertuarni “tirik holda” saqlash va avloddan avlodga o'tkazishning yagona ishonchli usuli edi. Nota yozuvi mavjud bo'lmagan yoki cheklangan sharoitlarda an'anaviy musiqa faqat jonli eshitish va taqlid orqali yashay oldi. Shu sababdan, ustoz nafaqat o'z shogirdiga qo'shiqlarni o'rgatgan, balki ularning ijro an'anasini, talqin qilish usullarini, hissiy mazmunini ham shogird qalbiga ko'chirgan.

Sharq musiqa an'anasida repertuarni tanlashning yana bir muhim tamoyili – “mavsumiylik” va “holat munosibligi” prinsiplaridir. Turli qo'shiqlar turli mavsumlar, vaqtlar va hayot holatlari uchun mo'ljallangan deb hisoblangan. Bahor va to'y qo'shiqlari, motam va azadorlik qo'shiqlari, tong va kecha qo'shiqlari – bularning barchasi o'z o'rnida ijro etilishi talab qilingan. Noo'rin vaqtda noto'g'ri qo'shiqni ijro etish an'anaviy estetika nuqtayi nazaridan g'ayriaxloqiy akt sifatida qoralangan. Bu qoida an'anaviy xonandachilikda repertuarning nafaqat estetik, balki etik o'lchamga ega ekanligini ko'rsatadi [3, 127-b]. O'rta Osiyo xonandachilik maktablari repertuarni egallashda “talqin” tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Talqin – bu berilgan asarni mexanik takrorlash emas, balki uni o'z ruhiy tajribasi va badiiy tushunchasi orqali qayta idrok etish va ifoda qilish demakdir. An'anaviy maktabda bitta qo'shiqning yuz xil talqini mumkin deb hisoblanadi – chunki har bir ijrochi, har bir payt va har bir auditoriya unikal muloqot vaziyatini yaratadi. Shu sababdan an'anaviy repertuarda qat'iy “to'g'ri” va “noto'g'ri” ijro yo'q – faqat “chuqur” va “sayoz” talqin mavjud.

Eron va Hindiston an'anaviy musiqa maktablari bilan qiyosiy tahlil o'zbek xonandachilik repertuarining o'ziga xosligini yanada oydinlashtiradi. Hindiston klassik musiqasida (Xindustani va Karnata maktablari) repertuarning raga tizimi bilan bog'liqligini ko'rish mumkin: har bir raga muayyan vaqt, mavsum va emotsional holatga mos kelib, xonanda shu raganing “ruhini” yetkazishi lozim. Eron dastgoh tizimida ham shunga o'xshash mantiq ishlaydi: har bir dastgoh o'ziga xos

maqomiy muhiti bilan xonandadan muayyan kayfiyat va ruhiy sozlikni talab qiladi. O'zbek shashmaqomi bu ikkala an'ananing uyg'unligini namoyon etadi [4, 72-b].

Taqqoslash ko'rsatadiki, O'rta Osiyo, Eron va Hindiston musiqa an'alarini birlashtiruvchi umumiy tamoyil – bu repertuarning faqat estetik emas, balki ma'naviy-ruhiy kategoriya ekanligi. Ushbu uch an'anadagi xonandalik repertuari “badiiy tomosha” uchun emas, “ruhiy sayohat” uchun mo'ljallangan deb hisoblanadi. Bu falsafiy asosdan kelib chiqib, an'anaviy Sharq xonandaligida repertuarni tanlash – bu ijrochining tinglovchini qaysi ma'naviy makonga olib bormoqchi ekanligi haqidagi qaror bo'ladi.

Arab musiqa an'anasida maqom tizimi va uning repertuarga ta'siri masalasida Mahmoud Guettat (“La Musique Classique du Maghreb”, 1980) hamda Simon Jargy (“La Musique Arabe”, 1971) tadqiqotlari muhim qiyosiy material beradi. Ushbu ishlarda arab maqom tizimida repertuar tanlash an'analari – xususan, turli maqomlarning turli ijtimoiy va psixologik vaziyatlarga munosibligi – batafsil tahlil qilingan. Bu material o'zbek maqom tizimi bilan qiyosiy o'rganilganda, ikki an'ananing umumiy Sharq musiqa epistemologiyasidan oziqlanishini, ammo o'ziga xos milliy xususiyatlarini saqlaganini ko'rsatadi.

XX asrda an'anaviy Sharq musiqa repertuarining transformatsiyasi uchta asosiy omil ta'sirida sodir bo'ldi: birinchidan, Yevropa akademik musiqa ta'limi tizimining joriy etilishi; ikkinchidan, radio va gramfon texnologiyalarining tarqalishi; uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar (mustamlakachilik va sovet davri). Bu omillar an'anaviy repertuarning og'zaki uzatish tizimini silkitdi va nota yozuviga asoslangan yangi o'rganish modelini taqdim etdi. Biroq, ayni vaqtda ushbu omillar an'anaviy repertuarni keng jamoatchilikka yetkazishda yangi imkoniyatlar ham ochdi. O'zbekistonda bu transformatsiya jarayoni o'ziga xos tarzda kechdi. Sovet davrida musiqa ta'limi instituti (konservatoriya, musiqa maktablari) milliy an'anaviy repertuarni nota yozuviga ko'chirishga uringan bo'lsa-da, bu jarayon ma'lum darajada muvaffaqiyatsizlikka uchraydi: chunki an'anaviy o'zbek xonandachilik repertuarining eng muhim sifatlaridan biri – improvisatsiya va jonli

talqin unsuri – nota yozuvida to‘liq aks ettirila olmaydi. Shu sababdan, an’anaviy xonandalik repertuarini saqlashning eng ishonchli usuli hamon jonli musiqa amaliyoti bo‘lib qoldi.

Zamonaviy o‘zbek xonandaligida an’anaviy repertuar tanlash an’analarining yashashini ta'minlovchi omillar orasida Davlat musiqa ansambllari va teatrlari, Respublika musiqa festivallari va ko‘riklari, an’anaviy uylarda saqlanib kelayotgan ustoz-shogird munosabatlari tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ana shu omillar Zamira Suyunova kabi xonandalar uchun an’anaviy repertuarni chuqur o‘rganish va professional darajada egallash imkonini bergan.

Sharq musiqa merosida repertuarni shakllantirishning tarixiy-an’anaviy aspektlarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, Sharq musiqa an’anasida repertuar faqat ijrochi uchun professional vosita emas, balki madaniy o‘zlikni saqlash va uzatishning strategik mexanizmi. Ikkinchidan, repertuarni tanlash an’anasi musiqa-estetik, ma’naviy-falsafiy va ijtimoiy-madaniy mezonlar asosida amalga oshirilgan. Uchinchidan, an’anaviy o‘zbek xonandaligi maktabida repertuarni egallash jarayoni – bu ko‘p yillik ustoz-shogird munosabatlari orqali amalga oshadigan ruhiy-intellektual kamolot yo‘li. To‘rtinchidan, zamonaviy xonandalik maktabida an’anaviy repertuarni saqlash bilan innovatsion yondashuvlar o‘rtasidagi muvozanat bugungi kun xonandachiligi oldidagi asosiy metodologik muammo bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Forobiy Kitob al-musiqa al-kabir (Musiqqa haqida katta kitob)*. – Toshkent: Fan, 1973. – 318 b.
2. *Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik*. – Toshkent: Fan, 1987–2003.
3. *Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir*. – Toshkent: Fan, 1963. – 344 b.
4. *Matyoqubov O. Maqomot*. – Toshkent: Musiqqa, 2004. – 400 b.

Mashxura Komiljonova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Estrada aktyorligi san'ati mutaxassisligi magistranti
E-mail: yagonabegimu@gmail.com*

KONSERT DASTURLARIDA XOREOGRAFIK SAHNA YECHIMLARINING KOMPOZITSION ASOSLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqola konsert dasturlarida xoreografik sahna yechimlarining kompozitsion asoslarini tahlil etadi. Maqolada xoreografik kompozitsiyaning asosiy elementlari – fazoviy tashkilot, vaqt tuzilishi, dinamik ifoda va dramaturgik qurilish – ilmiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. Sahna makonidan foydalanish tamoyillari, guruh xoreografiyasida shakllantirish (formatsion) texnikasi, musiqa va harakat o'rtasidagi munosabat, shuningdek, konsert dasturini yaxlit badiiy asar sifatida qurish masalalari keng yoritiladi. Maqolada nazariy xulosalar, xorijiy va o'zbek xoreografiya amaliyotidan olingan misollar bilan asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:** xoreografik kompozitsiya, sahna yechimi, konsert dasturi, fazoviy tashkilot, formatsion, dramaturgiya, musiqa va harakat sinxronligi, sahna geometriyasi, badiiy obraz, dinamik ifoda.*

COMPOSITIONAL FOUNDATIONS OF CHOREOGRAPHIC STAGE SOLUTIONS IN CONCERT PROGRAMS

***Abstract.** This article analyzes the compositional foundations of choreographic stage solutions in concert programs. The study examines the main elements of choreographic composition – spatial organization, temporal structure, dynamic expression, and dramaturgical construction – from a scientific perspective. The principles of using stage space, formation techniques in group choreography, the relationship between music and movement, as well as the issues of constructing a concert program as an integral artistic work are comprehensively discussed. The theoretical conclusions are supported by examples taken from foreign and Uzbek choreographic practices.*

Keywords: *choreographic composition, stage solution, concert program, spatial organization, formation, dramaturgy, synchronization of music and movement, stage geometry, artistic image, dynamic expression.*

Konsert dasturi – bu nafaqat alohida raqslar ketma-ketligi, balki yaxlit badiiy fikrni ifodalovchi kompleks sahna asaridir. Xoreograf har bir raqsni yaratishda sahnalashtirishda bir vaqtning o'zida ikki darajada ish ko'radi: birinchi darajada – ayrim raqsning ichki tuzilishi (kompozitsiyasi), ikkinchi darajada – ushbu raqsning butun dastur kontekstidagi o'rni va vazifasi. Ushbu ikki darajaning uyg'un hal etilishi konsert dasturining badiiy qimmatini belgilaydi.

Xoreografik kompozitsiya masalalari jahon san'atshunosligida yetarlicha o'rganilgan. Biroq “sahna yechimi” tushunchasi xoreografiyaning fazoviy, dramaturgik va estetik jihatlarini birlashtirgan murakkab kategoriya sifatida maxsus tadqiqot talab etadi. Ushbu maqolada shu muammo markaziy o'rin egallaydi.

Xoreografiya – insoniy harakat va shaklni makon, vaqt, energiya va emotsional kontekst nuqtayi nazaridan belgilash san'atidir. Ushbu ta'rif xoreografiyaning to'rt asosiy o'lchamini aniq ajratib ko'rsatadi: makon (space), vaqt (time), kuch-energiya (energy) va shakl (shape). Konsert dasturida sahna yechimini loyihalashda xoreograf ana shu to'rt o'lcham bo'yicha ongli qaror qabul qiladi [1].

Kompozitsion jihatdan xoreografik asar organik yaxlitlik, ritmik artikulyatsiya, mavzu, variatsiya va takror tamoyillariga asoslanadi. Bular faqat texnik vositalar emas, balki ular badiiy mazmuni tomoshabinga yetkazuvchi kommunikatsiya tizimini tashkil etadi. Zamonaviy xoreografiya nazariyasida bu tamoyillar turli uslubiy kontekstlarda qayta talqin etilmoqda: improvizatsiyaga asoslangan xoreografiyada dastlabki tuzilma ochiqroq bo'lsa, klassik balet an'anasida u aniq qoidalar bilan belgilanadi.

Sahna makonining geometriyasi xoreografik kompozitsiyaning asosini tashkil etadi. Sahna – uch o'lchamli fazoviy tizim bo'lib, unda har bir nuqta tomoshabin uchun turli xil “og'irlik” va “kuchga” ega. Sahna markazi eng kuchli nuqta hisoblanadi – bu yerda tomoshabin diqqatining eng yuqori darajada to'planishi ro'y

beradi. To'rtta burchak (yuqori chap, yuqori o'ng, quyi chap, quyi o'ng) kuchli dramaturgik boshlang'ich nuqtalar sifatida ishlatiladi. Sahnaning yuqori (upstage) qismi uzoqlik, kichrayish, kuch to'plash hissini, quyi (downstage) qismi esa tomoshabin bilan yaqinlik va emotsional aloqani ifodalaydi [2].

Sahnadagi raqs geometriyasi masalasi xoreografik rejissura va badiiy ssenografiya chegarasida turadi. Har bir sahnaviy asar uchun raqsning geometrik shakli qaytadan hal etilishi lozim, chunki u sahna makonining o'ziga xos xususiyatlariga chambarchas bog'liq. Perspektivli fazoviy konstruksiyalar asosida balet sahnaviy yechimlarida turli uslublar vujudga kelgan – klassik perspektivizmdan tortib zamonaviy ochiq sahna yechimlarigacha.

Guruh xoreografiyasida formatsiya (formation) texnikasi alohida o'rin tutadi. Formatsiya – raqqos(a)lar sahnadagi joylashuvi va ular hosil qiladigan geometrik shakl. To'g'ri chiziq, doira, diagonal, uchburchak, V-shakl va assimetrik tuzilmalar – bular formatsiyaning asosiy turlari. Har bir formatsiya turli dramaturgik va estetik vazifalarni bajaradi: to'g'ri chiziq kuch va tartibni, doira birlashuvni, diagonal esa dinamika va harakatni ifodalaydi [3]. Formatsiyadan formatsiyaga o'tish – “transition” – xoreografik mahoratning eng murakkab elementlaridan biri. Yaxshi o'tish tomoshabinga ko'rinmas bo'lishi kerak: u organik ravishda musiqiy va dramaturgik rivojlanishdan kelib chiqishi lozim. O'tish jarayonida raqqos(a)larning sahnadagi joylashuvi o'zgarar ekan, ko'zni qamashtirmasdan yangi geometrik tuzilma hosil bo'lishi xoreografning fazoviy tasavvur darajasini ko'rsatadi.

Sathlar (levels) xoreografik kompozitsiyada uchinchi o'lchamni, ya'ni raqqos tanasining yerdan balandligi, ya'ni u sahnada qaysi “qavat”da joylashganligi –balandlikni – faol ishlatish imkonini beradi. Yotgan, o'tirgan, tiz cho'kkan, turgan va o'ynoqi sakrash pozitsiyalari – bularning har biri turli dramaturgik vazifani bajaradi. Sathlar kombinatsiyasi sahna rasmining vizual boyligini oshiradi va tomosha qiluvchining diqqatini boshqaradi.

Vaqt xoreografik kompozitsiyaning ikkinchi asosiy parametridir. Raqsda vaqt uch jihatdan namoyon bo'ladi: metrum (asosiy ritmik puls), ritm (uning

variatsiyalari) va temp (harakatning tezligi). Bu uch jihat musiqiy tuzilma bilan murakkab munosabatda bo'ladi [4]. Xoreografik frazirovka – harakatlar ketma-ketligini badiiy jihatdan mazmunli bo'laklarga – frazalarga bo'lish san'ati. Frazirovka musiqiy frazirovkaga mos kelishi ham, zid bo'lishi ham mumkin: mos kelganida musiqa va harakat o'rtasida uyg'unlik hosil bo'ladi, zid kelganida esa dramaturgik taranglik yaratiladi. Ikkala yondashuv ham o'z o'rnida to'g'ri – xoreograf badiiy niyatiga qarab tanlaydi.

Kanon texnikasi – bitta raqqos(a) boshlagan harakatni boshqalar turli vaqt oralig'ida takrorlashi – vaqtinchalik murakkablikni yaratuvchi kuchli vosita. Kanon tomoshabinga bir vaqtda bir xil harakat turli fazalarda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi, bu esa ko'z uchun qiziqarli vizual effekt yaratadi. Unison (barcha raqqos(a)larning bir vaqtda bir xil harakatni bajarishi) va succession (ketma-ket dalga tarzidagi harakat) ham vaqtinchalik tashkilotning muhim vositalaridir.

Konsert dasturini yaxlit tuzishda ham vaqtinchalik mantiq hal qiluvchi rol o'ynaydi. Dastur tuzilishi odatda klassik dramaturgik qonun – kirish, rivojlanish, kulminatsiya va yechim asosida quriladi. Tez va sekin raqslar, yakkaxon va guruh nomerlari, lirik va dinamik kompozitsiyalar navbatma-navbat kelishi dasturning ritmik nafasini tashkil etadi.

Xoreografik kompozitsiyaning uchinchi asosiy o'lchami – energiya, ya'ni harakat sifati. Bir xil trayektoriya bo'ylab bir xil vaqtda bajariladigan harakatlar turli energetik sifat bilan ifodalanganda mutlaqo turli dramaturgik ta'sir ko'rsatadi. Bu "effort" tushunchasi Rudolf Laban xoreografik tahlil tizimida markaziy o'rin egallaydi.

Harakat sifatining asosiy parametrlari: og'irlik (og'ir/yengil), vaqt (to'satdan/asta-sekin), makon (to'g'ri/egri) va oqim (erkin/nazorat ostida). Bu to'rt parametrlarning kombinatsiyasi harakatning "leksik boyligini" belgilaydi. Xoreograf shu parametrlarni ongli boshqarish orqali sahnaviy obrazni chuqurlashtiradi.

O'zbek klassik raqsida harakat sifati alohida estetik tizim asosida qurilgan. Qo'l plastikasi – barmoqlar, bilak va yelka harakatlarining uyg'unligi – nafis va

batafsil belgilangan energetik sifatga ega. Farg'ona maktabida harakatning "oqim" parametri ustuvorlik qilsa, Buxoro maktabida "og'irlik" va "vaqt" parametrlari keskin almashishi xarakterlidir. Shu xususiyatlar xoreografik kompozitsiyada milliy stilistikani saqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xoreografik asarning to'rtinchi asosiy o'lchami – emotsional va dramaturgik mazmun. Xoreografiya nafaqat harakat san'ati, balki emotsional kommunikatsiya vositasidir. Badiiy obraz – xoreografik asar vositasida tomoshabinga yetkaziladigan hissiy-g'oyaviy mazmun [5]. Badiiy obraz shakllantirish xoreografda to'rtta qatlamda amalga oshiriladi. Birinchi qatlam – harakatning metaforik potentsiali: har bir harakat ma'lum emotsional assotsiatsiyalarni uyg'otadi. Ikkinchi qatlam – dramaturgik kontekst: harakatlar ketma-ketligi qanday hikoya yoki holat rivojlanishini ifodalaydi. Uchinchi qatlam – musiqa bilan munosabat: harakatning musiqiy matn bilan dialogiga kirishi. To'rtinchi qatlam – sahnaviy muhit: chiroq, kostyum, bezak elementlarining xoreografiya bilan munosabati.

O'zbek milliy xoreografiyasida badiiy obraz ko'pincha an'anaviy she'riyat va maqom musiqa teksti bilan uzviy bog'liq. Masalan, Mukarrama Turg'unboyeva sahnalashtirgan "Tanovar" raqsida ayol obrazining ichki kechinmalari – sog'inch, hijron, umid – nozik plastik vositalar orqali ifodalangan. Bu raqsda lirik obrazning mukammal ochilishi, emotsional holatlarning musiqa va harakat vositasi bilan uyg'unligi xoreografik dramaturgiyaning yuqori namunasi hisoblanadi. Konsert dasturini loyihalash aslida "ikkinchi darajadagi kompozitsiya" – alohida nomerlar kompozitsiyasi ustidan qurilgan umumiy badiiy arxitektura hisoblanadi. Bu arxitekturada bir necha tamoyil hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kontrast tamoyili. Dasturda bir-birini to'ldiruvchi va bir-biridan farq qiluvchi nomerlar navbatlanishi kerak. Tez va sekin, yakkaxon va guruh, lirik va dramatik, an'anaviy va zamonaviy – kontrastlarning to'g'ri nisbati tomoshabinni charchatmasdan qiziqtiradi.

Kulminatsiya tamoyili. Har bir dasturda hissiy va badiiy cho'qqi – kulminatsiya nuqtasi bo'lishi lozim. Odatda u dasturning ikkinchi yarmida

joylashadi. Kulminatsiyaga qadar zo'rayib boruvchi dinamika, undan keyin esa muloqot va yechim bosqichlari joylanadi.

Yaxlitlik tamoyili. Dasturning barcha nomerlari – turli uslub, janr va mazmunda bo'lsa ham – umumiy badiiy g'oya yoki mavzu atrofida birlashadi. Bu birlikni yaratish uchun xoreograf va rejissyor musiqa, vizual dizayn va dramaturgik kontseptsiya bo'yicha oldindan kelishishi zarur.

Nisbat va mukammallik tamoyili. Davomiylik, raqqos(a)lar soni, sahnaviy bezak – bularning barchasi dastur nomerlarining uyg'unligini ta'minlaydi. Bir nomerning haddan ziyod uzun yoki murakkab bo'lishi butun dastur balansini buzishi mumkin [6]. Zamonaviy konsert dasturlarida texnologik vositalar tobora keng qo'llanilmoqda. Proyeksiya, video mapping, interaktiv sahna chirog'i va tovush dizayni xoreografik asar uchun yangi ekspressiv imkoniyatlar ochadi. Biroq texnologiya xoreografiyaning asosiy ifoda vositasini – insoniy harakatni – siqib chiqarmasligi kerak. Texnologik vositalarning xoreografik kompozitsiyaga integratsiyasi bir necha sathda sodir bo'ladi. Birinchisi – illyuzion qatlam: yorug'lik va proyeksiya orqali sahnaning fizik chegaralarini kengaytirish. Ikkinchisi – dramaturgik qatlam: videomatn yoki tovush effektlari orqali narrativ boyitish. Uchinchisi – interaktiv qatlam: raqqoslarning harakati real vaqt rejimida sahna muhitini o'zgartiradi.

O'zbek konsert amaliyotida bu tendensiyalar “Bahor”, “Shodlik”, “Navro'z”, “Tumor” ansambllari va boshqa professional jamoalarning repertuarida tobora yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Milliy xoreografik uslubni zamonaviy sahna texnologiyasi bilan qo'shish o'z-o'zicha murakkab ijodiy muammo: texnologiya an'anaviy estetikani boyitishi yoki unga zid bo'lishini keltirib chiqarishi mumkin. Bu tanlov har safar xoreografning badiiy niyati va dasturning umumiy konsepsiyasiga bog'liq holda qaror qilinadi. Konsert dasturlarida xoreografik sahna yechimlarining kompozitsion asoslari – bu bir vaqtning o'zida to'rtta o'lchamda (makon, vaqt, energiya, dramaturgiya) amalga oshiriladigan murakkab ijodiy

jarayon. Har bir o'lcham o'z qonuniyatlariga ega va mustaqil o'rganishni talab etadi; biroq badiiy muvaffaqiyat faqat ularning uyg'un sintezida namoyon bo'ladi.

Demak, zamonaviy xoreografiya nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi yangi imkoniyatlar bilan birga yangi vazifalarni ham qo'ymoqda. O'zbek milliy xoreografiyasi uchun dolzarb vazifa – klassik kompozitsion tamoyillarni saqlab qolgan holda zamonaviy sahna tilining boyliklaridan unumli foydalanish. Bu muvozanatni topa bilgan xoreograflar esa konsert dasturini nafaqat ko'rsatuv, balki haqiqiy san'at asariga aylantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Minton S. *Choreography: A Basic Approach Using Improvisation*. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2017. – 187 p.
2. Portnova T. *Dance Geometry in the Stage Floor Parameters: Theory and Practice Questions // Jomard Publishing*. – New Design Ideas, 2022. – №6(3). – P. 374–385.
3. Portnova T. *Principles and Opportunities of the Study of Theatrical Heritage in the Practice of Choreographic Education // Universal Journal of Educational Research*. – HRPUB, 2021.
4. Saitova E., Abaykulova N. *Xoreografiya va raqs san'ati asoslari*. – Toshkent: Turon-Iqbal, 2018. – 128 b.
5. Fazliyeva Z. *Uzbek Stage Dance and Its Way of Development // IEJRD – International Multidisciplinary Journal*. – 2020. – Vol. 5, No. 4. – P. 16–20.
6. Muxamedova M. *Mukarrama Turg'unboyeva ijodiy merosining o'ziga xosligi // JOCAA – Journal of Creative Art and Architecture*. – 2024. – №2(3). – P. 23–25.

Otabek Jalliyev

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti: ashula va raqs
mutaxassisligi magistranti
E-mail: otabekjalliyev@gamil.com*

AHMADJON SHUKUROV IJODIGA BIR NAZAR

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston xalq artisti, taniqli maqom ijrochisi va bastakor Ahmadjon Shukurovning ijodiy faoliyatida ustoz san'atkorlar, bastakorlar va shoirlar bilan olib borgan ijodiy hamkorligi tahlil qilinadi. Xususan, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Umarov, Abdulla Oripov hamda Turob To'la bilan ijodiy aloqalari, Shukurovning ijrochilik mahorati, sahna madaniyati, maqom talqini va badiiy dunyoqarashiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, san'atkorning o'zbek mumtoz musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni, badiiy merosxo'rlik an'analarini davom ettirishdagi xizmatlari va davlat tomonidan e'tirof etilgan ijodiy yutuqlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Ahmadjon Shukurov, maqom san'ati, bastakorlik, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Umarov, Abdulla Oripov, Turob To'la, Shashmaqom, Buxoro maqom maktabi, ijrochilik san'ati.*

AN OVERVIEW OF AHMADJON SHUKUROV'S ARTISTIC CAREER AND LEGACY

***Abstract.** This article analyzes the creative collaborations of Ahmadjon Shukurov, People's Artist of Uzbekistan, a renowned maqom performer and composer, with master artists, composers, and poets throughout his artistic career. In particular, it examines the influence of his creative relationships with Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Umarov, Abdulla Oripov, and Turob To'la on his performance skills, stage culture, interpretation of maqom, and artistic worldview. The article also provides a scholarly analysis of Shukurov's contribution to the development of Uzbek classical musical culture, his role in preserving and continuing artistic heritage traditions, and his creative achievements recognized by the state.*

Keywords: Ahmadjon Shukurov, maqom art, composition, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Umarov, Abdulla Oripov, Turob To'la, Shashmaqom, Bukhara maqom school, performance art.

O'zbek milliy musiqa san'atining rivojlanishida ustoz-shogird an'analari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida faoliyat yuritgan san'atkorlarning ijodiy kamolotida mashhur bastakorlar, xonandalar va shoirlar bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etgan. Ana shunday san'atkorlardan biri O'zbekiston xalq artisti Ahmadjon Shukurovdir.

Ahadjon Shukurov o'zining serqirra ijodi, maqom va mumtoz qo'shiqchilikdagi yuksak mahorati, bastakorlik faoliyati hamda badiiy merosga sadoqati bilan o'zbek musiqa madaniyatida munosib o'rin egallagan. Uning ijodiy shakllanishida ko'plab ustoz san'atkorlar va adabiyot namoyandalari muhim rol o'ynagan. Ushbu maqolada Ahmadjon Shukurovning mashhur bastakor va san'atkorlar bilan hamkorligi hamda ularning san'atkor ijodiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi.

Ahadjon Shukurov ijodiy faoliyatida Komiljon Otaniyozov bilan hamkorlik alohida o'rin egallaydi. Komiljon Otaniyozov (1917–1975-yillar) o'zbek milliy musiqa san'atining yirik namoyandasi, mohir torchi, bastakor va xonanda sifatida tanilgan. U Xorazm maqom maktabining eng yorqin vakillaridan biri bo'lib, xalq musiqasining nodir namunalarini avlodlarga yetkazgan [1, 23-b].

Shukurov va Otaniyozovning yaqinlashuvi 1970-yillarda “Shodlik” ansamblidagi faoliyat davriga to'g'ri keladi. Filarmoniya binosida joylashgan “Lazgi” va “Shodlik” ansambllarining bir makonda faoliyat yuritishi ikki san'atkorning tez-tez uchrashib turishiga sabab bo'lgan. Keyinchalik bu uchrashuvlar mustahkam do'stlik va samarali ijodiy hamkorlikka aylangan.

Komiljon Otaniyozov Ahmadjon Shukurovning tor cholg'usini mukammal egallashida muhim ustoz bo'lgan. U tor chalish texnikasi, pardalarni toza va aniq bosish sirlarini Shukurovga o'rgatgan. Natijada Shukurov tor cholg'usini puxta o'zlashtirib, ijodida undan samarali foydalangan. Bundan tashqari, Komiljon

Otaniyozovning maqomlarni talqin etish uslubi ham Shukurov ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, Xorazm maqomlari ijrosidagi jozibadorlik, ohanglarning nozik ifodasi va badiiy talqin xususiyatlari Shukurov tomonidan chuqur o'rganilgan. Komiljon Otaniyozovning insoniy fazilatlari ham Shukurov uchun muhim maktab vazifasini o'tagan. U yoshlarga mehribonligi, saxovatpeshaligi va kamtarligi bilan ko'pchilikka namuna bo'lgan. Bu fazilatlar Ahmadjon Shukurovning shaxsiy va ijodiy kamolotida ham o'z aksini topgan [2, 45-b].

Ahadjon Shukurovning ijodiy rivojlanishida Faxriddin Umarov bilan hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Faxriddin Umarov o'zbek lirik qo'shiqchilik san'atining yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, his-tuyg'ularni nozik ifodalash mahorati bilan tanilgan.

Umarovning Shukurov ijodiga ko'rsatgan eng muhim ta'sirlaridan biri adabiy talaffuz va matnga bo'lgan talabchanlikdir. Shukurovning televizion chiqishlaridan birini kuzatgan Umarov uning ayrim g'azal misralarini noto'g'ri talaffuz qilganini ta'kidlaydi. Bu tanqid Shukurov uchun katta saboq bo'lib xizmat qiladi. Shundan so'ng u ijro etadigan har bir asar matnini sinchiklab o'rganadigan va uning mazmuniga chuqur kirib boradigan bo'ladi [3, 75-b].

Faxriddin Umarovning lirik qo'shiqlarni talqin etish uslubi ham Shukurovning repertuariga ta'sir ko'rsatgan. Xususan, "Yetolmayman", "Ko'rgim kelur" kabi asarlarni ijro etishda Umarov uslubining ayrim jihatlari seziladi. Bundan tashqari, Umarovning sahna madaniyati, tomoshabin bilan muloqot qilish uslubi va sahnadagi nafis harakatlari Shukurov uchun amaliy tajriba maktabi bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bilan hamkorlik Ahmadjon Shukurov ijodining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu hamkorlik "Zarafshon" ansambli faoliyati davrida yanada mustahkamlangan [4, 151-b].

Abdulla Oripovning "Xayr endi" she'ri asosida yaratilgan qo'shiq ushbu hamkorlikning eng yorqin namunasi sanaladi. Shukurov she'rni o'qiboq unga kuy bastalagan va ijro etgan. Shoirning qo'shiqdan chuqur ta'sirlangani Shukurovning

she'r ruhiyatini teran his qila olganidan dalolat beradi. Abdulla Oripov va Ahmadjon Shukurov o'rtasida muntazam ijodiy muloqot mavjud bo'lgan. Ular adabiyot, san'at va tarix mavzularida suhbatlar olib borgan, yangi ijodiy g'oyalar yuzasidan fikr almashgan. Abdulla Oripovning mumtoz adabiyotga bo'lgan hurmati Shukurovning ham badiiy dunyoqarashini boyitgan. Natijada Shukurov Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Hofiz Sheroziy va Mirzo Abdulqodir Bedil kabi buyuk mutafakkirlar merosiga yanada chuqurroq murojaat qila boshlagan.

Shoir va dramaturg Turob To'la bilan hamkorlik ham Ahmadjon Shukurov faoliyatida muhim o'rin tutadi. Turob To'la Shukurovning iste'dodini yuqori baholab, uning filarmoniya tizimida faoliyat yuritishiga amaliy yordam bergan. Shukurov Turob To'laning she'rlari asosida bir qator qo'shiqlar yaratgan. Ularning eng mashhurlaridan biri "Ko'rgim kelur" asaridir. Ushbu hamkorlik natijasida yaratilgan qo'shiqlar xalq orasida katta shuhrat qozongan. Turob To'laning she'riy mahorati va xalqona uslubi Shukurov bastakorligining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Natijada san'atkorning qo'shiqlari mazmunan boy, musiqiy jihatdan mukammal asarlar sifatida maydonga kelgan.

Ahadjon Shukurov Buxoro-Samarqand maqom maktabining XX–XXI asrlardagi eng yorqin vakillaridan biri sifatida milliy musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shdi. U "Shashmaqom"ning murakkab yo'llarini mukammal o'zlashtirib, ularni o'ziga xos uslubda ijro etdi. San'atkor "Nasri Uzzol", "Chorzarb", "Guluzorim", "Chapandozi Irok" kabi maqom yo'llarini yuksak mahorat bilan talqin qilib, ularning asl badiiy qiyofasini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga, u mumtoz musiqa namunalarini zamonaviy tinglovchilarga tushunarli va jozibador tarzda yetkazishga erishdi [5, 56-b].

Ahadjon Shukurov badiiy merosni asrash va rivojlantirish masalasiga ham katta e'tibor qaratgan. U otasi Aziziy va onasi Fotima aya qoldirgan adabiy merosni to'plash, nashrga tayyorlash va targ'ib qilish bilan shug'ullangan. Aziziyning "Laylivashim" kitobining nashr etilishi, "Yetti pand" asari hamda "Malikai Buxorxudot" musiqali dramasi buning yorqin dalilidir. Shuningdek, Shukurov o'z

ijodida Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Umarov, Rasul Qori Mamadaliyev va Jo'raxon Sultonov kabi ustoz san'atkorlar an'analarini davom ettirgan.

Ahmadjon Shukurovning ijodiy merosi o'zbek musiqa madaniyati xazinasining muhim qismidir. Uning repertuaridan joy olgan "Chorzarb", "Nasri Uzzol", "Bayot I", "Chapandozi Irok", "Ko'rgim kelur", "Xayr endi", "Gul-gul", "Yetolmayman" kabi asarlar bugungi kunda ham sevib tinglanadi. Bu asarlar milliy musiqa va adabiyotning uyg'unlashuvi natijasida yaratilgan bo'lib, o'zbek mumtoz san'atining rivojiga katta hissa qo'shgan. Ahmadjon Shukurov "Shodlik", "Bahor" va "Zarafshon" ansambllari tarkibida samarali faoliyat yuritgan. Ayniqsa, "Bahor" ansambli bilan amalga oshirilgan xalqaro gastrol safarlari uning san'atkor sifatidagi dunyoqarashini kengaytirgan. U o'ttizdan ortiq xorijiy mamlakatlarda bo'lib, o'zbek milliy musiqa san'atini xalqaro maydonda munosib namoyish etgan. Ushbu safarlar davomida maqom va mumtoz qo'shiqchilik an'alarining targ'ibotchisiga aylangan. Ahmadjon Shukurovning san'at rivojiga qo'shgan hissasi davlat tomonidan munosib baholangan. U 1979-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", 1992-yilda "O'zbekiston xalq artisti", 1993-yilda esa "Qoraqalpog'iston xalq artisti" faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan. Mazkur mukofot va unvonlar san'atkorning milliy musiqa madaniyatini rivojlantirish yo'lidagi fidokorona xizmatlarining yuksak e'tirofi hisoblanadi.

Ahmadjon Shukurov o'zbek mumtoz musiqa san'atining yirik namoyandalaridan biri sifatida milliy madaniyatimiz tarixida munosib o'rin egallaydi. Uning Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Umarov, Abdulla Oripov va Turob To'la kabi buyuk ijodkorlar bilan hamkorligi san'atkorning ijodiy kamolotida muhim omil bo'lgan. Ushbu hamkorliklar natijasida Shukurovning ijrochilik mahorati, bastakorlik iste'dodi va badiiy dunyoqarashi yanada boyigan. San'atkorning maqom ijrochiligi, bastakorlik faoliyati, adabiy va dramaturgik merosi bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. U o'zbek mumtoz musiqa an'alarini saqlash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazishda ulkan xizmat

ko'rsatgan san'atkorlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ahmadjon Shukurov ijodi bugungu yosh avlod uchun tarbiya va ta'lim maktabi bo'lib kelmoqda. Kelgusida iste'dodli yoshlarni yetishtirishda munosib fundament vazifasini bajarishi, shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shukurov A. *Hayot va ijod xotiralari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 250 b.
2. Otaniyozov K. *Xorazm maqomlari va ijrochilik an'analari*. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2008. – 180 b.
3. Rajabiy Y. *O'zbek xalq musiqasi*. – Toshkent: Fan, 1971. – 312 b.
4. Karomatov F. *O'zbek musiqa merosi*. – Toshkent: Fan, 1978. – 320 b.
5. Jabborov A. *Maqom va ijrochilik masalalari*. – Toshkent: Musiqa, 2004. – 220 b.

Jasmina Shermatova

*Qarshi davlat universiteti
"San'atshunoslik" fakulteti talabasi
E-mail: jasminashermatova06@gmail.com*

DUTOR CHOLG'USI KUYLARINI INKLYUZIV TA'LIM TALABALARIDA IDROK ETISH JARAYONI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida tahsil olayotgan, turli sensor va kognitiv imkoniyatga ega bo'lgan talabalar tomonidan o'zbek milliy cholg'u ijrochiligi, xususan, dutor kuylarini idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Shuningdek, musiqa terapiyasi, etnopsixologiya va neyro-akustika qonuniyatlariga tayangan holda, dutor tembrining inklyuziv guruhlardagi talabalarning emotsional-irodaviy va intellektual sferasiga ta'siri tahlil qilingan hamda tegishli pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, dutor cholg'usi, musiqiy idrok, neyro-akustika, sensor korreksiya, etno-pedagogika, kognitiv rivojlanish.*

THE PROCESS OF PERCEIVING DUTOR INSTRUMENT MELODIES AMONG STUDENTS IN INCLUSIVE EDUCATION

***Abstract.** This article examines the specific features of perceiving Uzbek national instrumental performance, particularly Dutar melodies, by students with diverse sensory and cognitive abilities studying in an inclusive education environment. Based on the laws of music therapy, ethnopsychology, and neuro-acoustics, the influence of the dutar timbre on the emotional, volitional and intellectual spheres of students in inclusive groups is analyzed, and relevant pedagogical recommendations are developed.*

***Keywords:** inclusive education, dutar instrument, musical perception, neuro-acoustics, sensory correction, ethno-pedagogics, cognitive development.*

Inklyuziv ta'lim shunchaki jismoniy yoki kognitiv imkoniyatlari cheklangan talabalarni umumiy auditoriyaga mexanik tarzda integratsiya qilish emas, balki ularning individual-psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, adaptiv va

kompensator ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Biroq, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida maxsus ehtiyojli talabalarning intellektual va emotsional-irodaviy sferasini korreksiyalashda innovatsion va integrativ metodologiyalarning yetishmasligi kuzatilmoqda. Ushbu kontekstda, etnomusiqashunoslik va neyropedagogika tutashuvida yuzaga keladigan art-terapevtik hamda musiqiy-akustik vositalardan foydalanish alohida dolzarblik kasb etadi.

Inson miya neyroplastikligi va neyro-akustika sohasidagi so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqiy idrok jarayoni shunchaki eshitish analizatorlarining passiv reaksiyasi bo'lmay, balki bosh miya yarim sharlarining deyarli barcha funksional zonalarini (kortikal va subkortikal tuzilmalarni) faollashtiruvchi murakkab kognitiv jarayondir. Ayniqsa, sensor defektlari (ko'rish yoki eshitish qobiliyati zaifligi) yoki neyrodivergent xususiyatlari (autistik spektr, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi) mavjud bo'lgan talabalarda musiqiy intonatsiya kompensatorlik funksiyasini bajaradi. Ya'ni, shikastlangan yoki zaiflashgan sensor kanallar o'rini boshqa analizatorlarning funksional mobilizatsiyasi hisobiga to'ldiradi [1].

Mening fikrimcha, o'zbek an'anaviy cholg'u madaniyatida etnik xotira va psixo-fiziologik relyaksatsiyaning universal regulyatori sifatida dutor cholg'usi mutloq alohida o'rin egallaydi. G'arbiy Yevropa temperatsiyalangan (standartlashtirilgan) akademik cholg'ularidan farqli o'laroq, an'anaviy dutor ijrochiligi o'zining spesifik akustik va organologik parametrlari bilan xarakterlanadi.

Kuzatishlarim shuni ko'rsatadiki, dutor torlarining ipakdan tayyorlanishi va uning parda tuzilishi inson tabiatiga yaqin bo'lgan tabiiy, mikrotorli (tembrli) tebranishlarni hosil qiladi. Bu esa tinglovchida shunchaki estetik zavq uyg'otib qolmay, balki uning emotsional holatini muvozanatga keltiruvchi, psixologik stressni kamaytiruvchi va chuqur ichki relyaksatsiyaning (tinchlikni) ta'minlovchi vositadir. Shuning uchun ham dutor kuyi xalqimizning tarixiy-etnik xotirasi bilan

uzviy bog'langan subyektiv ichki kechinmalarni uyg'otish quvvatiga ega deb hisoblaymiz.

Dutorning ipak iplari (yoki maxsus tayyorlangan tabiiy polimer tuzilmali simlari) hamda rezonator korpusining (shovasining) tarkibiy tuzilishi o'ta mayin, akustik bosimi yuqori bo'lmagan, lekin obertonlarga (garmonik qatlamlarga) boy tovush to'lqinlarini hosil qiladi.

Dutor kuylarining asosiy chastota diapazoni inson nutqi va ichki biologik ritmlari (masalan, miyaning alfa va teta to'lqinlari) bilan garmonik rezonansga kirishish xususiyatiga ega.

Dutor ijrosidagi nolish, kachrim, tirnoq zarb va turli murakkab nolishlar musiqiy matnga nutqiy intonatsiya elementlarini olib kiradi. Bu esa lingvistik va kognitiv qobiliyati cheklangan talabalarda verbal bo'lmagan kommunikatsiyani idrok etish modelini faollashtiradi [2].

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va maqsadi – oliy ta'lim tizimidagi inklyuziv guruhlarda tahsil olayotgan talabalarning sensor integratsiyasini ta'minlash, dars mashg'ulotlaridagi aqliy va psixologik charchoqni (frustratsiyani) bartaraf etish hamda diqqat konsentratsiyasini oshirishda dutor kuylarining neyro-akustik va psixofizik ta'sir mexanizmlarini nazariy hamda metodologik jihatdan asoslab berishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun inklyuziv guruhlarda milliy musiqa san'atining estetik va korreksion imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish hamda oliy ta'lim pedagoglari uchun amaliy-metodik tavsiyalar paketini ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy-pedagogik tahlil, neyropedagogik kuzatish hamda B.Asafyevning "musiqiy intonatsiya" nazariyasi va L.Vigotskiyning "kompensator rivojlanish" konsepsiyasiga tayanildi [3].

Musiqiy idrok shunchaki eshitish funksiyasi bo'lmay, balki murakkab psixofizik jarayondir. Dutor simlaridan tarqalayotgan tovush to'lqinlari inson vegetativ nerv tizimiga tinchlantiruvchi (sedativ) ta'sir ko'rsatadi. Bu esa inklyuziv

ta'limda ko'p kuzatiladigan giperaktivlik yoki emotsional lability (beqarorlik) holatlarini korreksiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Dutor tembrining akustik-sensor idrok etilishi bo'yicha inklyuziv ta'limda tahsil oluvchi turli nozologiyadagi (eshitish, ko'rish, tayanch-harakat a'zolari shikastlangan yoki kognitiv sustlashgan) talabalarda dutor kuyini idrok etish quyidagi mexanizmlar orqali kechadi:

Ko'rish imkoniyati cheklangan talabalarda sensor kompensatsiya qonuniyatiga ko'ra, eshitish va taktil (sezgi) analizatorlari o'ta sezgir bo'ladi. Dutor ijrosidagi "nolish", "kachrim", "tirnoq zarb" kabi spesifik shtrixlar va bezaklar ushbu talabalarda chuqur emotsional rezonans va fazoviy tasavvurni shakllantiradi.

Eshitish imkoniyati cheklangan (zaif eshituvchi) talabalarda tovush faqat eshitish a'zosi orqali emas, balki vibrasion-taktil analizatorlar orqali idrok etiladi. Dutor korpusining (shovasining) rezonansi natijasida hosil bo'lgan past chastotali tebranishlar talaba tanasi tomonidan qabul qilinib, ritmik koordinatsiyani yaxshilashga xizmat qiladi.

Idrok etish jarayonining bosqichli modelida dutor kuylarini inklyuziv talabalar ongida shakllanishini uchta asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

1. Sensor-akustik bosqich.

Tovushning fizik xossalarini (balandligi, dinamikasi, tembri) birlamchi qabul qilish.

2. Emotsional-assotsiativ bosqich.

Kuy subyektiv hissiyotlar va shaxsiy tajribalar bilan bog'lanadi (masalan, "Munojot" yoki "Tanovar" kuylaridagi lirik-falsafiy kayfiyat).

3. Kognitiv-semantik bosqich.

Talaba musiqiy asarning kompozitsion tuzilishi, shakli va milliy-madaniy mazmunini mantiqiy anglab yetadi.

4. Eksperimental-pedagogik yondashuv.

Oliy ta'lim guruhlarida o'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, dars mashg'ulotlari (masalan, pedagogika, tarix yoki san'atshunoslik darslari) interaundlarida fon rejimi sifatida dutor kuylaridan foydalanilganda:

Talabalarning aqliy charchoq darajasi 18–22% ga kamayadi [4].

Axborotni eslab qolish (mnemik jarayonlar) ko'rsatkichi 15% ga oshadi.

Inkluziv talabalarda ijtimoiy adaptasiya va jamoaviy muhitga moslashish ko'rsatkichlari ijobiy dinamika namoyon etadi [5].

Dutor kuylarini idrok etish jarayonida milliy mentalitet va genetik-madaniy kodlar (etno-musiqiy xotira) ham faollashadi. G'arb cholg'ularidan farqli o'laroq, dutorning pardalar tuzilishi (notekis va mikrotanal xususiyatlari) inson miyasining ijodiy va intuitiv fikrlashga mas'ul bo'lgan o'ng yarim sharini ko'proq stimullaydi. Bu esa, ayniqsa, kognitiv rivojlanishi biroz kechikkan yoki autistik spektrdagi talabalar uchun psixologik to'siqlarni (bloklarni) yechishda samarali pedagogik instrument bo'lib xizmat qila oladi. Dutor cholg'usi o'zining akustik, tembral va mikrotanal xususiyatlariga ko'ra inkluziv ta'lim talabalari uchun kuchli korreksion va rivojlantiruvchi vositadir. Turli sensor defektlarga ega bo'lgan talabalarda dutor kuylarini idrok etish kompensator mexanizmlarni (taktil, vibrasion va assosiativ fazoviy tasavvur) faollashtiradi.

Oliy ta'lim tizimida inklyuziv guruhlar bilan ishlashda "Musiqiy etno-texnologiya" modullarini joriy etish, talabalarning ham intellektual, ham emotsional adaptatsiyasini ta'minlashda yuqori samara beradi.

Demak, dutor cholg'usi kuylarini inklyuziv ta'lim talabalarida idrok etish jarayoni musiqiy tarbiya va estetik dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dutorning o'ziga xos ohangdorligi, milliy ruh va hissiy ta'sir kuchi talabalar tomonidan musiqiy asarlarni chuqurroq anglash va his etishga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim sharoitida dutor kuylarini tinglash va tahlil qilish jarayoni talabalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, emotsional holatini barqarorlashtirish hamda milliy madaniy merosga hurmat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dutor kuylaridan ta'lim jarayonida maqsadli foydalanish inklyuziv guruhlardagi talabalar o'rtasida kommunikativ faollikni oshiradi, musiqiy idrokni rivojlantiradi va ijtimoiy moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois milliy cholg'u musiqasi namunalarini inklyuziv ta'lim amaliyotiga keng joriy etish pedagogik va ma'naviy jihatdan samarali natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асафьев Б. Музыкальная форма как процесс. Книга вторая: Интонация. – Ленинград: Музыка, 1971. – 376 с.
2. Кароматов Ф. Узбекское народное музыкальное творчество [Узбек халқ музыка ижодиёти]. Том 2. – Ташкент: Гафур Гулом, 1972. – 360 с.
3. Mamatov S. Inklyuziv ta'limning psixologik-pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 160 b.
4. Bruscia K. *Defining Music Therapy (3rd ed.)*. – Dallas: Barcelon Publishers. (Musiqqa terapiyasining xalqaro metodologiyasi uchun), 2014.
5. Yunusov R. *O'zbek xalq musiqasi ijodiyoti (Ilmiy-metodik qo'llanma)*. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2018. – 120 b.
6. Sacks O. *Musicophilia: Tales of Music and the Brain*. – New York: Alfred A. Knopf. (Musiqaning neyrologik va akustik ta'sirlari uchun), 2007. – 381 p.
7. Azizova Z. Maxsus ehtiyojli talabalarni oliy ta'lim muhitiga adaptatsiya qilishda san'at pedagogikasining o'rni // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarлари, 2023. – №2(1). – B. 145–149.

Xumora Boymurotova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi
E-mail: xumoraboymurotova0@gmail.com*

QO'QON AYOLLAR IJODIGA DOIR

***Annotatsiya.** Farg'ona vodiysi ayol xonandalari milliy musiqa madaniyati taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ular tomonidan yaratilgan va avlodan-avlodga o'tib kelayotgan musiqiy meros namunalari bugungi kunda ham yosh ijrochilar repertuaridan munosib o'rin olgan. Mazkur maqolada Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridan yetishib chiqqan ayol xonandalarning ijodiy faoliyati, ijrochilik an'analari hamda ularning milliy musiqa san'ati rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** lirik janr, ohang, folklor, yallachi, lapar, xalq aytimlari.*

ON THE CREATIVE ACTIVITY OF WOMEN PERFORMERS OF KOKAND

***Abstract.** Female singers of the Fergana Valley occupy an important place in the development of the national musical culture. The musical heritage created by them and transmitted from generation to generation continues to hold a significant place in the repertoire of contemporary young performers. This article examines the creative activities and performance traditions of female singers who emerged from the city of Kokand in the Fergana region, as well as their contribution to the development of Uzbekistan's national musical art.*

***Keywords:** lyrical genre, melody, folklore, yalla performer, lapar, folk songs.*

Bugungi globalashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda o'rganish hamda yosh avlodni milliy ruh va milliy o'zlikni anglash g'oyalari asosida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan xalq og'zaki ijodi, xususan, xalq qo'shiqlari millatning ma'naviy qiyofasi, estetik didi va tarixiy xotirasini o'zida mujassam etgan bebaho madaniy meros sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir xalqning buyukligi, avvalo, uning ma'naviy boyligi bilan belgilanadi. Ma'naviyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri esa musiqadir. Musiqa inson hayoti, turmush tarzi, mehnat faoliyati, qadriyatlari va an'analarini badiiy shaklda ifoda etuvchi universal vosita sifatida ahamiyatga ega. Shu bois u o'zining keng badiiy-estetik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Dunyo xalqlarining har biri o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lgan musiqiy an'analarini shakllantirgan. O'zbek musiqasi ham qadimiy ildizlarga ega bo'lib, rang-barang janrlari va o'ziga xos ijro an'analari bilan alohida ajralib turadi [5, 423-b].

O'zbek xalqi tarixi davomida turli bayramlar, marosimlar, xalq sayllari va mehnat jarayonlarida ijro etilgan qo'shiqlar negizida ko'plab musiqiy janrlar vujudga kelgan. Jumladan, to'y marosimlarida ijro qilinadigan "Yor-yor", "Kelin salam", Navro'z bayrami bilan bog'liq "Lola sayli", "Navro'z", dehqonchilik jarayonlarida kuylanadigan "Qo'sh haydash", "Shohmoylar" kabi qo'shiqlar xalq turmushining ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, ayollar ijrochiligiga xos qo'shiq janrlari ham shakllangan. Ayniqsa, yalla janrining rivojlanishi ayollar ijrochilik madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu borada Farg'ona –Toshkent xotin-qizlar ijrochilik uslubi muhim o'rin tutadi. Ushbu uslub xalq orasida keng tarqalib, ommaviylik kasb etgan [2, 3–13-b].

O'zbek musiqiy madaniyati tarixida Farg'ona vodiysi boy musiqiy merosi, nozik ohang tuzilmasi va o'ziga xos ijro an'analari bilan ajralib turadigan muhim madaniy hudud hisoblanadi. Bu yerda shakllangan xalq qo'shiqlari nafaqat mazmun jihatidan, balki musiqiy lad tizimi, ohangiy rivojlanish qonuniyatlari hamda mavsumiy, marosimiy va lirik janrlarning rang-barangligi bilan ham diqqatga sazovordir. Ayniqsa, Farg'ona musiqiy maktabiga xos "tor ohang", yengil ladli kuylash uslubi va melizmatik bezaklar uning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi [1, 80–88-b].

Farg'ona vodiysi o'zbek xalq musiqasining eng boy manbalaridan biri bo'lib, bu hududda xalq qo'shiqlari, laparlar, yallalar, termalar va o'lanlar keng tarqalgan. Hududning tabiiy muhiti, til xususiyatlari va madaniy an'analari musiqiy ohanglarga

ham ta'sir ko'rsatgan. Farg'ona maktabi musiqasida lirizm va hissiy ta'sirchanlik ustunlik qiladi. Ayniqsa, muhabbat, sog'inch va vafo tuyg'ularini ifoda etuvchi lirik qo'shiqlar mazkur maktabning asosiy qatlamlaridan birini tashkil etadi.

Qo'qon muhitida ayollar san'ati asosan xalq og'zaki ijodi va amaliy bezak san'ati orqali rivojlangan. Kashtachilik, duxobachilik, tikuvchilik va gilamdo'zlik kabi sohalarda ayollar yuksak mahorati bilan ajralib turgan. Bu san'at namunalari nafaqat oila ehtiyojlarini qondirish, balki savdo-sotiq va madaniy hayotning muhim qismi sifatida ham xizmat qilgan. Shu bilan birga, ayollar milliy urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni saqlashda muhim ijtimoiy vazifani bajarganlar.

Qo'qon xonligi ma'naviy-ma'rifiy hayotida ayollar faqat oilaviy muhit bilan cheklanib qolmasdan, adabiy jarayonning ham faol ishtirokchilari sifatida namoyon bo'lganlar. Xususan, Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Anbar Otin, Baxri Otin, Zebiniso, Saidabonu, To'tiqiz, Fazilatbonu, Hafiza otin va boshqa shoirlar o'z ijodi bilan xonlikning adabiy-madaniy muhitini boyitishga munosib hissa qo'shganlar. Shu bois Qo'qon xonligida ayollar ijodi madaniy hayotning ajralmas qismi sifatida shakllanib, rivojlangan [6, 69–70-b].

Qo'qon shahri o'zbek milliy madaniyati va san'atining muhim markazlaridan biri sifatida mashhur bo'lib, betakror xonandalik an'analari bilan ajralib turadi. Nodira kabi shoira-malikalardan tortib, zamonaviy xonandalargacha bo'lgan ijodiy an'analalar bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. Qo'qonlik xonandalar o'zbek milliy musiqasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar [3, 37–41-b].

Asrlar davomida og'zaki an'ana asosida saqlanib kelgan xalq qo'shiqlari orasida yalla janri o'zining serharakatligi, quvnoq ruhi va jamoaviy ijro xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, yalla janri qadimgi turkiy marosim qo'shiqlari negizida shakllanib, keyinchalik xalq bayramlari va ommaviy madaniy tadbirlarning muhim qismiga aylangan [2].

Bugungi kunda Qo'qon ayollar xonandalik san'ati O'zbekistonning madaniy merosi sifatida festivallar, folklor ansambllari va turli madaniy loyihalar faoliyatida

munosib o'rin egallamoqda. Farg'onalik xonanda ayollar ijrosida tabiiy ovoz, yumshoqlik, intonatsion aniqlik va chuqur ruhiy ifoda uyg'unlashadi. Ular har bir qo'shiq orqali xalqning his-tuyg'ulari, turmush tarzi va ma'naviy olamini musiqiy obrazlarda ifoda etadilar.

Qo'qon ayollar xonandalik san'atining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– ijro uslubida qo'shiqlarning past pardalardan boshlanib, asta-sekin yuqori pardalarga ko'tarilishi;

– “Yor-yor” va “Kelin salom” kabi qo'shiqlarning to'y marosimlari bilan uzviy bog'liqligi;

– xalqona kuylar, yallalar va ashula yo'llarining Farg'ona –Toshkent musiqiy uslubi asosida uyg'unlashganligi;

– Zaynab Polvonova, Lutfixonim Sarimsaqova, E'tiborxon Qo'ziyeva, Rahima Mazaxidova va Oyimqiz To'xtayeva kabi iste'dodli ijrochilarning mazkur an'anani rivojlantirishdagi xizmatlari.

Mamlakatimizda milliy musiqiy merosni asrab-avaylash va keng targ'ib qilish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining milliy va jahon musiqiy san'ati yutuqlarini xalq orasida keng targ'ib qilishga qaratilgan qarorlari doirasida folklor jamoalarini qo'llab-quvvatlash, an'anaviy ijrochilik maktablarini rivojlantirish va yoshlar o'rtasida milliy musiqani ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [7]. Bu esa xalq musiqasining musiqiy-uslubiy xususiyatlarini, xususan, Qo'qon va Farg'ona ayollar xonandalik an'alarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Mannopov S., Anvarova G. Farg'ona vodiysi xalq qo'shiqlarining ohang tizimi va kuy tuzilishi // Oriental Art and Culture. – 2025. – Vol. 6, Issue 5. – B. 80–88.

2. Turg'unova N. *Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati an'analari*. – Namangan: Namangan, 2016. – 364 b.
3. Turg'unova N. *Qo'qon xonligida ayollar ijodi // Maqom. Ilmiy-metodik jurnal*. – Toshkent, 2024. – № 3. – B. 37–41.
4. Turg'unova N. *From the History of Uzbek Women's Musical Art // Thematics Journal of Arts and Culture*. – 2024. – Vol. 8, Issue 1. – P. 3–13.
5. Qurbonova Sh. *O'zbek xalq mumtoz musiqasi tarixiga bir nazar // Oriental Art and Culture*. – 2023. – Vol. 4, Issue 3. – B. 423–430.
6. G'oziyeva N. *Qo'qon xonligi ma'naviy-ma'rifiy hayotida ayollarning amaliy faoliyati // Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*. – 2024. – B. 69–70.
7. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-iyuldagi "Milliy va jahon musiqa san'ati yutuqlarini xalqimiz orasida keng targ'ib qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-sonli qarori // <https://lex.uz/uz/docs/7652993>*

Nodira Abdunazarova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrası dotsenti (v.b.)
E-mail: abdunazarovanodira44@gmail.com*

**YOSHLAR MADANIYATINI YUKSALTIRISH: MAVJUD
MUAMMOLAR, OMILLAR VA ISTIQBOLLI YECHIMLAR
(O'zbekiston misolida)**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yoshlar madaniyatini shakllantirishda eng ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan konsepsiyalar hamda yoshlar qatlamiga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va imkoniyatlar hisobga olinib, ularning jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirishda tashabbus va innovatsiyalarni roli kattaligini ko'rsatib berishdan iboratdir.*

***Kalit so'zlar:** yoshlar, yoshlar madaniyati, innovatsiya, tashabbuskorlik, volontyorlik, qadriyat, media savodxonlik, metodologiya.*

**ENHANCING YOUTH CULTURE: EXISTING PROBLEMS,
FACTORS, AND PROMISING SOLUTIONS
(The Case of Uzbekistan)**

***Abstract.** This article examines the concepts that are of primary importance in the formation of youth culture. Taking into account the attention and opportunities provided to young people by the state, the study highlights the significant role of initiative and innovation in increasing their social activity and participation in society.*

***Keywords:** youth, youth culture, innovation, initiative, volunteerism, values, media literacy, methodology.*

O'zbekistonda yoshlar madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, O'zbekistonda yoshlar siyosati – bu yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk va zamonaviy bilimlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgandir. Bu borada yoshlar madaniyatini

o'rganishda ilmiy yondashuvlar va metodologik asoslar yordamida ularni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy an'analar va urf-odatlar, estetik did va san'atga qiziqish, ijtimoiy va siyosiy madaniyat, innovatsion va zamonaviy fikrlash kabi muhim omillar yordamida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonni azm-u shijoatli yoshlarimiz bilan birga bunyod etamiz! Bizning Taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida belgilangan [1, 245-b].

Huquqiy va institutsional asoslarga O'zbekistonda yoshlar madaniyatini rivojlantirish quyidagi asosiy hujjatlar va tizimlarga tayanadi. Bular: "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil tahriri), Prezident farmon va qarorlari, "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Yuqorida nomlari keltirilgan hujjatlar yoshlarning: ta'lim olish, ijtimoiy faollik, madaniy rivojlanish, huquqlarini kafolatlaydi. Davlat siyosatining asosiy maqsadi esa yoshlar madaniyatini rivojlantirishda strategik maqsadlarni ko'zlab, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tarbiyasi, ma'naviy immunitetni kuchaytirish kabilarni o'z ichiga oladi. Bunda:

- ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda jamoat ishlarida ishtiroki volontyorlik va tashabbuskorlik, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va madaniy institutlar faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish zarur;

- innovatsion va kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali startaplar, IT va kreativ industriya, tadbirkorlik madaniyatini yo'lga qo'yish;

- amaliy yo'nalishlar va dasturlar ishlab chiqish bilan ta'lim orqali madaniyatni rivojlantirish, maktab va OTMlarda ma'naviyat darslari, san'at, musiqa va adabiyot ta'limi, estetik tarbiyani kuchaytirish;

- madaniy infratuzilmani rivojlantirish jarayonida madaniyat saroylari, yoshlar markazlari, kutubxonalar, teatr va kino sohasida ko'plab yangiliklar qilish;

- yoshlar tashkilotlari faoliyatini: Yoshlar ittifoqi, nodavlat notijorat tashkilotlar, Yoshlar agentligi, Yoshlar akademiyasi, Yoshlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tashkilotlarning yoshlarning: huquqiy va siyosiy madaniyatini, ijtimoiy faolligini oshirishdagi rolini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashuvda: "Yurtimizda Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengash tashkil etildi. Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi. Farzandlarimizning iste'dod va qobiliyatli, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi [2, 47–48-b].

Davlat dasturlari va tashabbuslar "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi, Yoshlar kuni (30-iyun), "Besh muhim tashabbus" kabi ko'plab dasturlar orqali yoshlarni madaniyat va san'atga jalb qilish, sport va kitobxonlikni rivojlantirish, qizlar bandligini ta'minlash, yoshlarning siyosiy va axborot madaniyatini oshirish davlat modernizatsiyasining muhim omili ekanligini hisobga olib, yoshlar orasida axborot va media madaniyat, internet madaniyatini shakllantirish, yot g'oyalarga qarshi immunitet, media savodxonlikni yo'lga qo'yish kabi muhim masalalar yoshlar madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati ham katta bo'lib, jamiyatda barqarorlik ta'minlanadi, ma'naviy muhit sog'lomlashadi, innovatsion iqtisodiyot shakllanadi, yoshlar mamlakat taraqqiyotining asosiy kuchiga aylanadi.

O'zbekistonda yoshlar madaniyatini rivojlantirish – bu faqat madaniyat sohasi emas, balki ta'lim, siyosat, iqtisod va jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan kompleks davlat siyosatidir. Uning asosiy maqsadi – ma'naviy boy, zamonaviy fikrlaydigan va faol yosh avlodni shakllantirishdir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarni olib borishga katta e'tibor qaratildi. Yoshlarni tarbiyalashda boy ma'naviy-madaniy an'analar, urf-odatlar

hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy ijtimoiy-psixologik mexanizmlar ishlab chiqilib, ta'limni insonparvarlashtirishga zamin yaratdi. Bunday muhim vazifalarni amalga oshirishda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun asosida ta'lim tizimi sohasidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Bugungi davr talablariga mos ravishda yoshlarni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish davr talabiga aylandi.

Shu munosabat bilan, 2016-yil 14-sentyabrda yangi tahrir "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va ushbu Qonun yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda amalga oshirishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi yangi Qonun o'z mohiyatiga ko'ra, yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni nazarda tutadi. Qonunning amalga tatbiq etilishi yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish imkonini beradi.

Yoshlar alohida ijtimoiy guruh sifatida madaniyatshunoslik fanida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, yoshlar madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralmoqda. Yoshlar madaniyatini ilmiy jihatdan o'rganish, uning shakllanish jarayonlarini tahlil qilish va rivojlantirish yo'llarini belgilashda metodologik asoslar yordamida tadqiqotning nazariy-amaliy usullari, tamoyillari va yondashuvlar asosida ilmiy xulosalar berish tadqiqotning maqsadidir. Bu borada rus tadqiqotchi

olimi V.Kuznetsov shunday yozgan edi: “Metodologiya bu ilmiy bilish jarayonini tashkil etish va amalga oshirish usullari haqidagi ta’limotdir” [3, 43-b].

Yoshlar madaniyatini tadqiq etishning asosiy metodologik yondashuvlarida ishda yoshlar madaniyatini jamiyatni bir qismi sifatida sotsiologik o‘rganib chiqildi. Sotsiologik yondashuv ya’ni yoshlar sotsiologiyasi bugungi kunda mazkur tarmoq keng rivojlanmoqda. Yoshlar madaniyati ijtimoiy munosabatlar va muhit ta’sirida shakllanadi”, – deydi Giddens [4, 64-b].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida Yoshlar Agentligi faoliyat yuritmoqda. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi PQ-4433-son qaroriga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasining tashkil etilishi ham bugungi kun O‘zbekiston yoshlarining ilmiy bo‘lishiga, g‘oya va tashabbuslarini inobatga olib, turli jahon va respublika ilmiy anjumanlarida ishtirok etishlariga keng yo‘l ochib berildi.

Ma’lumki, ikki yil muqaddam O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil qilindi hamda 30 iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” deb e’lon qilindi. Bundan tashqari, O‘zbekiston amaliyotida butunlay yangi tizim, ya’ni yoshlarning turli dolzarb muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan maxsus – Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi. Ushbu muassasaning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi qoshida tashkil etilganligi institutning ilmiy-metodik va tahliliy-tadqiqot faoliyatini zamon talablari asosida shakllantirilishi uchun asos bo‘ldi.

Ammo bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish, zamon talablari asosida yangicha mexanizmlarni tadqiq etish, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini

muntazam o'rganib borish va O'zbekiston sharoitiga mos, milliy xususiyatlarimizga javob beradigan metodlarni tadbiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Chunki globallashtirish sharoitida, axborot xurujlari tezlashgan, yoshlarning ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan, eng asosiysi ularning dunyoqarashi o'zgarib borayotgan davrda yoshlar siyosati sohasida ham yangicha uslub va mexanizmlarga tabiiy ehtiyoj tug'iladi. "Globallashtirish, – deb yozgan edi sotsiolog olim E.Giddens, –madaniyatlar o'rtasidagi chegaralarni qisqartirib, yangi madaniy shakllarni yuzaga keltiradi".

Yoshlar madaniyatini tadqiq etishning metodologik asoslariga yana bir jihat madaniy yondashuv bo'lib, qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar tizimi sifatida tahlil qilinib, uning asosiy ilmiy jihatlari shundan iboratki, bugungi tezkor, axborot asrida milliy va global madaniyat ta'siri, ommaviy madaniyat, submadaniyatlar ta'siriga qaratilganligidir. "Madaniyat – bu jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan hayot tarzi", – degan edi madaniyatshunos olim Klayd Klakxon [5, 112-b].

Yoshlar madaniyatini o'rganishda madaniy yondashuvning ahamiyati shundaki, yoshlar madaniyatini saqlash va rivojlantirishga yordam beradi, global va milliy madaniyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Madaniyat va san'atning yoshlarni ijtimoiylashtirishdagi roliga mamlakatimizda keng e'tibor berilayotganligining ham sababi shundaki, ayrim yoshlarimiz jamiyatda sodir bo'layotgan turli voqea-hodisalar mazmun - mohiyatidan bexabarligi tufayli o'zlari bilan o'zlari ovora bo'lib qolmoqdalar. Natijada, ular jamiyatdan uzilib qolgandek bo'ladilar, o'zlarini yolg'iz his qiladilar. Madaniyat va san'atning kuchi shundaki, o'sha toifadagi yoshlarni hayotga, yashashga, ijod qilishga, yangi innovatsion g'oyalar va tashabbuslar bilan chiqishlariga intilish va qiziqishlarini uyg'otadi. "Yoshlar submadaniyatlari jamiyatdagi o'zgarishlarning oynasi hisoblanadi", – deb ta'kidlaydi Dik Xebdij. Yoshlar madaniyatini o'rganishda madaniy yondashuvning yana bir xususiyati shundaki, yoshlar madaniyatini to'liq tushunish imkonini berish orqali madaniyatni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi, global va milliy

madaniyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Bu borada bugungi kunning dolzarb muammolaridan kelib chiqib, samarali dasturlar ishlab chiqish, ularning yangi tashabbus va g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, ularda madaniy tarbiyani kuchaytirish orqali milliy g'ururni shakllantirish ham davr talabidir.

Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan yoshlar madaniyatini tadqiq etishda psixologik yondashuv ham alohida tadqiq etilib, yoshlarning ichki dunyosi, falsafiy qarashlari va qiziqishlari ilmiy jihatdan hisobga olinib, o'rganiladi. Bu borada rus olimi L. Vigotskiyning quyidagi fikrlari juda muhimdir: "Yoshlar madaniyati shaxsning psixik rivojlanishi va o'zini anglash jarayoni bilan uzviy bog'liqdir" [6, 172-b].

Albatta, bu borada yoshlar muammolarini aniqlash osonlashadi, internet, stress holatlari hamda internetga qaramlikdan ularni qaytarib, yangi g'oya va tashabbuslarni yaratishda ko'maklashadi. Yoshlar muammolarini hal qilish uchun avvalo ularning psixologiyasini tushunish zarurdir. Natijada, to'g'ri tarbiya va ta'lim strategiyasi ishlab chiqilib, o'qitish usullari yaxshilanadi, tarbiya samaradorligi oshib boradi. Bugungi kunda yoshlarning ongiga qanday g'oyalar ta'sir qilayotgani aniqlanadi. Shuningdek, psixologik yondashuv yoshlar madaniyatini o'rganishda eng muhim yo'nalishlardan bo'lib, u yoshlarning ichki dunyosi, fikrlash tarzi, his-tuyg'ularini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali nafaqat madaniyatni tushunish, balki yoshlar bilan samarali ishlash, ularni to'g'ri yo'naltirish va jamiyatdagi rolini mustahkamlash mumkin. Yoshlarning ichki dunyosi ochib berilib, bu orqali ularning haqiqiy ehtiyojlari aniqlanadi. Shuningdek, yangi g'oya va innovatsiyalar orqali yangi tashabbuslarni ishlab chiqishda ularni faollashtiradi.

Yoshlar madaniyatini o'rganishning yangi metodologik asoslaridan yana biri, yoshlar madaniyatini umuminsoniy va ma'naviy taraqqiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi ham alohida ahamiyatga egadir. Bu yondashuv yoshlarning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va madaniy faoliyatini chuqur tushunishga yordam beradi. Natijada, jamiyatda ma'naviy barqarorlik, madaniy rivojlanish va insonparvarlik

tamoyillari mustahkamlanib, yoshlar madaniyati quyidagi jihatlar orqali o'rganiladi. Birinchidan, qadriyatlar orqali tahlilda yoshlar qanday tamoyillarga amal qilishi, nimani qadrlashi belgilab berilib, ularning madaniyati shakllanadi. Bu borada nemis olimi Shvarts shunday ta'kidlaydi: "Insonning dunyoqarashi qadriyatlar tizimi orqali shakllanadi" [7, 64-b].

Ikkinchidan, yoshlar madaniyatida axloqiy va ma'naviy me'yorlar orqali jamiyatda barqarorlik ta'minlanadi. Ularning hayotida mas'uliyat, halollik, hurmat kabi fazilatlar shakllanishiga yordam beradi. Uchinchidan, yoshlar madaniyati milliy va umuminsoniy an'analar bilan uzviy bog'liq oilaviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, tarixiy meros bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bugungi kunda ulaning zamonaviy qator tendensiyalari ham mavjudki, yoshlar ilmiy dunyoqarashini o'stirishda ularning aniq salbiy va ijobiy tomonlarini ilmiy yoshlarimiz to'g'ri baholay olishlariga yordam berish zarurdir. "Madaniy meros – bu jamiyatning ma'naviy tayanchi hisoblanadi".

Bularni hisobga olgan holda mustaqillik yillarida davlat tomonidan yoshlar siyosatiga strategik ahamiyat berilib, ularni jamiyatning faol, mas'uliyatli va taraqqiyotga intiluvchi a'zolari, mamlakat iqtisodiyoti va ma'naviy hayotining xarakterini belgilovchi yangi kuch sifatida shakllantirish yo'lida izchil ishlar olib borilmoqda. Ayni hozirgi davrda, global raqobat sharoitida, yoshlarni innovatsion fikrlash, tashabbuskorlik va raqamli texnologiyalarni egallashga yo'naltirish beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning yoshlar madaniyati, tashabbuskorlik va innovatsiyalar sohasidagi keng qamrovli siyosati, yaratilgan imkoniyatlar, amalga oshirilayotgan loyihalar, erishilgan yutuqlar va kelajakdagi ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan.

Yosh doirasi boshqa bir qator mamlakatlarning ham qonun hujjatlarida belgilanganligini uchratishimiz mumkin. Xususan, Vetnamda yoshlar to'g'risidagi qonunda, Rossiyada yoshlar siyosati to'g'risidagi qonunda, Germaniyada ijtimoiy Kodeksda (Sozialgesetzbuch) va Keniyada, hattoki, Konstitutsiyada (260-modda) yosh doirasi belgilab qo'yilgan. Biroq boshqa davlatlarda ularni ko'pincha yoshlar

siyosatini tartibga soluvchi dasturlarda va boshqa hujjatlarda, statistika idoralari veb-saytlaridagi nashrlarda topish mumkin. Masalan, “Xitoy yoshlari yangi davrda” kitobidan Xitoy yoshlar Kommunistik Ittifoqida 14 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan deyarli 74 million kishi borligini bilib olishimiz mumkin.

XXI asrda ijtimoiy-madaniy sharoit, inson faoliyat yuritadigan madaniy muhit hamon yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim o‘rin tutmoqda. Zamonaviy jamiyatda yoshlar o‘zining harakatchanligi, axborot olishda erkinligi, ongining moslashuvchanligi tufayli madaniyatning asosiy tanqidchisi, yaratuvchisi, tarqatuvchisi va iste’molchisiga aylanmoqda. Shu ma’noda nemis faylasufi K. Yaspersning: “Hamma biladiki, kim yoshlarni zabt etsa, kelajakka egalik qiladi”, – degan iborasi juda ishonarli yangraydi [8, 99-b].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi haqida fikr yuritarkan: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin, ayni paytda, o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Hozir hammamiz bor aybni maktabga ag‘darishga o‘rganib qolganmiz. Mahalla, oila, keng jamoatchilik-chi? “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona”, – degan maqolning haqiqiy ma’nosini anglaydigan vaqt keldi. Anglab, shu asosda yashaydigan vaqt keldi”, – deya ta’kidladi.

Hozirgi davr talabi va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yurtimizda yoshlar muammosiga alohida e’tibor qaratildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta’minlash uchun keng imkoniyatlar yaratishga kirishildi, ya’ni bevosita yoshlar masalalariga mas’ul davlat va jamoat tashkilotlardan vakillar tayinlanib, bu borada keng islohotlar qilindi. Jumladan, 2022-yil 19-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori bilan Respublika bo‘yicha mahallalarga 9309 ta “Yoshlar yetakchisi” shtat birliklari joriy qilinishi va eng muhimi, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan tegishli qonunlarda nazarda tutilgan yoshlarimiz huquq va manfaatlarini o‘zaro hamkorlik asosida himoya qilinishi buning isbotidir.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi, ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutida amalga oshirilayotgan ALM-202403//0247 “Yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha o‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalar, uslubiy tavsiya, ma’rifiy adabiyot va media mahsulotlar majmuasini yaratish” maqsadli-ilmiy amaliy loyihasida ish olib borildi

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonning global dunyoga tizimli ravishda transformatsiyalashib borishi, mamlakat yoshlari va ularning ijtimoiylashuvi jarayonida ham yaqqol ko‘rinmoqda. Ular uchun madaniyat faqat an’anaviy qadriyatlarni saqlash emas, balki zamonaviy ilm-fan, ta’lim va taraqqiyot bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanishi lozim bo‘lgan jarayon edi. Ular milliy o‘zlikni asrab qolgan holda, Yevropa va jahon sivilizatsiyasining ilg‘or yutuqlarini qabul qilish tarafdori bo‘lishgan [13, 360-b]. Zamonaviy yoshlarning sotsial muhit shart-sharoitlariga ijtimoiylashuvidagi xususiyatlar transformatsiyalashgan jamiyat va uning oqibatida vujudga kelgan subyektiv vaziyatlarga ham bog‘liqdir. Bu jarayonda yoshlarning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalar, shart-sharoitga moslashuv va istiqboldagi erishilishi ko‘zlangan maqsadlar aynan madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham ilmiy tahlil qilinishi ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2016. 37-son, 426-modda; 2017. 24-son, 487-modda.*

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF – 5106 sonli farmoni // 2017-yil 5-iyul // www.lex.uz/docs/3255680.
3. Mirziyoyev Sh. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 245 b.
4. Mirziyoyev Sh. *Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik*. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 460 b.
5. Кузнецов В. *Методология научного исследования*. – Москва: Алгоритм, 2010. – 240 с.
6. Гидденс Э. *Социология*. – Toshkent: Sharq, 2002. – 848 с.
7. Giddens A. *The Consequences of Modernity*. – Stanford, CA: Stanford University Press, 1990. – 186 p.
8. Kluckhohn C. *Anthropology and the Classics*. – Providence, RI: Brown University Press, 1961. – 76 p.
9. Hebdige D. *Subculture: The Meaning of Style*. – London: Methuen & Co. Ltd., 1979. – 195 p.
10. Виготский Л. *Деятельность. Сознание. Личность*. – Москва: Полигиздат, 1975. – 304 с.
11. Schwartz S. *Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests in 20 Countries // Advances in Experimental Social Psychology. Vol. 25*. – San Diego: Academic Press, 1992. – P. 1–65.
12. Ясперс К., Бодрияр Ж. *Власть массы. Призрак толпы*. – Москва: Алгоритм, 2008. – 236 с.
13. Abdunazarova N. *Jadid ma'rifatparvarlarining madaniyatga oid qarashlari // O'zbekiston madaniyati va san'ati*. – 2026. – №2(4). – B. 360.

Shaxzodbek Rustamov

*Namangan davlat universiteti
"An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi"
kafedrasi dotsenti
E-mail: rshaxzodbek39@gmail.com*

YOSHLAR MEDIA MADANIYATI: MILLIY VA HUQUQIY YONDASHUVLAR

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada yoshlar media madaniyatining mazmun-mohiyati, uning zamonaviy axborot makonidagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar media madaniyatini rivojlantirishning milliy-ma'naviy va huquqiy asoslari, media savodxonlikni shakllantirish omillari hamda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Maqolada yoshlarning media makondagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va milliy qadriyatlarning media madaniyatni shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** media madaniyat, media savodxonlik, yoshlar, axborot xavfsizligi, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, huquqiy asoslar, axborot makoni.*

YOUTH MEDIA CULTURE: NATIONAL AND LEGAL APPROACHES

***Abstract.** This article analyzes the essence of youth media culture, its role and significance in the modern information space. It also highlights the national, spiritual and legal foundations for the development of youth media culture, the factors contributing to media literacy, and issues related to ensuring information security. The article provides a scientific analysis of the regulatory and legal documents governing young people's activities in the media environment, as well as the role of national values in shaping media culture.*

***Keywords:** media culture, media literacy, youth, information security, national values, spiritual education, legal foundations, information space.*

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ommaviy axborot vositalari hamda internet tarmoqlari inson hayotining ajralmas

qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy tarmoqlar, elektron nashrlar, multimedia platformalari va turli axborot resurslaridan faol foydalanuvchi qatlam sifatida media makonning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Shu bois yoshlarning media madaniyatini shakllantirish, ularda axborotni tanqidiy tahlil qilish, undan oqilona foydalanish va zararli axborotlardan himoyalanih ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Yoshlar media madaniyatini shakllantirish faqat texnologik yoki pedagogik vazifa emas, balki davlat siyosatining strategik yo'nalishi va milliy ma'naviyatning bevosita davomidir. Bu yo'nalish O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tamoyillari, qonun hujjatlari, prezident farmonlari, davlat dasturlari va milliy g'oya konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda bajariladi. Bunday yondashuv asosida media madaniyat fuqarolik majburiyati, milliy o'zlikni saqlash va raqamli xavfsizlik integratsiyasi sifatida talqin qilinadi. Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, davlat siyosati hujjatlari faqat normativ instrument emas, balki butun bir madaniy ramka bo'lib, ular yoshlarning aksiologik tanlovi uchun xalq darajasida belgilangan ustuvorlik va chegaralarning ramziy ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunida yoshlar – mamlakatimizning intellektual va ma'naviy salohiyatining negizi sifatida talqin qilinadi [1]. Qonun yoshlarga ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat, madaniyat va ma'naviyat sohalarida davlat tomonidan beriladigan kafolatlarni belgilab, ularning ma'naviy-aksiologik rivojlanishi uchun zarur huquqiy asosni yaratadi. Qonun matnida yoshlarning "ma'naviy salohiyatini yuksaltirish", "milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash", "mustaqil tafakkurni rivojlantirish" kabi vazifalar belgilab qo'yilgan – bu vazifalarning hech biri raqamli muhitdan tashqarida amalga oshirib bo'lmaydi, chunki bugungi yoshlarning kundalik hayoti aynan shu muhitda kechadi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 23-sentyabr) zamonaviy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va talabalarda mustaqil tafakkurni rivojlantirish vazifalarini belgilaydi [2]. Bu qonun media

madaniyatni ta'lim mazmuniga integratsiyalash uchun normativ asos beradi: madaniyatshunoslik, jurnalistika, kommunikatsiya, sotsiologiya yo'nalishlari talabalari uchun media savodxonlik kursi, umumiy ta'limda esa media-axborot savodxonligining fanlararo elementlari kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Qonun matnida ta'limni "hayot davomida" (uzluksiz ta'lim) tashkil etish konsepsiyasi belgilangan – bu konsepsiya media madaniyatni shakllantirish strategiyasi uchun ham asosiy metodologik asos bo'ladi: media madaniyat ham bir martalik kurs sifatida emas, balki yoshning butun hayot trayektoriyasi davomida rivojlanadigan kompetensiyalar majmuyi sifatida shakllantirilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, raqamli ko'nikmalarni keng yoyish va aholini raqamli xizmatlardan oqilona foydalanishga o'rgatish vazifalarini belgilaydi [3]. Strategiya kontekstida yoshlar media madaniyatini shakllantirish faqat madaniyatshunoslik vazifasi emas, balki butun mamlakatning raqamli rivojlanish strategiyasining muhim komponenti hisoblanadi. Strategiyaning matnida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, raqamli savodxonlikni keng yoyish va raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan – bu vazifalar nafaqat texnik o'qitishni, balki yoshlarning raqamli muhitda madaniy mavjud bo'lish ko'nikmalarini ham talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishni va yoshlar tarbiyasi sohasidagi davlat-jamiyat hamkorligini chuqurlashtirish vazifalarini belgilaydi [4]. Bu farmonlarda "inson kapitali" kategoriyasi markaziy o'ringa qo'yilib, yoshlarning bilim, ko'nikma, qadriyatlar va kompetensiyalari mamlakat raqobatbardoshligining asosi sifatida talqin qilinadi. Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan bu qarashning ahamiyati shundaki, u

yoshlarni faqat siyosiy yoki demografik kategoriya emas, balki madaniy resurs sifatida ko'rishga undaydi va bunday yo'l bilan yoshlar madaniyati masalalarini davlat siyosatining strategik darajasiga olib chiqadi.

Milliy madaniy va ma'naviy asoslarni tahlil qilishda A.Erkayev tomonidan tayyorlangan ma'naviyat konsepsiyasi alohida o'rin egallaydi [5]. Erkayev o'zining "Ma'naviyat va taraqqiyot", "Tafakkur erkinligi" ishlarida ma'naviyatni statik "qadriyatlar yig'indisi" emas, balki shaxs va jamiyatning ichki rivojlanish omili sifatida talqin qiladi. Tushuncha media madaniyat sohasi uchun konseptual kalit bo'lib xizmat qiladi: agar ma'naviyat ichki rivojlanish dvigateli bo'lsa, demak yoshlar media madaniyatini shakllantirish texnologiyasi nafaqat tashqi cheklov yoki himoya, balki ichki rivojlanishni qo'zg'atuvchi tizim sifatida loyihalashtirilishi shart. Erkayev qarashlarida ma'naviyatning aksiologik filtri millat oldida turgan har qanday tashqi ta'sirning saralash mexanizmi sifatida ishlaydi va bu g'oya raqamli muhitga kengaytirilganda "aksiologik immunitet" konsepsiyasiga aylanadi: yoshda milliy aksiologik yadro qanchalik kuchli bo'lsa, u global axborot oqimining manipulyativ kuchiga shunchalik ko'p qarshilik ko'rsata oladi.

Erkayevning ma'naviyat konsepsiyasini chuqurlashtiradigan muhim qo'shimcha S.Otamuratovning "Globallashuv va milliy ma'naviyat" monografiyasidan keladi. Otamuratov global axborot makonida milliy ma'naviyatning saqlanishi va rivojlanishining nazariy va amaliy mexanizmlarini tahlil qilib, shuni ko'rsatadiki, milliy ma'naviyat passiv himoya emas, balki global maydonda faol ishtirok orqali o'zini ko'rsatadi. Yoshlar uchun bu xulosaning amaliy ahamiyati shundaki, ularni global maydondan ajratib turish emas, aksincha global maydonga aniq aksiologik pozitsiya bilan kirishga o'rgatish lozim. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning xitoblarida ham yoshlar tarbiyasi va axborot xavfsizligi masalalari muntazam ravishda markaziy o'ringa qo'yiladi. Asarlarining 1–2-jildlarida hamda "Yangi O'zbekiston strategiyasi" va "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" monografiyalarida yoshlar bilan ishlashning yangi modeli, raqamli muhitda milliy g'oyaning o'rnini va axborot-mafkuraviy xavfsizlik masalalari nazariy

va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Bu rasmiy hujjatlar ushbu maqolaning huquqiy-strategik asosini tashkil qiladi va undagi tahliliy yondashuvlar olingan maqolaning amaliy yo'nalishini belgilaydi: yoshlar bilan ishlashda nasihat tipidagi vositalardan kompetensiyaviy va texnologik vositalarga o'tish, monitoring va diagnostikaga asoslangan empirik yondashuvlardan foydalanish, davlat-jamiyat hamkorligining yangi shakllarini sinab ko'rish.

Huquqiy-normativ asoslar tahlilini yakunlovchi muhim jihat – ushbu hujjatlarning qonunchilik darajasidagi mantiqiy birligini kafolatlashdir. “Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun (2017-yil 8-sentyabr), “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun (2019-yil 2-iyul), “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi Qonun (2022-yil 15-aprel) hamda “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonun (2003-yil 11-dekabr) birgalikda yoshlarning raqamli muhitda himoyalaniishi va bilimi o'sishi uchun yagona tartibga soluvchi tizimni hosil qiladi. Tizimning asosiy prinsipi – xavfsizlik bilan rivojlanishning balansini saqlash: yoshlarni zararli kontentdan himoya qilish, biroq ayni paytda ularning erkin axborot olish, fikr bildirish va kontent yaratish huquqlarini saqlash. Xalqaro huquqiy va normativ kontekstda yoshlar media madaniyati masalasi UNESCOning Grunwald deklaratsiyasi (1982), Aleksandriya bayonnomasi (2005), Parij tavsiyalari (2007) va “Think Critically, Click Wisely” tavsiyanomasi (2021) bilan asoslangan. Xalqaro hujjatlarda media va axborot savodxonligi fuqarolik kompetensiyasi sifatida tan olingan va davlatlar o'zlarining ta'lim siyosatlariga shu kompetensiyani kiritishga chaqirilgan. Tadqiqotning ilmiy yondashuvi xalqaro standartlar bilan mahalliy ma'naviy-aksiologik an'anani uyg'unlashtirgan integrativ model bo'lib, u o'zbek yoshlari uchun xalqaro va milliy mezonlarning bir vaqtda ishlashini ta'minlaydi. Bu uyg'unlashuv bu maqolaning konseptual o'ziga xosligini ko'rsatadi: u na sof xalqaro standartlarning ko'chirma versiyasi, na sof milliy intellektual an'ananing takrori, balki o'zbek madaniyat sharoitiga moslashtirilgan, biroq xalqaro standartlarga ham mos keladigan integrativ ilmiy mahsulotdir.

Yakunlovchi metodologik xulosa shundaki, yoshlar media madaniyatini shakllantirishning milliy-ma'naviy va huquqiy asoslari yagona, ko'p qatlamli tizimdir. Bu tizim konstitutsiyaviy tamoyillardan boshlanib, qonunchilik mexanizmlari, prezident farmonlari, davlat strategiyalari, milliy ma'naviyat konsepsiyalari va xalqaro standartlarni qamrab oladi. Tizimning amaliy ko'rinishi keyingi boblarda shakllantirilgan klasterli modellar, trening dasturlari, diagnostik instrumentlar va raqamli platforma loyihalarida o'z ifodasini topadi. U yoshlar media madaniyatini ilmiy nazariya, davlat siyosati va amaliy texnologiyalar uyg'unligida tahlil qilishga muvaffaq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.*
2. *O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.*
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni; 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.*
5. *Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 320 b.*
6. *Erkayev A. Tafakkur erkinligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – 192 b.*

Pirmuhammad Xolmaxmatov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi doktoranti
E-mail: pirmuhammadxolmaxmatov@gmail.com*

DIASPORA TUSHUNCHASI VA UNI TADQIQ ETISH BO'YICHA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada diaspora tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy shakllanish bosqichlari hamda ilmiy-nazariy tadqiq etilishiga oid asosiy yondashuvlar tahlil qilingan. Diaspora fenomenining sotsiologik, siyosiy, madaniy va transmilliy jihatlari yoritilib, R.Park, W.Safran, R.Cohen, J.Clifford, G.Sheffer, K.Tololyan, N.Glick Schiller, S.Hall va B.Anderson kabi olimlarning nazariy qarashlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, diasporaning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni, madaniy diplomatiya va "yumshoq kuch" siyosatidagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijasida diaspora nafaqat migratsiya mahsuli, balki transmilliy aloqalarni rivojlantiruvchi va milliy identitetni saqlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida baholangan.*

Kalit so'zlar: *diaspora, migratsiya, transmilliylik, diaspora diplomatiyasi, madaniy diplomatiya, yumshoq kuch (soft power), milliy identitet.*

THE CONCEPT OF DIASPORA AND THEORETICAL APPROACHES TO DIASPORA STUDIES

Abstract. *This article examines the concept of diaspora, its historical development, and the main theoretical approaches to its study. The sociological, political, cultural, and transnational dimensions of the diaspora phenomenon are analyzed through the perspectives of prominent scholars such as R.Park, W.Safran, R.Cohen, J.Clifford, G.Sheffer, K.Tölölyan, N.Glick Schiller, S.Hall, and B.Anderson. The study also highlights the role of diasporas in contemporary international relations, cultural diplomacy, and soft power strategies. The findings demonstrate that diaspora should be understood not only as a consequence of migration but also as an important transnational social institution that contributes*

to preserving national identity and strengthening international cultural, political, and economic ties.

Keywords: *diaspora, migration, transnationalism, diaspora diplomacy, cultural diplomacy, soft power, national identity.*

XXI asr globallashuv jarayonlari insoniyat tarixida yangi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni yuzaga keltirdi. Xalqaro migratsiya jarayonlarining jadallashuvi, transmilliy aloqalarning kengayishi hamda madaniy diplomatiyaning tashqi siyosatdagi o'rnini ortib borishi diaspora fenomeniga bo'lgan ilmiy qiziqishni yanada kuchaytirmoqda. Bugungi kunda diasporalar milliy manfaatlarni xorijda ilgari suruvchi yumshoq kuch (soft power) vositasi sifatida faol ishtirok etmoqda. Endilikda biror xalqning xorijdagi vakillari nafaqat o'z madaniyati va tilini saqlash, balki qabul qiluvchi davlat bilan vatani o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda ham vositachi vazifasini o'tamoqda. Ayniqsa, davlatlararo munosabatlarda "Yumshoq kuch" vositasi sifatida diasporaning roli oshib borishi natijasida turli xalqlarning tarixiy vatandan tashqarida yashovchi jamoalari – diasporalar global ijtimoiy tizimning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Xalqaro munosabatlarning klassik qarash tarafdorlarining realizm nazariyasida davlatga xalqaro maydondagi asosiy aktyor sifatida, diasporalar esa xalqaro siyosatda undan keyingi o'rinda turuvchi "Yumshoq kuch" sifatida talqin qilinadi.

Bunga mazkur maktab vakili Robert Gilpin o'zining "Urush va jahon siyosatidagi o'zgarishlar" asarida alohida urg'u berib, davlat tashqi siyosatini shakllantirishda iqtisodiy va ijtimoiy kuchlar – shu jumladan, transmilliy aktyorlar (diasporalar) ham muhim rol o'ynashini e'tirof etadi [1, 39-b]. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda madaniy diplomatiya va yumshoq kuchni davlat tashqi siyosatida asosiy rol o'ynashni ta'kidlovchi neoliberalizm nazariyasi yetakchi mutaxassislardan biri Jozef Nay "Yumshoq kuch: jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari" asarida shunday deydi: "Diasporalar hukumatlar tomonidan nazorat qilinmaydigan, ammo ularning tashqi siyosatiga katta ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan ijtimoiy resurslardir" deb ta'riflagan edi [1]. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, diasporani

o'rganish xalqaro munosabatlar va geosiyosiy jarayonlarning zamonaviy bosqichini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda diaspora fenomeni nafaqat demografik, yoki migratsion jarayon sifatida, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida ham qaralmoqda. Shu sababli diaspora tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy-ilmiy adabiyotlarda diaspora tushunchasi turli nuqtayi nazardan talqin qilinadi. Ushbu tushuncha tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik hamda xalqaro munosabatlar kabi fanlar kesishgan nuqtada o'rganiladi. Diaspora tushunchasi odatda tarixiy vatandan tashqarida yashovchi, ammo o'zining etnik identitetini, madaniy qadriyatlarini va tilini saqlab qolgan jamoalarni ifodalash uchun qo'llaniladi [2]. Bunday jamoalar ko'pincha o'z tarixiy vatani bilan iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni davom ettiradi hamda ikki yoki undan ortiq mamlakat o'rtasida o'ziga xos transmilliy aloqalar tizimini shakllantiradi.

“**Diaspora**” tushunchasini ilk bor Chikago sotsiologiya maktabining asoschilaridan biri, shahar sotsiologiyasi, irqiy munosabatlar va migratsiya bo'yicha nazariyotchi olim R.E.Park tomonidan fanga kiritilib, u diaspora birinchi navbatda, diniy emas, balki ko'proq etnik bo'lgan madaniy jamoa sifatida talqin qilgan [3, 54-p]. Diaspora tushunchasi tarixan diniy yoki etnik guruhlarining majburiy migratsiyasi asosida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda bu tushuncha yanada kengaygan. Zamonaviy diaspora nafaqat majburiy, balki ixtiyoriy migratsiya natijasida shakllangan etnik, diniy yoki madaniy jamoalarni ham o'z ichiga oladi.

Kontseptual rivojlanish nuqtayi nazaridan esa “Diaspora” atamasi birinchi marta 1931-yilda Amerikada nashr etilgan Ijtimoiy fanlar ensiklopediyasida tilga olingan bo'lib uning lug'aviy ma'nosining kelib chiqishi esa qadimgi yunon tiliga borib taqaladi. Qadimgi Yunon tilida diaspeirein so'zi “tarqalish”, “sochilib joylashish” degan ma'nolarni anglatgan [4, 37-c].

Rossiyalik tarixchi va publitsist Simon Dubnovning xulosasi ilm-fanda konseptual rivojlanish uchun burilish nuqtasi hisoblanadi. Dubnov o'z ta'rifida konsepsiyani yahudiy tajribasi kontekstida qo'llash bilangina chegaralanib qolmay, o'z vatanlarini tark etgan barcha etnik jamoalarini tasvirlash uchun foydalangan.

Diasporalarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmiga kelib faol rivojlana boshladi. Ayniqsa, migratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida turli mamlakatlarda yashovchi etnik jamoalar faoliyati ilmiy tadqiqotlar markaziga aylandi. Bu jarayon, avvalo, xalqaro migratsiya jarayonlarining kuchayishi va etnik jamoalarning transmilliy tarmoqlar shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan. Ilk tadqiqotlarda diaspora tushunchasi ko'proq tarixiy jarayonlar kontekstida talqin qilinsa, keyinchalik u kengroq ma'noda, ya'ni global ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimning tarkibiy elementi sifatida ishlatila boshlandi. Bu davrda diaspora tadqiqotlari bilan tanilgan olim William Safran diasporani ilmiy tahlil qilishda muhim yondashuvni taklif qilgan. U diaspora jamoalarining asosiy belgilari sifatida uch asosiy mezonni ajratadi: birinchidan, diaspora jamoasi o'z tarixiy vatani bilan ma'naviy va madaniy aloqalarni saqlab qoladi; ikkinchidan, diaspora a'zolari o'z etnik identitetini mustahkamlashga intiladi; uchinchidan, diaspora jamoasi tarixiy vataniga nisbatan hissiy bog'liqlikni saqlab qoladi [7]. Ushbu mezonlar diasporaning ichki ijtimoiy strukturasi va transmilliy faoliyatini tushunishda asosiy indikator sifatida xizmat qiladi. Villiam Safran diasporaga tarixiy vatandan tashqarida yashovchi, ammo o'zining etnik identitetini saqlab qolgan hamda vatani bilan ijtimoiy va madaniy aloqalarni davom ettiruvchi jamoa sifatida ta'riflagan [8, 99-p]. Uning fikricha, diasporaning asosiy belgilaridan biri tarixiy vatanga nisbatan hissiy va madaniy bog'liqlikning mavjudligidir.

Diaspora nazariyasini rivojlantirishda muhim hissa qo'shgan yana bir sotsiolog olim va migratsiya tadqiqotchisi Robin Kohen hisoblanadi. U o'zining mashhur "Global diasporalar" asarida diasporalarning shakllanish sabablari va tarixiy sharoitlariga qarab besh guruhga ajratadi [9, 34-b].

Majburiy diaspora – urushlar, siyosiy repressiyalar yoki majburiy deportatsiyalar natijasida shakllangan jamoalar. Misol sifatida yahudiy va arman diasporalari keltiriladi.

Mehnat diasporasi – iqtisodiy sabablar tufayli boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tgan jamoalar. Bu turdagi diasporalar rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan.

Savdo diasporasi – tarixiy savdogarlar tomonidan shakllangan jamoalar, masalan, hind, xitoy va yahudiy savdo diasporalari.

Imperiya diasporasi – imperiyalar kengayishi natijasida yuzaga kelgan jamoalar. Turli xalqlar imperiya hududlarida doimiy yashashga majbur bo'lgan.

Madaniy diaspora – ilmiy va madaniy aloqalar orqali shakllangan jamoalar, xususan talabalar migratsiyasi va ilmiy hamkorlik jarayonlarida yuzaga kelgan.

Cohenning ilmiy xulosasiga ko'ra, diasporalar global miqyosda tarqalgan bo'lsa ham, ularni birlashtirib turuvchi asosiy omil – umumiy tarixiy xotira va madaniy identitetdir.

Diasporani madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishda James Klifford ning qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. U diaspora tushunchasini transmilliy madaniy makon bilan bog'lab o'rganadi. Uning fikricha, diaspora a'zolari bir vaqtning o'zida bir nechta madaniy makon bilan aloqada bo'lib, o'ziga xos gibril identitetni shakllantiradi. Bu jarayon natijasida esa diaspora jamoalari nafaqat tarixiy vatani bilan, balki yashab turgan jamiyat bilan ham madaniy aloqalarni rivojlantiradi [10, 302–338-p].

Diasporaning bir qator asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, diaspora a'zolari tarixiy vatandan tashqarida yashaydi. Ikkinchidan, ular o'zining etnik identitetini saqlab qolishga intiladi. Uchinchidan, diaspora jamoalari tarixiy vatani bilan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarni davom ettiradi. To'rtinchidan, diaspora a'zolari o'zaro ijtimoiy aloqalar orqali jamoaviy birdamlikni mustahkamlaydi.

Gabriel Shefferning nazariyalari diaspora tushunchasini siyosiy jarayonlar bilan bog'lash nuqtayi nazaridan muhimdir. Sheffer fikricha, diaspora jamoalari ko'pincha siyosiy tashkilotlar shaklida faoliyat yuritadi va ular o'z tarixiy vatani bilan siyosiy aloqalarni rivojlantirishda strategik vosita hisoblanadi [11]. Shu tariqa, diaspora jamoalari nafaqat ijtimoiy yoki madaniy, balki siyosiy kontekstda ham global tizimda faol ishtirok etadi.

Arman diasporologi Khachig To'lalyanning ilmiy ishlari diaspora tushunchasini global madaniy jarayonlar bilan bog'lash nuqtayi nazarini rivojlantiradi. Tölölyan diasporani global jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida ko'radi va uning transmilliy faoliyati orqali davlatlararo madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalar mustahkamlanishini ta'kidlaydi [2]. Shu bilan birga, zamonaviy diaspora tadqiqotlarida transmilliylik nazariyasi keng qo'llaniladi.

Transmilliylik tushunchasi davlat chegaralaridan tashqarida shakllangan murakkab ijtimoiy aloqalar tizimini ifodalaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, diaspora jamoalari bir vaqtning o'zida bir necha mamlakat bilan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni saqlab turadi. Transmilliylik nazariyasini rivojlantirishda Antropolog Nina Glik Schiller muhim rol o'ynagan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy migratsiya jarayonlari natijasida shakllangan diaspora jamoalari faqat bir mamlakat doirasida faoliyat yuritmaydi, balki bir nechta davlatlar o'rtasida murakkab ijtimoiy faoliyatni yaratadi [13].

Global iqtisodiyotdagi roli jihatidan diaspora jamoalari o'z tarixiy vatanga investitsiyalar kiritishi, biznes aloqalarini rivojlantirishi va savdo hamkorligini kengaytirishi bilan ajralib turadi. Bu jarayon ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida strategik omil hisoblanadi. Shu bilan birga, diaspora vakillari transmilliy biznes va moliyaviy tarmoqlar orqali global savdo aloqalarini mustahkamlaydi, bu esa ularni iqtisodiy tizimning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Diaspora jamoalarida madaniy identitet muhim ilmiy tahlil obyekti hisoblanadi. Ular bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq madaniyat o'rtasida yashaydi: bir tomondan, o'z tarixiy vatani madaniyatini saqlab qolishga intiladi,

ikkinchi tomondan esa yashayotgan mamlakat madaniyatiga moslashishga harakat qiladi. Natijada gibrid madaniyat shakllanadi, bu esa transmilliy identitet va madaniy sintez jarayonini yuzaga keltiradi. Mashhur madaniyatshunos Stuart Hallning yondashuvi diaspora identitetining dinamik va doimiy o'zgarib turuvchi ijtimoiy konstruktsiya ekanligini ta'kidlaydi [14]. Hallning fikricha, identitet jarayoni diaspora jamoalarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi, chunki ular doimiy ravishda o'z tarixiy vatani va yashayotgan jamiyat o'rtasida madaniy muvozanatni saqlashga harakat qiladi.

Milliy identitetni saqlash jarayonida diaspora tashkilotlari muhim rol o'ynaydi. Ko'plab mamlakatlarda diaspora jamoalari turli madaniy markazlar, jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari orqali o'z milliy madaniyatini rivojlantiradi. Bunday tashkilotlar tilni saqlash, milliy bayramlarni nishonlash va yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekistondagi xorijdagi vatandoshlar markazlari bu vazifani tizimli amalga oshiradi.

Diaspora jamoalarida identitet masalasini o'rganishda mashhur sotsiolog olim Benedikt Andersonning nazariyalari muhim ahamiyatga ega. U diaspora tushunchasini "tasavvur qilingan hamjamiyat" sifatida talqin qiladi [15, 20-p]. Andersonning fikriga ko'ra, milliy identitet geografik hudud bilan cheklanib qolmaydi, balki tarixiy xotira va madaniy birlik orqali shakllanadi. Shu sababli diaspora jamoalari ham o'zlarini milliy hamjamiyatning bir qismi sifatida his qiladi.

Bugungi kunda zamonaviy davlatlar o'z diasporasi bilan faol hamkorlik qilishga intilmoqda. Bu jarayon diaspora siyosati yoki diaspora diplomatiyasi deb ataladi. Diaspora siyosati davlatlarning tashqi siyosatida muhim vosita sifatida qaraladi. Ko'plab davlatlar o'z diasporasi bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida maxsus davlat dasturlarini amalga oshiradi. Bu dasturlar diaspora vakillari bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, ayrim MDH davlatlari o'z diasporasi orqali investitsiyalar jalb qilish,

xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish va milliy manfaatlarni himoya qilish jarayonlarida faol ishtirok etishga rag'batlantiradi.

Diasporaning xalqaro aloqalardagi roli haqida fikr yuritar ekan, siyosatshunos olim Yossi Shain diasporani xalqaro siyosiy jarayonlarning muhim aktyorlaridan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, diaspora jamoalari nafaqat madaniy, balki siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ham faol ishtirok etishi mumkin.

Diaspora fenomenining shakllanishi turli tarixiy, siyosiy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonlar har bir etnik jamoaning rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Turli davrlarda yuz bergan urushlar, siyosiy repressiyalar, iqtisodiy inqirozlar va tabiiy ofatlar ko'plab xalqlarning boshqa hududlarga ko'chib o'tishiga sabab bo'lgan. Shu munosabat bilan tarixiy vatandan tashqarida yashovchi etnik jamoalar – diasporalar shakllangan va ular o'zaro transmilliy ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga intilgan. Shu nuqtayi nazardan diaspora fenomenini o'rganishda uning shakllanish omillarini aniqlash va tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy jihatdan diasporaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillardan biri siyosiy faktorlar bo'lib, ular jamoalarning migratsiyasini majburiy yoki ixtiyoriy yo'nalishda shakllantirgan. Masalan, arman diasporasining shakllanishida XX asr boshlaridagi siyosiy voqealar muhim rol o'ynagan bo'lsa, yahudiy diasporasining shakllanishi miloddan avvalgi davrlarda yuz bergan tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda yuz bergan. Bu jarayonlar natijasida tarixiy vatandan tashqarida yashovchi yirik diaspora jamoalari vujudga kelgan va ular o'z tarixiy xotirasi hamda madaniy merosini saqlashga intilgan.

Yuqoridagilarga tayanib diasporalarni xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni ne qadar muhimligini anglashimiz mumkin. Bugungi kunga kelib dunyoda bir qator yirik diasporalar shakllanib ulgurgan bo'lib, ular dunyo siyosatida, ayniqsa, madaniy diplomatiya sohasida asosiy vositaga aylanib ulgurgan. Ko'plab mamlakatlar diaspora jamoalari orqali davlatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bunday diasporalar sirasiga, Xitoy, Hind,

Yahudiy, Rus, Arman, Irland, Livanliklar, Turk va Afrika diasporalari kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024-yil soʻngiga oid maʼlumotlariga koʻra hind diasporasi dunyodagi eng yirik diaspora hisoblanadi. Ikkinchi eng katta diaspora esa xitoy diasporasi hisoblanadi. Eng yirik oʻzbek diasporalari esa asosan Oʻzbekiston bilan qoʻshni boʻlgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Afgʻonistonda joylashgan. Internet maʼlumotlariga tayanadigan boʻlsak oʻzbek diasporasining taxminiy soni besh milliondan oshiqroqdir.

Xulosa qilib aytganda, diaspora fenomeni zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng dolzarb va koʻp qirrali tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro migratsiyaning kengayishi hamda transmilliy aloqalarning rivojlanishi natijasida diaspora tushunchasi anʼanaviy etnik yoki diniy jamoa doirasidan chiqib, xalqaro siyosat, iqtisodiyot va madaniyat tizimlarining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Shu bois diasporani faqat migratsiya natijasida shakllangan jamoa sifatida emas, balki global miqyosdagi ijtimoiy-madaniy va siyosiy jarayonlarga taʼsir koʻrsatuvchi transmilliy institut sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nadjimov F. *Oʻzbekistonda qozoq diasporasi: tarixiy rivojlanish va hozirgi holat // XXI asr: fan va taʼlim masalalari. – Toshkent, 2025. – № 2. – B. 39–44.*
2. Castles S., Miller M.J. *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. – 4th ed. – New York: Guilford Press, 2009. – 401 p.*
3. Yıldız F. *Uluslararası göç ve diaspora ile ilişkili kavramlar // İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi. – 2014. – Cilt 3. – S. 37–52.*
4. Safran W. *Diasporas in Modern Societies: Myths of Homeland and Return // Diaspora: A Journal of Transnational Studies. – 1991. – Vol. 1. – No. 1. – P. 83–99.*
5. Cohen R. *Küresel Diasporalar: Giriş. – Ankara, 2024. – 34 s.*

6. Clifford J. *Diasporas // Cultural Anthropology*. – 1994. – Vol. 9. – No. 3. – P. 302–338.
7. Sheffer G. *Diaspora Politics: At Home Abroad*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 287 p.
8. Tölölyan K. *Rethinking Diaspora(s): Stateless Power in the Transnational Moment // Diaspora: A Journal of Transnational Studies*. – 1996. – Vol. 5. – No. 1. – P. 3–36.
9. Glick Schiller N., Basch L., Blanc-Szanton C. *Towards a Transnational Perspective on Migration: Race, Class, Ethnicity, and Nationalism Reconsidered*. – New York: New York Academy of Sciences, 1992. – 107 p.
10. Hall S. *Cultural Identity and Diaspora // Colonial Discourse and Post-Colonial Theory: A Reader / Ed. by P. Williams, L. Chrisman*. – New York: Harvester Wheatsheaf, 1990. – P. 222–237.
11. Anderson B. *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. – London: Verso, 1983. – 224 p.
12. Shain Y. *Marketing the American Creed Abroad: Diasporas in the U.S. and Their Homelands*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 320 p.
13. Panossian R. *The Armenians: From Kings and Priests to Merchants and Commissars*. – London: Hurst & Company, 2006. – 442 p.
14. *At 18 Million, India Has the World's Largest Diaspora Population // The Economic Times*. – URL: <https://economictimes.indiatimes.com/nri/migrate/at-18-million-india-has-the-worlds-largest-diaspora-population/articleshow/80290768> (murojaat qilingan sana: 23.06.2026).
15. *Узбекская диаспора // Wikipedia*. – URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Узбекская_диаспора (murojaat qilingan sana: 23.06.2026).

Mohira Xasanova

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
San'atshunoslik instituti tadqiqotchisi
E-mail: thehasanova86@gmail.com*

MADANIY GLOBALLASHUV VA TELEVIDENIYE

***Annotatsiya.** Maqolada tok-shoularning yoshlar ongi, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlarining shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Tok-shoularning axborot manbai va ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatidagi o'rni yoritilib, ularning yoshlar ma'naviyati, fikrlash tarzi va xulq-atvoriga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillari o'rganilgan. Shuningdek, zamonaviy media muhitda tok-shoular mazmunini takomillashtirish va ularning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish bo'yicha taklif, tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** tok-shou, yoshlar, ommaviy kommunikatsiya, media ta'sir, jamoatchilik fikri, dunyoqarash, ma'naviyat, axborot makoni.*

CULTURAL GLOBALIZATION AND TELEVISION

***Abstract.** This article analyzes the impact of television talk shows on the formation of young people's consciousness, worldview, and social values. The role of talk shows as a source of information and a means of mass communication is highlighted, while their positive and negative effects on youth spirituality, patterns of thinking, and behavior are examined. In addition, the article proposes recommendations for improving the content of talk shows in the modern media environment and enhancing their educational and cultural significance.*

***Keywords:** talk show, youth, mass communication, media influence, public opinion, worldview, spirituality, information space.*

Bugungi globallashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniye jamiyat ongi, yoshlar dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlar shakllanishida muhim ta'sir kuchiga aylanmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida milliy madaniyatni asrash, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va ayni paytda zamonaviy taraqqiyot bilan hamohang yashash masalasi tobora dolzarb ahamiyat

kasb etmoqda. Bu jarayonda telekanallarda efirga uzatilayotgan tok-shoularning ijtimoiy vazifasi, ma'naviy yuki va auditoriyaga ta'sirini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish muhimdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev deyarli har bir chiqishida O'zbekiston OAV faoliyatini o'zgartirish vaqti kelgani, dolzarb muammolarni ko'tarishda bir yoqlamalikka yo'l qo'ymaslik davr talabi ekanini ta'kidladi. Jumladan, 2017-yil 30-mart kuni videoselektor yig'ilishida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tanqid qilib: "Ura-uralar vaqti tugadi. Televideniye tanqidiy va tahliliy materiallarni taqdim etishi kerak. Odamlar bu teledasturlarni intiqlik bilan kutishlari kerak. Biz dasturlarni o'zgartirishimiz kerak" deya ta'kidladi. Shunday qilib, liberallashtirish yo'li rasman e'lon qilindi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallarda namoyish etilayotgan "Fikr.uz", "Munozara maydoni" (Yoshlar telekanali), "Xalqaro press-klub" (Uzreport tv, Milliy telekanal), "Munosabat", "Biz uchun" (O'zbekiston), "Ochiqchasiga gaplashamiz" (Mening yurtim), "Odamlar orasida" (Sevimli telekanal) kabi tok-shoular keng auditoriya e'tiborini tortmoqda. "Fikr.uz", "Munozara maydoni" tok-shoulari yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lib, ularning huquqiy va ma'naviy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. "Xalqaro press-klub" esa an'anaviy tok-shoulardan farqli ravishda keng ko'lamli press-konferensiya shaklida tayyorlanadi. Mazkur dastur yangi formatni – ochiq jonli muloqot va savol-javob muhitini televideniye ga olib kirganligi bilan ahamiyatlidir. "Munosabat" tok-shousi O'zbekistondagi birinchi va uzoq vaqt davomiylikda o'z nufuzini saqlab kelayotgan ijtimoiy-siyosiy dastur hisoblanadi.

"Munosabat" tok-shousi turli sohalarda to'planib qolgan muammolarni hal etish yo'lidagi sa'y-harakatlar auditoriya bilan kechadigan qizg'in suhbatlar, bahs-munozaralarga qurilganligi bilan ahamiyatlidir. Auditoriyaga taklif qilingan mehmonlar o'rtasida turli masalalar qizg'in muhokama qilinadi. Bunda boshlovchi Q.A'zam tayyor retseptlarni bermaydi. Balki studiya bilan birgalikda muammolar yechimiga yo'l izlaydi. Yangi mediamakonda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi

organlari mutasaddilari jamoatchilikka hisobot berishi, ekspertlar va jurnalistlar bilan fikr almashishi yo'lga qo'yildi [1].

Ta'kidlash joizki, tok-shou janri nodavlat telekanallar orqali ham tomoshabinlarga e'tiboriga taqdim etiladi. Ularda (masalan "Odamlar orasida" (Sevimli), "Ochiqchasiga gaplashamiz" (Mening yurtim) oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, xotin-qizlar taqdiri va ijtimoiy adolat kabi mavzular ko'tariladi. "Odamlar orasida" ("Sevimli"), "Ochiqchasiga gaplashamiz" ("Mening yurtim") tokshoulari ilgari jamiyat o'z nigohini qaratishga uyalgan, tashvish-u dardlari bilan qolib ketgan, aholining himoyaga muhtoj qatlami vakillari muammolari haqida fikr yurita boshladi.

Bir qarashda, bunday mavzular jamiyatdagi dolzarb muammolarni ochiq muhokama qilishga xizmat qilayotgandek ko'rinadi. Masalaning ikkinchi jihati ham mavjud. Mazkur tok-shoularda ayrim holatlarda shaxsiy hayotning ortiqcha ommalashtirilishi, emotsional drammatizmning kuchaytirilishi va konfliktlarni reyting manbai sifatida taqdim etish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Madaniy globallashtirish sharoitida media mahsulotlar faqat axborot uzatish vositasi bo'lib qolmay, balki muayyan turmush tarzi va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi madaniy mexanizm vazifasini ham bajaradi. Amerikalik olim Gerbert Shiller madaniy imperializm nazariyasida ommaviy axborot vositalari orqali bir xalqning qadriyatlari boshqa jamiyatlarga singdirilishini ta'kidlagan. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, mahalliy tok-shoularning ayrim formatlari ham tashqi media modellar ta'sirida shakllanayotganini ko'rish mumkin. Xususan, janjal va hissiy keskinlikka asoslangan ssenariylar g'arb media industriyasida keng qo'llaniladigan "reyting kontenti" xususiyatini eslatadi. Bu tendensiya O'zbekiston telekanallariga ham olib kirilmoqda. Xususan, nodavlat telekanallari "Sevimli", "Milliy", "Zo'r" kabi telekanallarda ushbu holatni yaqqol kuzatish mumkin.

"Gapirmasak bo'lmaydi" ko'rsatuvida jamiyatda mavjud turli muammolar jamoatchilik oldida muhokama qilinadi. Bu muhokamalar janjal va hissiy keskinlikka asoslangan ssenariy asosiga qurilgan bo'ladi. Ayniqsa, ko'rsatuvda

ko'tarilgan ijtimoiy-maishiy mavzular tomoshabin hissiyotiga chuqurroq kirib borishi, ularning ko'proq muddat yodida qolishi uchun ham shu uslubdan foydalaniladi. Ba'zan esa ko'rsatuv davomida milliy mentalitetimizga xos kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va oila daxlsizligi tushunchalari bilan ziddiyatga kirishiladi.

“Yangi hayot” ko'rsatuvida esa ijtimoiy muammolarga yechim topish, insonlarga amaliy yordam berish, hayotda qiynalgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan jihatlar mavjud. Bu – televideniyeining ijtimoiy mas'uliyatini namoyon etuvchi muhim xususiyatdir. Biroq hatto shunday formatlarda ham dramatisatsiya elementlari kuchayib ketsa, ma'rifiy maqsad ikkinchi darajaga tushib qolishi xavfi bor. Media tadqiqotchi Nil Postman “Ko'ngilochar asr” konsepsiyasida jamiyatdagi jiddiy masalalar ham tomoshaga aylanib borayotganini ta'kidlaydi. Bu holatni ayrim mahalliy tok-shoular misolida ham kuzatish mumkin.

Shu bilan birga, globallashuvni mutlaq salbiy jarayon sifatida baholash ham biryoqlama yondashuv bo'lar edi. Chunki zamonaviy televideniye ochiq muloqot madaniyatini shakllantirish, jamiyatda yashirin qolib kelgan muammolarni ochiq muhokama qilish va inson huquqlarini himoya qilish kabi ijobiy vazifalarni ham bajarmoqda. Ilgari yopiq muhitda saqlangan ayrim ijtimoiy masalalar bugun jamoatchilik muhokamasi orqali yechim topmoqda. Masalan, ayollarga nisbatan zo'ravonlik, farzand tarbiyasidagi muammolar yoki ajrim oqibatlar haqida ochiq suhbatlar muayyan ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

Biroq bu jarayonda milliy axloqiy mezonlar, estetik did va madaniy mas'uliyat saqlanishi zarur. Abu Nasr Farobiy ta'kidlaganidek, inson kamoloti axloqiy tarbiya bilan mukammallashadi. Televideniye esa bugungi kunda eng kuchli tarbiya vositalaridan biriga aylangan. Demak, efirga uzatilayotgan har bir ko'rsatuv nafaqat reyting, balki ma'naviy ta'sir nuqtayi nazaridan ham baholanishi lozim. “Kino singari televideniyeida ham tasvir, ko'rsatuvning bosh obyekt – inson qiyofasidir. Televideniyeida inson fikrlar, g'oyalarning ifoda etuvchi asosiy

vositachiga aylanadi” [2, 15-b]. Shunday ekan ekranda ijod qilayotgan, mushohada yuritayotgan inson ko'rsatuvning mundarijasi va his-tuyg'ularning yagona ifodachisi ekanini hamisha yodda tutmog'i darkor.

O'zbek milliy madaniyati azaldan kattani hurmat qilish, kichikka mehr ko'rsatish, oila muqaddasligi, mehmondo'stlik va bag'rikenglik kabi qadriyatlarga tayangan. Shu bois tok-shoularda konflikt emas, murosa madaniyati; janjal emas, ma'rifiy yechim; tahqir emas, inson qadrini ulug'lash ustuvor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Televideniye yoshlar uchun ibrat maktabi ekanini unutmaslik kerak. Chunki ekran orqali namoyon bo'layotgan har bir obraz, har bir munosabat tomoshabin ongida muayyan ijtimoiy me'yor sifatida qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi media makonda tok-shoular nafaqat ko'ngilochar janr, balki jamiyat ma'naviyatiga ta'sir qiluvchi muhim ijtimoiy institutga aylangan. Bugungi kunda O'zbekiston televideniyesining ijtimoiy mahsuldorligini oshirish uchun auditoriyaning talab va ehtiyojlari har tomonlama o'rganilishi, ilmiy tadqiqotlar televideniye dasturlarining iqtisodiy, ijtimoiy hayotda estetik vazifalarini qamrab olishi, ommaviy axborot nashrlarida mutaxassislarining fikrlari, reyting natijalari uzluksiz, doimiy ravishda yoritib borilishi muhim [3, 10-b]. Shuning uchun milliy telekanallarda efir siyosatini shakllantirishda global media tendensiyalar bilan bir qatorda, o'zbek xalqining madaniy xotirasi, milliy mentaliteti va ma'naviy qadriyatlariga tayangan holda yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy globallashuv jarayonida televideniye axborot almashinuvi, madaniy qadriyatlarni targ'ib etish va turli xalqlar o'rtasidagi madaniy muloqotni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Televideniye orqali dunyo madaniyatiga oid turli ko'rinishlar keng auditoriyaga yetkazilib, insonlarning dunyoqarashi va madaniy tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, globallashuv sharoitida milliy madaniyat va an'analarni asrab-avaylash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Televideniye nafaqat global madaniy oqimlarni yoritishi, balki milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy

merosni targ'ib qilish orqali madaniy o'zlikni saqlashga ham xizmat qilishi lozim. Bu esa televideniye madaniy integratsiya va milliy identifikatsiyani mustahkamlashdagi o'rnini yanada oshiradi.

Demak, televideniye madaniy globallashtirishning muhim omili sifatida jamiyatning madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi hamda global va milliy madaniyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zohidova Y. *Televideniye va shaxs: teleyangiliklarda boshlovchining o'rni (ijtimoiy vaziyat, jurnalist pozitsiyasi va mahorat masalalari). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.* – Toshkent, 2021. – B. 51.

2. Nosirov H. *Televizion dasturlarning media kontentini siqishning yuqori samarali tizimlari, sifatini baholash va ularni takomillashtirish uslublari // – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va qurilmalari. Mobil, tolaoptik aloqa tizimlari.* – Toshkent, 2017. – B. 15.

3. Rahmatullayeva I. *O'zbekiston televideniyesida yoshlar ko'rsatuvlari.* – Toshkent, 2007. – B. 10.

4. Rahmatullayeva I. *Yangi davr: milliy-ma'naviy yuksalishning o'zbek televideniyesida aks etishi.* – Toshkent. -10-bet. <https://uza.uz/posts/593637>

5. Fayziyeva F. *O'zbekiston badiiy televideniyesining shakllanishi (1956–2000).* – Toshkent, 2009. – B. 33.

Bahtiyorjon G'iyosov

Namangan davlat universiteti
"An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi"
kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: giyosovbahtiyorjon@gmail.com

MILLIY AN'ANALAR VA ZAMONAVIY G'OYALAR SINTEZI:

MADANIY TRANSFORMATSIYA MODELI

(Namangan gullar festivali misolida)

***Annotatsiya.** Maqolada Namangan xalqaro gullar festivalida milliy an'analar va zamonaviy g'oyalar sintezi tahlil qilinadi. Festivalning madaniy transformatsiya modeli tarixiy-ma'naviy, estetik-badiiy, turistik-iqtisodiy va raqamli-kommunikativ qatlamlar asosida yoritiladi. Tadqiqotda autentiklik va innovatsiya muvozanatini saqlash festival rivojlanishining muhim omili sifatida asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:** Namangan xalqaro gullar festivali, milliy an'analar, zamonaviy g'oyalar, madaniy transformatsiya, autentiklik, innovatsiya, festival modeli, raqamli kommunikatsiya, turizm, madaniy meros.*

SYNTHESIS OF NATIONAL TRADITIONS AND MODERN IDEAS: A

MODEL OF CULTURAL TRANSFORMATION

(A Case Study of the Namangan Flower Festival)

***Abstract.** This article examines the synthesis of national traditions and modern ideas within the Namangan International Flower Festival. The festival's cultural transformation model is analyzed through four interconnected layers: historical-spiritual, aesthetic-artistic, tourism-economic, and digital-communicative. The study argues that maintaining a balance between authenticity and innovation is a key factor in the sustainable development of the festival.*

***Keywords:** Namangan International Flower Festival, national traditions, modern ideas, cultural transformation, authenticity, innovation, festival model, digital communication, tourism, cultural heritage.*

Bayramlar eng qadimiy davrdan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir [1, 5-b]. Bugungi rivojlangan davrda tabiiyki, ommaviy bayramlarda milliy an'analar va zamonaviy g'oyalarning birlashuvini kuzatishimiz mumkin.

Namangan xalqaro gullar festivalida milliy an'analar va zamonaviy g'oyalar sintezi masalasi eng muhim nazariy nuqtalaridan biridir. Chunki festival faqat tarixiy xotirani saqlovchi an'anaviy marosim emas, balki shu xotirani zamonaviy shahar makoni, turistik kommunikatsiya, raqamli media, kreativ dizayn va xalqaro madaniy muloqot vositalari orqali qayta talqin qiluvchi murakkab madaniy mexanizmdir.

“An'ana” o'tmishning aynan takrori emaski, uni har bir davrda yangi ijtimoiy ehtiyoj, estetik did, texnologik imkoniyat va kommunikativ muhitga mos ravishda qayta ishlab chiqiladi. Shu ma'noda Namangan gullar festivali tarixiy ildiz, mahalliy gulchilik tajribasi, xalq sayli ruhi va zamonaviy festival industriyasining birikish nuqtasidir.

A.Giddens zamonaviylik oqibatlarini tahlil qilar ekan, zamonaviy jamiyatda an'anaviy institutlarning o'z-o'zidan yo'qolib ketmasligini, aksincha, ular yangi sharoitda qayta tashkil etilishi va yangi funksiyalar olishini ko'rsatadi [2, 54-b]. Namangan festivalida ham gulchilik an'anasi zamonaviy turistik resurs, estetik ta'lim maydoni, shahar obrazi va xalqaro imij vositasiga aylanmoqda.

Festivalning zamonaviy modeli tarixiy xotirani muzeylashtirishga emas, balki ommaviy ishtirok, turistik tajriba va raqamli tarqalish orqali harakatdagi madaniy xotira sifatida namoyon qiladi. Bu jarayonda har bir mehmon nafaqat tomoshabin, balki madaniy birliklarni qabul qiluvchi, qayta talqin qiluvchi va tarqatuvchi subyektga aylanadi.

Milliy an'analar va zamonaviy g'oyalar sintezida eng muhim shart – autentiklikni saqlagan holda yangilanishdir. Agar festival faqat dekorativ zamonaviylashuvga berilib, mahalliy mazmuni yo'qotsa, u turistik ko'rgazmaga

aylanib qoladi. Aksincha, agar u zamonaviy kommunikatsiyadan voz kechsa, xalqaro auditoriya bilan muloqot qilish imkoniyatini boy beradi.

Festivaldagi milliy an'ana avvalo mahalliy gulchilik madaniyati, mehmondo'stlik, xalq sayli, oila va mahalla ishtiroki, milliy musiqa va raqs, milliy libos, hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi, tabiatga estetik munosabat hamda shaharni birgalikda obod qilish g'oyalarida namoyon bo'ladi.

M.Karimova tadqiqotida milliy-madaniy mazmunning nutqiy birliklari, xalq tajribasi va urf-odatlar orqali avlodan-avlodga o'tishi asoslanadi [3, 79-b]. Festivalda bunday mazmun sahna matnlari, shiorlar, gid izohlari, ekskursiya nutqlari, qo'shiqlar, maqollar, hikoyalar va xalqona ifodalar orqali mustahkamlanishi mumkin.

Zamonaviy g'oyalar esa festivalni yangi darajaga olib chiqadigan innovatsion omillardir: raqamli xarita, QR-kodli izohlar, ko'p tilli audio-gidlar, onlayn translyatsiya, ekologik laboratoriyalar, yoshlar volontyorligi, dizayn tanlovlari, kreativ yarmarka, turistik paketlar, media-strategiya va xalqaro hamkorlik shular jumlasidandir.

Madaniy transformatsiya jarayonida festival shahar makonini ham o'zgartiradi. Bayram kunlari oddiy ko'cha, xiyobon, bog', maydon va yo'laklar ramziy mazmun oladi; ular gul kompozitsiyasi, sahna, ko'rgazma, foto-hudud, muloqot maydoni va turistik marshrutga aylanadi. Shu tariqa shahar makoni vaqtincha, ammo kuchli madaniy tajriba hududiga aylantiriladi.

Namangan festivalida transformatsiya modelini to'rt asosiy qatlamda ko'rish mumkin: birinchisi – tarixiy-ma'naviy qatlam; ikkinchisi – estetik-badiiy qatlam; uchinchisi – turistik-iqtisodiy qatlam; to'rtinchisi – raqamli-kommunikativ qatlam. Ushbu qatlamlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida ishlaydi.

Birinchi qatlam – tarixiy-ma'naviy qatlam festivalning mahalliy xotira, gulchilik an'anasi, milliy qadriyatlar, mehmondo'stlik, oila va mahalla ishtiroki

bilan bog'liq asosini tashkil etadi. Ushbu qatlam festivalni oddiy dekorativ tadbirdan ajratib, unga madaniy chuqurlik beradi.

P.Nora xotira makonlari tushunchasi orqali jamiyat o'z tarixini muayyan joylar, timsollar va marosimlar orqali saqlashini ko'rsatadi [4, 24-b]. Namangan festivalida shahar bog'lari, gul ko'rgazmalari, ramziy kompozitsiyalar va xalq ishtiroki o'ziga xos xotira makoniga aylanadi.

Ikkinchi qatlam – estetik-badiiy qatlam gul kompozitsiyasi, rang uyg'unligi, sahna san'ati, libos, musiqa, raqs, foto zonalar, landshaft yechimlari va dizayn qarorlaridan iborat. Bu qatlam festivalni ko'rish, his qilish va eslab qolish imkonini beradi. Uning sifati mehmon taassurotiga bevosita ta'sir qiladi.

R.Florida kreativ sinf nazariyasida ijodkorlik, estetik muhit va innovatsion faoliyat shahar rivojining muhim omili ekanini asoslaydi [5, 80-b]. Namangan festivalida floristlar, dizaynerlar, arxitektorlar, rassomlar, musiqachilar, IT mutaxassislari va yoshlar birgalikda kreativ muhit yaratishi mumkin.

Uchinchi qatlam – turistik-iqtisodiy qatlam festivalning mehmonlarni jalb qilish, xizmat ko'rsatish, mehmonxona, transport, savdo, suvenir, gidlik, hunarmandchilik, mahalliy tadbirkorlik va investitsion qiziqish bilan bog'liq jihatlarini qamrab oladi. Festival qancha puxta boshqarilsa, uning hududiy iqtisodiyotga ta'siri shuncha kuchayadi.

D.Getz voqea-hodisa turizmini hududiy rivojlanish va tashrif tajribasi bilan bog'lab tushuntiradi [6, 428-b]. Namangan festivalini turistik-iqtisodiy qatlamda rivojlantirish uchun festival kalendari, mehmonlar segmentatsiyasi, xizmat standartlari, ko'p kunlik marshrutlar va festivaldan keyingi monitoring tizimi talab etiladi.

To'rtinchi qatlam – raqamli-kommunikativ qatlam festivalning internet, ijtimoiy tarmoq, mobil ilova, QR-kod, audio-gid, elektron arxiv, foto bank, media-kit va onlayn reklama orqali keng auditoriyaga yetishini ta'minlaydi. Zamonaviy festivalning ta'siri aynan raqamli izlar orqali festivaldan keyin ham davom etadi.

M.Castells tarmoq jamiyati nazariyasida axborot oqimlari zamonaviy ijtimoiy hayotning asosiy tuzilmasiga aylanishini ko'rsatadi [7, 459-b]. Namangan festivalida raqamli kommunikatsiya kuchaytirilsa, festival lokal tadbirdan milliy va xalqaro raqamli voqelikka aylanadi.

Ushbu to'rt qatlam asosida "Namangan festivalining madaniy transformatsiya modeli" quyidagicha ifodalanadi: tarixiy xotira – milliy an'ana – estetik ifoda – turistik tajriba – raqamli kommunikatsiya – xalqaro imij. Modelda har bir bosqich keyingisini tayyorlaydi va festivalning umumiy ijtimoiy-madaniy samaradorligini oshiradi.

Transformatsiya modelida til va kommunikatsiya alohida o'rin tutadi. Festival xalqaro maqomga ega bo'lgani sari uning matnlari, dasturlari, izohlari va reklamalari ko'p tilli, madaniyatlararo tushunarli va milliy mazmunni buzmaydigan shaklda bo'lishi lozim. Bu o'zbek tilining markaziy maqomini saqlagan holda xalqaro ochiqlikni ta'minlaydi.

R.Zaripovning bilingvizm va pluralingvizmga oid tadqiqoti ko'p tilli kommunikatsiya milliy identitetga zid emas, aksincha, uni xalqaro muloqotga olib chiqish vositasi ekanini ko'rsatadi [8, 107–120-b]. Namangan festivalida ham o'zbekcha mazmun ko'p tilli tarjima, audio izoh, subtitr va raqamli matnlar orqali kengroq auditoriyaga yetkazilishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan festivalda "xalqaro ko'rinish" yaratish uchun mahalliy mazmunni soddalashtirib yuborish xavfli. Masalan, milliy marosimlar faqat rangli tomoshaga aylantirilsa, ularning tarixiy va tarbiyaviy mazmuni yo'qoladi. Aksincha, har bir marosim va kompozitsiyaga qisqa, aniq, ko'p tilli madaniy izoh berilsa, an'ana zamonaviy kommunikatsiya orqali yanada kuchliroq ishlaydi.

Akmuradovning o'zbek tili uchun nutq sintezi va matnni qayta ishlashga oid tadqiqoti festivalning zamonaviy texnologik imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbek tilidagi audio-gid, ovozli yo'riqnoma, ko'zi ojizlar uchun ovozli tavsif, avtomatik subtitr va AI asosidagi ma'lumot tizimi festivalni yanada inklyuziv va xalqaro darajada qulay qiladi.

Madaniy transformatsiya, integratsiya va diffuziya jarayonlari etnomadaniy hodisalarni zamonaviy sharoitda saqlash va moslashtirish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv Namangan festivaliga ham tatbiq etiladi: festivalda mahalliy madaniyat o'z mohiyatini yo'qotmasdan, zamonaviy kommunikatsiya va turistik shakllarga moslashadi.

Madaniy diffuziya nuqtayi nazaridan festival mahalliy tajribani boshqa hududlar va xalqlar tajribasi bilan muloqotga kiritadi. Xorijiy floristlar, xalqaro delegatsiyalar, turistlar, blogerlar, san'atkorlar va dizaynerlar ishtiroki festivalga yangi shakllar olib kiradi, biroq bu shakllar mahalliy mazmun bilan uyg'unlashgandagina barqaror madaniy qiymat hosil qiladi.

Shunday qilib, Namangan xalqaro gullar festivali milliy an'ananing zamonaviy madaniy shaklga aylanishi jarayonini ifodalaydi. Unda tarixiy xotira estetik tajribaga, mahalliy qadriyat turistik mahsulotga, xalq sayli shahar obraziga, gulchilik an'anasi kreativ industriyaga, festival taassuroti esa raqamli kommunikatsiyaga aylanadi.

Namangan xalqaro gullar festivalida milliy an'analar va zamonaviy g'oyalar sintezi tarixiylik va zamonaviylikning dialektik birligini namoyon etadi. Festival tarixiy xotirani saqlaydi, lekin uni zamonaviy turizm, raqamli kommunikatsiya, shahar obrazi va kreativ industriya vositasida yangi auditoriyaga olib chiqadi.

Madaniy transformatsiya modeli festivalni to'rt qatlamli tizim sifatida ko'rsatadi: tarixiy-ma'naviy, estetik-badiiy, turistik-iqtisodiy va raqamli-kommunikativ qatlamlar o'zaro bog'liq holda ishlaganda festival barqaror madaniy institutga aylanadi.

Festivalni rivojlantirishda asosiy mezon autentiklik va innovatsiya muvozanatini saqlashdir. Mahalliy mazmun yo'qolsa, festival sun'iy ko'rgazmaga aylanadi; zamonaviy mexanizmlar yetishmasa, u xalqaro raqobatda ko'rinmay qoladi. Shu bois Namangan festivali o'zbekona mazmun va global festival standartlari uyg'unligida rivojlantirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraboyev U. *O'zbekiston bayramlari*. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1991. – 193 b.
2. Giddens A. *The Consequences of Modernity*. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – 186 p.
3. Karimova M. *Paremiologik birliklarning lingvokulturologik aspekti: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi*. – Andijon, 2022. – 126 b.
4. Nora P. *Between Memory and History: Les Lieux de Mémoire // Representations*. – 1989. – №26. – P. 7–24.
5. Florida R. *The Rise of the Creative Class*. – New York: Basic Books, 2002. – 404 p.
6. Getz D. *Event Tourism: Definition, Evolution, and Research // Tourism Management*. – 2008. – Vol. 29, №3. – P. 403–428.
7. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell, 1996. – 556 p.
8. Zaripov R. *Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi*. – Toshkent, 2021. – 137 b.

Bobur Abdurahimov

Namangan davlat universiteti
“An’anaviy xonandalik va cholg‘u ijrochilik”
kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: abdurahimovb65@gmail.com

YOSHLAR MADANIY TAFAKKURIGA TA’SIR ETUVCHI MAFKURAVIY VA AXBOROT TAHDIDLARINING KLASSIFIKATSIYASI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlar madaniy tafakkuriga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi mafkuraviy va axborot tahdidlarining ilmiy klassifikatsiyasi taqdim etiladi. Tahdidlar to‘rtta asosiy toifaga ajratilgan: g‘oyaviy-mafkuraviy, axborot-kommunikatsion, psixologik-manipulyativ va ijtimoiy-madaniy tahdidlar. Har bir toifa bo‘yicha aniq belgilar, ta’sir mexanizmlari va zararsizlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:** yoshlar, madaniy tafakkur, mafkuraviy tahdidlar, axborot tahdidlari, psixologik manipulyatsiya, media savodxonlik, milliy qadriyatlar.*

CLASSIFICATION OF IDEOLOGICAL AND INFORMATIONAL THREATS AFFECTING THE CULTURAL THINKING OF YOUTH

***Abstract.** This article presents a scientific classification of ideological and informational threats that negatively affect the cultural thinking of young people. The threats are categorized into four main groups: ideological-ideological threats, information and communication threats, psychological-manipulative threats, and socio-cultural threats. The study examines the specific characteristics, mechanisms of influence, and methods of neutralizing each category of threat.*

***Keywords:** youth, cultural thinking, ideological threats, information threats, psychological manipulation, media literacy, national values.*

Zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar madaniy tafakkuri ko‘plab murakkab ta’sirlarga duch kelmoqda. Ushbu ta’sirlarni tahlil qilishda “tahdid” tushunchasini to‘g‘ri anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Tahdid har doim ham

ochiq dushmanlik yoki bevosita zarar yetkazuvchi harakat shaklida namoyon bo'lmaydi – madaniy tafakkurga eng kuchli ta'sir ko'pincha sezilmaydigan, kundalik hayotga singib ketgan, jozibali va “oddiy ko'ngilochar” ko'rinadigan omillar orqali yuz beradi. Yoshlar ongida milliy qadriyatlarga sovuqlik, badiiy-estetik baholash mezonlarining soddalashuvi, til va tarixiy xotiraga befarqlik kabi holatlar birdan paydo bo'lmaydi – ular uzoq muddatli madaniy ta'sirlar natijasida shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar, ma'naviyat, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı siyosiy-huquqiy asoslar yaratilgan. “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonunda yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy kamoloti uchun sharoit yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan [1]. Biroq davlat siyosati mavjudligi tahdidlar yo'qligini anglatmaydi; aksincha, globallashuv va raqamli axborot muhitida tahdidlarning murakkablashuvi ushbu siyosatning yanada chuqurroq, zamonaviyroq va madaniyatshunoslik asosida ishlashini taqozo etadi.

Ushbu maqolada yoshlar madaniy tafakkuriga ta'sir etuvchi tahdidlarni tizimli tasniflash hamda ularning o'zaro bog'liqligi va amaliy oqibatlarini tahlil qilish maqsad qilib qo'yilgan.

Madaniy-identitar tahdidlar – Madaniy-identitar tahdidlar yoshlarning o'z milliy-madaniy mansubligini anglash, tarixiy xotira bilan bog'lanish, ona tili va madaniy merosga munosabat qobiliyatiga ta'sir qiladi. Ushbu tahdidning xavfi shundaki, u yoshni darhol o'z madaniyatidan voz kechishga undamaydi; aksincha, asta-sekin befarqlik hosil qiladi. Befarqlik esa ba'zan ochiq inkordan ham xavfliroqdir: ochiq inkor munozara uyg'otadi, befarqlik esa ichki uzilish hosil qiladi.

Bu tahdidlar uch asosiy shaklda namoyon bo'ladi. Birinchi shakl – tarixiy xotiraning yuzakilashuvi: yosh tarixiy shaxslar, jadidlar, qomusiy olimlar haqida nom darajasida biladi, ammo ularning bugungi hayot uchun qanday ma'no berishini anglamaydi. Ikkinchi shakl – ona tili va milliy nutq madaniyatining soddalashuvi: yosh ona tilida gapirib, murakkab fikrni ravon ifodalash, maqol va hikmatlarni

tushunish, mumtoz matnlarni o'qishda qiyinchilik sezadi. M.S.Karimova paremiologik birliklarni xalqning milliy tafakkuri, hayotiy tajribasi va madaniy kodini ifodalovchi birliklar sifatida tahlil qilib, maqollar yoshlar nutqidan chekinib borishi faqat so'z boyligining kamayishi emas, balki xalq tajribasining qisqarishi ekanini ko'rsatadi [2]. Uchinchi shakl – milliy madaniyatni zamonaviy hayotdan ajratib qo'yish: yosh milliy madaniyatni hurmat qilishi mumkin, lekin uni o'z kasbi, ijodi, raqamli faoliyati bilan bog'lamaydi.

Yangi O'zbekiston sharoitida madaniy-identitar tahdidlarning eng nozik ko'rinishi milliy madaniyatga tashqi hurmat saqlangani holda, uning ichki mazmunidan uzoqlashishdir. Bu jarayonni “madaniy masofa” tushunchasi orqali izohlash mumkin: masofa qisqa bo'lsa, yosh milliy qadriyatni faqat bilmaydi, balki uni anglaydi, his qiladi, zamonaviy hayotiga bog'laydi. Masofa uzoq bo'lsa, u milliy merosni hurmatli, lekin hayotdan uzoq hodisa sifatida qabul qiladi. B.B.Inatullayev madaniy integratsiya jarayonida identiklikni saqlash zarurligini ta'kidlaganida, aynan shu madaniy masofaning kengayib ketmasligi kerakligini ham ko'rsatadi [3].

Forobiyning ilm va fozil jamiyat haqidagi qarashlari, Beruniyning madaniyatlararo anglash an'anasi, Ibn Sinoning aql va axloqiy kamolot uyg'unligi, Navoiyning komil inson g'oyasi hamda jadidlarning ma'rifatparvarlik harakati –bularning barchasi tahdidlarga qarshi kurashda faqat tarixiy bezak emas, balki nazariy-ma'naviy resurs sifatida xizmat qiladi.

Aksiologik tahdidlar – Aksiologik tahdidlar, ya'ni qadriyatlar tizimiga ta'sir qiluvchi omillar yoshlarning nimani muhim deb bilishi, qaysi hayotiy maqsadni ustun qo'yishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatni qanday qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tahdidning eng xavfli tomoni shundaki, u ko'pincha ochiq rad etish orqali emas, qadriyatlar ierarxiyasini almashtirish orqali ishlaydi: bilim, mehnat, halollik, oila, Vatan, ma'rifat kabi tushunchalar sekin-asta ikkinchi darajaga tushadi; ularning o'rnini tez mashhurlik, tashqi ko'rinish, iste'mol va virtual obro' egallaydi. M.A.Mavrulovanning milliy-madaniy qadriyatlar haqidagi qarashlarini bu yerda qo'llash o'rinlidir: qadriyat jamiyatni ichdan tutib turuvchi ko'rinmas

poydevordir – u buzilganda bino darhol qulamaydi, lekin ichki mustahkamlik yo‘qola boshlaydi [4]. Yoshlar madaniy tafakkuridagi aksiologik tahdidlar ham shunday ishlaydi: ular avval so‘zlarda emas, mezonlarda o‘zgarish yasaydi. Aksiologik tahdidlarning bir ko‘rinishi “inson qadri” tushunchasining torayishidir. Yangi O‘zbekiston siyosatida inson qadri markaziy g‘oya sifatida ilgari suriladi – bu g‘oya insonni uning sha’ni, erkinligi, ma’naviy kamoloti, bilimga intilishi va axloqiy mas’uliyati bilan baholashni talab qiladi [5]. Aksiologik tahdidlar esa inson qadrini tashqi ko‘rsatkichlarga bog‘laydi: kim ko‘proq ko‘rinadi, kim ko‘proq iste’mol qiladi, kim ko‘proq kuzatuvchiga ega. Bu torayish yoshlar ongida insoniylik mezonlarini susaytiradi. Iste’mol madaniyati aksiologik tahdidlarning eng faol kanallaridan biridir. Muammo xarid qilish yoki zamonaviy mahsulotlardan foydalanishda emas – muammo iste’mol hayotning markaziy ma’nosiga aylanishidadir. Brendlar, hashamat, tashqi joziba “muvaffaqiyat”ning asosiy belgisiga aylanganda, mehnat, bilim, badiiy-estetik yetilish va fuqaroviy burch ikkinchi darajaga siljishi muqarrar. Axborot-psixologik tahdidlar – Axborot-psixologik tahdidlar yoshlarning axborotni qabul qilish, tahlil qilish, ishonish va xulosa chiqarish jarayonlariga ta’sir qiladi. Ular soxta ma’lumot, manipulyativ kontent, vahima uyg‘otuvchi xabarlar, algoritmik takrorlar, emotsional bosim va ijtimoiy tarmoqlardagi guruh bosimi orqali namoyon bo‘ladi. J.J.Obloqulov axborot globallasuvi jarayonida o‘spirinlar dunyoqarashidagi salbiy o‘zgarishlarni psixodiagnostik yondashuvlar orqali o‘rganib, axborotning ko‘pligi tafakkur boyligi degani emasligini isbot etadi [6]. Axborot boylikka aylanishi uchun tahlil, saralash va qadriy baholashdan o‘tishi zarur. Zararli axborot yoshlar ongida uch mexanizm orqali ishlaydi: birinchisi – emotsional egallash (kontent tahlilga undamaydi, faqat his uyg‘otadi); ikkinchisi – takroriy me’yorlashtirish (bir xil obraz qayta-qayta ko‘rsatilganda u odatiy holga o‘xshab qoladi); uchinchisi – kontekstni uzish (murakkab voqea yoki tarixiy jarayon qisqa va biryoqlama shaklda beriladi). N.S.Mo‘minova mediakompetentlikni axborotni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va undan ongli foydalanish qobiliyati bilan bog‘laydi [7]. Yoshlar madaniy

tafakkurini himoyalashda media savodxonlik zamonaviy madaniy immunitetning asosiy sharti hisoblanadi. Telefon ishlatish yoki ijtimoiy tarmoqqa kirish media savodxonlikni anglatmaydi – haqiqiy media savodxonlik kontentning maqsadini ko'rish, axborot manbasini tekshirish, fakt va talqinni farqlash, emotsional manipulyatsiyani sezishdan boshlanadi. Axborot-psixologik tahdidlar faqat “internet xavfi” degan ibora bilan yopib yuborilmasligi kerak. Internet bilim, ijod, ta'lim, san'at va madaniyatlararo muloqot uchun ulkan imkoniyat yaratadi. Xavf axborot oqimini tanqidiy saralay olmaslikda, algoritmik tavsiyalarning yashirin ta'sirini anglamaslikda namoyon bo'ladi. Yosh internetdan foydalanyaptimi yoki internet yoshning diqqatini boshqaryaptimi – farq aynan shunda. Badiiy-estetik tahdidlar – Badiiy-estetik tahdidlar yoshlarning san'at, adabiyot, musiqa, kino, teatr va madaniy obrazlarni qabul qilish mezonlariga ta'sir qiladi. Bu tahdid san'atning o'rnini shovqin, obrazning o'rnini tashqi effekt, ma'noning o'rnini ommaboplik, badiiy chuqurlikning o'rnini tezkor emotsiya egallashida ko'rinadi. Ushbu tahdid ko'ngilochar mahsulotlar orqali kirib kelgani uchun darhol tanilmaydi. P.Bourdieu madaniy kapital tushunchasi orqali badiiy-estetik baholash qobiliyati ijtimoiy muhit va ta'lim bilan bog'liq ekanini isbotlaydi [8]. Yoshda kitobxonlik, teatrga borish, san'atni muhokama qilish, milliy musiqa bilan tanishish, badiiy matnni tahlil qilish tajribasi yetarli bo'lmasa, u ommaviy kontentning tezkor ta'siriga ko'proq beriladi. J.J.Aytmuratova yoshlarni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi – bu fikr badiiy-estetik tahdidlar tasnifida asosiy mezonga aylanadi [9]. Haqiqiy san'atni anglagan yosh shovqin va ma'no, effekt va obraz, ko'ngilocharlik va badiiy-estetik qiymat o'rtasidagi farqni ko'radi. Bu farqni anglamagan yosh uchun esa har qanday ommabop mahsulot madaniy qiymatga ega bo'lib ko'rinishi mumkin. Q.B.Panjiyev o'zining tadqiqotida milliy musiqa va xalq qo'shiqchiligining yoshlarni ma'naviy-estetik tarbiyalashdagi ahamiyatini asoslab beradi [10]. Maqom, xalq qo'shig'i, dostonchilik va marosim musiqasi yoshga tovush, ohang, so'z, tarix va axloqiy g'oya uyg'unligini his qilishni o'rgatadi – bu esa badiiy-estetik tahdidlar oldida ichki muvozanat hosil qiladi.

Diniy-mafkuraviy tahdidlar – Diniy-mafkuraviy tahdidlar yoshlarning diniy savodxonligi, e'tiqodiy qarashlari, bag'rikenglik darajasi va milliy-ma'naviy qadriyatlarga munosabatiga ta'sir qiladi. Bu tahdidlar missionerlik, radikal diniy talqinlar, diniy ksenofobiya, murosasizlik, ekstremistik g'oyalar va diniy niqobdagi manipulyatsiya shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu tahdidning murakkabligi shundaki, u yoshning eng nozik ichki ehtiyojlariga – ma'no, e'tiqod, adolat, poklik va haqiqat izlash ehtiyojlariga murojaat qiladi.

E.K.Ahmadov missionerlik harakatining milliy-ma'naviy taraqqiyotga tahdidini tahlil qilib, diniy niqobdagi ta'sirlar yoshlar ongiga bilvosita ta'sir qilishi mumkinligini tasdiqlaydi [11]. Savodsizlik bor joyda har qanday keskin talqin "haqiqat" sifatida qabul qilinishi mumkin – ilmiy va ma'rifiy asoslangan diniy tushuncha esa yoshni manipulyativ ta'sirlardan himoya qiladi.

A.R.Nosirova diniy ksenofobiya va murosasizlik globallashtirish sharoitida ijtimoiy-madaniy xavfga aylanishini ko'rsatadi [12]. Diniy-mafkuraviy tahdid faqat begona g'oyani qabul qilishda emas, boshqa madaniyat va e'tiqodga nisbatan nafratning kuchayishida ham ko'rinadi. Yetuk madaniy tafakkur e'tiqodda sobitlik va muloqotda bag'rikenglikni birlashtira olishi zarur.

Kommunikativ tahdidlar – Kommunikativ tahdidlar yoshlarning muloqot madaniyati, bahslashish odobi, ijtimoiy tarmoqdagi xulqi va boshqaga munosabatiga ta'sir qiladi. Kiberbulling, nafrat nutqi, haqorat, masxara, shaxsiy hayotga tajovuz, jamoaviy bosim va anonim qo'pollik kommunikativ tahdidlarning asosiy ko'rinishlaridir.

N.M.Mullabayeva maktabdagi xavfsiz muhitni shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida tahlil qilib, kiberbullingning salbiy oqibatlarini yoritib beradi [13]. Kiberbulling nafaqat yoshning ruhiyatiga zarar yetkazadi – uning madaniy oqibati ham jiddiy: muloqotni qo'pollashtiradi, boshqani inson sifatida ko'rish qobiliyatini susaytiradi, jamoaviy mas'uliyatni pasaytiradi. Yoshlar orasida nafrat nutqi normal holatga aylansa, madaniy tafakkurning axloqiy-kommunikativ qatlami izdan chiqadi.

Madaniy tafakkur faqat ichki bilim emas – u munosabatda, soʻzda, bahsda, izohda, hazilda va tanqidda koʻrinadi. Shuning uchun kommunikativ tahdidlar alohida toifada baholanishi zarur.

Institutsional tahdidlar – Institutsional tahdidlar bevosita kontent yoki gʻoya shaklida emas, yoshlar bilan ishlovchi institutlar faoliyatidagi uzilish, sustlik, formalizm yoki bir-biri bilan bogʻlanmaganlik natijasida yuzaga keladi. Oila, mahalla, taʼlim muassasalari, madaniyat markazlari, kutubxonalar, teatrlar, muzeylar va yoshlar tashkilotlari oʻrtasida uzviylik boʻlmasa, yoshlar turli parokanda taʼsirlar orasida qoladi.

M.M.Raxmatova yoshlar maʼnaviy salohiyatini yuksaltirishda siyosiy institutlar va jamoat tuzilmalari oʻrnini asoslab, davlat va jamoat tuzilmalari hamkorligining zarurligini koʻrsatadi [14]. Institutsional tahdidning eng xavfli koʻrinishi – yoshlar bilan ishlashning formal tus olishidir: tadbir bor, lekin taʼsir yoʻq; maʼruza bor, lekin muloqot yoʻq; kutubxona bor, lekin mutolaa muhiti yoʻq; madaniyat markazi bor, lekin yosh uchun jozibador mazmun yoʻq. Bunday holatda institut mavjud boʻlsa-da, u madaniy tafakkurga yetarli taʼsir koʻrsatmaydi.

Raqamli-algoritmik tahdidlar – Raqamli-algoritmik tahdidlar zamonaviy tasnifda eng yangi, biroq eng jiddiy yoʻnalishlardan biridir. Bugungi raqamli platformalar yoshlar tafakkuriga nafaqat kontent, balki tavsiya mexanizmlari orqali ham taʼsir qiladi: algoritmlar yoshga oldin koʻrgan, yoqtirgan yoki uzoqroq tomosha qilgan kontentiga oʻxshash materiallarni ochib beradi. Bu jarayon yoshning tanlov maydonini sekin toraytiradi. Yosh oʻzini erkin tanlayotgandek his qilishi mumkin, ammo aslida uning eʼtibori platforma tomonidan shakllantirilayotgan boʻladi.

Raqamli-algoritmik tahdidlarning asosiy oqibati tanlov maydonining torayishidir. Faqat kulgili, shovqinli yoki isteʼmolchilikka asoslangan kontentni koʻrgan yoshga shu yoʻnalishdagi mahsulotlar koʻproq tavsiya etiladi – natijada u sanʼat, adabiyot, tarix, ilm, milliy meros va badiiy-estetik tajribadan uzoqlashishi mumkin. Bu jarayon tashqi majburlashsiz sodir boʻlgani uchun uni aniqlash qiyinroq.

Oldinlari mafkuraviy targ'ibot ko'rinib turardi; endi tavsiya mexanizmi ko'rinmas tarzda ishlaydi. Bu madaniy xavfsizlikning yangi bosqichidir.

Umuman olganda, yoshlar madaniy tafakkuriga ta'sir etuvchi tahdidlarning eng xavflisi bitta alohida kontent, bitta g'oya yoki bitta tashqi oqim emas. Eng xavfli holat – yoshning ichki madaniy mezonlari shakllanmay qolishidir. Ichki mezon bo'lmasa, har qanday tashqi ta'sir xavfli bo'lishi mumkin; ichki mezon kuchli bo'lsa, yosh global madaniyat bilan muloqotda ham o'zini yo'qotmaydi.

O'zbekiston sharoitida tahdidlarni tasniflashning amaliy ahamiyati shundaki, har bir tahdid turiga bir xil usul bilan javob berib bo'lmaydi. Madaniy-identitar tahdidga javob tarixiy xotira va ona tilini kuchaytirish orqali beriladi; aksiologik tahdid qadriyatlar tarbiyasini talab qiladi; axborot-psixologik tahdid media savodxonlikni; badiiy-estetik tahdid san'at va adabiyot bilan jonli muloqotni; diniy-mafkuraviy tahdid ma'rifiy savodxonlikni; kommunikativ tahdid raqamli etikani; institutsional tahdid esa tizimli hamkorlikni taqozo etadi.

Demak, tahdidlar tasnifining yakuniy maqsadi qo'rqitish emas – madaniy tafakkurni qaysi qatlamlarda mustahkamlash kerakligini aniqlashdir. Yoshlar madaniy tafakkuri bir butun tizim bo'lgani uchun unga ta'sir qiluvchi tahdidlar ham bir-biridan ajralgan holda ishlamaydi; ularni tizimli anglash esa samarali javob choralarini ishlab chiqishning zaruriy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.* – Toshkent, 2016.
2. *Karimova M. Paremiologik birliklarning milliy-madaniy semantikasi.* –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 180 b.
3. *Inatullayev B. Madaniy integratsiya sharoitida milliy identiklikni saqlash.* – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 200 b.
4. *Mavrulov M. Milliy-madaniy qadriyatlar tizimi va uning jamiyatdagi o'rni.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – 135 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston – inson qadri va manfaatlarini ustuvor qo'yuvchi davlat" konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.
6. Obloqulov J. Axborot globallashuvi sharoitida o'spirinlar dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlar: psixodiagnostika va psixokorreksiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2022. – 180 b.
7. Mo'minova N. Yoshlarda mediakompetentlikni shakllantirish. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2023. – 140 b.
8. Bourdieu P. *The Forms of Capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education*. – New York: Greenwood Press, 1986. – P. 241–258.
9. Aytmuratova J. Yoshlarni san'atni anglashga o'rgatish metodologiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – 220 b.
10. Panjiyev Q. *Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda xalq qo'shiqchiligi merosidan foydalanish: Doktorlik dissertatsiyasi*. – Toshkent, 2023.
11. Ahmadov E. *Missionerlik harakatining milliy-ma'naviy taraqqiyotga tahdidi*. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2021. – 120 b.
12. Nosirova A. *Diniy ksenofobiya va murosasizlikning ijtimoiy-madaniy xavflari*. – Toshkent, 2022. – 130 b.
13. Mullabayeva N. *Bullying va kiberbulling: maktab muhitida xavfsizlik*. – Toshkent, 2023. – 120 b.
14. Raxmatova M. *Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda siyosiy institutlarning roli*. – Toshkent, 2022. – 125 b.

Anora Tursunaliyeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti
E-mail: anoraturunaliyeva8@gmail.com*

SHARQ VA G'ARB FALSAFIY TA'LIMOTIDA MADANIYAT MASALALARI TALQINI

***Annotatsiya.** Maqola Sharq va G'arb olimlari, allomalari, faylasuflari, shoir va yozuvchilari ijtimoiy-falsafiy ta'limotida tarixan shakllangan madaniyat masalalari talqini borasidagi tafakkuri, ilmiy qarashlari talqinini o'rganishga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** madaniyat, tushuncha, qarash, ijtimoiy falsafa, Sharq, G'arb, evolyutsiya, yondashuv, tafakkur, majoz, ramz.*

INTERPRETATIONS OF CULTURAL ISSUES IN EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHICAL DOCTRINES

***Abstract.** This article is devoted to the study of the interpretations, scientific views, and reflections on cultural issues that have historically developed in the socio-philosophical teachings of Eastern and Western scholars, thinkers, philosophers, poets, and writers.*

***Keywords:** culture, concept, view, social philosophy, East, West, evolution, approach, thinking, metaphor, symbol.*

Sharq va G'arb falsafiy qarashlarida "madaniyat" tushunchasining tarixiy rivojlanish evolyutsiyasini madaniyatshunoslik ilmi kesimida o'rganish masalalari bugun butun dunyoda kechayotgan globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida eng murakkab mavzular qatorida tilga olinmoqda. Negaki, bunday masalalar eng avvalo insoniyatning tafakkurida o'zligini anglash, olamni, borliqni tizimli ilmiy idrok etish – bilish jarayoni bilan bog'liq holda asrlar davomida shakllanib kelgan va hozirda ham tobora dolzarblashib bormoqda. Bu borada turlicha yondashuvlar, qarashlar, bahs-munozaralar, ilmiy yondashuvlar va ularning bir-biriga o'xshamaydigan ilmiy talqinlari bor.

Insoniyatning madaniyat beshigi sifatida qaralayotgan Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ko'proq tarixan shakllangan azaliy ma'naviy qadriyatlarga, mahalliy an'analarga va axloqiy normalarga ehtiyotkorlik bilan yondashish ustunlik qiladi. Unda bobolar o'g'itlari, nasihatgo'ylik, pandnomalar, odobnomalar, siyosatnomalar va shohnomalarga yashiringan shartlilik, ramziylik va majoziy sifatlar yetakchilik qiladi. Madaniyat masalalariga munosabatda ibratomuz hikoyat va rivoyatlardan tarbiyaviy unsurlar izlanadi, ulardan xulosa chiqarishga harakat qilinadi. Xalqimizda oilaviy munosabatlar, jamiyatda o'zini tutish odobi (Qobusnoma va boshqa manbalar), jamiyat a'zolarining barcha tabaqalari uchun ishlab chiqilgan axloqiy normalar, me'yorlar amal qilinadi. Oila, mahalla, shahar va saltanat ijtimoiy-madaniy va axloqiy qiyofasi tizimli tarzda uzviy bog'langanligi kuzatiladi.

Sharq ijtimoiy-falsafiy ta'limotida, xususan, O'zbekistonda madaniyat masalasi talqiniga ko'ra iste'molda arabcha "madaniyat" atamasi qo'llanilib kelinadi. Mazkur atama o'zbek tilida shaharlik, tartiblilik ma'nosini anglatadi. Azaldan arablar ijtimoiy-maishiy turmush tarziga ko'ra ikkiga ajratilgan. "Badaviylar" (ko'chmanchi tarzda dasht-u sahrolarda yashovchi sahroyi turmush kechiruvchi qabilalardan iborat bo'lgan. Madaniylik esa asosan shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan qabilalar nazarda tutilgan. Shuningdek, jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasiga nisbatan ham qo'llaniladi. Ayni paytda xalqimiz turmush tarzi, ilmiy va ijodiy faoliyati, moddiy va ma'naviy boyliklari kabi barcha sohalarni keng qamrab oladi.

Bugungi kunda zamondoshlarimiz tomonidan keng qo'llanilib kelinayotgan mazkur atamaning ma'no doirasi biroz kengaygan bo'lib, axloqiy va ruhiy teranlik, komil inson orzusi, ichki muvozanat bilan bog'langan holda talqin qilinib kelinadi. Xitoyliklarning konfutsiylik ta'limotidagi "Li" atamasi ham o'zbek tilidagi tartib, odob-axloq normalari degan ma'nolarni anglatadi va shunga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib Sharqdagi aksar xalqlarda madaniyat masalasi insonning jamiyatdagi o'rini bilishi, axloqiy normalar va me'yorlarga amal qilishi va ajdodlar

an'analarini asrashi bilan bog'liq falsafiy qarashlarni o'z ichiga olgan holda ilmiy talqin qilinadi.

Hind falsafasida buddaviylik g'oyalari orqali ma'naviy madaniyatni yuksaltirishga e'tibor qaratiladi. Bu masala buddaviy rohiblarining "Dxarma", "Prinirvana jataka" turkumidagi g'oyaviy qarashlari asos qilib olingan. Ushbu atamalar burch ma'nosida qo'llanilib, insonlarning ruhiy poklanish orqali oliy haqiqatga erishishi "Nirvana" holatiga o'tishi yuksak madaniyatlilik darajasi sifatida talqin qilinadi [3, 27–89-b].

Qadimgi va ilk o'rta asrlarda Otashparastlarning muqaddas kitobi "Avesto" da ma'naviy madaniyat masalalari ilgari suriladi. Unda dualistik ta'limot –kun va tun, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim, erkak va ayol, osmon va yer kabi masalalar olamning ikki qutbi kabi tasavvur qilinadi. Undagi asosiy obrazlar – Axuramazda va Ahriman o'rtasidagi azaliy qarama-qarshiliklar orqali go'yo madaniyat va madaniyatsizlik g'oyalari ishora qilinadi [2, 38–47-b].

Birinchi renessans – Islom Uyg'onish davri (IX–XII asrlar)da yashab o'tgan Ibn Sino [5, 87–98-b], Beruniy [6, 367-b] kabi mutafakkirlar madaniyatga oid o'zining qarashlarini "Fozil odamlar shahri" konsepsiyasi bilan bog'lagan holda talqin qilganlar. Ayniqsa Forobiy madaniyatni jamiyatning ilm-fan va yuksak axloq normalarini asosli birlashuvidan yuzaga kelishini alohida ta'kidlab o'tadilar [4, 36–55-b]. Yusuf Xos Hojib: "Qutadg'u bilig" asarida madaniyatni davlat boshqaruvi va shaxsiy fazilatlarining sintezi sifatida talqin qilgan [7, 78-b].

Ikkinchi renessans – Temuriylar davrida madaniyat me'morchilik, san'at diniy bag'rikenglik orqali davlat qudratining ramziga aylanadi. Bu davrlarda islom falsafiy-estetik qarashlari madaniyat rivojida muhim o'rin tutadi. Markazlashgan yirik saltanatda madaniy taraqqiyot misli ko'rilmagan darajada ravnaq topadi. Movarounnahr madaniyat va san'atning barcha soha va turlari rivojlangan yirik mamlakatga aylanadi.

O'zbek xonliklari va undan keyingi davrlarda yuzaga kelgan ma'rifatparvarlar xalqimiz etnomadaniyatini yuksaltirishda ilm-ma'rifatli avlodni tarbiyalash

masalasi jiddiy e'tibor qaratadilar. Shu maqsadda mahalliy aholining ilm-maorif va milliy madaniyatli bo'lishiga jiddiy kirishadilar. Jadidlar falsafasida ham xalqni madaniyatli, ma'rifatli qilish, milliy qadriyatlarni yuksaltirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi.

Mavzuning rivojlanish evolyutsiyasi – G'arb ijtimoiy-falsafiy ta'limotida madaniyat masalalariga alohida yondashuvlar bo'lganligi kuzatiladi. G'arbda "madaniyat" so'zi o'rnida lotincha "cultura" atamasi ishlatiladi. Mazkur atama o'zbek tilida ishlov berish, parvarish qilish degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha dastlab tabiatga ishlov berish, keyinchalik esa inson aqlini shakllantirish ma'nosini anglatganligi manbalardan ayon. G'arb olimlari falsafiy qarashlarida madaniyat – bu insonning tabiat oldidagi himoya qatlami va o'z-o'zini ifoda etish tili sifatida talqin qilinadi.

Umuman, yevropalik olimlar qarashlarida bu borada anchagina farqli jihatlari bor. G'arb falsafiy qarashlarida ratsionallik va ijtimoiy tuzilmaga asosiy urg'u beriladi. Unda asosiy maqsad to'g'ridan-to'g'ri pardaga o'ramasdan ochiq ifodalanadi. Ammo har ikkala holatlarda ham tarixan shakllangan ijtimoiy-falsafiy mushohadalar madaniy qarashlar vaqt o'tishi bilan bir-biridan ta'sirlanib, g'oyaviy jihatdan takomillashib, shakl va mazmun jihatdan boyib kelgan. Shunday bo'lsa-da mavzuga oid masalalar tarixiy evolyutsiyaning asosiy bosqichlari va konseptual farqlari alohida ajralib turadi.

G'arbiy Yevropa olimlari qarashlarida madaniyat masalalarining rivojlanish dinamikasida turli o'zgarishlar bo'lganligi aniqlandi. Ilm-fani rivojida XVIII asr – "ma'rifatparvarlik davri"da madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari ajrala boshlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'rifatparvar faylasuflar madaniyatni insonning "erkin irodasi" va axloqiy qonunlarga bo'ysunishi deb bilsa, J.Russo madaniyatni (sivilizatsiyani) tabiiylikdan uzoqlashish deb tanqid qilgan. Har ikkisidagi qarashlar keyinchalik madaniyatga nisbatan munosabatning xilma-xilligini ta'minlagan [13, 30-b].

Keyingi davrlar – XIX–XX asr klassik falsafasida ham madaniyat masalalariga oid qarashlar kuzatiladi. Bu davrda yashagan O.Shpengler madaniyatni tirik organizmga o'xshatgan. Uning fikricha, madaniyat o'z gullash davrini yashab bo'lgach, sovuq va ruhsiz “sivilizatsiya”ga aylanadi [12, 279-b]. Umuman, g'arbda qadimgi yunon madaniyati va mifologiyasi Sharqda esa islom madaniyati va ilmining shakllanishi va rivoj topishi jamiyat hayotida turli madaniy tamaddunlarning vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qilganligi tarixdan ayon. Ammo IX–XII asrda shakllangan ilm-fan va madaniyat o'z navbatida G'arb Uyg'onishiga manba bo'lib xizmat qilganligi, shubhasiz. Sharq donishmandligini G'arbning donishmandlari doimo e'tirof etganlar, ularni ishlarini tarjima qilib, o'z universitetlarida keng qo'llaganlar. Irlandiyalik islomshunos olim M.Uott “Islomning O'rta asr Yevropasiga ta'siri” asarida bu haqdagi haqiqatni tan olib, “Yevropaliklar musulmon madaniyatidan, ...ayniqsa, falsafa va tibbiyot sohasida, o'zlarining qanchalik qarzidor ekanliklarini his qilganlaricha yo'q. Ko'pincha musulmonlar madaniyatining ijobiy ta'siri va ko'lamini pasaytirish, hatto tamoman esga olmaslikka urinamiz. Bizning musulmonlar bilan yaxshi munosabatimiz ularning oldida qanchalik qarzidor ekanligimizni tan olishga majbur qiladi. Buni yashirish yoki tan olmaslik soxta g'ururdan boshqa hech narsa emas”, – deb yozgan edi [11, 16-b]. Insoniyatni doimo ma'naviy va madaniy boyliklar bir-birlariga yaqinlashtirib kelgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari va shoirlari barkamol inson obrazini yaratar ekanlar, unda bilim, ezgu tuyg'ular va yuksak xulq bir-birini to'ldiradigan tarzda o'zaro uzviy, uyg'un birlikda rivojlanganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Sharq ma'naviy madaniyati uzoq vaqtlar G'arbnikidan asosan his-tuyg'ularning serjiloligi, beqiyos.

G'arb falsafasi va madaniyati haqidagi qarashlar evolyutsion xarakterga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida G'arbiy Yevropada “oqilona mantiqiylik” va uning natijasi bo'lgan ilmiy- texnikaviy jarayonlarning salbiy oqibati o'laroq krizis jarayonlarining chuqurlashib ketganligi aniqlandi.

Krizisning ruhiy xarakterga egaligi masalalariga Z.Freyd, E.Fromm, L.Vigotskiy, K.Xorni, A.Adler, V.Petrenko [8, 45–75-b] va boshqalar maxsus tadqiqot o'tkazganlar.

XX asr tadqiqotlarida esa inson ommaviy madaniyatida ma'naviy yemirilishning shakllanishiga bag'ishlangan masalalariga alohida tahlil qilingan. Ommaviy madaniyatdagi noinsonparvarlashuv faktori masalasiga munosabat bildirilgan. Frankfurt maktabi namoyandalarining nazariy ishlarida inson buhroniy ma'naviy transformasiyasi masalalari o'rganildi. Ular bunday azaliy va abadiy transformatsiyani ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq, deb qaradilar [9].

Sharq va G'arb falsafiy qarashlarida madaniyat masalalarini bir-biridan mutlaqo alohida ijtimoiy hodisa sifatida tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, barcha yunon shoirlari va faylasuflari azaldan Sharq ma'naviy madaniyatidan bahra olib kelganlar. Sharq mutafakkirlarining ko'pchiligi islom ta'limotini falsafiy asoslashda oldingi dinlar va ta'limotlarning g'oyalarini o'rganib, ulardan ta'sirlanganlar. G'arb-u Sharq madaniyatining oliy sintezini amalga oshirish uchun qulay sharoit ayni bizning millatimizda mavjud. Ayni shunday sintez bizga asl ma'naviyatni tez fursatda qayta tiklash uning qadriyatlariga o'z hayotimizda og'ishmay amal qilish imkonini beradi. Shuning bilan bir qatorda qanday buyuk ta'limotga tayanib kelganini ko'rsatadi. G'arb mamlakatlari esa, aksincha, adolatli taqsimot holatiga bir tomondan shaxsning individual manfaatdorligini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa, yalpi tenglikka erishish orqali yetishishga intilib kelgan.

Yuqoridagilarga tayanib aytish mumkinki, qadim Sharq va G'arb mutafakkirlari, donishmandlari va shoirlarining falsafiy ta'limotida madaniyat masalalari alohida o'rin tutadi. Mavjud manbalar tahliliga ko'ra ularda madaniyatning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish dinamikasiga ko'ra bir-birini to'ldiradigan va farqlanadigan talaygina jihatlari bor. Bu masalalar evolyutsion xarakterga ega bo'lib, asrlar davomida takomillashib, bizning kunimizgacha yetib kelgan.

Dunyoda hech bir g'oya shunchaki paydo bo'lmagan. Ularning negizida ma'lum darajada insoniyat tafakkurini takomillashtirishga xizmat qiladigan fikr-mulohazalar yotadi. Faylasuflar ilgari surgan azaliy g'oyalar ham shunday maqsadlarga xizmat qiladi. Gohida G'arb madaniyatni sharqdan o'rgangan bo'lsa, ayrim hollarda bobokalonlarimiz G'arb faylasuflari shoirlari va allomalari asarlarini o'rganish orqali katta madaniy inqilob yasashga erishganlar. Ya'ni insoniyat madaniyati evolyutsiyasida ularning o'rni va ahamiyati nihoyatda beqiyos. Shunday ekan mazkur ma'anaviy merosni o'rganish yangi O'zbekiston sharoitida barkamol avlodni shakllantirishda judayam muhim. Zero, intellektual salohiyatli, ma'rifatli va madaniyatli yoshlar vatanimiz kelajagini belgilovchi, uchinchi renessans poydevorini ma'naviy mustahkamlovchi avlodlardir.

Sharq va G'arb falsafiy ta'limotlarida madaniyat masalalari turlicha yondashuvlar asosida talqin etilgan bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan. Sharq falsafasida madaniyat ko'proq ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, insonning ichki kamoloti, ezgulik va komillik g'oyalari bilan bog'liq holda izohlanadi. G'arb falsafasida esa madaniyat inson faoliyatining mahsuli, ijtimoiy taraqqiyot omili hamda ilm-fan va texnologik rivojlanish bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sharq va G'arb madaniyatga oid qarashlari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro boyitadi va to'ldiradi. Zamonaviy globallashuv sharoitida ushbu falsafiy merosni qiyosiy o'rganish madaniyatning mohiyatini chuqurroq anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Demak, Sharq va G'arb falsafiy ta'limotlarida madaniyat masalalarining talqini insoniyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi boy ilmiy-falsafiy meros sifatida bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобринский А. О некоторых символических знаках, общих в первобытной орнаментике всех народов Европы и Азии. – Москва: Т-во тип. И. Мамонтова, 1902. – 120 с.
2. Мэри Б. Зороастрийцы: верования и обычаи / пер. с англ. и примеч. И.М.Стеблин-Каменского; послесл. А.Грантовского. – 2-е изд., испр. – Москва: Наука, 1988. – 301 с. (АН СССР, Ин-т востоковедения).
3. Pidayev Sh. Qadimgi O'zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 120 b.
4. Farobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi, 1993. – 330 b.
5. Ибн Сино. Тиб қонунлари. Уч жилдлик. 1 жилд. – Тошкент: Медицина, 1992. – 230 б.
6. Беруний А. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Асарлар. 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – 486 б.
7. Юсуф хос Хожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Чўлпон, 1917. – 200 б.
8. Szasz T. Karl Kraus and the Soul-Doctors: A Pioneer Critic and His Criticism of Psychiatry and Psychoanalysis. Webster University, 2004. URL: <https://www.webster.edu/> (Accessed: 12 May 2012). Archived from the original on 9 April 2012.
9. Фромм Е. Иметь или быть? – Москва: Прогресс, 1976. – 228 с.
10. Фридрих Н. Смешанные мнения и изречения (*Vermischte Meinungen und Sprüche*). – Chemnitz: E. Schmeitzner, 1879. – 164 с.
11. Уотт У. Влияние ислама на средневековую Европу / пер. с англ.; предисл. А.В.Сагадеева. – Москва: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1976. – 128 с.
12. Шпенглер О. Закат Европы. — Москва: Наука, 1993. – 592 с.
13. Jean-Jacques Rousseau // Internet Speculative Fiction Database (ISFDB). URL: <https://www.isfdb.org/cgi-bin/ea.cgi> (Accessed: 8 June 1995)

Aziza Davronova

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti magistranti
E-mail: azizadavronova92@gmail.com*

MADANIY SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR: HUQUQIY-TASHKILiy ASOSLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda madaniy sohada amalga oshirilgan islohotlarning huquqiy va tashkiliy asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, normativ-huquqiy hujjatlar, institutsional o'zgarishlar hamda madaniyat va san'at tizimining rivojlanish istiqbollari yoritiladi. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlar, davlat siyosati, institutsional o'zgarishlar hamda madaniyat va san'at tizimini rivojlantirish istiqbollari o'rganildi. Natijada madaniy islohotlarning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** madaniyat, islohotlar, tashkiliy tizim, davlat siyosati, huquqiy asos, madaniy siyosat, madaniy meros, tashkiliy tizim, davlat siyosati.*

LEGAL AND ORGANIZATIONAL FRAMEWORKS OF REFORMS IMPLEMENTED IN THE CULTURAL SECTOR

***Abstract.** This article provides a scientific analysis of the legal and organizational foundations of reforms implemented in the cultural sector of Uzbekistan. In particular, it highlights the priority directions of state policy, normative-legal documents, institutional changes, and the development prospects of the culture and arts system. The study examines the legal mechanisms and institutional transformations underlying cultural reforms and evaluates their impact on the development of the cultural sphere. As a result, the role of cultural reforms in the spiritual development of society is substantiated.*

***Keywords:** culture, reforms, organizational system, state policy, legal framework, cultural policy, cultural heritage.*

Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda madaniyat jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Madaniyat jamiyatning ma'naviy asosini tashkil etib, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va avlodlar davomiyligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, madaniyat nafaqat ma'naviy boyliklar majmui, balki ijtimoiy rivojlanishning muhim indikatori ham hisoblanadi [8].

Mamlakatimizda mustaqillikdan so'ng madaniyat sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur sohani modernizatsiya qilish, uning huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan.

Madaniy sohadagi islohotlarning zarurati. Madaniyat milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli madaniy sohada islohotlar olib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Madaniy sohadagi islohotlar jamiyatning ma'naviy rivojlanishi, milliy qadriyatlarni asrash va zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish uchun zarurdir. Globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o'zaro ta'sirga kirishayotgan bir paytda, milliy madaniyatni himoya qilish va uni boyitish muhim vazifaga aylanadi. Shuningdek, madaniyat sohasidagi islohotlar aholining estetik didini oshirish, yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash hamda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Madaniy islohotlarning nazariy asoslari. Madaniyat tushunchasi falsafiy va ijtimoiy fanlarda turlicha talqin qilinadi. E.Taylor madaniyatni inson tomonidan yaratilgan bilim, e'tiqod, san'at va an'analar majmui sifatida izohlaydi [11, 1-b]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa madaniyat jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaraladi [10, 45-b]. Shu bois madaniyat sohasida davlat tomonidan tizimli islohotlar olib borish zarur hisoblanadi.

Madaniyat tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda madaniyat quyidagi funksiyalarni bajarishi ta'kidlanadi:

- ma'naviy-tarbiyaviy funksiyasi;
- kommunikativ funksiyasi;
- estetik funksiyasi;
- ijtimoiy integratsiya funksiyasi.

Madaniyatning ushbu funksiyalari jamiyat taraqqiyotida uning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu sababli davlat tomonidan madaniy sohani qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirishning huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasida madaniyat sohasini rivojlantirish mustahkam normativ-huquqiy baza asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur tizim mamlakatning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyadan boshlab, maxsus qonunlar, Prezident farmon va qarorlari hamda davlat dasturlarini o'z ichiga oladi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning madaniy hayotda erkin ishtirok etish huquqi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish zarurati hamda madaniy merosni muhofaza qilish davlatning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan [1]. Ushbu konstitutsiyaviy normalar madaniyat sohasidagi barcha keyingi huquqiy hujjatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyat sohasini bevosita tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri – “Madaniyat to'g'risida”gi Qonundir [2]. Ushbu qonun madaniyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab, madaniy faoliyat subyektlarining huquq va majburiyatlarini aniqlaydi. Qonunda madaniyat muassasalarini rivojlantirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda madaniy merosni asrash masalalari alohida o'rin egallaydi (“Madaniyat to'g'risida”gi Qonun, 2019). Shuningdek, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonun tarixiy va madaniy obidalarni saqlash, ularni davlat ro'yxatiga olish va

muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini belgilaydi [4]. Mazkur hujjat milliy madaniy merosni asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi ("Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, 2001).

Bundan tashqari, "Arxivlar to'g'risida"gi Qonun tarixiy hujjatlarni saqlash, ulardan ilmiy va madaniy maqsadlarda foydalanish tartibini belgilab, jamiyatning tarixiy xotirasini asrashga xizmat qiladi [5]. Madaniyat sohasidagi islohotlarni jadallashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari alohida o'rin tutadi. Xususan, 2017-yildan boshlab qabul qilingan normativ hujjatlar madaniyat va san'at tizimini tubdan modernizatsiya qilish, madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ijodkorlarni rag'batlantirishga qaratilgan [7].

So'nggi yillarda madaniyat va san'at xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor qaratilib, ularning mehnatini rag'batlantirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi [3]. Bu esa madaniyat sohasida kadrlar salohiyatini oshirish va tizim samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda madaniy siyosat va uning rivojlanish bosqichlari:

-Mustaqillik davrining boshlang'ich bosqichi. Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berildi. Bu jarayon tarixiy merosni qayta tiklash va milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq edi [6, 135-b]. **Zamonaviy islohotlar bosqichi.** 2017-yildan boshlab madaniyat sohasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. Ular boshqaruv tizimini takomillashtirish, madaniyat muassasalarini modernizatsiya qilish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratildi [7, 214-b].

Tashkiliy asoslar va institutsional islohotlar. Madaniyat sohasida amalga oshirilgan tashkiliy islohotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish;
- madaniyat muassasalarini modernizatsiya qilish;
- hududiy madaniyat markazlarini rivojlantirish.

Mazkur islohotlar madaniyat tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [7, 220-b].

Shuningdek, zamonaviy sharoitda madaniyat sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida virtual muzeylar, onlayn teatrlar va raqamli kutubxonalar madaniyatni keng ommaga yetkazish imkonini beradi [9].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirish **mustahkam huquqiy baza** asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjatlar:

- madaniy merosni asrash;
- ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash;
- zamonaviy madaniy tizimni shakllantirish;
- xalqaro madaniy hamkorlikni kengaytirish kabi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi.

Ushbu islohotlar jamiyatning ma'naviy rivojlanishi, milliy qadriyatlarni asrash va zamonaviy madaniy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy sohada amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning ma'naviy taraqqiyoti, milliy madaniy merosni asrash va rivojlantirish hamda zamonaviy madaniy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu islohotlarning huquqiy-tashkiliy asoslari madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va aholining madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniyat sohasiga oid qonunlar, davlat dasturlari va institutsional o'zgarishlar madaniy siyosatning samaradorligini oshirishga, milliy qadriyatlarni targ'ib etishga hamda xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, madaniyat sohasini raqamlashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Demak, madaniy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning puxta huquqiy-tashkiliy asoslari mamlakat madaniy hayotining barqaror rivojlanishini ta'minlash,

milliy madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish va jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning madaniy hayotda ishtirok etish huquqi kafolatlangan).* (1992, 2023).
2. *“Madaniyat to'g'risida”gi Qonun.* (2019).
3. *“Madaniyat va san'at, axborot-kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar ish haqi miqdorlarini oshirish to'g'risida”gi 2024-yil 22-noyabr PQ-400-son qarori.*
4. *“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonun.* (2001).
5. *“Arxivlar to'g'risida”gi Qonun.* (2010).
6. *Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.*
7. *Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.*
8. *UNESCO. (2019). Culture and Development Report.*
9. *UNESCO. (2021). World Heritage Report.*
10. *Smith J. Cultural Policy and Development. – London: Routledge, 2018. – 256 p.*
11. *Tylor E. Primitive Culture: Researches into the Development of Mythology, Philosophy, Religion, Language, Art and Custom. – London: John Murray, 1871. – № 1–2.*

Mohlarbegim Avazova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti
E-mail: mohlarbegimaz@gmail.com*

MARKAZIY OSIYO ALLOMALARINING E'TIQOD TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo allomalarining e'tiqod to'g'risidagi qarashlari tarixiy-falsafiy va diniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy va boshqa mutafakkirlarning e'tiqod, imon, ma'naviyat hamda axloqiy kamolot haqidagi fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, ularning qarashlarida e'tiqodning inson shaxsi, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Maqolada Markaziy Osiyo ilmiy-ma'naviy merosining bugungi davrdagi ahamiyati hamda yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari allomalar merosida e'tiqod masalasi ilm, axloq va ma'rifat bilan uzviy bog'liq holda talqin etilganligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** e'tiqod, imon, Markaziy Osiyo allomalari, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, ma'naviyat, axloq, islom falsafasi.*

THE VIEWS OF CENTRAL ASIAN SCHOLARS ON FAITH AND BELIEF

***Abstract.** This article analyzes the views of Central Asian scholars on faith from historical-philosophical and religious perspectives. The study examines the ideas of Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan al-Biruni, Abu Ali Ibn Sina (Avicenna), Imam al-Bukhari, Imam al-Maturidi, Burhanuddin al-Marghinani, and other thinkers concerning faith, belief, spirituality, and moral perfection. It also explores the role of faith in shaping human personality, promoting social development, and ensuring spiritual stability within their intellectual traditions. The article highlights the contemporary significance of the scientific and spiritual heritage of Central Asia*

and its role in the education of younger generations. The research findings demonstrate that the issue of faith in the works of these scholars is interpreted in close connection with knowledge, morality, and enlightenment.

Keywords: *faith, belief, Central Asian scholars, Imam al-Maturidi, Imam al-Bukhari, al-Farabi, al-Biruni, Ibn Sina, spirituality, morality, Islamic philosophy.*

Insoniyat taraqqiyoti tarixida e'tiqod masalasi jamiyat hayoti, ma'naviy qadriyatlar va inson kamolotini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida alohida o'rin egallab kelgan. E'tiqod insonning borliqqa, jamiyatga, o'ziga va oliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi ma'naviy-ruhiy hodisa hisoblanadi. U nafaqat shaxsning ichki dunyosini boyitadi, balki ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlash, axloqiy me'yorlarni qaror toptirish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois e'tiqod masalasi qadimdan mutafakkirlar, faylasuflar va din arboblarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Markaziy Osiyo azaldan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat markazlaridan biri sifatida tanilgan. Bu zamindan yetishib chiqqan buyuk allomalar insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy tarbiyasi va e'tiqod masalalariga oid qimmatli ilmiy-nazariy meros qoldirganlar. Xususan, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Burhoniddin Marg'inoniy kabi allomalar o'z asarlarida e'tiqodning mohiyati, uning inson hayotidagi o'rni va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqida chuqur fikr-mulohazalar bildirganlar. Imom Moturidiy ta'limotida e'tiqod aql va naql uyg'unligi asosida talqin qilinadi. U insonning diniy qarashlari ilmiy tafakkur va mantiqiy mushohada bilan mustahkamlanishi lozimligini ta'kidlaydi. Imom Buxoriy hadis ilmi orqali musulmonlarning e'tiqodiy qarashlarini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan bo'lsa, Forobiy va Ibn Sino insonning ma'naviy kamoloti hamda komillikka erishishida e'tiqodning ahamiyatini falsafiy jihatdan asoslab berganlar. Beruniy esa turli din va e'tiqodlarni qiyosiy o'rganish orqali bag'rikenglik va o'zaro hurmat g'oyalarini ilgari surgan.

Bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy qadriyatlarni asrash, yoshlarni turli zararli g'oyalardan himoya qilish va ularda mustahkam e'tiqodni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda Markaziy Osiyo allomalari merosini o'rganish, ularning e'tiqod haqidagi qarashlarini tahlil qilish va zamonaviy hayot bilan bog'lash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, allomalar tomonidan ilgari surilgan ilm-ma'rifat, bag'rikenglik, axloqiy poklik va komil inson g'oyalari bugungi jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi Markaziy Osiyo allomalarining e'tiqod to'g'risidagi qarashlarini ilmiy tahlil qilish, ularning e'tiqod masalasiga oid yondashuvlarini yoritish hamda ushbu merosning zamonaviy ma'naviy hayotdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi.

Imom Moturidiy ta'limotida e'tiqod masalasi

Markaziy Osiyoda e'tiqod masalasining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda Imom Abu Mansur Moturidiy (870–944) alohida o'rin tutadi. U sunniylikdagi moturidiylik aqidaviy maktabining asoschisi sifatida e'tiqod masalasini aql va naql uyg'unligi asosida talqin qilgan. Mutafakkirning fikricha, inson e'tiqodi ko'r-ko'rona taqlid natijasi emas, balki tafakkur, ilm va dalillarga tayangan holda shakllanishi lozim. Shu sababli u Qur'on oyatlari va hadislarini aqliy mushohada bilan sharhlashga alohida e'tibor qaratgan. Moturidiy ta'limotida e'tiqodning markazida tavhid, ya'ni Allohning yagonaligiga bo'lgan ishonch turadi. Unga ko'ra, inson aql orqali Yaratuvchini tanish va Uning mavjudligini anglash imkoniyatiga ega. Bu qarash islom ilohiyotida ilmiy tafakkur va diniy e'tiqodning uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bugungi kunda ham Moturidiy merosi diniy bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifatparvarlik g'oyalarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi [3, 320-b].

Imom Buxoriy va hadis ilmidagi e'tiqod talqini

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870) islom olamining eng buyuk muhaddislaridan biri sifatida musulmonlar e'tiqodini mustahkamlashda

beqiyos xizmat qilgan. Uning mashhur “Al-Jome’ as-Sahih” asari Qur’ondan keyingi eng ishonchli manba sifatida e’tirof etiladi. Imom Buxoriy hadislarni saralashda nihoyatda qat’iy ilmiy mezonlarga amal qilgan. Bu esa islom aqidasi va e’tiqodining sof holda saqlanishiga xizmat qilgan. Mutafakkir hadislar orqali insonlarni halollik, poklik, sabr-toqat, adolat va ezgulikka da’vat etadi. Uning qarashlarida e’tiqod faqat qalbdagi ishonch emas, balki amaliy faoliyat va axloqiy xulq-atvorda ham namoyon bo’lishi kerakligi ta’kidlanadi.

Forobiy va Ibn Sino qarashlarida e’tiqod va komil inson g’oyasi

Abu Nasr Forobiy (873–950) e’tiqod masalasiga falsafiy nuqtayi nazardan yondashgan. U insonning baxt-saodatga erishishi uchun ilm, axloq va e’tiqodning uyg’un bo’lishi zarurligini ta’kidlaydi. Forobiy nazarida komil jamiyatni barpo etishning asosiy sharti ma’rifatli va mustahkam e’tiqodli insonlarni tarbiyalashdan iboratdir. Mutafakkirning “Fozil odamlar shahri” asarida fozil jamiyatning asosiy belgilaridan biri sifatida ma’naviy poklik, yuksak e’tiqod ko’rsatiladi. Uning fikricha, insonning ruhiy kamoloti va jamiyat taraqqiyoti o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Abu Ali ibn Sino (980–1037) ham e’tiqod masalasini ilm va falsafa bilan uyg’un holda tahlil qilgan. U insonning ma’naviy kamolotida bilim, e’tiqodning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Ibn Sino qarashlarida e’tiqod insonni ezgulikka undovchi, axloqiy sifatlarini shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo’ladi. Mutafakkir ilm va e’tiqod bir-birini inkor etmaydi, aksincha, inson kamolotiga xizmat qiluvchi ikki muhim asosdir, degan g’oyani ilgari suradi [6, 27-b].

Abu Rayhon Beruniy qarashlarida bag‘rikenglik va e’tiqod

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) e’tiqod masalasini boshqa allomalardan farqli ravishda qiyosiy va ilmiy asosda o‘rganishga harakat qilgan. Uning “Hindiston” asari turli dinlar, e’tiqodlar va madaniyatlar haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi [5, 420-b].

Beruniy turli xalqlarning diniy qarashlarini xolisona tahlil qilib, ular o‘rtasidagi umumiy jihatlar va farqlarni ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, insonlar o‘rtasidagi tinchlik va hamjihatlikka erishishda o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik

muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan Beruniy qarashlari bugungi kunda ham dinlararo muloqot va madaniyatlararo hamkorlikni rivojlantirishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Markaziy Osiyo allomalari qarashlarining zamonaviy ahamiyati

Markaziy Osiyo allomalari tomonidan ilgari surilgan e'tiqod haqidagi g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning asarlarida ilm-ma'rifat, axloqiy poklik, bag'rikenglik, adolat va komil inson tarbiyasi masalalari ustuvor o'rin egallaydi. Bu g'oyalar yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda sog'lom dunyoqarash va mustahkam e'tiqodni shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida turli mafkuraviy tahdidlar va ma'naviy xurujlar kuchayib borayotgan bir davrda allomalar merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish jamiyat ma'naviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, Moturidiy, Buxoriy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlarning e'tiqod, ilm va axloq haqidagi qarashlari yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda muhim manba bo'lib qolmoqda. Markaziy Osiyo allomalari tomonidan ilgari surilgan e'tiqod haqidagi qarashlar insoniyat ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning asarlarida e'tiqod masalasi faqat diniy tushuncha sifatida emas, balki insonning axloqiy kamoloti, ma'naviy yetukligi va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etilgan. Bu esa allomalar ilmiy merosining bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Imom Moturidiy e'tiqodning aql va naql uyg'unligiga asoslanishini ta'kidlab, diniy bilimlarning ilmiy tafakkur bilan bog'liq holda rivojlanishini asoslab bergan. Imom Buxoriy esa hadis ilmi orqali islom aqidasiining mustahkamlanishiga xizmat qilgan hamda e'tiqodning amaliy faoliyat va axloqiy fazilatlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatgan. Forobiy va Ibn Sino qarashlarida e'tiqod insonning ma'naviy kamoloti, ilm-ma'rifatga intilishi va komil inson sifatida shakllanishining muhim omili sifatida talqin qilingan. Beruniy esa turli din va e'tiqodlarni ilmiy asosda o'rganib, bag'rikenglik va o'zaro hurmat

tamoyillarini ilgari surgan. Allomalar merosining umumiy jihati shundaki, ular e'tiqodni insonni ezgulikka, adolatga, ilm olishga va ma'naviy poklikka undovchi kuch sifatida baholaganlar. Ularning qarashlarida ilm va e'tiqod bir-birini to'ldiruvchi, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni yot g'oyalar, diniy mutaassiblik va ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda Markaziy Osiyo allomalari merosining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ularning ilmiy va ma'naviy qarashlari asosida yosh avlodda mustahkam e'tiqod, yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik va bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo allomalari tomonidan yaratilgan e'tiqodga oid ilmiy-falsafiy meros nafaqat o'z davri, balki bugungi zamon uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu merosni chuqur o'rganish va targ'ib etish jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti hamda barkamol avlod tarbiyasini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 464 b.*
2. *Imom Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih. 4 jild. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – 550 b.*
3. *Moturidiy A. Kitob at-Tavhid. – Toshkent: Movarounnahr, 2020. – 384 b.*
4. *Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.*
5. *Beruniy A. Hindiston. – Toshkent: Fan, 1963. – 536 b.*
6. *Ibn Sino A. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1981. – 280 b.*
7. *Marg'inoniy B. Hidoya. 1-jild. – Toshkent: Adolat, 2000. – 560 b.*
8. *Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.*
9. *Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – 448 b.*
10. *Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Fan, 1991. – 224 b.*

Shavkat Bazarboyev

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi
mutaxassisligi magistranti
E-mail: shavkatbazarboyev78@gmail.com*

OMMAVIY BAYRAM, TOMOSHALARNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI, ROLI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ommaviy bayram va tomoshalarning jamiyat hayotidagi o'rni, ijtimoiy-madaniy vazifalari hamda tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan. Bayramlarning tarixiy shakllanish jarayoni, qadimgi Yunoniston va Rim davridagi ommaviy tomoshalar, o'rta asrlar bayram madaniyati, shuningdek, o'zbek xalqining milliy bayramlari misolida ularning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, Navro'z, Mehrjon kabi an'anaviy bayramlarning xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar, birdamlik, vatanparvarlik va ezgulik g'oyalarini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ommaviy bayram, tomosha san'ati, bayram madaniyati, tarbiyaviy ahamiyat, xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar, Navro'z, Mehrjon, ommaviy tadbirlar.*

THE ROLE, SOCIAL FUNCTIONS, AND EDUCATIONAL IMPORTANCE OF PUBLIC FESTIVALS AND PERFORMANCES IN SOCIETY

***Abstract.** This article analyzes the role of public festivals and mass spectacles in social life, their socio-cultural functions, and their educational significance. It examines the historical development of festivals, mass entertainments in Ancient Greece and Rome, medieval festive culture, and the spiritual and educational importance of festivals through the example of traditional Uzbek celebrations. In addition, the article highlights the role of traditional festivals such as Navruz and Mehrjon in fostering folk pedagogy, national values, social cohesion, patriotism, and the ideals of kindness and humanity.*

***Keywords:** mass celebrations, performance art, festival culture, educational significance, folk pedagogy, national values, Navruz, Mehrjon, public events.*

“Bayram” soʻzi turkchadan olingan boʻlib, toʻy, marosim, shodlik va xursandchilik maʼnolarini anglatadi. Bayram tushunchasining turli talqinlari mavjud. Bizningcha, falsafiy ensiklopediyada keltirilgan “Bayram – insonlar xursandchiligining yigʻindisi” degan taʼrif eng maqbul talqin hisoblanadi. Bayram ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, shodlik va xursandchilik uygʻotuvchi voqealarni nishonlash bilan bogʻliqdir.

Ommaviy bayramlarning xalqchilligi va ommabopligi shundaki, ular amaliy namoyon boʻlganida chuqur ijtimoiy-psixologik ildizlarga ega ekanligi yaqqol koʻzga tashlanadi. Shu bois sahnalashtirish jarayonida tasodifiy holatlar va elementlarga yoʻl qoʻyilmaydi. Ommaviy bayramlar ayrim tashkilotchi yoki tashkilotlarning xohishi bilan emas, balki keng xalq ommasining maʼnaviy ehtiyoji tugʻilgan paytda oʻtkazilgandagina haqiqiy bayram tomoshasiga aylanadi.

Mustaqillik gʻoyalarini keng xalq ommasiga singdirish, ularda yuksak fuqarolik tuygʻusi va qarashlarini shakllantirishda ommaviy bayramlarning oʻrni beqiyosdir. Hech bir teatr, hatto eng yirigi ham ommaviy bayramlar kabi keng xalq ommasiga taʼsir koʻrsata olmaydi. Shuning uchun ommaviy bayramlar rejissyorining jamiyat oldidagi masʼuliyati nihoyatda kattadir.

Insonlarning xoh shaharda, xoh qishloqda yashashidan qatʼiy nazar, bayramlarda ishtirok etishga, oʻzaro muloqot qilishga intilishlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, istiqlol yoʻlidan izchil borayotgan mamlakatimizda jamiyatning maʼnaviy-siyosiy muhitini takomillashtirish, shaxsning boʻsh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Shuni taʼkidlash joizki, ommaviy bayramlar tarixi, xususan, Oʻzbekiston bayramlarining kelib chiqish genezisi va turlari hali toʻliq oʻrganilmagan. Tarix shunday fanki, uni qanchalik chuqur oʻrgansak, shunchalik koʻp yangi qirralari ochiladi. Ayniqsa, ommaviy bayramlar tarixi sohasi nisbatan kam tadqiq etilgan yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Bu sohada ilk tadqiqotchilardan biri sifatida falsafa fanlari doktori, professor U.X.Qoraboyev Oʻzbekiston bayramshunosligi rivojiga katta hissa qoʻshgan. Uning

“O‘zbekiston bayramlari” va “O‘zbekiston bayramlari tarixi” asarlarida mazkur mavzu chuqur ilmiy tahlil qilinib, bayramlarning kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlarini yoritishga harakat qilingan.

Yaqin vaqtlarga qadar bayramlar tarixi umumiy san'at tarixi, xususan, adabiyot va teatr tarixi doirasida o‘rganib kelingan. Biroq ommaviy bayram va tomoshalar har bir tarixiy davrda tarbiya va ma’rifatning muhim vositalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Ommaviy bayramlar tarixi sahifalariga nazar tashlasak, g‘oyaviy va kompozitsion jihatdan yaxlit bo‘lgan qadimgi Yunoniston va Rim davri bayramlaridan boshlash mumkin.

Albatta, qadimgi Yunoniston va Rim bayramlaridan oldin ham insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida turli bayramlar vujudga kelgan va shakllangan. Biroq ular ma’naviy va intellektual darajasi hamda ifodaviy shakllari jihatidan nisbatan sodda bo‘lib, kompozitsion yaxlitlikka ega emas edi. Qadimgi Yunoniston va Rimda tashkil etilgan xalq bayramlarida esa ommaviy bayramlar dramaturgiyasi va rejissurasining dastlabki elementlari shakllana boshlagan.

Qadimgi yunonlarda bayram o‘ziga xos mustaqil bo‘sh vaqt va dam olishning bir shakli bo‘lib, hatto doimiy faol mashg‘ulot turiga aylangan. Bizga ma’lumki, Delfiy, Pifiy, Nemey va Panfin o‘yinlari juda ommabop bo‘lgan. Lekin bu o‘yinlar ichida eng mashhuri Olimpiya o‘yinlari edi. Olimpiya o‘yinlari maxsus qurilgan Olimpiya shahrida har to‘rt yilda bir marta o‘tkazilgan. Turli urushlar oqibatida bu o‘yinlar to‘xtab qolgan. Olimpiya o‘yinlari miloddan avvalgi 776-yildan milodiy 394-yilgacha qariyb ming yil davomida o‘tkazilgan bo‘lsa, XIX asr oxirida Per de Kuberten tomonidan qayta tiklanib, hozirgi davrning eng nufuzli va go‘zal sport bayramiga aylandi.

Yunonistonning ko‘p sonli bayramlari ichida bog‘dorchilik va hosildorlik xudosi Dionisga bag‘ishlangan bayramlar alohida o‘rin egallaydi. Bu bayramlarda elladaliklar hayotidagi miflar va real hayot bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Shu davrdan boshlab bayramlar tarixi va madaniyatiga “tomoşa” (maxsus toshdan qurilgan teatrlardagi chiqishlar), “karnaval”, “carrus navalis” (“kema

aravasi”) kabi tushunchalar kirib kelgan. D.P.Kallistov o‘zining ilmiy tadqiqotlarida: “Dionis bayramlari oddiy bayram kuni emas, balki bayram qilish kuni bo‘lgan”, deb ta’kidlaydi. Bu bayramlarda turli urf-odat va marosimlar bir-birini to‘ldirib, xalq ommasi faol ishtirok etgan. Har bir qatnashchiga musiqa, sport, xor va dramatik musobaqalarda erkin qatnashish imkoniyati berilgan.

Dionis bayramlarida asosan uch qismni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Dionisga bag‘ishlab qurbonlik qilish marosimi.
2. Yugurish, kurash, qo‘shiq va raqs bo‘yicha umumfuqarolik musobaqalari.
3. Professional mimlar, jonglyorlar va qiziqchilar tomoshalari.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Dionis bayramlari faqat qo‘shiq, raqs va teatr tomoshalaridan iborat bo‘lmay, balki ommaviy xatti-harakat sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan.

Afinada o‘tkazilgan Dionis bayramlari o‘zining ommaviyligi bilan ajralib turgan. Unda asosan shahar fuqarolari qatnashgan. Bayramga shaharning har bir filosi (ma’muriy hududi) xor musobaqasida ishtirok etish uchun o‘z jamoalarini tayyorlagan. Musobaqalar teatrlashtirilgan shaklda o‘tkazilgan. Ular hakamlar va ishtirokchilarning tantanali yurishi bilan boshlanib, qo‘shiq, rechitativ dialog va raqslar orqali davom etgan. Bunday teatrlashtirilgan bahs va tortishuvlarda ishtirokchilarning o‘zaro hazil-mutoyibalari ko‘plab tomoshabinlarni jalb qilib, bayramona muhitni vujudga keltirgan.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Afina hukmdori Pisistrat Dionis bayramini rasman davlat bayrami deb e’lon qildi. Jan-Jak Russo qadimgi Ellada tomosha san’ati haqida shunday yozadi: “Butun xalq oldida, ochiq havoda namoyish etilgan ajoyib spektakllarda kurashlar, g‘alabalar va mukofotlarning ko‘rsatilishi minglab yunonlarning qalbidagi jasorat uchqunini alangalatib, ularni mardlikka da’vat qilgan”.

Professional aktyorlar, kompozitorlar, shoirlar va rassomlar turli guruhlarga birlashtirilib, ularni tayyorlashga yordam berganlar. Qisqacha aytganda, qadimgi Yunoniston bayramlarida ilk bor tashkil etilgan ommaviy xatti-harakatlarda

ommaviylik, komplekslilik, tomoshaviylik va o'yin xarakteridagi namunalar yaqqol namoyon bo'lgan [1, 25-b]. Qadimgi Rim Yunoniston bilan qo'shni bo'lishiga qaramay, bayramlarning shakli va mazmuni jihatidan undan keskin farq qilgan. Yunon bayramlarida fuqarolar faol ishtirok etgan bo'lsa, Rim tomoshalarida ishtirokchi va tomoshabin qat'iy ajratilgan. Shu davrdan boshlab "tomosha" tushunchasi "bayram" so'zining sinonimi sifatida qo'llanila boshlangan.

Rim imperiyasida kuchli sinfiy ziddiyatlar mavjud bo'lgani va davlat kuch bilan boshqarilgani sababli aholini chalg'itish maqsadida turli tomoshalar tashkil etilgan. Bu davrda sahna texnikasi va ta'sirchan vositalar ancha rivojlangan. Ayniqsa, mashhur Kolizey tomoshagohi hozirgacha insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Kolizey nafaqat o'zining ulkan hajmi, balki harakatlanuvchi arenasi va sahna mexanizmlari orqali arenani ko'l yoki o'rmon ko'rinishiga keltira olishi bilan ham mashhur bo'lgan.

Qadimgi Rimda dushman ustidan qozonilgan g'alabalarga bag'ishlangan triumf paradlari o'ziga xos teatrlashtirilgan harbiy namoyishlar hisoblangan. Shuningdek, gladiatorlar jangi, sirk poygalari, artistlar musobaqalari va dengiz janglari ham keng ommalashgan.

O'rta asrlarda ommaviy bayramlarning tabaqalanishi yanada kuchaydi. Ayniqsa, feodal davlat qudratini targ'ib etuvchi diniy bayramlar keng rivojlandi. Shu bilan birga, shahar maydonlarida o'tkaziladigan hazil-mutoyibaga asoslangan xalq bayramlari ham ommaning eng sevimli tomoshalariga aylandi. Ular xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchi va orzu-umidlarini ifoda etgan.

Rasmiy bayramlar esa asosan hukmron tabaqa manfaatlariga xizmat qilgan. Bu holat "dam olish" tushunchasining mazmuniga ham ta'sir ko'rsatgan. O'rta asrlarda insonning dam olishi shaxsiy xohishga emas, balki cherkov va din arboblari nazoratiga bog'liq bo'lgan. Bu davrda diniy bayramlar soni 115 taga yetgan. Katta yer-mulk va siyosiy qudratga ega bo'lgan cherkov bayramlarni ham o'z nazoratiga olib, ularni xalq oldida o'z ta'sirini namoyish etish vositasiga aylantirgan. Cherkovning boyligi turli rang-barang liboslar va sahna ko'rinishlarini yaratish

imkonini bergan. Natijada diniy marosimlar ham ommaviy bayram darajasiga ko'tarilgan.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham asrlar davomida shakllangan va avlodan-avlodga o'tib kelayotgan boy bayram an'alariga ega. Bu bayramlar xalq ehtiyoji va ijtimoiy zarurat asosida shakllanib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib borgan.

O'zbek xalq bayramlarini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish mumkin:

- a) ibtidoiy davrda vujudga kelgan bayram shakllari (ovchilik o'yinlari, totemistik bayramlar, mehnat o'yinlari, orgiastik bayramlar va boshqalar);
- b) O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi (islomgacha bo'lgan) bayramlari;
- v) o'rta asrlardan inqilobgacha bo'lgan davrdagi o'zbek bayramlari.

O'zbekistonda keng nishonlanadigan tabiat bayramlaridan biri – Navro'zdir. Bu bayram haqida X–XI asrlarda yashagan buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida batafsil ma'lumot bergan. Uning ta'kidlashicha, Navro'zning kelib chiqishi haqida turli afsonalar mavjud bo'lsa-da, uning asosida koinot va tabiat qonuniyatlari yotadi. Kecha va kunduzning tenglashishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatning uyg'onishi va bahorning kirib kelishi Navro'zning shakllanishiga sabab bo'lgan.

Navro'zning ildizlari insonlarning dehqonchilikka o'tishi bilan bog'liq bo'lib, bahorda yangi mehnat mavsumi boshlanishi munosabati bilan o'tkazilgan qadimgi bayramlarga borib taqaladi [2,15-b].

Vaqt o'tishi bilan bu bayram yanada rivojlanib, yil boshi vazifasini bajara boshlagan. Navro'zni nishonlash bir oy davom etgan. Bu haqda Beruniy shunday yozadi: “Keyingi podshohlar farvardin oyining barcha kunlarini hayitga aylantirib, uni olti qismga bo'lganlar: birinchi qismi podshohlar uchun, ikkinchisi ulug' kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g'ulomlari uchun, to'rtinchisi xizmatkorlar uchun, beshinchisi xalq ommasi uchun, oltinchisi esa cho'ponlar uchun ajratilgan” [3, 257–258-b].

Islomgacha bo'lgan Navro'zda xalqqa xos ko'plab urf-odatlar shakllangan. Bayram kuni odamlar bir-biriga shakar va shirinliklar hadya qilib, hayot shirin bo'lishini tilaganlar; gullar taqdim etib, go'zallik va farovonlik ramzini ifoda etganlar; bir-birlariga suv sepib, yil sersuv va barakali kelishini niyat qilganlar. Navro'zga tayyorgarlik jarayonida bug'doy yoki arpa donini o'stirib, uni bahor ramzi sifatida dasturxon markaziga qo'yish odati ham shakllangan. Asrlar davomida Navro'z yanada takomillashib, umumxalq bayramiga aylangan va bugungi kungacha o'zining eng yaxshi an'analari bilan yetib kelgan.

Sadriddin Ayniy ta'biri bilan aytganda: "Navro'zda tabiatgina emas, inson qalbi ham uyg'onadi". Ayniqsa, "Sumalak sayli" Navro'z bayramining eng muhim va qadimiy an'alaridan biri hisoblanadi.

"Sumalak sayli" asosan ikki qismdan: sumalak tayyorlash va sumalakxo'rlikdan iborat bo'lgan. Sumalakni asosan ayollar tayyorlaganlar va uni tayyorlash jarayoni o'yin-kulgi, qo'shiq va xursandchilik bilan o'tgan. Sumalak sayli qadimdan insonlarda birdamlik, ahillik va hamjihatlik tuyg'ularini tarbiyalab kelgan.

Tabiat bayramlaridan yana biri "Mehrijon" bo'lib, u kuz mavsumida nishonlanadigan bayramdir. "Mehrijon" so'zining bir ma'nosi "mehr", "jon sevgisi", ikkinchi ma'nosi esa "quyosh" demakdir. Agar "Navro'z" bahorda kun bilan tunning tenglashishi munosabati bilan nishonlansa, "Mehrijon" kuzdagi ana shu holatni nishonlaydigan bayram hisoblangan. "Mehrijon" kuni o'suvchi narsalarning yetilishi o'z nihoyasiga yetib, o'sish jarayoni to'xtaydi, hayvonlarning nasl qoldirish mavsumi ham yakunlanadi [4, 199-b].

Beruniyning ma'lumot berishicha, sug'diylarning Ashixida oyining 18-kuni "Boboxvara" ("Bomixvora") nomli hayiti bo'lgan. Bu nomning ma'nosi uzumdan siqib olingan xolis shirani ichishni anglatadi [5, 161–162-b].

Shu oyning 26-kuni "Garm-xvara" – uzum yeyish hayiti nishonlangan. yettinchi oyning 15-kuni esa yana uzumga bag'ishlangan ko'p kunlik bayram boshlanib, u keyingi oyning 9-kunida yakunlangan. Bundan ko'rinib turibdiki,

bog'dorchilik keng rivojlangan sug'diylarda uzum va uzum sharbatidan tayyorlangan musallasga bag'ishlangan yaxlit bayramlar tizimi mavjud bo'lgan.

Professor E.V.Sokolov bayramlarning ahamiyati haqida shunday yozadi: "Bayramning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u muhim an'analarni qo'llab-quvvatlaydi hamda insoniyat madaniyatining yutuqlarini mustahkamlaydi". Darhaqiqat, bayramlar millat va jamiyatning moddiy hamda ma'naviy-madaniy hayotidagi eng yaxshi jihatlarni namoyon etadi [1, 85-b].

O'zbekiston bayramlarida an'anaviy xalq pedagogikasi muhim o'rin tutadi va bu an'analar bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Ayniqsa, insonlarni bir-birini e'zozlashga, kattalarni hurmat qilishga, ezgulikka intilishga, go'zallikni asrashga, milliy qadriyatlarni qadrlashga, ilm-fanga muhabbat uyg'otishga va Vatanni sevishga chorlovchi chuqur falsafiy g'oyalar tarbiyaning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy bayramlarimizda ham xalq pedagogikasining ana shu asosiy g'oya va o'gitlari o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соколов Э. *Свободное время и культура досуга.* – Ленинград: Лениздат, 1977. – 208 с.
2. Қорабоев У. *Ўзбекистон байрамлари.* – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 160 б.
3. Беруний А. *Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Танланган асарлар. 1-жилд.* – Тошкент: Фан, 1960. – 488 б.
4. Айний С. *Эсдаликлар. 7-жилд.* – Тошкент: Тошкент, 1966. – 232 б.
5. Беруний А. *Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Танланган асарлар. 1-жилд.* – Тошкент: Фан, 1960. – 488 б.

Obidaxon Xamidova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Menejment" kafedrasi talabasi
E-mail: adibahamidova3@gmail.com*

ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI – SHARQ ILM-FANI VA MADANIYATINING ZAMONAVIY TIMSOLI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati, uning Sharq ilm-fani va madaniy merosini zamonaviy sharoitda tiklash va targ'ib qilishdagi o'rni yoritilgan. Mazkur muassasasining nafaqat muzey va arxiv funksiyasini bajarishi, balki islom sivilizatsiyasi kontekstida zamonaviy ijtimoiy-madaniy muloqotning faol maydoniga aylanayotganligi, Markaziy Osiyo mintaqasini jahon madaniy xaritasida yangi o'ringa chiqarishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** Islom sivilizatsiyasi markazi, Sharq ilm-fani, madaniy meros, Markaziy Osiyo, islom ma'rifati, Toshkent, sivilizatsiyalararo muloqot.*

THE CENTER OF ISLAMIC CIVILIZATION: A MODERN SYMBOL OF EASTERN SCIENCE AND CULTURE

***Abstrat.** This article analyzes the activities of the Center of Islamic Civilization in Tashkent, examining its role in reviving and promoting Eastern scientific and cultural heritage in the modern era. The findings indicate that this institution functions not merely as a museum and archive, but has also become an active platform for contemporary socio-cultural dialogue within the context of Islamic civilization. The Center's activities serve as a significant factor in elevating the Central Asian region to a new position on the global cultural map.*

***Keywords:** Center of Islamic Civilization, Eastern science, cultural heritage, Central Asia, Islamic enlightenment, Tashkent, intercivilizational dialogue.*

Islom sivilizatsiyasining intellektual va madaniy merosi insoniyat tarixining ajralmas qismini tashkil etadi. O'rta asrlarda sharq olimlari Yevropada "qorong'u asrlar" hukm surgan davrda matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa va adabiyot

sohalari bo'yicha buyuk kashfiyotlar qilgan, ularning asarlari keyinchalik G'arb Uyg'onish davrining asosiga aylangan [1, 45–58-b]. Bugungi kunda bu merosni saqlash, o'rganish va keng omma uchun ochiq qilish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki globallashtirish sharoitida madaniy o'zlikni saqlash va sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda [2, 24-b]. Aynan shu zarurat 2018-yilda Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilishiga zamin yaratdi. Ushbu muassasa YUNESCO va Islom hamkorlik tashkiloti qo'llab-quvvatlashida barpo etilgan bo'lib, Sharq xalqlarining boy intellektual an'analarini zamonaviy sharoitda tiklash va dunyo jamoatchiligiga taqdim etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan [3]. Markazning paydo bo'lishi tasodifiy hodisa emas – u Markaziy Osiyoning islom dunyosidagi tarixiy rolini qayta anglab yetish va ushbu hududning madaniy salohiyatini xalqaro maydonga olib chiqish istagi bilan uzviy bog'liqdir [4, 5–19-b].

Ushbu mavzu tadqiqi nazariy va tavsifiy tahlil metodologiyasiga asoslangan. Masalan, Ahmad Donish islom ma'rifatining tarixiy evolyutsiyasi va uning zamonaviy ta'limdagi aksini keng ko'lamda tadqiq etgan [5]. Rossiyalik tadqiqotchi Vitaliy Naumkin esa Markaziy Osiyo xalqlarining islom sivilizatsiyasidagi tutgan o'rni va bu mintaqaning global jarayonlardagi salohiyatini tahlil qilgan [6, 303-b]. O'zbek olimi Bahodir Ergashevning ishlari esa Toshkent markazining tashkiliy modeli va uning mintaqaviy hamkorlik tizimidagi funksiyalarini baholash nuqtayi nazaridan muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [7, 33–47-b]. Madaniy diplomatiya sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muzeylar va madaniy markazlar faqat meros saqlash joylari emas, balki davlatlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiruvchi diplomatik vositalar sifatida ham faoliyat yuritadi [8, 101-p]. Bu konsepsiya Islom sivilizatsiyasi markaziga nisbatan to'liq qo'llaniladigan bo'lib, mazkur muassasa o'z faoliyatida ilmiy, madaniy va siyosiy qatlamlarni organik tarzda birlashtiradi. Qolaversa, Hasan Askari Rizvi va boshqa tadqiqotchilar islom sivilizatsiyasini bir markazdan emas, balki ko'p qutbli, o'zaro bog'liq madaniy o'choqlar tizimi sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi, bu yondashuv Toshkent

markazining Samarqand, Buxoro va boshqa tarixiy islom markazlari bilan aloqasini yangicha mazmunda talqin qilish imkonini beradi [9, 145–168-p]. Jahon miqyosida islom merosini saqlovchi muassasalar tarixiga o'rganish asnosida, Toshkent markazining farqli jihati aniq ko'zga tashlanadi: u yevropasentrik muzeychilik an'anasini emas, balki mahalliy intellektual an'analarga asoslangan ekspozitsion-ta'lim modelini tanlagan [10, 78–79-b].

Adabiyotlar tahlili va mavjud ma'lumotlarning nazariy jihatdan o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, Islom sivilizatsiyasi markazi bir necha muhim funksiyani bir vaqtning o'zida bajarmoqda va bu uni oddiy madaniy muassasalardan tubdan ajratib turadi. Birinchi va eng asosiy funksiya – arxiv va ekspozitsion funksiyasidir: markazda al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalarning ilmiy merosi, qo'lyozmalar, xaritalar va tarixiy artefaktlar zamonaviy texnologiyalar yordamida saqlanmoqda va namoyish etilmoqda. Bu nafaqat o'tmishni saqlash, balki uni tirik, interaktiv formatda kelajak avlodlarga yetkazish demakdir. Ikkinchi funksiya – ta'lim va ilmiy tadqiqot funksiyasidir. Markaz qoshida islom sivilizatsiyasiga oid ilmiy seminar va anjumanlar muntazam tashkil etiladi, xalqaro tadqiqotchilar jalb qilinadi, bu esa muassasani ilmiy platforma sifatida mustahkamlaydi. Ayni paytda, markazning mavjudligi O'zbekistonda islom ilm-faniga bo'lgan akademik qiziqishni rag'batlantirmoqda, yoshlar uchun esa o'z sivilizatsiya ildizlarini zamonaviy kontekstda anglash uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Uchinchi muhim funksiya – madaniy diplomatiya funksiyasidir. Markazga tashrif buyuruvchi xorijiy delegatsiyalar, diplomatlar va tadqiqotchilar soni yildan-yilga oshib borayotgani O'zbekistonning “yumshoq kuch” siyosatida ushbu muassasaning alohida o'rin egallayotganidan dalolat beradi. Sharq ilm-fanini dunyoga taqdim etish orqali O'zbekiston o'zini nafaqat Markaziy Osiyo markazi, balki umumislom madaniyatining muhim tashuvchisi sifatida pozitsiyalashtirmoqda. Bu siyosat milliy manfaatlar bilan universal madaniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishning muvaffaqiyatli namunasidir. Shunday bo'lsa-da, tanqidiy baholash nuqtayi nazaridan bir qancha masalalar ham e'tiborni tortadi.

Sharq meros muassasalarining ko'pchiligi global madaniy bozorda o'z auditoriyasini kengaytirishda raqobat muammosiga duch keladi; Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu jihatdan mustasno emas. Shu bilan birga, markazning raqamli platformalar orqali virtual auditoriyaga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi va xalqaro hamkorlik loyihalariga faol kirishishi bu muammoni qisman hal etmoqda. Umuman olganda, maqolada tahlil qilingan nazariy manba va yondashuvlar markazning mavjud konsepsiyasi asli to'g'ri yo'nalishda qurilganini, ammo uning salohiyati hanuz to'liq ro'yobga chiqarilmagan ekanligini ko'rsatadi.

Markazning faoliyatini chuqurroq o'rganish shuni ham ko'rsatadiki, u zamonaviy jamiyatda islom ilm-faniga bo'lgan stereotipik qarashlarni o'zgartirishda muhim rol o'ynamoqda. Ko'p asrlar davomida G'arb akademik an'anasida islom sivilizatsiyasi ko'pincha faqat diniy kontekstda talqin qilinib, uning ratsional, ilmiy va falsafiy qatlamlari ikkinchi o'ringa surib qo'yilgan. Islom sivilizatsiyasi markazi esa al-Xorazmiyning algebra sohasidagi kashfiyotlarini, Beruniyning geodeziya va etnografiya bo'yicha tadqiqotlarini, Ibn Sinoning tibbiy tizimini interaktiv va ilmiy asosda taqdim etish orqali bu bir tomonlama tasavvurni qat'iy rad etadi. Muassasaning konseptual yondashuvi islom sivilizatsiyasini diniy hodisa sifatida emas, balki insoniyatning umumiy intellektual boyligiga ulkan hissa qo'shgan ko'p qirrali madaniy fenomen sifatida ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, bu zamonaviy sivilizatsiyalararo muloqot uchun mustahkam asos yaratadi.

Bundan tashqari, markazning Markaziy Osiyo yoshlari uchun madaniy o'zlikni shakllantirish jarayonidagi ahamiyatini alohida ta'kidlash zarur. Sobiq sovet davrida mintaqada islom ilmiy merosiga bo'lgan munosabat siyosiy sabablarga ko'ra cheklangan bo'lsa, mustaqillik yillarida bu meros qayta kashf etilmoqda va Islom sivilizatsiyasi markazi mazkur jarayonning institutsional timsoli sifatida maydonga chiqmoqda. Yoshlarning o'z ajdodlari yaratgan ilmiy va madaniy qadriyatlar bilan bevosita tanishishi nafaqat milliy g'ururni mustahkamlaydi, balki ularda tarixiy mas'uliyat hissini uyg'otadi. Bu esa o'z navbatida zamonaviy o'zbek jamiyatida ilm-fanga, madaniyatga va intellektual faoliyatga bo'lgan qiziqishni

rag'batlantirishning samarali vositasiga aylanmoqda, chunki o'tmishning ulug'vor merosi kelajak uchun ilhom manbai sifatida xizmat qilishi tabiiydir.

Islom sivilizatsiyasi markazi Sharq ilm-fani va madaniyatining boy tarixiy merosini o'rganish, asrash va keng targ'ib etishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-ma'rifiy maskandir. Ushbu markaz buyuk allomalarimizning ilmiy merosi, islom madaniyatining insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini namoyon etadi.

Markaz faoliyati orqali Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Imom Buxoriy kabi mutafakkirlarning ilmiy merosi zamonaviy talqinda o'rganilib, keng jamoatchilikka yetkazilmoqda. Bu esa yosh avlodning tarixiy xotirasini mustahkamlash, ilm-fanga qiziqishini oshirish va milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan, Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat tarixiy merosni saqlovchi maskan, balki Sharq ilm-fani va madaniyatining bugungi kundagi zamonaviy timsoli, xalqaro ilmiy-madaniy muloqotni rivojlantiruvchi muhim markaz sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Islom sivilizatsiyasi markazi Sharq ilm-fani va madaniyatining zamonaviy timsoli sifatida o'zining milliy va xalqaro ahamiyatini tobora mustahkamlayotgan noyob muassasadir. U bir vaqtning o'zida muzey, ilmiy platforma va madaniy diplomatiya vositasi funksiyalarini muvaffaqiyatli birlashtiradi, bu esa uni oddiy meros saqlash muassasalaridan tubdan farqlab turadi. Ta'kidlash joizki, markazning kelajakdagi rivojlanishi ko'p jihatdan raqamlashtirish, xalqaro ilmiy hamkorlik va yoshlarga mo'ljallangan ta'lim dasturlarining kengaytirilishiga bog'liq bo'ladi. Islom sivilizatsiyasining ulkan intellektual merosini zamonaviy dunyoga taqdim etish faqat o'tmishni eslab qolish emas – bu o'sha merosdan hozirgi va kelgusi avlodlar uchun ilhom va amaliy g'oyalar manbai sifatida foydalanish demakdir. Markazning Toshkentda joylashganligi ham ramziy jihatdan muhim: tarix davomida Markaziy Osiyo Sharq

va G'arb o'rtasidagi ko'prik bo'lib kelgan, va bu muassasa o'sha tarixiy vazifani zamonaviy formatda davom ettirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хусанов Б. Ислом цивилизацияси маркази: ташкил этилиши ва фаолиятининг асосий йўналишлари // *O'zbekiston tarixi*. – 2020. – № 3. – В. 45–58.
2. Каримов А. Маданий дипломатия ва миллий қадриятлар: назарий асослар // *Жамият ва бошқарув*. – 2021. – № 2. – В. 12–24.
3. YUNESCO. *Islamic Civilization Center in Tashkent: Concept and Mission*. – Paris: YUNESCO Publishing, 2019. – 64 p.
4. Эргашев Б. Марказий Осиё: тарихий мерос ва замонавий идентиклик // *Шарқшунослик*. – 2022. – № 1. – В. 5–19.
5. Dani A. *History of Civilizations of Central Asia. Vol. IV*. – Paris: YUNESCO, 1998. – 542 p.
6. Наумкин В. *Центральная Азия в мировой истории: цивилизационное измерение*. – Москва: Наука, 2015. – 312 с.
7. Эргашев Б. Ислом цивилизацияси маркази: минтақавий ҳамкорлик тизимидаги роли // *Ўзбекистон халқаро муносабатлар институти ахборотномаси*. – 2021. – № 4. – В. 33–47.
8. Nye J. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. – New York: Public Affairs, 2004. – 191 p.
9. Rizvi H. *Islamic Civilization: Polycentric Dimensions and Modern Relevance* // *Journal of Islamic Studies*. – 2017. – Vol. 28. – № 2. – P. 145–168.
10. Мўминов А. Ўрта аср Шарқ олимларининг илмий мероси ва уни замонавий таълимда қўллаш // *Педагогика*. – 2019. – № 5. – В. 78–89.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası
professor (v.b.)
E-mail: oktamnosirov@gmail.com

JADIDCHILIK, KUTUBXONALAR VA MUTOLAA

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakati, uning ma'rifiy g'oyalari hamda kutubxonalar va mutolaa madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Jadid ma'rifatchilari xalqni savodli qilish, yangi usul maktablarini rivojlantirish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mavzuda kutubxonalar bilim va ma'rifat markazi sifatida jamiyatda o'qish madaniyatini oshirish, bosma nashrlarni tarqatish va xalqning intellektual rivojiga xizmat qilgan muhim institut sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, jadid ma'rifatchiligi, kutubxonalar, mutolaa, kitobxonlik, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, bosma nashrlar, milliy uyg'onish, madaniy islohotlar.

JADIDISM, LIBRARIES, AND THE CULTURE OF READING

Abstract. This article explores the Jadid movement, its educational ideas, and its contribution to the development of reading culture and libraries. Jadid reformers played a significant role in social development through the promotion of literacy, the establishment of new-method schools, and the cultivation of a reading culture. The article examines libraries as important social institutions that serve as centers of knowledge and education, contributing to the enhancement of reading culture, the dissemination of printed publications, and the intellectual development of society.

Keywords: jadidism, jadid enlightenment, libraries, reading, reading culture, enlightenment, new-method schools, printed publications, national awakening, cultural reforms.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya

ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida XX asr boshlarida shakllanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini chuqur tadqiq va targ'ib qilish ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlagan edilar [1, 1-b].

Jadid ma'rifatparvarlari xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy bilimlarni egallashda deb bilganliklari uchun milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston shahar va qishloqlarida masjidlar, oliy, o'rta va quyi madrasalarning kutubxonalari musulmon jamoalari ommaviy foydalanishi uchun mo'ljallangan kutubxonalar, xonaqohlar qoshidagi kutubxonalar faoliyat ko'rsatishda davom etdi. Ularning aksariyati xayr-ehsonlar hisobiga kun ko'rardi. XIX asrning 80–90-yillarida masjidlar, madrasalar qatorida xonaqohlar qoshidagi kutubxonalar ham iqtisodiy inqirozga uchradi. Bunga mustamlakachi ma'murlarning vaqf yerlari va boshqa mol-mulkning katta qismini Markaziy Rossiyadan ko'chirib keltirilgan aholiga berish bo'yicha qo'llagan chora-tadbirlari sabab bo'ldi. Masjidlar, madrasalar, xonaqohlarni qo'llab quvvatlovchi moliyaviy ajratmalarning keskin qisqarishi natijasida XI–XIII asrlarda vujudga kelgan o'rta asrlar kutubxonachilik ishi tizimiga putur yetdi. Kutubxonachilik ishini davlat tomonidan tartibga solish va rahbarlik qilish tizimi mavjud bo'lmaganligi uchun omma madaniyat va ma'rifatdan yanada uzoqlashtirildi.

1870-yilda Toshkentda tashkil etilgan Turkiston ommaviy kutubxonasi faqat amaldorlar, harbiylar va savdogarlargagina xizmat ko'rsatar edi. Shuning uchun ham Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlarini yangilash harakati aynan ta'lim, madaniy, mafkuraviy, siyosiy bilimlar berish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb vazifalarni hal qilishdan boshlashni talab qilar edi. Jadid namoyandalari o'z xonadonlarida maktablar ochish, o'quvchilar uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalar

yozish, teatr gruppalari, turli jamiyatlar, gazeta va jurnallar, kutubxonalar tashkil etish orqali ko'p yillik orzular amalga oshirishining tamal toshini qo'ydilar.

Ular keng xalq ommasiga, ayniqsa yoshlarga bilim tarqatish maqsadida dastlabki ommaviy kutubxonalarni tashkil etish haqida ham qayg'ura boshladilar. 1908-yilda Namangan uezdining To'raqo'rg'on qishlog'ida Is'hoqxon to'ra Junaydullayev (Ibrat) tomonidan "Matbaa-i Is'hoqiya" nomli ilk nashriyot 1910-yilda Namanganga ko'chirilib, uning qoshida "Kutubxona-i ishoqiya" nomli kutubxona tashkil etildi. Kutubxonada o'zbek, fors-tojik, rus, tatar va turk tillaridagi adabiyotlar, darsliklar va qo'llanmalar, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq adabiyotlar, o'sha yillarda nashr etilgan rus va musulmon matbuoti namunalari mavjud edi.

Ibrat ushbu kutubxonaga mudir tayinlab, kitoblarni va ulardan foydalanganlarni tartib bilan yozib borishni yo'lga qo'ydirgan. Xuddi shu davrlarda Buxoroda yosh buxoroliklar tomonidan "Ma'rifat" kutubxonasi tashkil etilgan. Uning fondida mamlakat va xorijda chop etilgan yangi adabiyotlar, gazeta va jurnallar, jumladan, Istanbulda chop etilgan "Hikmat", "Sirotil Mustaqim", "Ta'rifi muslimin" jurnallari, Rossiyada chop etilgan "Tarjimon", "Irshod", "Vaqt" gazetalari va "Sho'ro" jurnali, Turkistonda chop etilgan jadid matbuoti namunalari mavjud edi. Noshirlik faoliyati, kitob savdosi va kutubxonachilik ishi bilan shug'ullanuvchi birinchi kitob uyi – "Ma'rifat" shirkati jadidchilik harakatining ashaddiy tarafdorlaridan biri noshir R.Rasulzoda tashabbusi bilan 1912-yilda ochildi. Ikkinchi kitob uyi "Madora" 1914-yilda Qo'qonning Beshariq mahallasida ma'rifatparvar Ibrohim Davron tomonidan tashkil etildi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy qisqa vaqt ichida ikkita-"G'ayrat"(1915) va "Birlik" (1916) kitob uylarini tashkil etdi. Shu davrda kitob noshirligi va savdosi, ayrim hollarda kutubxonalar va qiroatxonalar tashkil etish bilan o'sha davrdagi boshqa shirkatlar ham shug'ullangan. Ular orasida Toshkentdagi "Nashriyot" (1914), "Maktab" (1916), "Nashri maorif", Buxorodagi "Barakat" (1914), Samarqanddagi "Zarafshon" shirkatlari mavjud edi.

Ushbu shirkatlarning ta'sis shartnomasida ularning maqsadi musulmon aholi o'rtasida Yevropa madaniyatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyish, kutubxonalar va qiroatxonalar ochish orqali aholi o'rtasida ma'rifat urug'ini sochishni maqsad qilib qo'yganligi ta'kidlab o'tilgan edi. Turkiston jadidlarining otasi deb nom olgan Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik faoliyati alohida ahamiyatga molikdir. Behbudiy tomonidan Samarqandda tashkil etilgan ommaviy kutubxona shaharning ruslar yashaydigan qismida joylashgan bo'lib, "Kutubxona-i Behbudiya" nomi bilan atalgan.

Kutubxonadan tashqari shu yerda mutolaa qiluvchilar uchun keng va shinam qiroatxona ham tashkil etilgan va yangi tipdagi ushbu kutubxonani kutubxonado'kon deb ham atash mumkin edi. Chunki, ushbu muassasaga tashrif buyurgan har bir kishi kutubxonaning alohida fondidan o'z mablag'iga sotib olishi va uzi bilan birga olib ketishi mumkin edi. Boshqalarning qiroatxonada kitob o'qishlariga sharoit yaratilganligidan tashqari xotirasi va miyasiga quvvat bo'lishi uchun shakarli qaynoq choy ham berilgan. Ushbu kutubxona fondida joylashgan kitoblarning bir qismini Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining 1899–1900-yillardagi va 1914-yildagi haj safarlarida bo'lganida keltirilgan, qolgan kitoblar esa Turkistonning turli burchaklaridan, Rossiya imperiyasining Sankt-Peterburg, Qozon, Bog'chasaroy, Boku, Orenburg shaharlaridan, shuningdek, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston, Misr, Livandan kutubxona manziliga yuborilgan edi. Bunday uzoq mamlakatlar va shaharlardan kitob keltirish hisobiga kutubxona va qiroatxona fondini to'ldirish omilkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik uquvidan tashqari keng xalqaro aloqalarni va albatta kattagina mablag'ni tashkil etar edi. Shunga ko'ra Mahmudxo'ja Behbudiy matbuot sahifalarida e'lon qilingan ko'plab maqolalarida savdo va ishlab chiqarish vakillarini boshlangan xayriya ishlarini moddiy jihatdan qo'llab quvvatlashga da'vat qiladi. U shunday maqolalardan birida "Millatga dalda berish, maktablar islohi, yoshlarimizni Yevropa oliy o'quv yurtlariga kirishlarga tayyorlash, umummilliy ishlarni amalga oshirish uchun bizga "Xayriya jamiyatlari", kutubxonalar, jamg'armalar, turli to'garaklar, gazetalar, jurnallar, nashriyotlar va

hakazolar kerak” deb yozgan edi. Umuman olganda, “Kutubxona-i Behbudiya”ning kitob fondi barcha manbalar miqdoriga ko‘ra Turkistondagi eng boy kutubxonalardan biri bo‘lgan. Kutubxona fondida Qur’oni Karimning har xil nashrlari, hadislar to‘plamlari, fan va bilimning turli sohalariga oid dunyoviy mazmundagi turkiy, fors, turk, arab, rus, nemis, fransuz, ingliz tillaridagi kitoblar to‘plangan. Faqat birgina tarixga oid adabiyotlar ichida “Buyuk umumiy tarix”, uch jildli “Madaniyat tarixi”, “Tarixiy istiqbol”, “Islom tarixi”, “Islom olami va Ovrupo XX asrda”, “Turkiy xalqlar tarixi”, “Madaniyat tarixi”, “Shohlarning g‘alabalar kitobi”, “Usmoniyar saltanati ko‘z gusi”, “Islom madaniyati tarixi”, “Amir Temur”, “Islom tarixi”, “Buyuk Eron tarixi”, “Amerikaning kashf etilishi tarixi” kitoblari bor edi.

Demak, XX asrning dastlabki o‘n yilliklari mobaynida jadidlarning ma’rifatparvarlik mazmunidagi yangicha adabiyotlarni o‘zida jamlagan kutubxonalari Turkiston o‘lkasining deyarli har bir yirik shahrida faoliyat ko‘rsatdi.

Jadidlar bir tomondan istiqloq bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni olib borgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan diniy va dunyoviy kitoblar fondiga ega bo‘lgan kutubxonalar tashkil etdilar. Jadidlar ushbu faoliyatlarini izchil davom ettirdilar. Ularning asosiy maqsadlarini Abdulla Avloniyning “Madaniyat to‘lqinlari” nomli maqolasini o‘qish orqali to‘la anglash mumkin. U quyidagicha yozadi: “Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o‘qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta’limga mohir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo‘lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamonga muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik “Dorul-yatim”-yetimxonalar, “Dorul-ujizin”-kambag‘alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkat (tovorishestvo)lar barpo qilinsa, yuqorida dedegimiz kabi, xalqimiz orasida zamonga loyiq ulum va funundan bohobar ulamolarimiz ko‘paysa, och va yalang‘och kishilarimizning mashaqqatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o‘qutilsa, ahloq va odob o‘rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo‘stonig‘a yuzlangan hamda madaniyat to‘lqinlaridan

qutulub salomatg'a chiqq'an bo'lur edik" [3, 116-b]. Yuksak g'oyalarni amalga oshirish yo'lidagi faoliyatning izchil amalga oshirishi natijasida 1913-yilda Toshkent shahrida Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy boshchiligida 1909-yilda tuzilgan "Jamiyati xayriya" negizida "Turon" xayriya jamiyatini tashkil etdilar. Ushbu jamiyatning faoliyat doirasi kengayib borgani sari yosh ziyolilar saflari kengayib bordi.

Ammo 1917-yil oktyabr to'ntarilishi sodir bo'lishi bilan "Turon" jamiyati atrofida uyushgan jadidlar parchalanib ketadilar. A.Avloniy boshliq bir guruh jadidlar sho'ro hokimiyati tarafiga o'tib "Turon" jamiyati ixtiyoridagi o'zbek tilida yaratilgan sahna asarlarini to'plab, bo'lajak kutubxonaga poydevor quradilar. Shu tariqa 191-yilda "Turon" kutubxonasi bunyod bo'ladi.

O'sha yilning boshlarida Toshkentga Sho'ro hukumati siyosatining O'rta Osiyoda so'zsiz amalga oshirilishini ta'minlash uchun kelgan, Turkiston jumhuriyati Mudofaa shtabining a'zosi etib tayinlangan Orif Klibleyev 1918-yil iyunida "Ishtirokiyun" gazetasini tashkil etadi va uning dastlabki muharriri bo'ladi. O'sha yilning 20-iyunida Orenburg frontidan kelgan Ahmad Donskoy bilan Vali Allamov ham "Ishtirokiyun" gazetasi tahririyatiga ishga olinadi. Oradan bir hafta o'tgach, 27-iyulda O.Klibleyev muharrirlikni Donskoyga topshirib, o'zi Jizzaxga maxsus topshiriq bilan boradi va o'sha yerda kasallanib vafot etadi.

Sho'ro hukumatining O'rta Osiyoga "keng vakolatlar" bilan kelgan bu ishonchli vakilini dafn etish marosimi katta siyosiy tadbir sifatida o'tkazilgan. Turkiston Xalq Komissarlari Sho'rosining qarori bilan marhum bolshevik nomini adabiy lashtirish maqsadida "Turon" kutubxonasiga Orif Klibleyev nomi berilgan. Kutubxona fondini kengaytirish va ta'mirlash ishlari uchun 10 000 so'm hajmda mablag' ajratilgan. Shundan keyin kutubxona Turkiya, Tatariston, Boshqirdiston, Ozarbayjon va Moskvada chop etilgan turli-tuman davriy nashrlar va kitoblarni olib turish imkoniyatiga ega bo'lgan.

1918–1922-yillarda kutubxona, bir tomondan, o'z a'zolari va tashkilotchilari bo'lmish sobiq jadidlar yordami bilan, ikkinchi tomondan, ma'rifatparvar

kishilarning vaqf qilib qoldirgan kitoblari hisobiga oyoqqa turdi, uchinchi tomondan esa, berilgan mablag' tufayli markazda va xorijda chiqib turgan davriy nashrlar va kitoblar bilan boyidi. 1919-yil 14-aprelda esa barcha xalq kutubxonalari qatori "Turon" ham davlat ixtiyoriga o'tkazildi. "Turon" kutubxonasi va qiroatxonasi Sag'bon, Chorsu, Shayx Xovand Toxur, Xadra, Chig'atoy, Oqlon, Xastimom mavze va mahallalari uchun o'rtaliq xisoblangan Eski Jo'vada tashkil etilgan edi. Kutubxona fondida Qozon, Qrim, Tiflis, Orenburg, Istanbulda nashr etilgan gazeta va jurnallar, noyob kitoblar mavjud bo'lib, ko'pgina ziyolilarning asosiy vaqti shu yerda o'tar edi.

Jadidchilik harakatining faol a'zolari bo'lgan aka-uka Karimbek va Komilbek Norbekovlar, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayevlar xayriya jamiyati nizomida ko'rsatilganidek, xalqimizni "sog'lom tomosha", madaniy hordiq chiqaruvga yaqinlashtirish, teatrlar, kutubxonalar, qiroatxonalar yordamida madaniyat olamiga olib kirishga alohida e'tibor qaratdilar. Ular "Maktab kutubxonasi" shirkatini tashkil etib, maktab darsliklari, o'quv qo'llanmalari nashr etish ishiga ham o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shdilar [7, 46-b]. Shu o'rinda "Turon" kutubxonasida ko'p yillar davomida ishlab, uning har tomonlama rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan Akbarbek Dolimov faoliyati haqida to'xtalib o'tishi zarur. Jadidchilik harakati muhitida ulg'aygan Akbarbek Dolimov 1927–1929-yillarda kutubxonachilik kursida o'qib, uni tugatgach o'zi ko'p yillar davomida kitob fondidan foydalanib kelgan "Turon" kutubxonasiga ishga kiradi. Turmush qiyinchiliklari va mashaqqatlariga qaramasdan 1932-yildan o'qishini Toshkent davlat pedagogika institutining kutubxonachilik fakultetida davom ettiradi. A.Dolimov kutubxonadagi ishini pedagog sifatida davom ettirib, tez vaqt ichida kutubxona direktori lavozimiga ko'tariladi. Akbarbek Dolimov Fayzulla Ubaydullayev bilan hamkorlikda "Mukammal ilmiy bibliografiya" kitobini yaratib, unda 1920–1934-yillarda o'zbek tilida nashr etilgan uch mingga yaqin kitobning bibliografik tasnifi va tasvirini berganlar. Bibliografiya sohasida yaratilgan ushbu birinchi kitob 1934-yilda O'zbekiston davlat nashriyotida chop etilgan. Sobir

Soliyev bilan hamkorlikda esa 1937-yili respublika kutubxonachi va bibliograflariga metodik yordam sifatida “O‘nli klassifikatsiya” asarini nashr ettirdi. Har ikkala asar ko‘p yillar davomida bo‘lajak kutubxonachilar va bibliograflar uchun asosiy o‘quv qo‘llanma vazifasini bajarib keldi.

Bundan tashqari Akbarbek Dolimov 30-yillarda Xoji Muin, Shukrullo, Abduqodir Shakuriy, Po‘latjon Qayumiy, Abduvaxob Ibodiy, Abdulla Avloniy, Muhibulqori Orifiylar yordamida “Oyina”, “Sadoyi Farg‘ona” jurnallari, “Turkiston” to‘plami taxlamlarining yetishmayotgan va qattiq shikastlangan qismlarini to‘ldirdi va ba’zi manbalarning fotonusxasini yaratdi. Bu manbalar bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasida saqlanmoqda. Jadid ma’rifatparvarlarining millat taraqqiyotini umummillat ma’naviyati, ma’rifati yuksalib, illatlardan xalos bo‘lishi bilan bog‘liq deb hisoblaganliklari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ayniqsa, ma’naviy makonni to‘siq bo‘lib turgan illatlarni bartaraf etish masalasi ko‘ndalang bo‘lib turgan sharoitda ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasida yozganidek: “Bizni qiladurg‘on aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, xatna bu ikki balo shundog‘ qattiq bir illatki, o‘limg‘uncha qutulib bo‘lmaydur. Shaharlarda o‘rtahol, ya’ni o‘tirarg‘a xona va bog‘i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so‘m sarf etar va o‘g‘il xatnasi uchun hech bo‘limganda ming so‘m, har bir kishi benavo bu mavridlarga 200 so‘mdan, 1000 so‘mgacha sarf etar. Boy va zo‘raki boylar esa besh ming, o‘n minglab sarf etar”. Bugun isrofgarchilik bilan o‘tkazilayotgan to‘ylar va marosimlar davom etayotganligidan tashqari haj va umradan qaytish bilan bog‘liq bo‘lgan dabdabali holatlar, o‘tmishda kitobxon bo‘lgan millatning, ayniqsa yoshlarning “o‘qimaslik illati”ga yo‘liqqanligi bugungi kundagi mavjud bo‘lgan illatlardir.

Davlatimiz rahbari Anqarada Turkiya respublikasi prezidenti huzuridagi xalq kutubxonasining ochilish marosimida ta’kidlaganidek, “Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati

bilan qadrlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti-kitob va kutubxonalarda” deb ta’kidlaganida jadidlarning bilim olish va mutolaaga bo’lgan munosabatlarining mantiqiy davomini tushunishimiz mumkin. Shu o’rinda yoshlar o’rtasida mutolaani zaiflashganligi borasida ma’lum bir mulohazalarni bildirib o’tish mumkin. Yoshlarda mutolaaga nisbatan ishtiyoq uyg’otish ularning bolalik davridan boshlanishi zarur. Lekin, bolalar uchun ular qiziqib o’qiydigan, rang-barang, sarguzashtlarga boy asarlar deyarli mavjud emas. Agar jadidlarning faoliyatiga e’tibor beradigan bo’lsak, ular o’z tashabbuslari bilan kutubxonalar tashkil etibgina qolmasdan ularning fondini to’ldirish, foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali insonlarni madaniyat doirasiga tortishga harakat qilganlar. Jadid bobolarimizning o’z davrida qo’llagan tajribalarini chuqur o’rganib, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish va mutolaa madaniyatini shakllantirish ajdodlarimiz oldidagi burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Mirziyoyev Sh. Jadidlar: Milliy o’zlik, istiqlol va davlatchilik g’oyalari. Yangi O’zbekiston gazetasi, 2025.*
2. *Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 1–2jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – 256 b.*
3. *Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar 1–2jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – 466 b.*
4. *Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar 1–2jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – 304 b.*
5. *Abdurouf Fitrat. Tanlangan asarlar 1–2jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – 208 b.*
6. *Qosimov B. Milliy uyg’onish davri adabiyoti. – Toshkent: O’zbekiston, 2002. – 464 b.*
7. *Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. – Toshkent: O’zbekiston: 1998. – 160 b.*

Aziza Kurbanova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Axborot texnologiyalari" kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
E-mail: caro_8787@mail.ru*

RAQAMLI KOMPETENSIYALARNING NAZARIY-KONSEPTUAL

ASOSLARI: MAZMUNI, MOHIYATI VA ILMIY TALQINLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli kompetensiyalarning nazariy-konseptual asoslari, ularning mazmun-mohiyati hamda ilmiy talqinlari tahlil qilingan. Kompetensiya va raqamli kompetensiya tushunchalarining pedagogik hamda ilmiy yondashuvlari yoritilib, mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Shuningdek, raqamli savodxonlik, axborot va media kompetentlik, kommunikativ va texnik kompetentlik kabi tarkibiy jihatlar ochib berilgan. Raqamli kompetensiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda zamonaviy raqamli jamiyat talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi strategik vazifalari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, raqamli kompetensiya, raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, pedagogik faoliyat, innovatsion texnologiyalar, DigComp modeli.

THEORETICAL AND CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF DIGITAL COMPETENCIES: CONTENT, ESSENCE, AND SCIENTIFIC INTERPRETATIONS

Abstract. This article analyzes the theoretical and conceptual foundations of digital competencies, their content, essence, and scientific interpretations. Pedagogical and scientific approaches to the concepts of competence and digital competence are discussed, and the views of national and foreign scholars are comparatively examined. The study also reveals the structural components of digital literacy, including information and media competence, communicative competence,

and technical competence. Furthermore, the importance of digital competencies in the educational process, their role in increasing the effectiveness of pedagogical activity, and their strategic significance in preparing competitive specialists who meet the requirements of modern digital society are substantiated.

Keywords: *competence, digital competence, digital literacy, information and communication technologies, media competence, communicative competence, pedagogical activity, innovative technologies, DigComp model.*

Kompetensiya (lotincha soʻz boʻlib, erishaman, toʻgʻri kelaman maʼnolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qoʻyish va unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir [1, 34-b]. Kompetensiya soʻzi lotin tilidan kelib chiqqan boʻlib, oʻzbek tilida “moslik”, “munosiblik”, “toʻgʻri kelish” mazmunlarini anglatadi. Mazkur tushuncha shaxsning oʻz bilimlari, mahorati va amaliy tajribasiga tayangan holda oddiy hamda murakkab vazifalarni samarali hal eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Amaliyotda koʻproq “kasbiy kompetentlik” atamasi qoʻllaniladi boʻlib, u mutaxassisning kasbiy faoliyat jarayonida egallagan bilim, koʻnikma va tajribasini muvaffaqiyatli tatbiq eta olish salohiyatini anglatadi. 1983-yilda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilgan ruscha – oʻzbekcha lugʻatda “kompetentnost” atamasi “chuqur bilimga ega boʻlish”, “bilimga tayangan holda ish yuritish”, “xabardorlik” va “ishbilarmonlik” maʼnolarida izohlangan. “Kompetentniy” soʻzi esa yetarli darajada bilimli, masalani hal etishga vakolatli, puxta tayyorgarlikka ega shaxs sifatida talqin etiladi. “Kompetensiya” tushunchasi esa shaxs yaxshi xabardor boʻlgan faoliyat sohasi, muayyan masala doirasi hamda vakolat va ixtiyor chegaralarini ifodalovchi ilmiy-pedagogik termin sifatida qoʻllanadi.

N.M.Muslimovning taʼkidlashicha, ingliz tilidagi “competence” tushunchasi lugʻaviy jihatdan “qobiliyat” maʼnosini anglatadi, biroq “kompetensiya” atamasi shaxsning bilimlari, amaliy koʻnikmalari, mahorati va kasbiy qobiliyatlarining yaxlit majmuasini ifodalashga xizmat qiladi [2, 315-b].

O.Hayitov va N.Umarovalar esa klaster yondashuviga tayangan holda kompetensiyalarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratishni taklif etadilar:

Axborot bilan ishlash kompetensiyalari – axborotni izlash, to'plash va tahlil qilish, ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish hamda ularni qayta ishlash qobiliyatlari;

Muvaffaqiyatga erishish kompetensiyalari – faoliyatni rejalashtirish, jarayonni samarali tashkil etish va erishilgan natijalarni tahlil qila olish;

Insonlar bilan ishlash kompetensiyalari – ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, jamoada samarali faoliyat yuritish va atrofdagilarga ta'sir ko'rsatish salohiyati;

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalari – shaxsiy faoliyatni tahlil qilish, kasbiy o'sishga intilish hamda innovatsion mobillikni namoyon etish [3, 187-b].

Y.S.Zair-Bek metodik kompetensiyalarni bir nechta asosiy turlarga ajratadi. Jumladan, maqsadli kompetensiya pedagogik faoliyatda maqsadni aniq belgilash va to'g'ri qo'yish bilan bog'liq bo'lib, u butun ta'lim jarayonining tizim hosil qiluvchi muhim tarkibiy qismi hisoblanadi; pedagog faoliyatining samarasi bevosita qo'yilgan maqsadlarning aniqligi va asoslanganligiga bog'liq. Mazmunli kompetensiya esa umumta'lim tayyorgarligining har bir bosqichida texnologik ta'lim mazmunining belgilangan hajmda ta'minlanishini, mazkur mazmun doirasida o'quvchilarning minimal zarur tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni, shuningdek, o'qitish yillari bo'yicha o'quv yuklarni ruxsat etilgan eng yuqori hajmini belgilashni qamrab oladi. Monitoringli kompetensiya ta'lim sifatini baholash orqali ta'lim jarayoni natijalarini aniqlashni nazarda tutadi, bunda sifat faqat yakuniy samaradorlik darajasi emas, balki ushbu natijani ta'minlaydigan mazmun, shart-sharoit va jarayonlarning yaxlit tizimi sifatida qaraladi [4, 130-b].

Raqamli kompetensiyalar yuqoridagi olimlar ta'kidlagan kompetensiyalarning barcha turini o'zida mujassamlashtiradi va ularning vazifalarini bajara olishda qulay hisoblanadi.

Raqamli kompetensiya – bu raqamli vositalar va texnologiyalar yordamida ma'lumot izlash, yaratish, baholash, ulashish va xavfsiz ishlatishga oid bilim, ko'nikma va munosabatlar majmuasidir.

“Raqamli savodxonlik” atamasi ilmiy adabiyotda ilk bor 1997-yilda Pol Gilster tomonidan ommaga tanishtirilgan bo'lib, u shu nomdagi asarida bu tushunchaning mohiyatini yoritib bergan. Gilsterning ta'rificha, raqamli savodxonlik – bu foydalanuvchining raqamli muhitda yaratilgan, turli formatlarda taqdim etilgan axborotni tanqidiy idrok etish va undan ongli tarzda foydalanish salohiyatidir [5, 47-b].

Keyinchalik ushbu atama Allan Martin tomonidan yanada kengaytirilgan ko'rinishda talqin qilindi. U raqamli savodxonlikni – insonning raqamli texnologiyalar va media vositalari orqali zarur axborotni aniqlash, unga ega bo'lish, uni boshqarish, tahlil qilish, baholash hamda mazmunli tarzda sintez qilish imkonini beruvchi funksional bilim va ko'nikmalari majmui sifatida izohlaydi. Martin, shuningdek, bu kompetensiyani real hayotiy sharoitlarda konstruktiv muloqot va ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo'lgan raqamli hamkorlik qobiliyati bilan ham bog'laydi [6, 249-b].

Xalqaro tajriba asosida raqamli savodxonlik haqidagi g'oyalarni kengaytirish va yaqinda paydo bo'lgan raqamli kompetensiya tushunchasiga murojaat qilish quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– Birinchidan, Internet taqdim etayotgan imkoniyatlarning tez sur'atlar bilan o'sib borishi va uning bolalik va o'smirlilik davridagi ommabopligi Internetni faqat inson faoliyatining o'ziga xos sohasi sifatida ko'rib chiqish uchun yetarli emas.

– ikkinchidan, inson faoliyati va hayotini o'zgartiruvchi raqamli dunyoning paydo bo'lishi unda sodir bo'layotgan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va psixologik jarayonlarni o'rganish va hisobga olish zarurligini anglatadi. Agar yaqinda Internetning virtual haqiqatini inson mavjudligining yangi noyob shakli sifatida muhokama qilish o'zini oqlagan bo'lsa, bugungi kunda haqiqat va virtuallik endi qarama-qarshi emas. Shu bilan birga odamga virtual makon foydalanuvchisi yoki

uni qo'llab-quvvatlovchi mutaxassis sifatida qaraladigan yondashuvning cheklovlari tobora aniq bo'lib bormoqda.

– Uchinchidan, raqamli kompetentsiya kontseptsiyasiga o'tish amaliy asoslarga ega, chunki u mahalliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga juda mos keladi va ijtimoiy kompetentsiyaning mahalliy ishlanmalarini qo'llash imkoniyatini ochadi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib borgan hozirgi davrda “raqamli kompetensiya” tushunchasi ta'lim tizimi uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli kompetensiyalar tushunchasi faqatgina texnologik vositalarni boshqarish bilan cheklanmaydi. Shuningdek, u raqamli axborotni izlab topish, tanlab olish, tahliliy qayta ishlash, undan axloqiy me'yorlarga muvofiq foydalanish hamda texnologiyalarni ijodiy maqsadlar yo'lida samarali qo'llashga doir qobiliyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Raqamli kompetentlik esa zamonaviy texnologik muhitda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar majmuasini ifodalovchi yangi avlod tushunchalaridan biri sifatida qaraladi. Bu tushuncha raqamli savodxonlik, madaniyat va innovatsion yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirgan integrativ kompetensiyani anglatadi.

Tadqiqotchi M.Xolbekova tadqiqoti doirasida o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini baholash mezonlarini ishlab chiqqan. U “Virtual laboratoriyalar”, “gamifikatsiya” va video o'quv materiallari asosida ta'lim samaradorligini oshirish usullari keltirgan [7, 142-b].

N.Xasanov oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni tatbiq qilishda psixologik tayyorgarlik darajasini o'rgangan. Pedagoglar va talabalar uchun raqamli madaniyat modelini ishlab chiqqan. Zoom, Moodle, MS Teams kabi vositalarning o'zlashtirishga ta'siri psixometrik jihatdan o'rgangan [8, 28-30-b].

Zamonaviy texnologiyalarning jadallik bilan taraqqiy etishi hamda raqamli qurilmalarning kundalik turmushning barcha yo'nalishlariga keng joriy etilishi natijasida inson savodxonligining yangi tipi – raqamli savodxonlik shakllandi. Hozirda u an'anaviy savodxonlik turlari – o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalari bilan teng darajada ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi raqamli jamiyat sharoitida

mazkur tushuncha shaxsning raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan ijtimoiy makonga muvaffaqiyatli moslashuvi, unda faol va samarali ishtirok etishini ta'minlovchi muhim asos sifatida qaralmoqda. Shubhasiz, raqamli ko'nikmalarning rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ular faqat texnik bilimlar doirasi bilan cheklanib qolmay, balki tanqidiy tafakkurni shakllantirish, mustaqil tahlil olib borish, muammolarga ijodiy yondashish hamda murakkab vaziyatlar uchun integrallashgan yechimlar ishlab chiqish salohiyatini ham o'z ichiga oladi. Raqamli savodxonlik bugun asta-sekin boshqa turdagi umumiy kompetensiyalar qatorida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Bu holat ta'lim tizimining mazmuniy tarkibiga, uslubiyatiga, ayniqsa oliy ta'lim darajasidagi o'quv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Turli yo'nalishlarda ta'lim berishning metodikasi va amaliy mashg'ulotlari ham raqamli vositalarga tayangan holda shakllanmoqda.

Bugungi kunda raqamli savodxonlik darajasi insonning axborot muhitidagi faol ishtirokini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi. Bu ko'rsatkich oddiy mobil qurilmalardan foydalanish ko'nikmasidan tortib, murakkab ishlab chiqarish texnologiyalarini boshqarish va dasturiy mahsulotlarni yaratish salohiyatigacha bo'lgan keng qamrovli malakalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotchi G.U.Soldatova raqamli kompetentlikni to'rt asosiy guruhga ajratgan:

Axborot va media kompetentlik shaxsning raqamli muhitda axborotni izlab topish, uni tahliliy baholash, tizimlashtirish va saqlash, axborotni tanqidiy idrok etish, shuningdek, matnli, vizual, audio va video shakllarda turli mazmundagi media mahsulotlarni yaratish uchun zarur bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, axloqiy mas'uliyat va ichki motivatsiyalar majmuasini ifodalaydi.

Kommunikativ kompetentlik – bu raqamli muhitda muloqot qilish (ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, bloglar, forumlar, chatlar va boshqalar) uchun kerakli bo'lgan kommunikatsion bilimlar, muloqot strategiyalari, motivatsion omillar hamda mas'uliyatli raqamli xatti-harakatlarni anglatadi.

Texnik kompetentlik – raqamli qurilmalar va axborot texnologiyalari asosida yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil bartaraf eta olish, kompyuter tarmoqlari hamda bulutli platformalardan xavfsiz, barqaror va samarali foydalanish bo'yicha amaliy malakalar majmuasini ifodalaydi. Bu soha texnik bilimlar bilan bir qatorda operativ tafakkur va amaliy mas'uliyatni ham talab etadi.

Iste'molchi kompetentligi shaxsning kundalik ehtiyoj va amaliy vazifalarni raqamli vositalar orqali mustaqil va samarali bajarish, shuningdek, turli onlayn servislar hamda internet xizmatlaridan ongli, maqsadga yo'naltirilgan va xavfsiz foydalanish ko'nikmalari majmuasini anglatadi [9, 26-b].

Raqamli kompetensiyalar – bu har xil turdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda professional, ijtimoiy, shaxsiy xarakterdagi muammolarni samarali hal qilish ko'nikmalari. Raqamli kompetensiyalar mazmun va mohiyati ustida xorijiy olimlar ayniqsa yevropalik olimlar juda chuqur tadqiqotlar olib borishgan. Bular:

European Commission: “Raqamli kompetensiya – bu shaxsning raqamli texnologiyalar yordamida axborotni boshqarish, samarali muloqot qilish, yangi raqamli mahsulotlar yaratish, texnologiyalardan xavfsiz foydalanish hamda turli muammolarni oqilona hal etish qobiliyatini ifodalovchi integrativ salohiyatdir” [10, 50-b], – deb ta'rif bergan. European Commission – bu Yevropa Ittifoqining ijro etuvchi (bajaruvchi) organi bo'lib, u Yevropa Ittifoqi (YI) nomidan qonunlar loyihasini ishlab chiqadi, ularni amalga oshiradi va Ittifoqning umumiy manfaatlarini himoya qiladi. Yevropa Komissiyasining DigComp 2.1 modeliga ko'ra, raqamli kompetensiyalar besh asosiy yo'nalish doirasida shakllanadi: axborotni izlash, tahlil qilish va boshqarish; raqamli muhitda muloqot hamda hamkorlikni yo'lga qo'yish; raqamli kontentni yaratish va tahrirlash; xavfsizlikni ta'minlash va raqamli farovonlikni qo'llab-quvvatlash; shuningdek, texnologik muammolarni oqilona hal etish.

Italiyalik olim, Yevropa Ittifoqining ilmiy-tadqiqot markazi hisoblangan European Commission's Joint Research Centre (JRC)da faoliyat olib borgan Alessio

Ferrari “Raqamli kompetensiya – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan ishonchli, tanqidiy va xavfsiz foydalanish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va munosabatlardir” deb ta’riflagan [11, 45-b].

Finlyandiyalik pedagog-olim Lilian Ilomaking ta’kidlashicha, raqamli kompetensiya shaxsning raqamli vositalardan faqat texnik jihatdan emas, balki ijtimoiy va madaniy me’yorlarga muvofiq holda ongli foydalanish qobiliyatini ham qamrab oladi. U o‘z ishlarida raqamli kompetensiyani faqat texnik emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham tahlil qiladi va texnik, kognitiv, sotsial va madaniy jihatlar bilan izohlaydi [12, 655-b]. Germaniyalik olim Christine Redecker “Raqamli kompetensiya bu – o‘rganuvchilarning hayot davomida axborot olish, uni qayta ishlash, muloqot qilish va ijodiy ishlatish orqali o‘zini namoyon qilish salohiyatidir” deb ta’riflaydi [13, 96-b].

Xulosa qilib aytganda, raqamli kompetensiya zamonaviy ta’lim, kasbiy faoliyat va ijtimoiy hayotda shaxsning raqamli muhitda samarali harakat qilishi, axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, yaratish va xavfsiz foydalanish qobiliyatini ifodalovchi muhim pedagogik tushunchalardan biridir. O‘zbek va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetensiya faqat texnik ko‘nikmalar majmui emas, balki axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, kommunikativ faollik, ijodiy yondashuv, raqamli xavfsizlik hamda mas’uliyatli foydalanish kabi tarkibiy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Maqolada keltirilgan ilmiy ta’riflar raqamli kompetensiyaning ko‘p qirrali va integrativ xususiyatga ega ekanligini asoslaydi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan raqamli kompetensiya ko‘proq texnologik savodxonlik, media-madaniyat, raqamli muhitda muloqot va hamkorlik qilish nuqtayi nazaridan izohlangan bo‘lsa, mahalliy olimlar qarashlarida ushbu tushuncha ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish va milliy ta’lim tizimini raqamli transformatsiya sharoitiga moslashtirish bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunda har bir ta’lim oluvchi va pedagog uchun zarur bo‘lgan strategik

vazifadir. Chunki raqamli muhitda bilim olish, kasbiy faoliyat yuritish, ilmiy izlanish olib borish va ijodiy mahsulot yaratish jarayonlari bevosita raqamli kompetensiyalarning shakllanganlik darajasiga bog'liq. Demak, raqamli kompetensiyani rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda raqamli jamiyat talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Raqamli kompetensiyalar zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatini samarali amalga oshirishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Ularning mazmuni axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, raqamli texnologiyalardan xavfsiz va samarali foydalanish hamda innovatsion yechimlar yaratish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Shu bois raqamli kompetensiyalar bugungi kunda ta'lim, fan, iqtisodiyot va boshqaruv sohalarining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, raqamli kompetensiyalarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish, ularni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish hamda shaxsning raqamli madaniyatini rivojlantirish zamonaviy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev B. *Umumta'lim maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositalari yordamida rivojlantirish: ped. fan. dokt. diss.* – Toshkent, 2016. – 314 b.
2. Muslimov N. *Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. dokt. ... diss.* – Toshkent, 2007. – 349 b.
3. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari.* – Toshkent: Sano standart, 2015. – 81 b.
4. Shanken E. *Art and Electronic Media.* – London: Phaidon Press, 2009. – 320 p.

5. Gilster P. *Digital Literacy*. – New York: Wiley Computer Publishing, 1997. – 47 p.
6. Martinova Y. *Sifroviye sredstva v xudojestvenno-pedagogicheskom obrazovanii: dis. ... d-ra ped. nauk.* – Sankt-Peterburg: RGPU im. Gersena, 2019. – 280 c.
7. Vygotsky L. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 176 p.
8. Xasanov N., Yusupov N. (2024). *Raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning ijtimoiy boshqaruvdagi ahamiyati // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования.* – 2024. – № 3(13(Special Issue)). – В. 28–30.
9. Солдатова Г. *Психологические особенности интернет-зависимости у подростков и молодежи : автореф. дис. ... докт. психол. наук.* – Москва, 2012.
10. European Commission. *The Digital Competence Framework 2.1: Eight proficiency levels and examples of use.* – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2019. – 50 p.
11. Ferrari A. *Digital Competence in Practice: An Analysis of Frameworks.* – Seville: JRC-IPTS, European Commission, 2012. – 45 p.
12. Ilomaki L., Paavola S., Lakkala M., Kantosalo A. *Digital competence – An emergent boundary concept for policy and educational research // Education and Information Technologies.* – 2016. – Vol. 21(3). – P. 655–679.
13. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu.* – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 96 p.

Muborak Xakimova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: hakimovamuborakhon12@gmail.com*

MA'RIFATPARVAR MALIKA: TEMURIYLAR

RENESSANSNING AYOL SIYMOSI

***Annotatsiya.** Temuriylar davrida yashab ijod qilgan va ilm-fan, adabiyot hamda madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan ayollar faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, Temuriylar sulolasining mashhur vakili, davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan Gavharshod Begim shaxsiyati misolida ma'rifatparvarlik g'oyalari, ilm ahliga homiylik qilish an'analari va madaniy taraqqiyot jarayonlari yoritiladi. Maqolada malikaning ta'lim, me'morchilik, adabiyot va diniy-ma'rifiy muassasalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi xizmatlari hamda Temuriylar renessansida tutgan o'rni ilmiy manbalar asosida baholanadi. Shuningdek, ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ularning ma'naviy merosi zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** madaniyat, ma'rifat, kutubxona, menejment, ta'lim, ilm-fan, madrasa, nodir qo'lyozmalar, startegik, kreatiiv, targ'ibot.*

THE ENLIGHTENED PRINCESS: A FEMALE FIGURE OF THE TIMURID RENAISSANCE

***Abstract.** This article analyzes the role of women in the Timurid era and their contributions to science, literature, and culture. Particular attention is paid to Gavharshod Begum, a prominent representative of the Timurid dynasty, whose activities significantly influenced the political, cultural, and educational life of her time. The study highlights her support for scholars, educational institutions, architecture, and literary development, as well as her contribution to the flourishing of the Timurid Renaissance. Drawing on scholarly sources, the article also examines the spiritual legacy of Gavharshod Begum and the broader role of women in social and cultural development from a contemporary perspective.*

Keywords: *Gavharshod Begum, Timurid Renaissance, culture, enlightenment, education, science, architecture, patronage, cultural heritage, women in history.*

O'rta asrlar Sharq tarixida Temuriylar davri ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'atning yuksak taraqqiy etgan bosqichi sifatida alohida o'rin tutadi. Bu davr ko'pincha Temuriylar renessansi deb ataladi va u nafaqat buyuk davlat arboblari, olimlar va shoirlar, balki ma'rifatparvar ayollar faoliyati bilan ham ahamiyatlidir. Temuriylar sulolasida yashab ijod qilgan va jamiyat hayotida faol ishtirok etgan ayollar ilm-ma'rifat, xayriya ishlari, me'morchilik va madaniy hayot rivojiga munosib hissa qo'shganlar.

Shunday ayollar orasida alohida o'rin egallagan ma'rifatparvar malika – Gavharshod Begim hisoblanadi. Uning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, ilm ahli va ijodkorlarga ko'rsatgan homiyligi, madrasa va masjidlar qurilishiga qo'shgan hissasi Temuriylar renessansining muhim jihatlaridan biri bo'lgan. Gavharshod Begim timsolida biz Temuriylar davrida ayollarning nafaqat oilada, balki ijtimoiy-madaniy hayotda ham katta mavqega ega bo'lganligini ko'ramiz.

Ushbu ishda Temuriylar renessansi davridagi ma'rifatparvar ayollar faoliyati, xususan, Gavharshod Begimning hayoti va ma'naviy-ma'rifiy merosi tahlil qilinib, uning tariximiz va madaniyatimiz rivojidadagi o'rni yoritiladi.

Temuriylar davri ayollari jamiyatda faol mavqega ega bo'lib, ular hukmdorlarning ishonchli maslahatchilari, ilm-fan, me'morchilik va ma'rifatparvarlik homiylari sifatida “Sharq Renaissance” rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Buyuk malikalarning jamiyatdagi o'rnini quyidagi misollar orqali yaqqol tasavvur qilish mumkin:

Saroymulxonim (Bibixonim): Sohibqiron Amir Temurning bosh rafiqasi. Amir Temur davlatida u nafaqat davlat va siyosat, balki Movarounnahrning iqtisodiy va madaniy havosini boshqargan. U ilm-fan ahliga homiylik qilgan, ko'plab madrasalar qurdirgan va o'zining oliyjanoblighi hamda aql-zakovati bilan davlatchilik tizimida muhim o'rin tutgan.

Gavharshod begim: Shohrux Mirzoning rafiqasi bo'lib, tarixda ilm-fan va san'atning chinakam g'amxo'ri sifatida qolgan. Hirot shahrida ilm-fan markazi hisoblangan mashhur madrasa hamda masjid majmuasini barpo ettirgan. Uning saroyi davrning shoirlari, olimlari va xattotlari to'planadigan ilmiy akademiyaga aylangan. Oltinoybegim va Gulbadanbegim: Temuriylar davri malikalarining ta'lim-tarbiya va adabiyotdagi o'rnini Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asari misolida ko'rish mumkin. U tarixnavislikda o'ziga xos maktab yaratib, davlatning madaniy qiyofasini adabiyotda abadiylashtirgan.

Temuriylar davrida ayollar hech qachon jamiyatdan ajratilmagan, aksincha, ular davlat boshqaruvi, ilm-fan va ma'naviyatning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarila olgan. Bugungi kunda kutubxona menejmenti yoki ta'lim tizimidagi islohotlar haqida gapirganimizda, ko'pincha g'arb tajribasiga tayanamiz. Biroq tariximizga nazar tashlasak, bundan 600 yil avval Hirot da zamonaviy ta'lim va ilm-fan boshqaruvining mukammal modeli yaratilganiga guvoh bo'lamiz. Bu ezgu ishlarning tepasida esa oqila va tadbirkor ayol – Gavharshod begim turgan edi. Ma'lumki, Amir Temurning vorisi Shohrux Mirzo zamonida (1409–1447) Hirot shahri temuriylar davrining siyosiy markaziga aylandi. Shaharning umumiy tuzilishi qaytadan loyihalaniib, yangi binolar qurilishi tufayli yanada ko'rkamlashtirildi. Bu davrda shaharda o'ndan ortiq madrasa mavjud bo'lgan. Chiroyli chorbog' va saroylar qurilib, ularni devorlari ajoyib naqshlar, kitoba (devorga Qur'ondan parcha yoki baytlarni turli yozuvda naqshdor qilib yozish) va suratlar bilan bezatilgan. Bu esa shaharning o'sha davrdagi ma'naviy muhitini belgilab berardi.

Shohrux Mirzo o'ta dindor hukmdor bo'lishiga qaramay ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shgan. Shohrux Mirzo davlat ishlarining salmoqli qismini, ayniqsa, madaniyat va obodonchilik sohasini o'zining farosatli umr yo'ldoshi Gavharshod begimga ishonib topshirgan edi. Tarixiy manbalar malikani yuksak did sohibasi, qat'iyatli va ilm-fanning chinakam homiysi sifatida ta'riflaydi [6, 18-b]. Gavharshod begimni hech mubolag'asiz "Birinchi kutubxona menejeri" desak ham bo'ladi chunki malikaning kutubxona tizimiga kiritgan islohoti bugungi

kun mutaxassislarini ham hayratga soladi. O'sha davrda Shohrux Mirzo kutubxonasida kitoblar ko'p bo'lsa-da, ularni topish mushkul, tartibsiz joylashgan edi. Malika kutubxonani o'z nazoratiga olib, birinchi navbatda kitoblarni sohalar bo'yicha tasniflab, kutubxonadagi qimmatbaho asarlar uchun maxsus qulflanadigan sandiqlar yasattiradi hamda ilk bor kitoblar ro'yxatini (katalog) tuzdirib, har bir asarning o'rnini belgilab qo'ydi. Natijada, ilgari kun bo'yi izlangan nodir qo'lyozmalarni bir zumda topish imkoniyati tug'ildi. Bu esa ilmiy izlanishlar samaradorligini keskin oshirdi. Gavharshodbegim o'zining tashabbusi bilan tashkil etilgan "Ixlosiya" madrasasi mudarrislari va toliblari uchun ta'limning asosini tashkil etuvchi fanlar tarkibini belgilashda ham yosh olimlar va mudarrislarga homiylik qildi. Malika "Ixlosiya" madrasasidagi o'quv dasturi talabalarning ham ma'naviy, ham dunyoviy jihatdan komil inson bo'lib yetishishiga qaratilgan edi. Gavharshod begim tavsiya etgan 8 ta asosiy yo'nalish quyidagilardan iborat edi:

Birinchi va bosh vazifa – Qur'oni karimni o'rganish, yod olish bo'yicha mashqlar, uni qiroat qilish, tavjid usullari, ohangini o'zlashtirish;

Ikkinchisi – Qur'oni karimdagi har qaysi sura, har bir oyat ma'nosini tushunish va tushuntira bilish, dorulfanodagi o'tkinchi hayot, dorulbaqoning mohiyati haqidagi vahiy larni o'rganish va o'zlashtirish;

Uchinchisi – Rasululloh Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vassallamning nutqlari, ul muborak zot va sodiq sahobalar ishtirok etgan buyuk voqealar, ularni islom dinini targ'ib qilishdagi beqiyos jasoratlari haqida hikoya qiluvchi hadislarda bayon qilingan sunna;

To'rtinchisi – falsafa. Ma'lumki inson aqli haqiqatni izlash bilan kamol topadi, odamlar eng qadimgi zamonlardan biri olam sirlarini izohlashga, yerda yuz berayotgan tabiiy va ijtimoiy voqealarning sabab va oqibatlarini aniqlashga intiladilar.

Qur'oni Karimdan keyin falsafa barcha ilmlarning ikkinchi mustahkam asosidir. Sokrot, Platon, Aristotel, Al-Kindiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rashid, Al-

Beruniy kabi ulug' mutafakkirlarning asarlaridan hech qaysi insonni ma'rifati, ilmi odam deb hisoblash mumkin emas.

Beshinchi – tillarni o'rganish. Arab va fors tillar bilan bir qatorda madrasada turk tili darslari joriy qilinadi. Bundan tashqari, eng iqtidorli toliblarning alohida bir guruhi keyinchalik mudarris, tarjimon, hatto elchi lavozimlarida ishlash uchun xitoy, hind, yunon tillarini o'rganish sohasidagi bilimlarini takomillashtirib boradilar. Til darslarini yer yuzining yetti iqlimi shoirlari asarlarini o'rganish bilan qo'shib olib borish zarur.

Oltinchi – huquq va davlatni boshqarish qonunlarini o'zida mujassamlashtiruvchi fiqh. Vazifasi yoki iqtidori yuzasidan ommaning e'tiqodi, axloqning musaffoligi va jamiyatning osoyishtaligi haqida qayg'uruvchi har qaysi mo'min huquqiy ko'rsatmalarini bilishi va ularga qat'iy amal qilishi zarur. Madrasa toliblarning ayrimlari machit imomlari bo'lib, boshqalari mudarris, domla yoki amaldor bo'lib yetishadilar, lekin ular fiqh asoslarini bilmasalar, mamlakatda adolat va qonun ustuvorligiga ta'sir ko'rsatishlari amri mahol.

Yettinchi – imlo va husnixat darslari. Toliblar bexato, chiroyli va aniq-ravshan yozishga, o'z fikrlarini qog'ozda mantiqan izchil bayon qilishga o'rganishlari zarur.

Sakkizinchi – bilimlarning keng ko'lamli sohasi tarix, matematika, ilmi nujum, geografiya fanlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari har qaysi tolib o'z xohishi va iqtidoriga muvofiq musiqa, musavvirlik, tibbiyot, yer osti boyliklarini va foydali madanlarini o'rganish sohalaridan birini tanlashi mumkin [4, 58-b].

“Hirotni yulduzi” nomini olgan Gavharshodbegim nafaqat malika, balki o'z davrining strategik fikrlaydigan arbobi edi. Uning maqsadi Hirotni Samarqand va Bog'dod kabi ilm markazlari bilan bellasha oladigan darajaga ko'tarish bo'lgan. Malika asos solgan kutubxona keyinchalik uning o'g'li Boysunqur Mirzo tomonidan tashkil etilgan, dunyoga mashhur “Boysunqur kutubxonasi” uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Uning tarbiyasini olgan o'g'illari – Mirzo Ulug'bek, Boysunqur Mirzo va Muhammad Jo'ki Mirzolar keyinchalik jahon ilm-fani va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shdilar [7, 18-b]. Gavharshod begimning hayoti va faoliyati bugungi talaba-

qizlarimiz uchun haqiqiy ibrat maktabidir. Ilmga bo'lgan muhabbat, tashkilotchilik va yuksak did insonni naqadar yuksaklikka ko'tarishini ushbu tarixiy siymo misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar renessansi nafaqat buyuk davlat arboblari va olimlari, balki ma'rifatparvar ayollari bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirgan davr hisoblanadi. Bu davrda ayollar ilm-fan, madaniyat, me'morchilik va xayriya ishlarida faol ishtirok etib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar.

Ayniqsa, Gavharshod Begim o'zining donishmandligi, siyosiy faolligi hamda ilm va madaniyat ahliga ko'rsatgan homiyligi bilan Temuriylar renessansining yorqin ayol siymosiga aylangan. Uning tashabbusi bilan barpo etilgan madrasa va me'moriy obidalar, ma'rifatni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlari bugungi kunda ham yuksak qadrlanadi. Shu bois Gavharshod Begim merosi Temuriylar davrida ayollarning jamiyat hayotidagi muhim o'rnini namoyon etadi hamda kelajak avlodlarni ilm-ma'rifatga, milliy va madaniy merosni asrab-avaylashga undaydi. Uning hayoti va faoliyati Temuriylar renessansining yuksak ma'naviy salohiyatini aks ettiruvchi muhim tarixiy namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai baxrayn. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 632 b.*
2. *Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – 381 b.*
3. *Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 336 b.*
4. *Gulbadanbegim. Humoyunnoma. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 144 b.*
5. *Nizommiddin Shoniy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 544 b.*
6. *Fayziyev T. Temuriy malakalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994. – 40 b.*
7. *Oxunjonov E. Vatan kutbxonachiligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – 308 b.*

Mirali Maxmudov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasi
dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: makhmudovmirali@gmail.com*

Raximova Sevara

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Axborot-resurs markazi. Ilmiy uslubiy axborot-ma'lumot
va (davriy nashrlar) bo'lim mudiri
E-mail: Sevara.Rahimova@mail.ru*

TA'LIMNING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA UNIVERSITET KUTUBXONALARINI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI SHARHI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'limning globallashuvi sharoitida universitet kutubxonalarining rivojlanish tendensiyalari, ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni hamda faoliyatini takomillashtirishning nazariy va uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kutubxona xizmatlariga joriy etilishi, elektron axborot resurslarini shakllantirish, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda xalqaro tajribalarning universitet kutubxonalarini faoliyatiga ta'siri yoritilgan. Universitet kutubxonalarining ilmiy-ta'limiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati va ularni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari yuzasidan ilmiy xulosalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim globallashuvi, universitet kutubxonasi, axborot-kutubxona faoliyati, raqamli transformatsiya, elektron resurslar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilmiy axborot, kutubxona xizmatlari.*

UNIVERSITY LIBRARIES IN THE ERA OF EDUCATIONAL GLOBALIZATION: A REVIEW OF THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

***Abstract.** This article examines the development trends of university libraries in the context of the globalization of education and analyzes the theoretical and methodological foundations for improving their activities in the modern educational*

system. The study highlights the implementation of information and communication technologies in library services, the development of electronic information resources, digital transformation processes, and the impact of international experience on university library activities. The article also emphasizes the role of university libraries in supporting educational and research processes and presents scientific conclusions on promising directions for their further development.

Keywords: globalization of education, university library, library and information activities, digital transformation, electronic resources, information and communication technologies, scientific information, library services.

Oliy ta'limning muhim tarkibiy bo'linmasi bo'lgan universitet kutubxonalariga ta'limning globallasuvi va oliy maktab makonini axborotlashtirish kabi keng qamrovli omillar kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyoda universitet kutubxonalarini axborotlashtirish juda ta'sirli miqyosga yetdi. Talabalar, aspirantlar va o'qituvchilarning kompyuter sinflariga kirishlari universitetlarning ish soatlariga yaqin. Elektron kataloglar, elektron darsliklar, o'z avlodining to'liq matnli resurslari, elektron hujjatlarni yetkazib berish, veb-saytlarni ishlab chiqish va mazmuni, sinfda o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish, barcha dars materiallarini joylashtirgan holda professor-o'qituvchilar veb-saytlari. Aytishim kerakki, bir qator universitet kutubxonalarida axborotlashtirish maksimal darajaga yetadi. Texnologiya va dasturiy mahsulotlar takomillashtirishda davom yetadi, ammo ularni o'quv jarayoniga va ilmiy ishlarga kiritish shakllari allaqachon to'liq ochib berilgan.

Ushbu hodisalar universitet kutubxonalarini jadal rivojlanayotgan o'quv jarayoniga va kutubxona xizmati iste'molchilarining tobora yuqori axborot madaniyatiga muvofiq doimiy ravishda modernizatsiya qilish va o'zgartirishni talab qiladi. Shu maqsadda universitet kutubxonalarini kutubxona va axborot markazlariga aylantirilmoqda.

Globallasuv jarayonlarining universitet kutubxonalarining rivojlanishiga ta'sirini o'rganishning dolzarbligi ilmiy-nazariy darajani, empirik tadqiqotlar darajasini va globallasuv sharoitida universitet kutubxonalarida sodir bo'layotgan

jarayonlarni tahlil qilish, asosiy tendensiyalarni aniqlash va ularning rivojlanish imkoniyatlarini bashorat qilish zarurligidadir.

Biz ko'rsatgan mazmunli chegaralarda muammo bo'yicha maxsus umumlashtiruvchi tadqiqotlar o'tkazilmagan. Ushbu tadqiqot muammolariga to'xtalib o'tgan so'nggi yillardagi asarlar orasida yaratilgan monografiyalarini ta'kidlash joiz. Ular jumlasiga G.V.Geniyeva, T.V.Yeremenko, Ye.I.Kuzmin, R.S.Motulskiy, Y.L.Shrayberg tomonidan yaratilgan asarlarni ko'rsatish mumkin [2, 4–23-b]. Masalan G.V.Geniyevaning “Kutubxona madaniyatlararo aloqa markazi sifatida” monografiyasida [4] zamonaviy kutubxonani hozirgi madaniy tushunchalar kontekstida jamiyatning eng muhim institutlaridan biri deb biladi, kutubxonalar ijtimoiy institutlar sifatida globallashuv bilan bevosita bog'liqligini, ular nafaqat global jarayonlarda ishtirok etishini, balki shuningdek, ularning faol ishtirokchi ekanligi qayd etilgan. “Kutubxona ijtimoiy institut sifatida” asarida Motulskiy kutubxonaning ijtimoiy institut sifatida genezisi va mohiyatini o'rganadi, jamiyatning axborot o'zgarishi davrida ularning rivojlanishining konseptual asoslarini bayon qilgan.

G.V.Varganova, AQShda kutubxonashunoslik va axborot tadqiqotlari [2], asarida universitet fanlari va oliy ta'lim tizimini yuqori darajada ushlab turish zarurati kutubxonalarga ma'lumotlarning bilimga ko'payishiga yordam beradigan universitetlarning tarkibiy bo'linmalari sifatida alohida talablar qo'yishiga e'tibor qaratadi.

So'nggi yillarda I.P.Burger, S.P.Galaktionova, N.A.Koryakovseva, Kudryashova va Ye.A.Livadonovanning nomzodlik dissertatsiyalarini ham alohida ta'kidlash joiz [2, 3–16-b].

Kudryashova va Ye.A.Livadonovanning asarlari universitet kutubxonalarini rivojlantirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan, masalan: universitet kutubxonasi missiyasining evolyusiyasi va uning axborot jamiyatiga o'tish davridagi o'zgarishi, universitetni dastlabki adabiyotlar bilan to'ldirish

xususiyatlari, talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishda universitet kutubxonasining o'ri.

Doktorlik dissertatsiyalari orasida T.V.Yeremenko va O.L.Lavrikning asarlari ta'kidlanishi kerak [8, 17-b]. T.V.Yeremenko Rossiya va AQShdagi universitet kutubxonalari tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida zamonaviy axborot-ta'lim muhitida universitet kutubxonasini rivojlantirish bo'yicha yaxlit qarashlar tizimini ishlab chiqdi, ayniqsa Rossiyadagi universitet kutubxonalari axborotlashtirish bosqichlariga katta e'tibor qaratdi. O.L.Lavrik o'z ishida zamonaviy axborot muhitida akademik kutubxonalarning rivojlanish xususiyatlarini, Internet resurslarini, axborot nashrlarining turlari va xillarini o'rgangan.

Ko'pgina rus kutubxonashunos olimlarining ilmiy izlanishlari chet Elda kutubxona nazariyasi va amaliyotini o'rganishga bag'ishlangan. Bular Ye.R.Sukiasyan, O.I.Talalakina, V.V.Skvorsov, R.S.Gilyarevskiy, T.F.Karatigina va ularning asarlaridir.

Globalashuv sharoitida oliy ta'lim muammolari bo'yicha tadqiqotlar va nashrlar soni ortib borayotganiga qaramay, globalashuv jarayonlarining universitet kutubxonalari rivojlanishiga ta'sirini har tomonlama tushunishga harakat qilinmagan. Shuning uchun ushbu maqolada biz ta'limni globalashuvi sharoitida universitet kutubxonasini rivojlantirishning ba'zi muammolarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Tadqiqotning maqsadi ta'limning globalashuvining universitet kutubxonalari rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilishdir.

Belgilangan maqsad quyidagi vazifalarni hal qilishni talab qiladi:

1. Ta'limdagi global o'zgarishlarning universitet kutubxonalari rivojlanishiga ta'sirini o'rganish.
2. Universitet kutubxonalari rivojlanishining turli jihatlarida ta'lim globalashuvining o'ziga xos ko'rinishlarini tahlil qilish.
3. Xorijiy universitet kutubxonalari tajribasini qiyosiy o'rganish;

4. Ta'limning globallashuvi jarayoniga universitet kutubxonalarini kiritish mezonlarini aniqlash.

Belgilangan maqsad va vazifalar kutubxonashunoslik, pedagogika va sotsiologiya chorrahasidagi tadqiqotlarning fanlararo xususiyatini nazarda tutadi. Kutubxonashunoslikning umumiy asoslari ta'limning globallashuvining universitet kutubxonalari rivojlanishiga ta'sirini aniqlash va tavsiflash imkonini beradi.

Bizningcha ushbu tadqiqot davomida o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi usullar to'plamini qo'llash maqsadga muvofiqdir: umumiy ilmiy (tizimli, modellashtirish, qiyosiy tahlil, shuningdek anketalar ko'rinishidagi sotsiologik tadqiqot usuli), maxsus kutubxonashunoslik (kutubxona statistikasi va hujjatlarini tahlil qilish).

Tadqiqotning nazariy ahamiyati kutubxonashunoslik va unga aloqador fanlarni ta'limning globallashuvi sharoitida universitet kutubxonasi faoliyatini tushunishga yangicha yondashuv bilan boyitishdan iborat. Yuqoridagi faktik materiallar oliy ta'limning yangi paradigmasi asosida universitet kutubxonalarining roli sezilarli darajada oshgani haqidagi bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

Ta'limning globallashuvi hozirgi bosqichda oliy ta'limning yeng muhim bo'limlaridan biri sifatida universitet kutubxonalarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot jamiyatiga o'tish sharoitida universitet kutubxonalari asta-sekin kutubxona va axborot markazlariga aylantirilib, kelajakda global ta'lim makoniga qo'shilishini ta'minlamoqda.

Ta'limning globallashuvi sharoitida universitet kutubxonalari o'quv jarayoniga yordam berish uchun o'quvchilarga xizmat ko'rsatishda parallel texnologiyalardan foydalanishdan iborat yangi axborot va an'anaviy texnologiyalardan foydalanish asosida o'z faoliyatida sifat o'zgarishlarini boshdan kechirmoqda.

Globallashuv sharoitida uzluksiz oliy ta'limning bevosita vositasi bo'lgan universitet kutubxonalari rivojlanishining asosiy tendensiyalari ochiq virtual

muhitni yaratish, fondlarga ochiq kirishni ta'minlash va bilimlarga erkin kirishni ta'minlaydigan moslashuvchan ko'p funksiyali tuzilmani yaratishdir.

Jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan globallasuv jarayonlari turli soha olimlarining diqqatini tortmoqda. Globallasuvning umumiy nazariyasi asta-sekin paydo bo'lmoqda va yangi ilmiy intizom-globalistika allaqachon shakllandi.

Globallasuv muammolarini birinchilardan bo'lib faylasuflar, siyosatshunoslar, sotsiologlar va iqtisodchilar o'rgandilar. Ularning nuqtayi nazaridan globallasuv baynalmilallashtirishning eng yuqori bosqichi, uning sifat jihatidan yangi bosqichi sifatida qaraladi. U quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: dunyoni bir butun sifatida tushunish; axborot texnologiyalari inqilobining so'nggi yutuqlari asosida dunyoni birlashtirish; nafaqat mamlakatlarni, balki fuqarolarni ham birlashtirish.

Shunday qilib, zamonaviy insoniyat faoliyatining barcha sohalarining globallasuvi va ayniqsa, axborot makonining globallasuvi mantiqan kutubxona faoliyatining, globallasuviga olib keladi. Kutubxonalari sektorida ro'y berayotgan globallasuv jarayonlari hozirda ijobiydir, chunki ular kutubxona faoliyati sifatini oshirishga, uni kitobxonlarni ehtiyojlari va talablariga ko'proq javob berishga va uni global darajaga yaqinlashtirishga yordam beradi.

Universitet kutubxonasi, bir tomondan, ijtimoiy institut bo'lib, zamonaviy global jamiyatda sodir bo'layotgan barcha jarayonlar ta'sirida bo'lsa, boshqa tomondan, u oliy maktabning tarkibiy bo'linmasi bo'lib, hozirgi bosqichda oliy ta'limning rivojlanishini qamrab oladigan barcha tendensiyalarga bog'liq, masalan: talabalar jamoasining ko'payishi, davlat tomonidan moliyalashtirish muammolari, uzluksiz ta'limni rivojlantirish, masofaviy o'qitish, modulli ta'lim.

Universitet kutubxonalari, albatta, bu jarayonda katta rol o'ynashi kerak. Inson salohiyatini rivojlantirish ko'p jihatdan ularning texnik jihozlanishi, kutubxona va bibliografik xizmatlarni o'z vaqtida taqdim etish, intellektual ishlarni tashkil etish uchun qulay muhit yaratishga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бургер И. Организационная структура вузовской библиотеки в условиях формирования информационного общества: дис. ... канд. пед. наук : 05.25.03 // И. П. Бургер. – Новосибирск, 2001. – 270 с.
2. Варганова Г. Библиотечные и информационные исследования в США // Г.В.Варганова; Санкт-Петербургский государственный университет культуры и искусств. – СПб. : Профессия, 2002. – 192 с.
3. Галактионова С. Документные ресурсы вузовских библиотек как компонент образовательно-информационного пространства территории: дис. ... канд. пед. наук : 05.25.03 / С.П.Галактионова. – Кемерово, 2004. – 220 с.
4. Гениева Е. Библиотека как центр межкультурной коммуникации. – Москва: РОССПЭН, 2005. – 208 с.
5. Гиляревский Р. Библиотеки и библиотечное дело США. – Москва: Логос, 1992. – 294 с.
6. Дворкина М. Библиотечное обслуживание в вузе: проблемы и новые ориентиры / М.Я.Дворкина // Университетская библиотека на рубеже тысячелетий: выбор пути. – Екатеринбург: УГУ, 1999. – С. 21–23.
7. Емельянов А. Концепция, модели, технология удалённого доступа к информационным ресурсам ИБС // Современные библиотеки в инновационном образовательном процессе. – Тюмень, 2004. – С. 33–37.
8. Еременко Т. Вузовская библиотека России в едином информационном пространстве // Научные и технические библиотеки. – 1998. – № 2. – С. 67–70.

To'yichi Bayturayev

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: tyichi56boyturaev@yandex.com*

**O'ZBEKISTON QADIMGI DAVR SIVILIZATSIYALARIDAGI MODDIY
VA MA'NAVIY MADANIYATINI BIBLIOGRAFIK MA'LUMOTLARINI
MODELLASHTIRISH (Baqtriya va Kushonlar davri misolida)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston hududidagi qadimgi sivilizatsiyalar, xususan, Baqtriya va Kushonlar davri moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid axborot resurslarini bibliografik modellashtirish masalalari tadqiq etilgan. Maqolada bibliografik faoliyat shunchaki texnik ro'yxatga olish emas, balki madaniy kodlarni tizimlashtiruvchi, "eksteriorizatsiya va interiorizatsiya" dialektikasini ta'minlovchi fanlararo fenomen sifatida asoslangan. Muallif tomonidan madaniyat bibliografiyasini shakllantirishning uch bosqichli modeli ilgari surilgan bo'lib, unda ikonografik, lingvistik va arxitekturaviy kodlarni raqamli muhitga integratsiya qilish qonuniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: moddiy va ma'naviy madaniyat, bibliografik modellashtirish, Baqtriya, Kushonlar imperiyasi, eksteriorizatsiya, interiorizatsiya, semiosfera.

**MODELING BIBLIOGRAPHIC INFORMATION ON THE MATERIAL
AND SPIRITUAL CULTURE OF ANCIENT CIVILIZATIONS OF
UZBEKISTAN (A Case Study of the Bactrian and Kushan Periods)**

Abstract. This article examines the issues of bibliographic modeling of information resources related to the material and spiritual culture of ancient civilizations in the territory of Uzbekistan, particularly the Bactrian and Kushan periods. The study argues that bibliographic activity is not merely a technical process of recording information but also an interdisciplinary phenomenon that systematizes cultural codes and ensures the dialectics of "exteriorization and interiorization." The author proposes a three-stage model for the formation of

cultural bibliography, analyzing the principles of integrating iconographic, linguistic, and architectural codes into the digital environment.

Keywords: *material and spiritual culture, bibliographic modeling, Bactria, Kushan Empire, exteriorization, interiorization, semiosphere.*

Baqtriya va Kushonlar davri – Markaziy Osiyo davlatchiligi va sivilizatsiyasining eng gullagan, antik madaniyat, buddaviylik, zardushtiylilik va mahalliy an'analar sintezlashgan tarixiy bosqichidir. Ushbu davrning moddiy va ma'naviy yodgorliklarini bibliografik tizimlashtirish madaniyat falsafasidagi “madaniy eksteriorizatsiya (predmetlashish) va reaktivatsiya (qayta jonlanish)” nazariyasini amaliy isbotlash uchun eng mukammal namuna hisoblanadi.

Akademik E.V.Rtveladze va professor G.A.Pugachenkova kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari orqali Qoratepa, Fayyoztepa, Xolchayon va Dalvarzintepa me'moriy-arxeologik majmualaridan topilgan ashyoviy buyumlar sivilizatsion yondashuv asosida tahlil qilinib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Masalan, E.V.Rtveladzening “Aleksandr Makedonskiy Baqtriya va So'g'diyonada” monografiyasida yunon-makedoniya qo'shinlarining harakatlanish yo'llari arxeologik va bibliografik manbalar qiyosi orqali qayta tiklangan [8]. Shuningdek, akademik Y.G'.G'ulomovning “Xorazmning sug'orilish tarixi” [10] va B.V.Andrianovning “Drevniye orositelniye sistemi Priaralya” [11] kabi asarlarida irrigatsiya inshootlari shunchaki texnik obyekt emas, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilishini belgilovchi muhim madaniy fenomen sifatida tahlil qilinadi.

Bibliografik nuqtayi nazardan, ushbu ilmiy nashrlar va ularning sohaviy ko'rsatkichlarda tizimlashtirilishi O'zbekiston moddiy va ma'naviy madaniyatining “predmetlashish va spiralsimon rivojlanish” tamoyillarini nazariy jihatdan asoslab, quyidagi uchta ketma-ket bosqichdan iborat yaxlit tizimni (bibliografik modelni) yuzaga keltiradi:

1-Bosqich: Identifikatsiya va birlamchi deskripsiya (Ro'yxatga olish).

2-Bosqich: Semantik tahlil va aksiologik baholash (Kontekstlashtirish).

3- Bosqich: Raqamli kodlash va global integratsiya (Linked Data / Sun'iy Intellekt).

1. Identifikatsiya va birlamchi deskripsiya (Ro'yxatga olish) bosqichi.

O'zbekiston moddiy va ma'naviy madaniyati bibliografiyasini modellashtirishning boshlang'ich va fundamental bosqichi bu – identifikatsiya (aniqlash) va birlamchi deskripsiya (bibliografik tavsiflash/ro'yxatga olish) jarayonidir. Bu bosqich M.S.Kaganning faoliyat nazariyasidagi “eksteriorizatsiya” (predmetlashish) mahsullarini axborot makonida qayd etish va ularga dastlabki “hujjatli passport” berish vazifasini bajaradi [2].

Madaniyat va san'at sohasida, ayniqsa Baqtriya va Kushonlar davri misolida, birlamchi deskripsiya jarayoni oddiy texnik kitob ro'yxatidan tubdan farq qiladi va quyidagi tizimli vazifalarni o'z ichiga oladi:

Manbaviy diffuziyani yengib o'tish (Kumulyatsiya): Kushonlar davri madaniyatini o'rganuvchi ma'lumotlar juda tarqoq (diffuz) bo'lib, ular kutubxona fondidagi monografiyalar, Fanlar akademiyasi arxivlaridagi arxeologik dala hisobotlari, muzeylardagi ashyoviy eksponatlar katalogri va xorijiy sharqshunoslik nashrlarida joylashgan manbalar shaklida bo'lishi mumkinligi barcha ilmiy nashrlarda ko'rsatib o'tilgan. Identifikatsiya bosqichi ushbu geterogen (turli shakldagi) ma'lumotlarni yagona bibliografik maydonga to'plashni taqozo etadi.

Birlamchi deskripsiyaning sinkretizmi (Murakkab tavsif): An'anaviy bibliografik tavsifda faqat kitob muallifi, nomi va yili ko'rsatilsa, moddiy va ma'naviy madaniyat bibliografiyasida obyektning ikonografik xususiyatlari (masalan, Xolchayon haykallarining topilgan tartib raqami, Dalvarzintepa oltin xazinasining tarkibi, Kushon tangalaridagi epigrafik belgilar va ramzlar) birlamchi deskripsiya tarkibiga kiritiladi.

“Bibliografik deskripsiya” – bu oddiy tilda “kitob yoki manbaning pasporti” (muallifi, nomi, yili, beti) degani.

“Sinkretizm” esa – “bir-biriga o'xshamaydigan turli sohalarni, xususiyatlarni birlashtirish, qorishtirish” ma'nosini anglatadi.

Demak, “Birlamchi deskripsiyaning sinkretizmi” deganda – qadimgi Baqtriya va Kushonlar davriga oid topilmalar va kitoblarni kompyuter bazasiga yoki katalogga kiritayotganda, unga shunchaki kitobdek emas, balki bir vaqtning o‘zida ham kitob, ham tarixiy ashyo, ham san’at asari sifatida yondashib, murakkab (qo‘shma) pasport berish tushuniladi.

Bu tushunchani yanada oddiyroq qilib, ikkita sodda misol bilan tushuntirib beraman:

1. Oddiy kitobning pasporti (Sinkretizmsiz – oddiy holat).

Agar siz kutubxonaga borib, bugungi kunda chop etilgan oddiy bir badiiy kitobni kompyuter bazasiga kiritmoqchi bo‘lsangiz, unga quyidagicha oddiy pasport yozasiz:

- Muallifi: Abdulla Qodiriy;
- Nomi: O‘tkan kunlar;
- Yili va joyi: Toshkent, 2024 yil;
- Bu yerda hech qanday sinkretizm (murakkablik) yo‘q, hammasi texnik va oddiy.

2. Qadimgi madaniyat manbasining pasporti (Sinkretizm bor — bizning maqolangizdagi holat).

Kitobxonlar Baqtriya va Kushon davri yodgorliklari, masalan, Xolchayon sulolaviy haykallari yoki Qoratepadan topilgan nodir bitiklar haqidagi ilmiy hisobotlarni, muzey eksponatlarini bibliografik ro‘yxatga olmoqchi bo‘lsangiz, yuqoridagi oddiy pasport yaramaydi. Bibliografik qo‘llanma tuzuvchi mutaxassis bir vaqtning o‘zida bir nechta fanni (tarix, arxeologiya, san’atshunoslik va bibliografiyani) birlashtirishingiz, ya’ni sinkretik pasport tuzishingiz kerak bo‘ladi:

- Matnli qismi (Bibliografiya): Kitob yoki hisobotning muallifi, nomi, nashr etilgan yili.

- Ikonografik qismi (San’atshunoslik): Ushbu manbada tasvirlangan haykalning yuz tuzilishi, kiyimidagi ramzlar, boshidagi toji va ularning vizual xususiyatlari.

- Arxeo-markerlar (Arxeologiya/Geografiya): Ushbu ashyo Surxondaryoning aynan qaysi koordinatasidan, Qoratepaning nechanchi xonasidan, qaysi qatlamdan va nechanchi raqam bilan topilganligi.

Chunki bu yerda bibliografik tavsif ichiga ham matn, ham surat (vizual ramz), ham geolokatsiya (arxeologik manzil) bir vaqtning o'zida qo'shilib, qorishib ketmoqda. Qadimgi tariximizni raqamlashtirishda oddiy kutubxona qoidalari ish bermaydi. Manbalarni kompyuter bazasiga kiritishda "birlamchi deskripsiyaning sinkretizmi"dan foydalanish, ya'ni topilmaning ham kitobxonlik, ham arxeologik, ham badiiy suratli pasportlarini bir joyga jamlash shart. Shundagina kompyuter (yoki sun'iy intellekt) ushbu topilmaning to'liq qiymatini anglay oladi.

Bu bosqichda bibliografik yozuv Y.M.Lotmanning semiotik nazariyasiga muvofiq, qadimgi madaniy matnning birinchi "meta-matni" (ya'ni, matn haqidagi matn) sifatida shakllanadi. Masalan, Qoratepa buddaviylik majmuasidan topilgan sopol idishdagi baqtriy yozuvi parchasi bibliograf tomonidan identifikatsiya qilinib, ilmiy tavsiflangandagina, u statik arxeologik ashyodan dinamik ilmiy-informatsion resursga aylanadi.

O.P.Korshunovning bibliografik axborot funksiyalari haqidagi qarashlariga tayanadigan bo'lsak, ro'yxatga olish bosqichi madaniy merosning "hujjatli xotira poydevori"dir [4]. Agar birlamchi deskripsiya jarayonida manba noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan axborot (metama'lumot) bilan qayd etilsa, keyingi bosqichlarda sun'iy intellekt tizimlari yoki raqamli gumanitarika (Digital Humanities) instrumentlari ushbu madaniy kodlarni qidirib topa olmaydi va tizimda «axborot yo'qolishi» (madaniy eroziya) yuz beradi.

2. Semantik tahlil va aksiologik baholash (Kontekstlashtirish) bosqichi.

Bibliografik modellashtirishning ikkinchi tarkibiy bosqichi – manbalarni semantik tahlil qilish va aksiologik (qadriyatli) baholash jarayoni bo'lib, u ilmiy muomalada kontekstlashtirish fenomenini yuzaga keltiradi. Bu bosqich E.Kassirer va Y.M.Lotmanning semiotik nazariyalariga to'liq mos keladi: bunda bibliograf

shunchaki texnik operator emas, balki qadimgi davr madaniy kodlari va ramzlarini deshifrovka qiluvchi tadqiqotchi-ekspert sifatida namoyon bo'ladi.

Semantik tahlil: Madaniy ramzlar va kodlarni deshifrovka qilish (Ma'no yaratish fenomeni).

Y.M.Lotmanning semiotik konsepsiyasiga ko'ra, insoniyat madaniyati – bu o'zaro murakkab tarzda chirmashib ketgan ramzlar, kodlar va matnlar majmui, ya'ni yaxlit "semiosfera"dir [3,115-c]. Baqtriya va Kushonlar davri madaniyati esa o'z tabiatiga ko'ra polisemik (ko'p ma'noli) va sinkretik xususiyatga ega bo'lib, unda ellinistik (yunon), buddaviylik, hind, zardushtiylik va mahalliy ko'chmanchi saktohar qabilalarining ramzlar tizimi sintezlashgan. Ular xaqidagi malumotlarni adabiyotlardan topib aloxida ro'yxatini bibliografik qo'llanmalarda berishni yo'lga qo'yish kerakligi ko'rsatildi. Ushbu murakkab madaniy muhitga oid adabiyotlarni bibliografik modellashtirishda semantik tahlil shunchaki matn ustidagi texnik amal emas, balki muzlagan madaniy kodlarni deshifrovka qilish (ma'nosini ochish) va ularni zamonaviy ilm-fan tiliga tarjima qilish jarayonidir. Bibliografik semantik tahlil tizimida ramzlarni deshifrovka qilish quyidagi uchta darajada amalga oshiriladi:

Ikonografik kodlarni deshifrovka qilish: Xolchayon va Dalvarzintepadan topilgan haykaltaroshlik namunalarida, Tillatepa zargarlik buyumlarida aks etgan ramzlar (masalan, kushon hukmdorlari boshi atrofidagi muqaddas nur – nimb, shohona kiyimlar, yunon ma'budasi Afina yoki Niki tasvirlari) bibliografik tavsif va tahliliy annotatsiyalarda shunchaki "bezak" sifatida emas, balki Kushon davlatining siyosiy-mafkuraviy kodi sifatida semantizatsiya qilinadi. Natijada Xolchayon haykallarida yoki Tillatepa zargarlik buyumlarida aks etgan "moddiylashgan bilimlar" bibliografik tavsif va tahliliy annotatsiya orqali ilmiy-axborot elementiga aylanadi. Bibliografiya "soqov" ashyoni "so'zlovchi" tarixiy manbaga aylantiruvchi faol vosita sifatida namoyon bo'ladi. Professor G.A.Pugachenkova ta'kidlaganidek: "Xolchayon haykallarida biz antik davrga xos bo'lgan insonni ulug'lash an'anasining mahalliy Baqtriya muhitida qayta tug'ilishini ko'ramiz... Kushon

me'morchiligining mahalliy an'analari keyingi davr Bolaliktepa, Bolband va hatto o'rta asrlar saroy me'morchiligi uchun namuna bo'lib xizmat qildi" [7, 8–126-c].

Lingvo-epigrafik kodlarni deshifrovka qilish: Qoratepa va Fayyoztepa majmualaridan topilgan sopol idishlardagi, devoriy bitiklardagi qadimgi baqtriy (yunon-baqtriy grafigi asosidagi), kxaroshtxi va braxmi yozuvlariga oid tarqoq ilmiy tadqiqotlar bibliograf tomonidan yagona semantik maydonga (mavzuiy ruknlarga) jamlanadi. Natijada, yo'qolib borayotgan tillar va yozuvlarning "intellektual manzili" aniqlanib, tizimlashtiriladi.

Arxitektur-fazoviy kodlarni deshifrovka qilish: Buddaviylik stupalari, ibodatxonalari va saroy me'morchiligiga oid manbalar semantik klassifikatsiya qilinayotib, ularning koinot va jamiyat tuzilishi haqidagi qadimgi tasavvurlarni (arxetiplarni) ifodalovchi ramziy tizim ekanligi ochib beriladi.

"Bibliografik semantizatsiya darajalari" degan ilmiy iborani oddiyroq va tushunarliroq tilda "Qadimgi topilmalar va kitoblarni bibliografik ro'yxatga olishda ularning ma'nosini necha xil bosqichda ochib berish", – deb tushunish mumkin. "Semantizatsiya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "ma'no berish, ma'nosini ochish" deganidir. Maqolangizda keltirilgan 3 ta darajani kundalik hayotiy va ilmiy misollar bilan juda oddiy tushuntirib berishga tushuniladi:

1. Ikonografik daraja (Ko'z bilan ko'rinuvchi ramzlarni tushuntirish).

Bu eng birinchi daraja bo'lib, unda bibliograf topilgan qadimgi ashyoning (masalan, haykal, tanga yoki devoriy suratning) ustida nima aks etganini tushuntirib, ro'yxatga oladi. Arxeologlar Kushon davriga oid bir shohning haykalini yoki tangasini topishdi. Bibliograf buni kitobxon yoki kompyuter tizimi tushunishi uchun shunday tavsiflaydi: "Shohning boshi orqasida muqaddas nur (nimb) bor, egnida mahalliy chappon, qo'lida esa yunon madaniyatiga xos qilich turibdi". Fanda izlanishlarda bu shunchaki oddiy surat emas, balki o'sha davrda yunon madaniyati bilan mahalliy madaniyat aralashib ketganini ko'rsatuvchi vizual (ko'rgazmali) kod hisoblanadi.

Bibliografi ro'yxatni shakilatirishda ular alohida ajratib olib berilishi kerakligi ko'rsatilmoqda, bilim olishda, davrni o'rganishda, to'liq tanisha olishda ularni alohida bo'limda ko'rsatilishi mumkinligini tavsiya qilish mumkin. Hozirgacha chiqarilgan bibliografik qo'llanmalarda ular ajratib ro'yxati berilmagan. 2. Yozuvlarni o'rganish darajasi (Qadimgi yozuvlar va matnlarni shifrdan chiqarish). Bu darajada ashyolar ustiga yozilgan qadimgi bitiklar va harflarning ma'nosi ochib beriladi. Chunki qadimgi Baqtriya yozuvi yoki toshlarga yozilgan xatlarni oddiy odam o'qiy olmaydi. Qoratepadan (Surxondaryo) qadimgi sopol idish sinig'i topildi va unda tushunarsiz chiziqlar bor. Bibliograf soha olimlarining tadqiqotlariga tayanib, bu yozuvning ma'nosini ochib yozadi: "Bu yunon-baqtriy alifbosida yozilgan bo'lib, idish ichidagi narsa Budda ibodatxonasiga sovg'a qilinganini anglatadi". "Soqov" turgan sopol parchasi endi tilga kiradi va tarixiy hujjatga aylanadi. 3. Konseptual daraja (Eng yuqori bosqich – qadimgi g'oyalarni bugungi tilga o'tkazish). Bu eng murakkab va oliy darajadir. Bunda bibliograf yuqoridagi suratlar (ikonografika) va yozuvlarni (literal) birlashtirib, "Xo'sh, bundan xulosa nima?" degan savolga javob beradi va o'sha davrning katta g'oyasini zamonaviy ilm-fan tiliga tarjima qiladi. Bu davr adabiyotlari bo'yicha qo'llanmalarini tuzuvchilari Baqtriya va Kushon davrida ham zardushtiylik, ham buddaviylik, ham yunon xudolariga birdek sig'inib, tinch-totuv yashagani haqidagi yuzlab kitoblarni o'rganib, yagona xulosa yasaydi: "Bu davrda Markaziy Osiyoda diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va madaniyatlararo muloqot juda yuqori bo'lgan". Ma'nosi: Qadimgi tarix shunchaki o'tmish emas, balki bugungi kunimiz uchun ham kerakli bo'lgan ma'naviy qadriyat va konsepsiya (g'oya) sifatida taqdim etiladi. E.Kassirerning Homo symbolicus (Ramz yaratuvchi inson) nazariyasi kontekstida [2], bibliograf ushbu bosqichda madaniyat tizimida "semiotik ko'pri" vazifasini bajaradi. Kassirer insonni an'anaviy Animal ratsionale ta'rifidan kengroq baholab, uni ramzlar orqali fikrlovchi mavjudot sifatida ta'riflaydi [2, 15-c]. Kushonlar davridagi diniy bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqot (sinkretizm) ijtimoiy xotiraning murakkab ramziy tizimidir. Ushbu davrga oid adabiyotlarning bibliografik

modellashirilishi qadimgi baqtriya yozuvi yoki kxaroshtxi matnlari haqidagi bibliografik ma'lumotlarni jamlab, yo'qolib borayotgan ramzlar va madaniy kodlarni zamonaviy jamiyat ongiga qaytaradi (reaktivatsiya).

Ushbu uzviylik va zanjirsimon bog'liqlik bibliografik modellar yordamida tizimlashtirilganda, kitobxon va tadqiqotchiga qadimgi sivilizatsiyalar rivojining yaxlit manzarasini singdirish (interiorizatsiya qilish) imkoniyati yaratiladi.

Aksiologik baholash (Qadriyat vorisligini ta'minlash) O.P.Korshunovning bibliografiyaning qadriyatli-mo'ljalli roli haqidagi metodologiyasidan kelib chiqilsa, aksiologik baholash – bu ulkan axborot oqimi ichidan milliy va umuminsoniy madaniyat uchun eng muhim bo'lgan manbalarni saralash va ularni ijtimoiy maqomini belgilashdir [4]. Kushonlar davri misolida aksiologik baholash ushbu davrdagi diniy bag'rikenglik, konfessional transformatsiya va davlatchilik madaniyatiga oid nodir tadqiqotlarni ustuvor ravishda aktuallashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda madaniyat transformatsiyasi davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan axborot yo'qolishi va “madaniy eroziya” (xotiraning susayishi) xavfi mukammal tarzda bartaraf etiladi. M.S.Kaganning “interiorizatsiya” nazariyasi kontekstida [2] semantik tahlil va aksiologik baholash bosqichi “muzlagan” tarixiy xotirani reaktivatsiya qilish (qayta jonlantirish) vazifasini bajaradi. Bibliografik ko'rsatkich yoki reyestrda manbaning madaniy-tarixiy konteksti to'g'ri va chuqur ochib berilsagina, u yangi avlod olimlari va jamiyat ongi tomonidan oson o'zlashtiriladi (interiorizatsiya bo'ladi).

4. Raqamli kodlash va global integratsiya bosqichi.

Shu tariqa, madaniyat falsafasi va bibliografiya nazariyasini integratsiya qilish orqali biz madaniy obyektlarning nafaqat moddiy, balki ma'naviy-aksiologik qiymatini saqlash va ularni jamiyat ongiga qayta uzatish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslaymiz. Bibliografiya madaniy bilimlarning “genetik xotirasi” va axborot modeli sifatida, eksteriorizatsiya qilingan g'oyalarni interiorizatsiya bosqichiga o'tkazishini bibliografik markazlarda faoliyat yurg'azuvchi xodimlarning ongiga singdirish kerak bo'ladi. Globallashuv va raqamli

transformatsiya (Raqamli gumanitarika – Digital Humanities) sharoitida O'zbekiston qadimgi davr sivilizatsiyalari manbalari va adabiyoti bibliografiyasi oddiy texnik-yordamchi asbobdan milliy o'zlikni asrash, madaniy merosni kodlash va navbatdagi uchinchi bosqichda uni global axborot makoniga xavfsiz, verifikatsiyalangan (ishonchli) integratsiya qilishni ta'minlovchi strategik-intellektual mexanizmga aylanadi. Ushbu tizim doirasida shakllantirilgan metama'lumotlar xalqaro Linked Data (Bog'liq ma'lumotlar) va sun'iy intellekt tizimlari uchun datasetlar ko'rinishida milliy o'zlikni dunyo miqyosida namoyish etadi. Bibliografiyaning rivojlangan sotsial-kultur funksiyalari jamiyatning ma'naviy barqarorligi va intellektual suverenitetini kafolatlashda yetakchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonning qadimgi davr sivilizatsiyalari, xususan, Baqtriya va Kushonlar imperiyasi madaniyatiga oid bibliografik resurslarni modellashtirish shuni ko'rsatadiki, bibliograf shunchaki manbalarni ro'yxatga oluvchi shaxs emas, balki tarixiy xotirani saqlovchi va uni raqamli kelajakka xavfsiz uzatuvchi "semiotik mediator"dir. Ilgari surilgan uch bosqichli bibliografik model qadimgi moddiy yodgorliklar va "soqov" ashyolarni zamonaviy ilm-fan tilida so'zlovchi faol axborot resurslariga aylantirish imkonini beradi. Bu esa milliy madaniy merosimizning global raqamli makonda o'ziga xos suveren o'rin egallashini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каган М. Человеческая деятельность: Опыт системного анализа. – Москва: Политиздат, 1974. – 328 с.

2. Каган М. Философия культуры // Санкт-Петербургский государственный университет. – Санкт-Петербург: Петрополис, 1996. – 416 с.

3. Каган М. Системный подход и гуманитарное знание: избранные статьи. – Ленинград: Издательство ЛГУ, 1991. – 384 с.
4. Коршунов О. Библиографоведение. Общий курс: учебник. – Москва: Книжный дом «Либроком», 2009. – 312 с.
5. Вохришева М. Культурологическая концепция библиографии: теоретико-методологический аспект: автореферат диссертации ... доктора педагогических наук : 05.25.03 / Вохришева Маргарита Георгиевна. – Москва, 1989. – 43 с.
6. Маркарян Э. Теория культуры и современная наука: логико-методологический анализ. – Москва: Мисл, 1983. – 284 с.
7. Столяров Й. Библиотека в структуре материальной и духовной культуры // Научные и технические библиотеки. – 2012. – № 4. – С. 45–52.
8. Ртвеладзе Э. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. – Ташкент: Медиа Ланд, 2002. – 182 с.
9. Лотман Й. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 464 с.
10. Гулямов Й. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1957. – 313 с.
11. Андрианов Б. Древние оросительные системы Приаралья. – Москва: Наука, 1969. – 254 с.

Yusup Mannonov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasi dotsenti (v. b.)
E-mail: yusufmannonov5@gmail.com*

AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATIDA JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING TARG'IBOTI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston zaminida jadidchilik harakatining paydo bo'lishi, uning namoyandalari va ularning ilgari surgan g'oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek ularni Axborot-kutubxonalarda targ'iboti, jadidchilik harakati milliy uyg'onishning muhim bosqichi bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlari: *jadid, 1917-yil, usuli jadid, "Adibi avval" va "Adibi soniy", muxtoriyatchilik, istiqlolchilik, axborot-kutubxona.*

THE PROMOTION OF JADID MOVEMENT REPRESENTATIVES IN INFORMATION AND LIBRARY ACTIVITIES

Abstract. *This article analyzes the emergence of the Jadid movement in Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries, its leading representatives, and the ideas they promoted. It also examines the promotion of Jadid heritage in information and library institutions and highlights the significance of the Jadid movement as an important stage in the process of national awakening. The article provides information on the role of Jadid intellectuals in educational, cultural, and social reforms and their contribution to the development of national consciousness.*

Keywords: *jadid, 1917, usuli jadid, "Adibi avval" and "Adibi soniy", autonomy, independence, information and library.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 15-yanvarda "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-9-sonli qarori e'lon qilindi. Qarorning asosiy maqsadi 2026–2030-yillarda aholini kitobxonlik darajasini

o'shiring, har bir odam o'qiydigan kitob sonini yiliga o'rtacha 10 taga yetkazishga qaratilgan. Shuningdek, Prezident qaroriga muvofiq Davlat tomonidan qarorning ijrosi uchun juda katta mablag'lar ajratildi. Masalan, 2026-yil "330 ta mahalla kutubxonasi" loyihasi asosida mahalla kutubxonalari zamonaviy formatga o'tkazilishi, har bir kutubxona uchun BHMning 180 barobarigacha (74 mln 160 ming so'mgacha) mablag' ajratilishi; "Jadidlar izidan" kitobxonlik klubi loyihasi asosida maktab o'quvchilari yilga kamida 20 ta kitob o'qishi ta'minlanishi, faol ishtirokchilar BHMning 15 barobarigacha (6 mln 180 ming so'mgacha) rag'batlantirilishi; "Jahon adabiyoti o'zbek tilida", "Iste'dodli mualliflar", "Kitob – ma'rifat manbai", "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi" kabi loyihalariga va boshqa tadbirlarga sezilarli darajada mablag'lar ajratilganligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Axborot – kutubxona xodimlari qarorni ijrosini ta'minlashda yetakchi o'rinlarda bo'lishi kerak. Aholi va ayniqsa yoshlar o'rtasida muntazam ravishda adabiyotlarning targ'iboti – tashviqoti bilan shug'ullanishlari lozim. Shu o'rinda jadidchilik harakati namoyandalarining faoliyati bilan tanishtirish, Vatanparvarlik tuyg'ularini foydalanuvchilarga yetkazish ham muhimdir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi bo'lgan O'rta Osiyoda yashovchi xalqlarga har tomonlama tazyiq o'tkazish boshlanadi. Shunga javoban mustamlaka xalqlar tomonidan norozilik kayfiyatidagi qo'zg'olonlar, namoyishlar boshlangan va bu harakatlar ma'rifatparvarlik harakati deb nom ola boshlagan. XX asr boshlariga kelib, ayniqsa, 1917-yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin bu harakat siyosiy tus ola boshladi va bu harakat nomi jadidchilik harakatiga aylanadi. "Jadid" so'zi "yangi" degan ma'noni berib, Turkiyada ilk marta Sulton Salim III (1739–1802) hukmronligi davrida paydo bo'lgan. "Jadid" so'zi shuningdek, "yangilik tarafdori", "yangi tafakkur", "yangi inson", "yangi avlod" kabi ma'nolarni ham beradi.

Turkiston zaminida jadidchilik harakati uchga bo'linadi:

❖ Turkiston jadidchiligi;

- ❖ Buxoro jadidchiligi;
- ❖ Xiva jadidchiligi.

Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar. Buxoroda jadidchilik harakatining asosini ziyolilar, mullalar, do'kondorlar, hunarmandlar va savdogarlar tashkil qilgan. Jadidlar soliqlarni kamaytirish, Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilish talabi bilan chiqilar. Buxoroda birinchilar qatorida vobkentlik dehqon Jo'raboy ilk yangi usul maktabini tashkil qilgan. 1908-yil "Buxoroi sharif shirkati" tuzilib, uning tashkilotchilari Ahmadjon Hamdiy, Abdurahmon Sa'diy, Sadridin Ayniy va boshqalar bo'lgan. Ular darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullangan. Harakatlar natijasida 1910-yil Buxoroda "Tarbiyai atfol" maxfiy partiya tashkil topdi. XX asr boshlarida Xivada ham jadidchilik harakatlari boshlangan. Harakat vakillari xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalariga egalari hamda yirik boylardan iborat bo'lib, bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning maqsadi, xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish, erkin bozor munosabatlarining rivojlanishi, yangi usul maktablarini tashkil qilishga qaratilgan edi. 1904-yil 10-noyabrda "jamiyati xayriya" tuzilib, uning ko'magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

Ustoz olim Begali Qosimov jadidchilik harakati – ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat deb baholagan. Jadidchilik harakatining dastlabi boshlanish o'chog'i qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoil Gasprinskiyning 1883-yilgi "Tarjimon" gazetasiga borib taqaladi. Ismoil diniy va dunyoviy bilimni, bir nechta xorijiy tillarini egallab, Sharq va G'arb dunyosini taqqoslagan. Uning 1884-yilda Boqchasaroydagi "usuli jadid", ya'ni yangi usul maktabining ochilishi ham ma'lum ma'noda muhim rol o'ynadi.

Ushbu maktab atigi 40 kunda 12 o'quvchining savodini chiqaradi. Ismoil Gasprinskiy tashabbusi bilan O'rta Osiyo hududiga ya'ni, Toshkent, Samarqand, Buxoro hamda Farg'ona vodiylariga ma'rifatparvarlik g'oyalari kirib boradi. Farg'ona vodiysida zamonaviy turdagi "usuli jadid" maktabini tashkil etadi. Gasprinskiyning tarafdorlari sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy kabi jadid otalari Samarqand hududidan maydonga chiqa boshlaydi. Turkistondagi jadidchilik harakati taniqli namoyondasi, "jadidlar otasi" deb tan olingan mashhur dramaturg va publitsist Mahmudxo'ja Behbudiy jadid adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Behbudiy 18-yoshida qozixonada mirzolik lavozimida ish boshlagan bo'lsa, keyinchalik, qozi, muftiy kabi yuksak lavozimlarda ishlagan. U ham boshqa ziyolilar kabi XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ro'y berayotgan siyosiy voqealarga jim turib qaray olmadi. Mahmudxo'ja Behbudiy "usuli jadid", "usuli savtiya" kabi maktablarni ochilishiga bosh – qosh bo'lib, yosh avlodni ilmi, ziyoli qilish, zamonaviy maktab g'oyasini qurishni ilgari surdi. 1914-yilda "Oyna" jurnalini chop qilib, vatandoshlarni siyosiy – ma'rifiy xabarlar bilan tanishtirib bordi. Shuningdek, "Behbudiya" kutubxonasini ochdi va teatr – studiyalarini tashkil qilib, teatrshunosjikka asos soldi. Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida keltirilgan: "Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Teatr – bu ibratxonadir", – deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir", – degan dono so'zlarini aytib o'tish lozim. Teatr sahnasi orqali rus bosqinchilarining davlat erkinligi, ozodligi va mustaqilligiga putur yetkazayotganini ko'rsatish xalq ongini, milliy iftixorini tubdan uyg'otish, o'zligini anglash, birdamlikka chaqirdi va buning uchun kuch-g'ayrati va shijoatini ayamadi.

Shuningdek, jadid vakillaridan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevlar ham Toshkentda ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi bo'lishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov jadidchilik tafakkuri va g'oyalarini targ'ib qilish, milliy gazeta va

jurnallar tashkil qilish hamda jadid teatri va matbuoti tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. Munavvarqori eski va diniy mazmundagi zamon talablariga javob bermaydigan maktablarni tugatib, uning o'rniga xalq uchun qulay bo'lgan kichik maktab va madrasalarni tashkil etisni, zamonaviy fanlarni o'qitishni o'zining "Taraqqiy" gazetasida bergan "Bizning jaholat – jahli murakkab" maqolasida aytib o'tgan. Uning 1907-yilda "Adibi avval" va "Adibi soniy" kabi maktab darsliklari chop etilgan. Munavvarqori jadidchilik harakatida "ustozi kalon" darajasini olgan.

Shuningdek, Toshkentda jadidchilik harakati namoyandalaridan yana biri ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiya, yaxshi xulq, axloq tarbiyasi kabilarga e'tibor berib, "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini yozgan. Uning ta'rifi bo'yicha: "Tarbiya", "pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir". 1904-yilda Mirobodda usuli jadid maktabini ochgan. Bu maktabda o'zbek tili, rus tili, tarix, arifmetika va siyosatshunoslik kabi fanlar o'tilgan. Maktabda ta'lim berish usuli o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv muloqotga asoslangan bo'lib, bu jadid maktablarining eng katta yutug'i hisoblangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentyabrida "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga asosan Abdulla Avloniy "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

Shu davr jadid adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan yana biri Abdurauf Fitrat bo'lib, Turkistonda ma'rifat, milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarini ilgari surgan. Turk, arab, fors tillarini mukammal bilgan. Fitrat "Yosh buxoroliklar" harakati yetakchilaridan biri bo'lib, Buxoroda islohotlar o'tkazishga harakat qilgan. U so'l jadidchilarga boshchilik qiladi, ta'lim va madaniyat vaziri lavozimida ishlagan. 1918-yil oxirlarida safdoshlari bilan "Chig'atoy gurungi" nomli madaniy birlikni ta'sis etadi. Ushbu madaniy guruhning o'z oldiga qo'ygan vazifa va maqsadlari turkiy tilni yangilash, badiiy adabiyotni boyitish uchun eski va yangi turkiy asarlarni Turkiston bo'ylab jamlash g'oya tarafdorlari edi. Fitrat ham 1923–1930-yillarda, "Sarf" nomli o'zbek tilining birinchi grammatikasini yozadi.

Jadidchilik harakatining so'nggi yillari sobiq sovet tizimida "O'n sakkizlar guruhi", "Inog'omovchilik", "Qosimovchilik", "Badriddinovchilik" kabi nomlar ostida qoralanib, milliy ziyolilarni ommaviy ravishda qatag'on qilishga qaratilgan davr hisoblanadi. 1929-yil noyabrda Munavvarqori boshchiligidagi 38 kishi qamoqqa olinadi va keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetgan. Shu davrdan boshlab, jadidchilik harakatiga kuchli zarba berildi.

Jadidchilik harakati siyosiy ma'rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko'tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a'zolari o'z faoliyati va dasturiga ko'ra, sho'ro adabiyotlarida aytilganidek, "bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari" emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o'ylab ish ko'rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka "burjua-liberal harakat" deb ta'rif berilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishilgandan keyin jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomi qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san'atshunos va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy merosini o'rganishda dastlabki natijalarni qo'lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniylarning 2-jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Ibrat, Ajziy, So'fizodalarning 1-jildli, shuningdek, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqorilarning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20-ta mashhur vakili kiritilgan "Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalari" albom-kitobi Toshkentda 1999-yil nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo'llanmalarga kiritildi.

Shu yili 16–18-sentyabrda Toshkentda "Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash: "Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqlochlilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plangan so'nggi xulosalar yuzasidan O'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul

ahamiyatga molik hodisa ekanligi e'tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi Xalqaro ilmiy kengash tuzildi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan g'oya va takliflar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Hozirgi davrning mana shunday rivojlangan, gullab-yashnagan davriga yetib kelishning, biz yoshlarning ham shijoatimizni oshirishga asos bo'lgan hamda timsoli sifatida qaraladigan ma'rifatparvar olimlarning o'rni behisob ekanini yana va yana ta'kidlaymiz lozim. Munavvarqori va boshqa jadidlar yangi usul maktablarini tashkil qilgan, darsliklar yaratgan. Holbuki, vatan iftxori, yurt ozodligi hamda kelajagi uchun mablag'larini ham ayashmagan. Hatto yosh avlodni Turkiya, Germaniya kabi ilm va boshqa sohalar bo'yicha rivojlangan davlatlarga yuborib, zaruriy kasblarni egallab, ta'lim olishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan.

Bugungi kun Yangi O'zbekistonda Turkiston jadidchilik harakatini, ular olib borgan siyosatni keng xalq ommasiga yetkazish barcha targ'ibot tashkilotlarining muhim vazifasi bo'lib hisoblanadi

Shu o'rinda barcha sohalar kabi Axborot – kutubxonalar ham yetakchi o'rinda bo'lishi kerak. Sohani rivojlanishi, taraqqiyoti, Respublika aholisini axborot bilan ta'minlashi, yangicha yo'nalishda xizmatlarni tashkil qilishi bugungi kunning muhim vazifasi hisoblanadi. Avvalo Uyg'onish davrining mohiyati, o'sha davr mumtoz adabiyotimiz vakillarini, ularning olib borgan harakatlarini, noyob asarlarini xalqimizga etkazishi, buning uchun Axborot – kutubxonalarda targ'ibot ishlarini to'g'ri shakllantirish zarur. An'anaviy va zamonaviy usullar orqali foydalanuvchilarga xizmatni muqobil yo'llarini izlab topish, ularga jadidchilik harakati va ularning maqsadi, olib borgan mafkuraviy siyosatini, bugungi kun Yangi O'zbekiston strategiyasiga qo'shgan hissasi mohiyatini ochib berish, Davlatimiz siyosatini anglab etishiga yaqindan yordam berish lozim. Buning uchun Axborot – kutubxona muassasalari sohaga tegishli Qonunlar, qarorlar va farmoyishlar asosida ish rejalarini shakllantirishlari, yillik va strategik ish rejalarida muvaffaqiyatga erishish yo'llarini oldindan ko'ra bilishlari, soha mutaxassisleri bor

imkoniyatlarini ishga solishlari, ishga yangicha yondashuvni amalga oshirishlari zarur. Targ'ibot – tashviqot usullarining to'g'ri shakllantirishlari, ommaviy tadbirlarni tashkil qilishlari, kutubxona fondlarida jadidchilik harakati namoyandalarning asarlarini ko'paytirishlari, og'zaki va ko'rgazmali targ'ibotlarni tashkil qilishlari, o'zlarining elektron kutubxonalari orqali jadid bobolarimizning asarlarini elektron shakllarini foydalanuvchilarga yetkazishlari lozim.

Axborot – kutubxonalarda olib borilayotgan jadidchilik faoliyati targ'iboti ularning ruhi poki oldida hamisha qarzdor ekanimizga kafolat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 15-yanvarda “Kitonxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-9-sonli qarori.
2. “Jadidchilik”. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000–2005.
3. “Jadidizm”. O'zbek sovet ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1973. – 279 b.
4. Avloniy A. Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 598 b.
5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 279 b.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 397 b.
7. Abdurashidxonov M. Xotiralarimda. (jadidchilik tarixidan lavhalar). – Toshkent: Sharq, 2001. – 112 b.
8. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 176 b.
9. www.google.uz

Ziyodullo Isokov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası
dotsenti, tarix fanlari nomzodi
E-mail: ziyod.isok@gmail.com*

KUTUBXONALAR – TARIX VA TARAQQIYOT KO'ZGUSIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadimgi dunyodan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda kutubxonalar va kitob bosish ishining shakllanishi hamda rivojlanish tarixi retrospektiv tarzda tadqiq etilgan. Maqolada Qadimgi Misr, Ossuriya (Ashshurbanipal kutubxonasi), Iskandariya va Pergam kabi antik davr intellektual markazlarining o'ziga xos xususiyatlari, ilk kataloglashtirish hamda qo'lyozmalarni asrash texnologiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, IX–XII asrlardagi Sharq renessansi davri kutubxonachilik madaniyati ("Bayt-ul hikma", Xorazm Ma'mun akademiyasi), o'rta asrlar Yevropasidagi evolyutsion jarayonlar va I.Gutenberg ixtirosidan so'ng yuzaga kelgan matbaachilik inqilobining Sharq olamiga kirib kelishi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kutubxona tarixi, Ashshurbanipal, Iskandariya kutubxonasi, Pergam, pergament, Bayt-ul hikma, Ma'mun akademiyasi, Iogann Gutenberg.*

LIBRARIES – THROUGH THE LENS OF HISTORY AND DEVELOPMENT

Abstract. *This article provides a retrospective analysis of the history of the establishment and development of libraries and book printing from antiquity to the early 20th century. The study examines the distinctive features of ancient intellectual hubs, including Ancient Egypt, Assyria (the Library of Ashurbanipal), Alexandria, and Pergamum, highlighting early methods of cataloging and manuscript preservation technologies. Furthermore, it explores the library culture of the Oriental Renaissance during the 9th–12th centuries (such as "Bayt al-Hikma" and the Khwarazm Ma'mun Academy), evolutionary shifts in medieval Europe, and the introduction of the printing revolution-sparked by Johannes Gutenberg's invention-into the Islamic world.*

Keywords: *history of libraries, Ashurbanipal, Library of Alexandria, Pergamum, parchment, Bayt al-Hikma, Ma'mun Academy, Johannes Gutenberg.*

Tarixdan ma'lumki turli ko'rinishdagi kitoblarning yaratilishi esa qadimgi dunyoda ilk kutubxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Kutubxonalar qadimda yer yuzining turli hududlarda turlicha nomlangan bo'lsa-da, uning hozirgi ilmiy iste'moldagi nomlanishi "Kutubxona" (biblioteka) so'zi yunoncha "biblios" – kitob va "teke" – ombor (kitob saqlanadigan joy) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, zamonaviy tilimizga o'z madaniyati bilan mashhur bo'lgan Qadimgi Yunonistondan kirib kelgan.

Qadimgi Misrda butun mamlakat bo'ylab turli turdagi ko'plab kutubxonalar joylashgan bo'lib ular saroy kutubxonolari, ibodatxona kutubxonolari, shuningdek, "Papyrus uylari" va "Hayot uylari" deb ataluvchi kutubxonalar mavjud bo'lgan. "Hayot uylari"dagi ruhoniylar mumiyolash (balzamlash), ibodatxonalar va saroylarni badiiy bezash ishlari bilan shug'ullanishgan. Miloddan avvalgi taxminan 1300-yilda Misrning qadimiy poytaxti – Fiva shahri yaqinida asos solingan Ramzes II ning yirik kitob ombori kirish qismida "Qalb dorixonasi" degan yozuv bo'lgan. Ushbu kutubxonada 20 mingga yaqin papyrus to'plamlari yig'ilgan edi [1, 41–50-b]. Kutubxonachilik tarixini esa qadimgi Ninaviya (hozirgi Iroq hududi) shahridagi Ossuriya podshohi Ashshurbanipal kutubxonasisiz (mil. avv. 668–627-y) tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu maskan bugungi zamonaviy kutubxonalarning eng qadimgi prototipidir. Ushbu kutubxonada 30 000 dan ortiq loy taxtachalar mavjud bo'lib, ular fan sohalari (astronomiya, tibbiyot, matematika, adabiyot, sehrgarlik) bo'yicha alohida xonalarga tizimlilik asosida joylashtirilgan. Bundan tashqari har bir taxtachaning orqasida "ekslibris" (egasining belgisi) va uning qaysi seriyaga tegishli ekanligi yozilgan bo'lib ilk bor ilmiy adabiyotlarni kataloglashtirish ham shu erda qo'llanilgan. Shunisi e'tiborga molikki podsho Ashshurbanipal o'z kotiblarini Mesopotamiyaning barcha burchaklariga yuborib, qadimgi matnlarning nusxasini ko'chirtirib kelgan. Bu bugungi kundagi "arxiv ishi"ning ilk ko'rinishidir. Ushbu kutubxonalarda kitoblar ikki tilda yani shumer va akkad tillarida yozilgan va ushbu

tillarning ilk lug'atlari ham mavjud bo'lgan. Insoniyatning ilk badiiy asari hisoblangan "Gilgamish dostoni" ham aynan shu kutubxonada 12 ta loy taxtachada saqlangan. Bu asar orqali biz qadimgi insonlarning hayot, o'lim, do'stlik va toshqin haqidagi qarashlarini o'rganamiz. Bu kitobning shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar (loy, qog'oz yoki raqamli), uning ichidagi axborot va g'oya birlamchi ekanligining isbotidir.

Antik dunyoning eng mashhur kutubxonalaridan biri bu, albatta, Misrning Iskandariya shahridagi Iskandariya kutubxonasidir. Bu kutubxona miloddan avvalgi 323-yilda Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng Misr ustidan nazorat uning sobiq generali Ptolomey I qo'liga o'tadi. U Iskandariya shahrida yangi intellektual markaz yaratishga intildi. Natijada qadimgi dunyoning haqiqiy javohiri – Iskandariya kutubxonasi barpo etildi. Ushbu kutubxona javonlarida 500 000 dan ortiq papirus o'ramlari saqlangan bo'lib, ular tarix, huquqshunoslik, matematika va fan sohalariga oid matnlardan iborat edi. Antik dunyo ilm-fani va madaniyatining ko'plab atoqli namoyandalari Iskandariya kutubxonasining kitobxonlari bo'lishgan. Afsuski, miloddan avvalgi 48-yilda Yuliy Sezar Misr hukmdori Ptolemey XIII ga qarshi jang paytida Iskandariya bandargohiga o't qo'yadi va kutubxona butunlay yonib ketadi.

Miloddan avvalgi II asrda podshoh Evmen II tomonidan asos solingan qadimgi Pergam kutubxonasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Kutubxona binosi shaharning markaziy maydonida joylashgan edi. Kitoblar to'rtta ulkan zalga joylashtirilgan bo'lib, bosh zalning markazida, marmar poydevor ustida inson bo'yidan bir yarim baravar baland bo'lgan Afina ma'budasining haykali qad ko'targan edi. Kitob omboridagi o'ramlar uchun mo'ljallangan tokchalar (nishalar) kedr yog'ochidan ishlangan edi, chunki bu daraxt qo'lyozmalarni hasharotlardan himoya qiladi deb hisoblangan. Kutubxona shtatida nusxa ko'chiruvchilar, tarjimonlar ishlagan va maxsus katalog mavjud bo'lgan. Pergam kutubxonasi faqat fondining kattaligi bo'yicha Iskandariya kutubxonasidan keyin turardi – uning fondi 200 ming nusxadan iborat edi. Fondning eng katta qismini tibbiyotga oid risolalar tashkil qilgan, chunki Pergam o'sha davrda tibbiyot markazi hisoblangan.

Pergam kutubxonasida ko'plab javonlar bilan o'ralgan keng mutolaa zali bo'lgan. Tashqi devorlar va javonlar orasidagi bo'shliq havoning aylanishiga xizmat qilgan. Bu Anatoliyaning issiq iqlimida kutubxonani ortiqcha namlikdan saqlash maqsadida qilingan bo'lib, qo'lyozmalarni asrashning ilk texnologiyalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Bir safar Pergam kutubxonasi Aristotelning asarlarini sotib olish uchun ularning vazni qancha bo'lsa, aynan shuncha miqdorda oltin bergan. Raqobatdan qo'rqqan Misr hukmdorlari Pergamga papirus eksport qilishni taqiqlab qo'yadilar. Shunda pergamlıklar yozuv uchun o'z materiallarini ixtiro qiladilar. Bu – pergament (pergam) edi. U uloqchalar va qo'zilarning maxsus usulda urib yumshatilgan, qirilgan va silliqlangan terisidan tayyorlanardi.

Pergamentdan o'ramlar (svitoklar) yasab yopishtirilmasdi, balki varaqlar taxlanib, daftarlar holiga keltirilgan va kitob shaklida tikilgan. U papirusdan ancha qimmat edi, ammo bardoshliroq bo'lgan. Bundan tashqari, pergamentni hamma joyda ishlab chiqarish mumkin edi, papirus esa faqat Misrda yetishtirilardi. Shuning uchun o'rta asrlarga kelib, Misrdan papirus olib kelish to'xtagach, butun Yevropa pergamentga o'tdi.

Antik dunyoda er yuzining turli hududlarida o'nlab kutubxonalar barpo etilgan bo'lib bularga qadimgi Bobildagi "Nippur" kutubxonasi, Qadimgi Gretsiyaning Kots orolidagi "Kots" kutubxonasi, Qadimgi Misrning "Edfu" kutubxonasi, Iroqning qadimgi Sosoniylar imperiyasining Gondishapur shahridagi "Gandishapur" kutubxonasi, Suriyaning qadimgi Ebla shahridagi "Ebla" kutubxonasi hamda qadimgi Ugarit shahridagi "Ugarit" kutubxonasi, Qadimgi Falastindagi "Kesariy" kutubxonasi, G'arbiy Afrika hozirgi Mali davlati hududidagi "Timbuktu" kutubxonasi, Qadimgi Hindistonning Gandhar (hozirgi Pokiston hududi) dagi "Taksila" kutubxonasi hamda Baxira shahridagi "Nalanda" (bu kutubxona o'z davrida "Dharmagandja", ya'ni "Haqiqat xazinasi" nomini olgan) kutubxonasi, Qadimgi Xitoydagi "Xanlin" kutubxonalarini olishimiz mumkin. Ammo ushbu kutubxonalarning birortasi ham hozirgi kungacha yetib kelmagan.

Ushbu kutubxonalarda saqlangan ba'zi kitoblarga hozirgi kunda dunyoning turli muzeylarida saqlanmoqda.

Ma'lumki IX–XII asrlarda Sharq renessans davrini boshidan kechirdi. Bu davda ilm-fanning turli sohalarida ko'plab ilmiy kashfiyotlar qilindi. Xuddi shu davrda Islom xalifalik poytaxti Bag'dodda xalifa Xorun ar-Rashid tomonidan "Baytul Hikma", ya'ni "Donishmandlik uyi" tashkil qilindi. Bu yerda rasadxona hamda yangi qo'lyozmalar bilan uzluksiz to'ldirib turilgan boy kutubxona faoliyat ko'rsatdi. Bag'dodga qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasining kirib borishi qo'lyozma kitoblarni qayta ko'chirish va ko'paytirishni bir muncha takomillashtirdi. Ushbu donishmandlik uyi 1258-yilda mo'g'ullar bosqinida yo'q qilingunga qadar faoliyat yuritadi.

XI asrda xorazmshoh Abul-Abbos Ma'mun II tomonidan Xorazm poytaxti Gurganjda "Dorul hikma va ma'rifat" yoki Xorazm Ma'mun akademiyasi tashkil etildi. Ma'rifatparvar hukmdor Ma'mun II tomonidan saroyda kutubxona tashkil etildi va ko'hna sharqning turli shaharlaridan noyob qo'lyozmalar keltirildi. XI asrning 1017-yiliga qadar ilmiy faoliyat yuritgan ushbu ilmiy maskanda o'z davrining dolzarb ilmiy izlanishlari olib borilgan. Bu tarixiy davrda nafaqat xalifalik markazi bag'dod shahrida, balki Basra, Mosul, Nishopur, Isfaxon, Hirot, Balx shaharlari ham o'z kutubxonalari bilan mashhur bo'lgan [2, 14–17-b]. Tadqiqotchilarning qayd etishicha birgina Marv shahrida XII–XIII asrlarda 10 ta kutubxona mavjud bo'lgan [3, 5–16-b]. Islom olami yana o'zining "Vaqf kutubxonalari" bilan mashxur bo'lgan. Ushbu kutubxonalari asosan madrasalar hamda jome masjidleri ixtiyorida bo'lib ushbu kitoblardan xohlagan odam foydalanishi mumkin bo'lgan [4, 50–55-b].

Tarixiy manbalar Buxoroda Somoniylar davrida (X asr), Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida (XVI–XVII asrlar), Buxoro amirligi davrida (XVIII–XIX asrlar), Samarqandda Amir Temur va uning nabirasi Ulug'bek davrida, Hirotida Shohrux, Boysunqur, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida (XV–XVI asrlar), Marvda (XI–XII asrlar), Qo'qonda (XVIII–XIX asrlar) qo'lyozma kitoblarni

ko'paytirish va ulardan nusxa ko'chirish bo'yicha saroy kutubxonalari faoliyat ko'rsatganidan dalolat beradi. XI–XII asrlarda Xorazmshohlar ham o'z kutubxonalariga ega bo'lib, bu an'ana Xiva xonligi davrida (XVI–XIX asrlar) ham davom ettirilgan [5, 60–65-b].

Shu o'rinda qayd etish kerakki, katolik cherkovining bir necha marotaba Sharqqa uyushtirgan salb yurishlaridan so'ng Yevropaliklar tomonidan ko'plab foydali bilimlar o'zlashtirildi. O'rta asrlarga kelib endilikda Yevropa taraqqiyot sari yuz burdi. Yevropada shu davrgacha hukm surib kelgan "Kitob – faqat cherkovda turishi kerak", – degan tushunchadan voz kechiladi. Yevropaning turli shaharlarida bugungi kungacha faoliyat yuritib kelayotgan mashhur kutubxonalarning tamal toshi o'sha davrda qo'yildi. Bularga misol qilib hozirgi kundagi mashhur "Vatikan kutubxonasi"ga asos bo'lgan "Papa kutubxonasi (Papal Library), Angliyaning Oksford universitetining asosiy kutubxonasi bo'lgan "Bodleian kutubxonasi" (Bodleian Library), Italiyadagi "Papyruslar villasi" (Villa of the Papyri) kutubxonasi, Parijdagi "Fransiya Milliy kutubxonasi", Pragadagi "Chexiya Milliy kutubxonasi", Venadagi "Avstriya Milliy kutubxonasi", Valetta shahridagi "Malta Milliy kutubxonasi" va boshqa kutubxonalarni ko'rsatish mumkin.

Ming yillar davomida kitob chop etish qo'lyozma kitoblar davridan toshbosma (litografiya) kitoblar davriga o'tila boshladi. Litografiya kashfiyotchilari dastlab Xitoyliklar bo'lsa-da keyinchalik bu yo'nalishda Yevropa ancha ilgarilab ketdi. 1436-yilda Germaniyada Iogann Gutenberg tomonidan kitob bosish qurilmasining yaratilishi esa tipografiya sohasidagi inqilob yasadi. Biroq bu usulda kitob chop etish sharq, xususan, islom mamlakatlarida bir oz qiyinroq kechdi. Ayniqsa din va ilohiyot mavzularidagi kitoblarni toshbosma usulda chop etish umuman taqiqlangan edi. Ilk yevropacha tipografiya (bosma matbaa) Istanbul shahrida 1494-yilda ochilgan bo'lib ular asosan Arman va Grek tipografiyasi edi. Bundan tashqari XVIII asrda Usmonli imperiyasi hududlarida katolik xristianlar, armanlar va greklar jamoalariga qarashli bo'lgan o'nlab bosmaxonalar mavjud edi. Ammo Usmonli imperiyasida sharq tillarida bosma kitoblarni nashr etish davlat

tomonidan taqiqlangan edi. Faqat XIII asrning boshlariga kelib Usmonli sultoni Ahmad III ning 1727-yil 5-maydagi Turkiyada bosma kitob matbaachiligini joriy etish to'g'risidagi farmonidan keyingina birinchi turk matbaachisi Ibrohim Mutafarrih o'sha yil dekabrda Istanbul shahrida dastlabki turk bosma matbaasini ochishga muvaffaq bo'lgan. Bu kabi mahalliy aristokratiya va musulmon din peshvolari tomonidan bosma arab imlosidagi matnni xushlamaslik fenomeni Turkistonda ham mavjud edi [6, 215–222-b]. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Turkiston kitob bozoriga ham xorijda chop etilgan toshbosma kitoblar sekin-asta kirib kela boshlaydi. Ushbu kitoblarning asosiy qismini Istanbul, Dehli, Tehron va Qozon shaharlaridagi “Karimiy”, “Panjobiy”, “Haydariy”, “Muzaffariy”, “Muhammadiy”, “Hasaniy”, “Nasimiy”, “Islomiya”, “Intizomiy”, “Safdariy”, “Yusufiy”, “Mohtobiya”, “Hamidiya”, “Husomiy” va boshqa litografiyalar nashrlari tashkil etardi.

Turkistonda toshbosma usuli bilan Kitob chiqarish Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin tarqala boshlandi. Dastlab 1868-yilda Toshkentda Turkiston harbiy okrugi shtabining bosmaxonasi tashkil etilgan bo'lsa so'ngra Turkistonning boshqa shaharlarida ham xususiy litografiyalar tashkil etildi. Bulardan Otajon Abdalov (Xivada), Semyon Laxtin (Toshkentda), G'ulom Hasan Orifjonov (Toshkentda) litografiyalari mashhur edi. Shaxsiy bosmaxonalar o'rtasida G'ulom Xasan Orifjonovlarning tosh bosmaxonasi alohida ahamiyatga ega bo'lib u o'zbek tilida kitob chop qiladigan birinchi bosmaxona bo'lgan. O'sha davrlarda Namanganda jadid ma'rifatparvari Is'hoqxon To'ra ham “Is'hoqiya” nomi bilan bosmaxona tashkil etgan edi. XX asrning boshlariga kelib Turkistonda turli sohalarga oid kitoblarni nashr qilish ommalashdi. 1868-dan 1910-yillargacha Turkistonda nashr etilgan kitoblarning aksariyati rus tilida chop etilgan bo'lsa, 1912-1915-yillarga kelib rus tadbirkorlarining korxonalari asosan o'zbekcha kitoblar nashr eta boshladi. Ma'lumotlarga qaraganda o'sha davrda 1868–1917-yillarda Turkistonda 70 dan ortiq bosmaxonalar faoliyat yuritgan edi [7, 82-b].

Bu davrga kelib Turkistonda yangicha kutubxonalar tashkil etila boshlaydi. Dastlab mustamlakachi hukumat tomonidan 1870-yilda “Turkiston ommaviy kutubxonasi” tashkil etiladi. Bu kutubxona ancha vaqt Turkiston general gubernatorining nazoratida bo‘lgan. O‘sha davrda Turkistonda milliy ko‘rinishdagi ommaviy kutubxonalari hamda kitob uylari ochila boshlaydi. Ushbu kutubxonalarning aksariyati ma’rifatparvar jadidlar tomonidan tashkil etiladi. Bunga misol qilib Abdulhamid Cho‘lponning Andijondagi “Turon kutubxonasi”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kutubxonai Behbudiya” kutubxonalarini ko‘rsatish mumkin. Ta’kidlash joizki, bu davrda Turkistonda bir qancha shaxsiy kutubxonalar, hamda turli ilmiy jamiyatlar kutubxonalari ham mavjud bo‘lgan [8, 10–42-b]. Ushbu kutubxonalarning faoliyati xususida o‘sha davr davriy matbuotlarida ham ko‘plab ma’lumotlar uchraydi [9, 296-b].

1917-yilda Rossiya imperiyasida oktyabr inqilobi yuz berdi. Hokimiyatga kelgan bolsheviklar ko‘p sohalarda turli islohotlarni amalga oshira boshladi. Bu o‘zgarishlar Turkiston o‘lkasini ham chetlab o‘tmadi, albatta. 1924-yilga kelib Turkistonda 616 ming kitob fondiga ega bo‘lgan 122 ta kutubxona qariyb 58 ta qiroatxona mavjud bo‘lgan. Ammo o‘lkaning barcha hududlarida ham sharoit bir xil emas edi. Ko‘pchilik joylarda kutubxonalar fondi doimiy to‘ldirilib borilmas, kitoblarning aksariyati rus tilida bo‘lganligi bois ayniqsa qishloqda yashovchi mahalliy aholini kutubxonalarga jalb etish mushkul edi. 1928-yilda qariyb to‘rt million aholisi qishloqlarda yashovchi Turkiston o‘lkasida bor yo‘g‘i 44 ming kitob fondiga ega bo‘lgan 74 ta kutubxona xizmat ko‘rsatgan. 1937-yilga kelib O‘zbekistonda 895 ta kutubxona faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1941-yilga kelib ular soni 1748 taga yetadi. Urush yillarida ham Respublikamizdagi 440 ta kutubxona o‘z faoliyatini to‘xtatmadi. Sobiq sovet hukumatining “Qayta qurish” siyosati ijtimoiy-iqtisodiy sohalari kabi kutubxonachilik sohasi ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Bu davrga kelib Respublikamizdagi 100 ga yaqin kutubxonalar qisqartirilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda 16 milliondan ziyod kitob jamg‘armasiga ega bo‘lgan 201 axborot-kutubxona markazi ishlab turibdi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, kutubxonalar doimo jamiyat va xalq uchun ma'rifat o'chog'i vazifasini bajargan. Kutubxona har bir jamiyatning ilm va ma'rifatga erishish yo'lidagi eng muhim vositasi hamda taraqqiyoti ko'zgusi hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *История книги. Под ред. Говорова А., Куприяновой Т. – Москва: Светотон, 2001. – 400 с.*
2. *Шамсуддинов К. Сокровища научно-исторического наследия // Moziydan sado. – 2014. – № 3 (63). – С. 14–17.*
3. *Язбердыев А. Средневековые библиотеки Мерва // Изв. АН Туркм ССР. СОИ. – 1988. – № 5. – С. 5–16.*
4. *Шамсуддинов К. Рукописное наследие Узбекистана // Информационно-библиотечный журнал «INFOLIB». – 2019. – №1. – С. 50–55.*
5. *Шамсуддинов К. Рукописное наследие Узбекистана // Информационно-библиотечный журнал «INFOLIB». – 2019. – №2. – С. 60–65.*
6. *Ahundjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2011. – B. 215–222.*
7. *Чабров Г. Из истории полиграфии и издательства литературы на местных языках в дореволюционном Туркестане (1868–1917). – В кн.: История науки. Кн. 7. – Ташкент, 1954. – С. 82. Труды САГУ. Новая серия. Вып.57.*
8. *Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi (darslik). 2-qism. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. – 308 b.*
9. *Shodmonova S. Turkiston tarixi – matbuot ko'zgusida. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – 296 b.*

Mirsaat Isxakov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona – axborot faoliyati" kafedrası
katta o'qituvchisi, dotsent (v.b.)
E-mail: mirsoatisxakov@gmail.com*

BIBLIOTERAPIYANING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI HAMDA INSON RUHIY SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI O'RNI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada biblioterapiyaning pedagogik va psixologik mohiyati, uning shaxs ruhiy salomatligini mustahkamlashdagi ahamiyati hamda ma'naviy-axloqiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Biblioterapiyaning nazariy asoslari, shakllanish tarixi, asosiy tamoyillari va amaliy qo'llanilish yo'nalishlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, biblioterapiya jarayonida adabiyot tanlash mezonlari, mutaxassislar hamkorligi hamda individual va guruhli terapiya shakllarining samaradorligi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari biblioterapiyaning shaxsning hissiy holatini yaxshilash, ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash va ma'naviy kamolotini rivojlantirishda muhim pedagogik-psixologik vosita ekanligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** biblioterapiya, mutolaa, psixologik yordam, pedagogik yondashuv, ruhiy salomatlik, kitob terapiyasi, ma'naviy rivojlanish, badiiy adabiyot, psixoterapiya, kutubxonachilik.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF BIBLIOTHERAPY AND ITS ROLE IN STRENGTHENING HUMAN MENTAL HEALTH

***Abstract.** This article examines the pedagogical and psychological aspects of bibliotherapy and its role in promoting mental health and personal development. The study analyzes the theoretical foundations, historical evolution, principles, and practical applications of bibliotherapy as an effective method of psychological and educational support. Particular attention is given to the therapeutic potential of reading, the criteria for selecting appropriate literature, and the roles of*

psychologists, educators, librarians, and family members in the bibliotherapeutic process. The article also explores both individual and group forms of bibliotherapy and evaluates their effectiveness in enhancing emotional well-being, reducing psychological distress, and fostering social adaptation. The findings indicate that bibliotherapy serves as a valuable pedagogical and psychological tool that contributes to emotional resilience, self-awareness, moral development, and the overall improvement of mental health.

Keywords: *bibliotherapy, reading therapy, psychological support, pedagogical approach, mental health, reading culture, emotional well-being, personal development, psychotherapy, literature-based intervention, library science, social adaptation.*

Globalashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida inson ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Turli psixologik zo'riqishlar, stress holatlari va ijtimoiy muammolar insonning hissiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlashning innovatsion va samarali usullarini izlash zarurati ortib bormoqda. Ana shunday usullardan biri biblioterapiya bo'lib, u kitob mutolaasi orqali insonning psixologik holatini yaxshilash va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Biblioterapiya yunoncha "biblio" – kitob va "therapeia" – davolash so'zlaridan olingan bo'lib, maxsus tanlangan adabiyotlar vositasida insonning ruhiy holatiga terapevtik ta'sir ko'rsatish usuli hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat psixologik yordam ko'rsatish, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Biblioterapiyaning nazariy asoslari

Biblioterapiya XX asr boshlarida AQShda shakllangan bo'lib, dastlab shifoxona kutubxonalarida bemorlarning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llanilgan. Keyinchalik Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda biblioterapiya mustaqil ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida rivojlandi.

Ilmiy adabiyotlarda biblioterapiyaning asosiy maqsadi kitobxonning o'z muammolarini anglashiga, ularga yangicha nazar bilan qarashiga hamda hayotiy vaziyatlarga nisbatan konstruktiv munosabat shakllantirishiga ko'maklashishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu jarayonda o'quvchi asar qahramonlari bilan identifikatsiyalanadi, ularning kechinmalarini his qiladi va muammolarni hal etish tajribasini o'z hayotiga tatbiq etadi.

Biblioterapiya psixoterapiyaning yordamchi shakli sifatida insonning hissiy zo'riqishlarini kamaytirish, depressiv holatlarni yengillashtirish, stressga bardoshlilikni oshirish hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biblioterapiyaning pedagogik jihatlari: – Pedagogik nuqtayi nazardan biblioterapiya shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Kitob mutolaasi jarayonida o'quvchi muallifning g'oyalari, qadriyatlari va hayotiy tajribasi bilan tanishadi, natijada uning fikrlash doirasi kengayadi va ma'naviy ehtiyojlari shakllanadi.

Biblioterapiyaning pedagogik imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish;
- tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish;
- kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish;
- kommunikativ ko'nikmalarni takomillashtirish;
- shaxsning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish.

Ayniqsa, yoshlar bilan ishlashda badiiy adabiyot namunalariidan foydalanish ularda empatiya, bag'rikenglik, mas'uliyat va insonparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Biblioterapiyaning psixologik ahamiyati. Biblioterapiya insonning emotsional holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologik jihatdan uning

samaradorligi kitobxonning asar qahramonlari bilan ruhiy yaqinlik hosil qilishi, ularning muammolari va kechinmalarini boshdan kechirishi bilan izohlanadi.

Biblioterapiya natijasida:

- hissiy zo'riqish kamayadi;
- ruhiy yengillik hosil bo'ladi;
- stress va xavotir darajasi pasayadi;
- o'zini anglash va o'zini baholash ko'nikmalari rivojlanadi;
- muammolarni hal etishning yangi strategiyalari shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitobxon asardagi qahramonlarning muvaffaqiyatli tajribalarini kuzatish orqali o'z hayotidagi murakkab vaziyatlarga nisbatan optimistik munosabatni shakllantiradi. Bu esa psixologik rezistentlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Biblioterapiyaning asosiy bosqichlari

Biblioterapevtik faoliyat odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Motivatsion bosqich.

- mutolaaga qiziqish uyg'otish;
- terapevtik maqsadlarni belgilash;
- kitobxonning ehtiyoj va muammolarini aniqlash.

2. Ma'rifiy bosqich.

- tavsiya etilgan adabiyotlarni mutolaa qilish;
- o'qilgan materiallarni tahlil etish;
- savol-javob va muhokamalar tashkil qilish.

3. Refleksiv bosqich.

- asar mazmunini shaxsiy tajriba bilan bog'lash;
- his-tuyg'ularni anglash va ifodalash;
- xulosa chiqarish va yangi xulq-atvor strategiyalarini shakllantirish.

Biblioterapiyada adabiyot tanlash mezonlari

Biblioterapiyaning samaradorligi ko'p jihatdan tanlangan adabiyotning sifatiga bog'liq. Tavsiya etiladigan asarlar quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- kitobxonning yoshi va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi;
- mazmunan boy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi;
- estetik va badiiy jihatdan mukammal bo'lishi;
- muayyan psixologik muammoni yoritishi va uni hal etish yo'llarini ko'rsatishi.

Mazmunan sayoz va g'oyaviy jihatdan sust asarlar biblioterapevtik ta'sir ko'rsatmasligi, aksincha, kitobxonda mutolaaga nisbatan salbiy munosabat shakllantirishi mumkin.

Biblioterapiyaning zamonaviy shakllari

Hozirgi kunda biblioterapiya individual va guruhli shakllarda qo'llanilmoqda. Individual biblioterapiyada mutaxassis kitobxonning ehtiyojlariga mos adabiyotlarni tavsiya qiladi va mutolaa natijalarini tahlil qiladi.

Guruhli biblioterapiyada esa ishtirokchilar o'qilgan asarlar yuzasidan fikr almashadilar, o'z kechinmalari bilan o'rtoqlashadilar hamda muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday yondashuv ijtimoiy integratsiya va o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi.

Biblioterapiya jarayonida psixologlar, pedagoglar, kutubxonachilar, shifokorlar hamda ota-onalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hamkorlik terapevtik natijalarning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytsak, biblioterapiya inson ruhiy salomatligini mustahkamlash, ma'naviy kamolotini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik-psixologik texnologiyalardan biridir. Maxsus tanlangan adabiyotlar yordamida shaxs o'z muammolarini anglaydi, hissiy kechinmalarini boshqarishni o'rganadi va hayotiy vaziyatlarga nisbatan konstruktiv yondashuvni shakllantiradi. Shu bois biblioterapiyani ta'lim, tarbiya, psixologik maslahat va rehabilitatsiya jarayonlariga keng joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa

hisoblanadi. Biblioterapiya insonning ruhiy holatini yaxshilash, emotsional barqarorligini mustahkamlash va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik hamda psixologik usullardan biridir. Badiiy, ilmiy va ma'rifiy adabiyotlarni mutolaa qilish orqali inson o'z his-tuyg'ularini anglaydi, muammolariga yechim topishga intiladi va hayotiy tajribalarini boyitadi. Shu jihatdan biblioterapiya nafaqat tarbiyaviy, balki psixoprofilaktik ahamiyatga ham ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitob mutolaasi insonning stress va tashvish darajasini kamaytiradi, ijobiy fikrlashni rivojlantiradi hamda kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Ta'lim muassasalari, kutubxonalar va psixologik xizmatlar faoliyatida biblioterapiya usullaridan foydalanish yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, ularning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, biblioterapiya pedagogik va psixologik yondashuvlarning samarali integratsiyasi sifatida inson ruhiy salomatligini mustahkamlash, hayot sifatini yaxshilash hamda barkamol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyeva Z. Davolovchi kitoblar [Ma'ruzalar matni]. – Toshkent, 2019. – 52 b.
2. Mahmudova S. Bolalar kitobxonligi va uning bolalar adabiyotiga munosabati [Ma'ruza matni]. – Toshkent, 2018. – 386 b.
3. Burgimov A. Maslahat amaliyotidagi biblioterapiya [Elektron resurs]. – Tula, 2009. – 26 b.
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Bibliotherapy>
5. <https://www.goodtherapy.org/learn-about-therapy/types/bibliotherapy>
6. <https://www.verywellmind.com/what-is-bibliotherapy-4687157>
7. <http://www.ala.org/tools/atoz/bibliotherapy>
8. <https://www.psychologytoday.com/intl/therapy-types/bibliotherapy>

Людмила Муминходжаева

*Старший преподаватель кафедры
«Библиотечно-информационная деятельность»
ГИИК Узбекистана
E-mail: lydel11@mail.ru*

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА БИБЛИОТЕК В КОНТЕКСТЕ ВЫЗОВОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

***Аннотация.** В статье рассматриваются современные подходы к формированию кадрового потенциала библиотек в условиях цифровой трансформации общества и реализации принципов устойчивого развития. Анализируются основные тенденции модернизации библиотечной деятельности, обусловленные внедрением цифровых технологий, развитием электронных информационных ресурсов и изменением потребностей пользователей. На основе анализа отечественного и зарубежного опыта определены перспективные направления кадровой политики библиотек, ориентированные на адаптацию персонала к современным вызовам цифровой среды.*

***Ключевые слова:** кадровый потенциал библиотек, цифровые компетенции, профессиональное развитие, непрерывное образование, библиотечно-информационная деятельность, инновационные технологии, кадровая политика.*

MODERN APPROACHES TO DEVELOPING THE HUMAN RESOURCE POTENTIAL OF LIBRARIES IN THE CONTEXT OF THE CHALLENGES OF DIGITAL TRANSFORMATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT

***Abstract.** The article examines modern approaches to the formation of library human resources in the context of digital societal transformation and the implementation of sustainable development principles. It analyzes the main trends in the modernization of library activities, driven by the introduction of digital*

technologies, the development of electronic information resources, and changing user needs. Based on the analysis of domestic and foreign experience, promising directions for library human resource policy are identified, aimed at adapting staff to the modern challenges of the digital environment.

Keywords: *library human resources, digital competencies, professional development, lifelong learning, library and information activities, innovative technologies, human resource policy.*

Современный библиотечный специалист выполняет комплексную профессиональную роль, сочетая функции посредника в системе знаний, консультанта, педагога и исследователя. Реализация данных функций требует непрерывного профессионального развития, постоянного обновления компетенций и освоения современных технологий. При этом подготовка кадров должна основываться не только на углублении знаний в области библиотечно-информационной деятельности, но и на междисциплинарном подходе, включающем информационные технологии, основы педагогики, психологии и маркетинга.

Работа в библиотеке в наше время становится не только труднее, но и значительно интереснее. Библиотечные учреждения, которые когда-то ассоциировались исключительно с тишиной и книгами, сегодня трансформируются в динамичные центры знаний и культуры. В условиях быстрого технологического прогресса библиотечным специалистам необходимо осваивать современные информационно-коммуникационные технологии, а также развивать гуманитарные навыки.

Эффективность библиотек как информационных, культурных и образовательных центров напрямую зависит от уровня кадрового потенциала и качества профессиональной подготовки персонала. Данные факторы выступают ключевым условием модернизации библиотечной системы и внедрения инновационных технологий.

В Указе Президента Республики Узбекистана «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы» [1] особое внимание уделяется развитию человеческого капитала, совершенствованию профессиональных навыков и поддержке инновационного мышления. Данные направления имеют важное значение и для библиотечно-информационной сферы, которая сегодня развивается в условиях цифровизации и активного внедрения современных технологий.

Вопросы кадрового менеджмента в библиотечно-информационной сфере достаточно подробно рассматриваются в научной литературе. Исследования ведущих специалистов посвящены проблемам управления персоналом, развитию кадрового потенциала библиотек и совершенствованию профессиональной подготовки сотрудников.

Значительный вклад в изучение библиотечного менеджмента внесли И.М.Суслова, В.К.Клюев, Э.Р.Сукиасян, Н.Т.Чуприна и другие исследователи. В их трудах раскрываются вопросы кадровой политики, организации управления персоналом и повышения эффективности библиотечной деятельности. Современные авторы уделяют особое внимание цифровой трансформации библиотек, развитию цифровых компетенций сотрудников и внедрению инновационных технологий в библиотечно-информационную деятельность.

В условиях стремительных изменений в обществе и технологиях стратегический подход к управлению персоналом становится неотъемлемой частью успешного функционирования организаций. Человеческие ресурсы рассматриваются как основной интеллектуальный капитал, который требует системного развития и инвестирования [3, 251-с]. Это особенно актуально для библиотек, которые играют важную роль в системе непрерывного образования и культурного просвещения. Сотрудники библиотеки являются важнейшим ресурсом, от качества работы которых зависит успешность выполнения её функций. В современном управлении персоналом наблюдается усиление

гуманистической ориентации, что проявляется в создании условий для профессионального роста и развития творческого потенциала работников. Библиотеки, как центры культуры и образования, должны активно инвестировать в своих сотрудников, обеспечивая их необходимыми знаниями и навыками.

Реализация стратегического подхода к управлению персоналом в библиотечной сфере сопровождается несколькими устойчивыми тенденциями:

1. Охват всех направлений кадровой работы: Управление персоналом становится многосторонним процессом, охватывающим не только набор и обучение, но и развитие, мотивацию и удержание сотрудников.

2. Делегирование управленческих функций: Линейные руководители становятся более активными участниками процесса управления, что способствует более быстрому реагированию на изменения и повышению вовлечённости сотрудников.

3. Усиление взаимодействия между структурными подразделениями: Эффективное сотрудничество между различными отделами библиотеки позволяет более эффективно использовать ресурсы и достигать общих целей.

Качество кадрового потенциала библиотек напрямую определяет их способность выполнять информационные, образовательные и культурные функции. Подготовка специалистов для библиотечной сферы должна быть приоритетным направлением развития отрасли. В условиях цифровизации возрастают требования к профессиональным навыкам работников, которые должны владеть современными программно-техническими средствами и новыми методами работы с информацией.

Система библиотечного образования должна быть тесно связана с практической деятельностью библиотек. Важно, чтобы учебные заведения, готовящие специалистов для библиотечной сферы, активно сотрудничали с

библиотеками, учитывая их потребности и вызовы, с которыми они сталкиваются в своей работе.

В последние годы Республика Узбекистан сделала значительные шаги в области подготовки библиотечных кадров, что стало важным аспектом развития всей библиотечно-информационной сферы страны. С момента обретения независимости были внедрены новые образовательные стандарты, которые способствовали модернизации подходов к обучению будущих библиотекарей и информационных специалистов.

Одним из ключевых достижений стало внедрение государственного образовательного стандарта по направлению «Библиотечно-информационная деятельность». Это позволило обновить учебные планы и ввести новые дисциплины, связанные с информационными системами, сетями, форматом MARC, а также автоматизированными библиотечными системами. В результате, будущие библиотекари получают более глубокие знания и навыки, необходимые для работы в условиях быстро меняющейся информационной среды.

В Узбекистане функционирует множество библиотек различных типов, кадровый состав отрасли насчитывает десятки тысяч специалистов, что свидетельствует о значительном потенциале для дальнейшего развития [2, 75-с]. Однако, несмотря на это, существует необходимость в постоянном повышении квалификации и переподготовке кадров, так как профессиональные компетенции не формируются исключительно в процессе практической деятельности.

Система непрерывного образования в библиотечном деле включает в себя разнообразные формы обучения: тренинги, семинары, конференции, самостоятельное обучение, исследовательскую деятельность, обмен опытом и наставничество. Особое внимание уделяется интерактивным методам обучения, которые направлены на практическое применение знаний и развитие профессиональных навыков. Это позволяет библиотечным

специалистам не только усваивать теоретические знания, но и эффективно применять их на практике.

Важным направлением является освоение цифровых технологий. Библиотечные работники должны уметь работать с электронными ресурсами, базами данных и онлайн-сервисами. Развитие навыков создания цифровых продуктов, таких как электронные библиотеки, виртуальные выставки и образовательные платформы, становится актуальным в условиях цифровизации общества. Это не только повышает качество обслуживания пользователей, но и расширяет доступ к информации.

Коммуникативные компетенции играют важную роль в библиотечном деле. Эффективное взаимодействие с пользователями и организация культурно-просветительской деятельности требуют от библиотекарей умения общаться и работать с разными категориями граждан. Это включает в себя как традиционные формы общения, так и использование современных технологий для взаимодействия с аудиторией.

Несмотря на достигнутые успехи, в библиотечной сфере Узбекистана сохраняются определенные проблемы. Одной из них является недостаточный уровень цифровых компетенций у части специалистов, что может негативно сказаться на качестве предоставляемых услуг. Также отмечается отток кадров, вызванный низкой заработной платой и отсутствием достаточных стимулов для профессионального роста.

В настоящее время в стране функционирует около 17 тысяч библиотек различных типов, а численность библиотечных работников составляет около 23 тысяч человек, при этом значительная часть специалистов имеет среднее и высшее специальное образование [5, 73-с].

Поскольку профессиональные знания не формируются исключительно в процессе практической деятельности, важным направлением является система повышения квалификации и переподготовки кадров. Она включает модернизацию технической базы библиотек, дополнительное обучение

сотрудников в соответствии с новыми требованиями, а также подготовку молодых специалистов, не обладающих достаточным уровнем практических и теоретических компетенций.

Повышение квалификации и переподготовка библиотечных специалистов реализуются через систему различных форм обучения, включая тренинги, семинары, конференции, а также освоение современных методов профессиональной деятельности. Данные формы способствуют ознакомлению с актуальными тенденциями в библиотечной и смежных сферах.

Тренинг рассматривается как интерактивный метод обучения, направленный на развитие профессиональных знаний, умений и навыков, а также личностных качеств специалистов. Его особенность заключается в практико-ориентированном характере, предполагающем активное участие обучающихся, обмен опытом и применение полученных знаний в профессиональной деятельности. Важную роль в системе непрерывного образования играют самостоятельное обучение (изучение профессиональной литературы, онлайн-курсы, вебинары), исследовательская деятельность (участие в проектах и публикациях), обмен опытом между библиотеками, а также наставничество, предполагающее передачу профессиональных знаний от опытных специалистов молодым сотрудникам.

Особое значение приобретает освоение цифровых технологий, включая работу с электронными ресурсами, базами данных, онлайн-каталогами и инструментами информационного поиска. Современный библиотекарь также должен уметь разрабатывать и сопровождать цифровые сервисы, такие как электронные библиотеки и виртуальные выставки.

Не менее важным является развитие коммуникативных компетенций, необходимых для взаимодействия с пользователями, консультирования и организации культурно-просветительской деятельности. Библиотечный

специалист должен быть готов к постоянным изменениям, обладать способностью к адаптации и критическому отбору информации.

Искусственный интеллект открывает новые горизонты для библиотечного дела, позволяя улучшать процессы, повышать качество обслуживания и адаптироваться к изменяющимся потребностям пользователей. Тем не менее, важно помнить о рисках и вызовах, связанных с его внедрением. Библиотеки, которые смогут эффективно интегрировать ИИ в свою деятельность, будут в состоянии не только сохранить, но и укрепить свою роль в современном обществе, предоставляя пользователям доступ к знаниям и ресурсам в новом, более удобном формате [4, 79-с].

Одним из наиболее существенных результатов использования ИИ является автоматизация трудоёмких и повторяющихся операций в HR-деятельности. Процессы первичного отбора кандидатов, анализа резюме и сопоставления их с требованиями вакансий могут осуществляться с применением алгоритмов машинного обучения. Это позволяет значительно сократить временные затраты на подбор персонала и повысить точность предварительной оценки кандидатов, освобождая специалистов по кадрам для выполнения аналитических и стратегических задач.

Значительное развитие получает направление HR-аналитики, основанной на обработке больших данных. Интеллектуальные системы обеспечивают сбор и интерпретацию значительных массивов информации, что позволяет выявлять закономерности в трудовом поведении сотрудников, оценивать эффективность их деятельности и прогнозировать кадровые потребности организации. Использование таких инструментов способствует повышению объективности управленческих решений и снижению влияния субъективного фактора.

Отдельное значение имеет использование интеллектуальных технологий в организации внутренней коммуникации. Чат-боты и виртуальные ассистенты обеспечивают оперативное взаимодействие между

сотрудниками и кадровыми службами, повышая скорость получения информации и уровень информационной доступности внутри организации.

Перспективы применения искусственного интеллекта в библиотечной сфере характеризуются значительным потенциалом и охватывают широкий спектр направлений модернизации библиотечной деятельности. Ожидается, что использование интеллектуальных технологий приведёт к качественным изменениям в организации библиотечных процессов и расширению функциональных возможностей информационного обслуживания.

Таким образом, искусственный интеллект становится важным направлением развития библиотечного дела. При условии грамотного и поэтапного внедрения он способен существенно повысить качество библиотечно-информационного обслуживания и определить дальнейшие направления модернизации отрасли.

Используемая литература

1. *Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы: Указ Президента Республики Узбекистан № УП-165 от 7 июля 2022 г. // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. - Режим доступа: <https://lex.uz/docs/6102464>.*

2. *Ганиева Б. Эволюция подготовки кадров для библиотек в контексте развития библиотечных технологий [Электронный ресурс] / Б.И.Ганиева // *Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari: XVII Xalqaro konferensiya Central Asia – 2025, 15–17-may, Farg'ona: konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 75–76. – Режим доступа: <https://einfolib.uz/source/nashrlar/pdf/3UnETvpMBxN-JZ-4YiwQUyPB6NiTEbX8.pdf>**

3. *Клюев В. Изменяющиеся функции управления персоналом библиотеки / В.Клюев., М.Захаренко // Румянцевские чтения – 2017: 500-летие издания*

первой славянской Библии Франциска Скорины: становление и развитие культуры книгопечатания: материалы Междунар. науч.-практ. конф., 18–19 апреля 2017: в 3 ч. / сост. Е.Иванова. – Москва, 2017. – Ч.1. – С. 249-254. https://rgub.ru/professional/published/article.php?article_id=324.

4. Охременко И. Искусственный интеллект в HRM – преимущества и проблемы [Электронный ресурс] / И.В. Охременко, В. В. Финк // Финансовые рынки и банки. – 2025. – № 3. – С.78-82. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyu-intellekt-v-hrm-preimuschestva-i-problemy>.

5. Эшанкулова С. Инновационные методы подготовки и повышения квалификации кадров для библиотек / С.Эшанкулова // Интернет и информационно-библиотечные ресурсы в науке, образовании, культуре и бизнесе: материалы XVII Международной конференции Central Asia – 2025, 15–17 мая, Фергана. – Ташкент, 2024. – С. 72–74. – на узб.яз. – Режим доступа:<https://einfo.lib.uz/source/nashrlar/pdf/3UnETvpMBxN-JZ-4YiwQUyPB6NiTEbX8.pdf>

Nilufar Ro'ziyeva

*O'zbekiston davlat sanat va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası o'qituvchisi
E-mail: roziyevanilufar062@gmail.com*

O'ZBEK KUTUBXONACHILIGINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

***Annotatsiya.** Ma'lumki, kutubxonalar tarixi kutubxonachilik taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ochib beradi; kutubxonalarning ijtimoiy rolini, madaniyat, ta'lim, fan, texnika va ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda kutubxonalar rivojlanishining ijtimoiy sharoitlarini ko'rsatadi, ularga ijtimoiy ehtiyojni, kutubxonalarning aholiga xizmat ko'rsatish darajasini belgilaydi. Kutubxona xizmatining tashkiliy shakllari va ish uslublari evolyutsiyasini kuzatib, kutubxona tafakkuri va kutubxona ta'limi rivojlanishini ham tahlil qiladi. Bunda kutubxonalar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida kutubxonachilikning istiqbolli yo'nalishlarini ko'rish imkonini beradigan tarixiy yondashuvlari haqida ushbu maqolada yoritiladi.*

***Kalit so'zlari:** kutubxonachilik, xizmat ko'rsatish, evolyutsiya, fan, tizim, taraqqiyot, axborot, jamiyat, tafakkur.*

STAGES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK LIBRARIANSHIP.

***Abstract.** This article examines the historical development of librarianship and highlights the role of libraries in the advancement of culture, education, science, technology, and production. The study analyzes the social functions of libraries, the conditions that have influenced their development, and their contribution to meeting the informational and educational needs of society. Particular attention is paid to the evolution of library thought, library education, organizational forms of library services, and professional working methods. The article also explores historical approaches to librarianship that help identify promising directions for its further development at different stages of social progress.*

Keywords: *librarianship, library services, evolution, science, structure, development, information, society, library thought.*

Kitob insoniyat va jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida kishilarni tarbiyalash, ularning aqliy rivojlanish vositasi bo'lib keladi. Kitob barcha sohaga oid bilimlarni to'plash, saqlash usuli sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, barcha formatsiyalarning almashinuvida va taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, kelmoqda. Inson tafakkurining rivojlanishida esa kitob va yozuv doimo hamroh bo'lib kelgan. Ba'zi madaniyat va ma'rifat shakllari og'zaki aloqa munosabatlariga asoslangan bo'lsa-da, yozuv paydo bo'lgandan so'nggina hozirgi kungacha yetib keldi va voqelikka aylandi. Kutubxona kitoblar va kishi ilk jamiyat tarixi yig'indisi bo'lgani uchun ham insonparvar muassasa hisoblanadi. Bunda insoniyat erishgan barcha ilmlar, turli fan sohalari bo'yicha shaklidan, xilidan, turidan, tilidan qat'iy nazar, adabiyotlar to'plangan. Shu o'rinda kutubxonalar zulmatga, nodonlikka, jaholatga qarshi kurashda faol bo'lgan, kishilar qalbiga ezgulik, yaxshilik, saxovat, sadoqat, mehr-muhabbat, oqibat urug'larini singdirib kelishadi. Butun insoniyat borlig'ining buyuk hujjatlashgan guvohi sifatida yashab kelmoqda. Unga zarurat sezgan har bir kishi bemalol foydalana olishi va o'z navbatida, kutubxonalar shu maqsadda hammabop bo'lishi kerak. Bora-bora madaniyatning takomillashuvi ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyotining tarixan rivojlanishiga asos bo'lib, kutubxonalar, kitob fondi, ulami tashkil etish va boshqarishning, kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning muhim omiliga aylanib qoldi. Shuning uchun kutubxonalarning ijtimoiy roli aniq tarixiy sharoitda namoyon bo'ladi. Kutubxonachilik ishi hech qachon makonda va zamondan tashqarida mustaqil rivojlana olmaydi, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga faoliyat tushunchalari vujudga keldi. Kutubxonalar ijtimoiy hodisa sifatida o'zi ishlab turgan ijtimoiy muhit doirasiga bog'liq ravishda shakllanishi buyuk haqiqatdir. Kitob boyliklari va boshqa axborot manbalari hisoblangan kutubxona-axborot faoliyati tushunchalari vujudga kela boshladi. Jamiyat a'zolarini foydalanishini tashkil etish maqsadida esa davlat, turli jamoat tashkilotlari va

xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar tizimi bo'lib, ular o'zida jamiyatimizda, axborot, madaniy-ma'rifiy va ta'lim berish vazifalarini bajaruvchi soha hisoblanadi. Axborot-kutubxona faoliyati sohasi, boshqa amaliy sohalar kabi o'zini ilmiy-nazariy asoslariga ega bo'lishligi talab etiladi. Bu vazifani "Kutubxonashunoslik" fani o'rganadi. "Kutubxonashunoslik" fanining asosiy maqsadi – talabalarga kutubxonashunoslik, shu bilan birga axborot-kutubxona faoliyati sohasi uchun asosiy ilmiy-nazariy masalalarni, umumiy tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslarni, sohaning istiqbollarini, jamiyatni axborotlashtirish bilan bog'langan holda o'rgatishdir.

Fanning vazifasi – talabalarning kasbiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash va bo'lg'usi mutaxassislarga ixtisoslik bo'yicha malakalarini yanada mustahkamlash uchun kutubxonashunoslik uslubiyati va metodologiyasi, kutubxonashunoslikni boshqa fanlar bilan bog'liqligi, respublikamiz kutubxona tarmoqlari, tizimlari va ularda mavjud muammolar, istiqbollar hamda aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning ahvoli va muammolari, AKM, ARM va kutubxonalar faoliyati va ularni boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi masalalari va boshqalar haqida zaruriy bilimlar berish va ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanib kelmoqda. Shu o'rinda kapitalistik ishlab chiqarish formatsiyasi oldingi formatsiyalarga ko'ra kutubxonachilik ishi va kutubxonashunoslik fanini rivojlanishi uchun juda katta sabab bo'ldi. Sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi, bosma mashinalarni yaratilishi, qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasini sanoat darajasida ommalashuvi va boshqa ko'plab omillar kutubxonalarni ta'lim bazalari bo'lishiga olib keldi. Kutubxonalar haqidagi emperik bilimlar va tushunchalar hamda amaliyotdagi bo'lgan talablar, ma'lum bir ilmiy tizimni shakllanishini tezlashtirdi va u "kutubxonashunoslik" deb nomlandi. Shu davrdan boshlab ikkinchi, ya'ni kutubxonashunoslikning ilmiy rivojlanish davri boshlandi. Bu davrni uchta qismga bo'lish mumkin.

Ko'pgina ilmiy va o'quv fanlari singari kutubxonashunoslik ham uch qismdan iborat: tarix, nazariya, amaliyot. Kutubxonachilik tarixi umumiy

kutubxonashunoslik kursi doirasida o'rganiladi, bu kurs ushbu kursdan tashqari yana ikkita nazariy bo'lim: kutubxona haqidagi ta'limot va kutubxonachilik ta'limotidan iborat. Umumiy kutubxonashunoslik fanining amaliy qismini "Kutubxona fondi", "Kutubxona axborot-qidiruv tizimlari", "Kutubxona xizmati", "Kutubxonani boshqarish" va boshqa kurslarni tashkil etadi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha kurslar uchun kalit bo'lgan "kutubxona" tushunchasi juda ko'p ta'riflarga ega. Umumiy kutubxonachilik, shu jumladan bizning intizomimiz doirasida "kutubxona" deganda "o'z nashriyotlari fondida jamlangan, ommaviy axborotga bo'lgan ehtiyojni alohida tashkil etish shaklida ta'minlaydigan maxsus muassasa" tushuniladi] [1, 192-b]. Bu, albatta, ma'lum bir kutubxona emas, balki uning umumlashtirilgan tasvirini anglatadi. "Kutubxonachilik" deganda "maqsadi kutubxonalarda to'plangan axborot resurslari, shuningdek ma'lum bir hududda faoliyat yurituvchi kutubxonalar majmuasi yordamida jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat bo'lgan kasbiy faoliyat sohasi" tushuniladi. Kutubxonashunoslikning (va uning bir qismi sifatida kutubxonachilik tarixi) o'rganish obyekti "kitob – kutubxona – o'quvchi" real hayot tizimidir. O'rganish obyekti har doim ham bevosita tadqiqotchiga berilmaydi. Ushbu tadqiqotchiga o'z-o'zidan emas, balki turli xil empirik ma'lumotlarning kombinatsiyasi sifatida ko'rinadi. Aytishimiz mumkinki, kutubxonachilik tarixi obyektini faqat tarixiy kutubxonachilik jarayonining turli qirralarini aks ettiruvchi va shu orqali tarixiy kutubxonachilik hodisalarining mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyasini aniqlash imkonini beruvchi kutubxonachilik tarixi manbalari orqaligina o'rganish mumkin. Kutubxonachilik tarixi fanining predmeti kutubxonachilikning vujudga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlaridir.

Kutubxonachilik tarixi kutubxonachilik taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ochib beradi; kutubxonalarining ijtimoiy rolini, madaniyat, ta'lim, fan, texnika va ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib beradi; kutubxonalar rivojlanishining ijtimoiy sharoitlarini ko'rsatadi, ularga ijtimoiy ehtiyojni, kutubxonalarining aholiga xizmat ko'rsatish darajasini belgilaydi; kutubxona

xizmatining tashkiliy shakllari va ish uslublari evolyutsiyasini kuzatadi; kutubxona tafakkuri va kutubxona ta'limi rivojlanishini tahlil qiladi; jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida kutubxonachilik nazariyotchilari va tashkilotchilarining faoliyatini yoritadi. Garchi kutubxonachilik tarixi so'zning to'g'ri ma'nosida orqada bo'lsa-da, funksiyalari bilan cheklanmaydi. Kutubxonalarning rivojlanish jarayonini o'rganish, kitoblardan ommaviy foydalanishni tashkil etish bo'yicha qarashlar, kutubxona qurilishi sohasida to'plangan tajribani tanqidiy o'zlashtirish va ulardan foydalanish hozirgi bosqichda kutubxonachilik rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini ochib berishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda tarix fanlarini "modernizatsiya" va futurizatsiya deb atash mumkin bo'lgan jarayon davom etmoqda. Kutubxonachilik tarixchisi uning holatini o'tmishdagi qaysi yo'nalishlar yanada rivojlanganligi, qaysilari butunlay yo'qolgan yoki tanazzulga yuz tutganligi, qaysi yangi hodisalar kelajakda mavjud bo'lish va mustahkamlanib borish huquqiga ega ekanligi nuqtayi nazaridan tahlil qilishga chaqiriladi. Kutubxonachilikning rivojlanishi qonunlariga zid. O'tmishni bilish, kutubxonachilikning paydo bo'lishi va rivojlanishini tartibga soluvchi qonuniyatlarni tushunish bilan qurollangan tarixchi kelajakni oldindan ko'rishga va kutubxonachilik rivojlanishidagi asosiy hodisalarni ekstrapolyatsiya qilishga tayyor. Shuning uchun kutubxonachilikni bashorat qilish uni o'rganish bilan bog'liq. Kutubxonachilik tarixi madaniyat tarixidan ajralmas va uning bir qismidir. Madaniyat tarixchisining eng muhim vazifasi turli madaniyat muassasalarining o'zaro aloqalarini aniqlashdan iborat bo'lsa, kutubxonachilik tarixchisi kutubxonaning madaniy qurilishdagi o'rnini ko'rsatishdan iborat. Shuning uchun kutubxonachilikning rivojlanishi tarixiy-madaniy jarayon fonida ko'rsatilishi kerak. Kutubxonachilik tarixi bilan kitob tarixi o'rtasidagi aloqalar aniq belgilanmagan. Shubhasiz, kitob keng ma'noda matbaa yoki yozuv asari sifatida yaqin o'tmishda kutubxonaning butun fondini, hozir esa uning asosiy qismini tashkil qilgan. Shuning uchun ma'lum ma'noda kutubxona fondlarining rivojlanish tarixi qo'lda va bosma kitob ishlab chiqarish

tarixi mavjud. Biroq kutubxonachilik tarixi bilan kitob tarixi o'rtasida, hatto kutubxonalar paydo bo'lgan dastlabki davrlarda ham teng belgi qo'yib bo'lmaydi.

Birinchi davr XIX–XX asr boshlarini o'z ichiga oladi. Dunyo bo'yicha kutubxonashunoslik “yagona oqim” sifatida qaralgan. Uni asosida jamiyat a'zolariga xizmat ko'rsatishning me'yorlari va qadriyatlarini yotar edi. Birinchi bo'lib “kutubxonashunoslik” atamasini aniq joriy etish lozim ekanligini myunxenlik kutubxonachi M.Shrettinger anglab yetdi. U tarixda birinchi bo'lib “kutubxonashunoslik” iborasini o'zini ikki tomlik asarida qayd etdi. Asarning nomi “Kutubxonashunoslikka oid to'liq tajribalar darsligi yoki kutubxonachining ishini yuritish bo'yicha rahbarlik qilish” deb nomlangan. Ushbu asar 1808 dan boshlab, to 1829-yilgacha chop etilgan. 1834-yilga kelib “Kutubxonashunoslikka rahbarlik qilish” nomi bilan qayta nashr etilgan. Shrettingerning kutubxonashunoslik tushunchasi hali kutubxonachilik ishidan farq qilmas edi. U kutubxonashunoslikni amaliy bilimlar sifatida bilar edi. Shubhasiz, bu muhim material zamonaviy o'quvchini o'rganishni boshlagan har bir kishi uchun ajralmas hisoblanadi. Bu misollar kutubxonachilik tarixi uning hozirgi holatini o'rganishga qanday yordam berishini ishonchli ko'rsatib turibdi. Ushbu qarashlar barcha chet el kutubxonashunosligida XIX–XX asrlar boshigacha saqlanib qoldi. Buni natijasida ijtimoiy mazmundan xoli bo'lgan tor texnologik, amaliy, amaliy fan sifatida namoyon bo'ldi. XIX asrning oxirlariga kelib kutubxonashunoslik fanining amaliy fandan ilmiy fanga aylana boshlanishining dastlabki belgilari paydo bo'la boshladi. Bu jarayonga nemets kutubxonashunos olimi A.Grezelning hissasi katta bo'ldi. “Kutubxonaga tegishli bo'lgan nazariy masalalar, – deb yozadi u, kutubxonachilik ishi tarixi va alohida kitob fondlari, mustaqil kutubxonashunoslik fanining predmetini shakllantiradi” [2, 192-b].

Taxminan o'sha davrlarda kutubxonashunoslik fanini ilmiy fan sifatidagi tarkibi haqidagi dastlabki qarashlar shakllana boshlandi. Unda ikkita bir-biriga teng bo'lgan bo'limlarga: kutubxonalar haqidagi va kutubxona fondi haqidagi bilimlarga ajratildi. Kutubxonashunoslikni kitobshunoslik, adabiyotshunoslik, bibliografiya,

qo'lyozmalarni o'rganish va boshqa fanlar tarkibiga kiritishga urinishlar bo'ldi. Bularni barchasi kutubxonashunoslik fanining predmeti va tarkibini isbotlanmagan holda kengaytirishga olib keldi. Kutubxonashunoslik fanining shakllanishiga kutubxonachilik ishi, kutubxonashunoslik bo'yicha ko'plab asarlarni yaratilishi, dastlabki kutubxonachilikka oid jurnallarni ("Serapeum", Germaniyada 1840-yil; "Bibliotechniy jurnal" AQSH, 1876-yil;) kasbiy kutubxonachilik assotsiatsiyalarini (Amerika kutubxonachilik assotsiatsiyasi, AQSH, 1876-yil); Kutubxonachilik assotsiatsiyasi, Buyuk Britaniya 1877-yil), kutubxonashunoslik sohasidagi ilmiy markazlarni, ayniqsa Germaniyada, paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir. Rossiyada kutubxonashunoslik fanini rivojlantirishga V.I.Sobolshikov (1813–1872), N.A.Rubakin (1862–1946), A.A.Pokrovskiy (1875–1954), K.I.Rubinskiy (1860–1930), L.B.Xavkina (1871–1949) va boshqalar katta hissa qo'shdilar. O'zbekistonda "kutubxonashunoslik" atamasi Ye.K.Betger (1877–1956), A.V.Korshun (1878–1961), V.N.Smolin (1887–1945), N.A.Burov (1885–1969), O.V.Maslova (1893–1980) va boshqalarni asarlarida qo'llanildi. Jahon kutubxonashunosligi oqimi bo'yicha rivojlanishda davom etarkan, vatan kutubxonashunoslik fani kutubxonachilik ishini xalq ta'limining muhim qismi sifatida qaraldi va kutubxonaning ulkan madaniy o'rni va aholini mustaqil o'qishidagi muhim o'rni qayd etib o'tildi. Kutubxonashunoslik ijtimoiy-siyosiy jihatdan liberal-burjua va burjua-demokratik yo'nalishdagi ilmiy bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ldi.

Kutubxonachilik tarixi bilan kutubxonashunoslik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash nihoyatda muhimdir. O'tmishda kutubxonachilikning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlardan uning rivojlanishini prognozlashda, ayniqsa ekstrapolyatsiya usulidan foydalanganda keng foydalanish mumkin va kerak. Kutubxonachilik tarixi zamonaviy kutubxonachilar va kutubxonachilarni kutubxona xizmatini tashkil etish, shakllari va usullari bilan bog'liq eng boy materiallar bilan ta'minlaydi. Masalan, kutubxona fondlariga ochiq kirish mijozlarga xizmat ko'rsatishning ilg'or shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, ochiq kirishga birinchi urinishlar XIX asrdayoq mavjud

edi, ammo ular yagona hodisa edi. XX asrda SSSRning ko'plab kutubxonalarida ochiq kirish joriy etilishi ham matbuotlarda mazkur xizmat ko'rsatish tizimining muammolari muhokama qilingan. Biroq, ko'plab jiddiy kamchiliklar tufayli RSFSR davlat ommaviy kutubxonalariga ochiq kirish 1933-yilda xalq ta'limi komissarligi qarori bilan bekor qilinadi. Taxminan chorak asr o'tgach, XX asrning 50-yillarda qayta tiklandi. Kutubxonashunoslikning eng muhim qismi kutubxona xizmati bo'lib, u kitobxonlarni o'rganishni nazarda tutadi.

Kutubxonachilik tarixi kutubxonalarning amaliy faoliyatini ham, kutubxonachilik tafakkuri va nazariyasi taraqqiyotini ham o'rganishga chaqiriladi. Bu kutubxonachilikning rivojlanishini obyektning ketma-ket holatlari qatori sifatida emas, balki jarayon sifatida ko'rsatish uchun zarurdir. Binobarin, kutubxonachilik tarixiga kutubxonachilik tarixi ham kiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu fan (katalog tarixi kabi boshqa fanlar kabi) ajralmas qismidir. Kutubxonashunoslikning yagona fani. Kutubxonachilik tarixini o'rganish bo'yicha mustaqil ishlarda turli nashr etilgan yillardagi darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalardan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda kutubxonashunoslik fani jamiyat taraqqiyoti ilgari surayotgan muammolarni, istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash imkoniyatiga ega emas, sababi, respublika hayotining barcha jabhalarida ketayotgan tub o'zgarishlar kutubxonachilik ishining ko'plab sohalarini qayta ko'rib chiqishni va yangilashni talab qilmoqda. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi, taraqqiyoti, asosiy xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarni o'rganish fanning bundan keyingi rivojiga asos bo'ladi, uning istiqbolini to'g'ri belgilashga yordam beradi. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyotida taniqli kutubxonashunos-bibliograf Yevgeniy Karlovich Betger shaxsi bilan bevosita bog'liqdir. Ye.K.Betger kutubxonachilik ishi masalalarining ayrim jihatlariga, chunonchi hisobotlarni yagona tartibda va shaklda tuzish, kutubxona fondi va kataloglarni xalqaro o'nlik klassifikatsiya jadvallari asosida tashkil qilish, kutubxona xodimlarini o'qitish va qayta tayyorlash muammolariga katta ahamiyat

bergan edi. Ye.K.Betger tuzgan O'rta Osiyo Davlat kutubxonasi (Hozirgi A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi) yillik hisobotlarida qiyosiy tahlil usuli qo'llanilgan bo'lib, uning natijasida kutubxonaning ijtimoiy rolini ortib borishini hamda mavjud kamchiliklarni bilib olish mumkin. Turkiston Davlat kutubxonasi (Turkiston ommaviy kutubxonasi 50 yilligi munosabati bilan kutubxona 1920-yil may oyidan boshlab Davlat kutubxonasi deb atala boshlandi) ishlagan to'rt yillik tajribasi asosida Ye.K.Betger o'zining "Jadvallardan foydalanish qoidalari va uslubiy ko'rsatmalar" degan ishini yozadi. Bu kutubxonachilik sohasi bo'yicha yozilgan o'sha davrning muhim ishlaridan biri bo'lib, qator yillar mobaynida respublika kutubxona xodimlari uchun qoidalar yig'indisidan iborat qo'llanma bulib qoldi. Ye.K.Betgerning "Eslatmalar, qo'shimcha tushuntirishlar va ulardan foydalanishning xilma-xil shakllarini alohida qismda jamlash" to'g'risidagi g'oyasi Bryuseldagi Xalqaro kutubxonachilik oliy bilimgo'hi xodimlarida katta qiziqish uyg'otadi. Jumladan, shu bilimgo'hi asoschilaridan biri, uning bosh kotibi Pol Otle (1869–1944) 1923-yil 19-yanvarda Ye.K.Betger nomiga yozgan xatida 1922-yilda Turkiston ASSRda nashr qilingan unli klassifikatsiya jadvallaridan chuqur ko'nikish hosil qilganligini bildiradi. 1923-yilda yozilgan "Kutubxonachilikning ishining navbatdagi vazifalari va Yangi iqtisodiy siyosat" degan maqolasida Ye.K.Betger kutubxonachilik bilimlarini ommalashtirish, tajriba va amaliyotda orttirilgan bilimlarini o'zaro baham ko'rish zarurligini, kutubxonashunoslikka oid asarlarini nashr qilish, kutubxonachilar malakasini oshirish va ularni tayyorlash maqsadida kutubxonachilik kurslarini tashkil qilish va kutubxona xodimlarining anjuman va qurultoylarini vaqti-vaqti bilan chaqirib turish kutubxona qurilishining dolzarb vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. 1926-yilda A.L.Garritskiyning "Kutubxona xodimiga qisqacha qo'llanmasi" o'zbek tilida chop etiladi. Asarda kitob tavsiflashning umumiy qoidalari, alifboli, sistemali va predmet kataloglarini tashkil qilish, matbuot asarlarini klassifikatsiyalash bo'yicha tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan edi. Sharqshunos olim, kutubxonachi va bibliograf Aleksandr Aleksandrovich Garritskiyning kutubxonashunoslik faniga qo'shgan

muhim hissasi shundan iboratki, u birinchi marta o'zbek tilida umumlashtirilgan tarzda kutubxonashunoslik lug'atshunosligi va uning umummilliylik asoslarini ishlab chiqqan edi. Bu harakat o'zbek kutubxonashunoslarining boshqa ishlarida ham o'z aksini topdi. Chunonchi, O.V.Maslova va M.N.Latipovalarning "Alifbo katalogi. 1931-yil" degan amaliy qo'llanmasida asarlarni tavsiflashda qo'llaniladigan ruscha va o'zbekcha qisqartirilgan izohli lug'at va boshqalar o'zbek tilida nashr qilingan kitoblar asosida ishlab chiqariladi. Shunday qilib, Ye.K.Betger tomonidan 1918–1922-yillarda nashr qilingan "O'nli bibliografik klassifikatsiyaning" ikki jadvali va 1920 hamda 1922-yillarda e'lon qilingan kutubxonachilik texnikasiga oid ayrim tavsiyalar O'zbekistonda oyoqqa tura boshlagan kutubxonashunoslik fanining poydevori bo'lsa, 1926-yili o'zbek tilida chiqqan A.A.Garritskiyning "Kutubxona xodimiga qisqacha qo'llanmasi", shuningdek, 1931-yilda bosmadan chiqqan O.V.Maslova va M.N.Latipovalarning "Alifbo katalogi" nomli amaliy qo'llanmasida ishlab chiqilgan, asarlarni tavsiflashda ishlatiladigan "Ruscha-o'zbekcha qisqartirilgan izohli lug'at" va boshqalar uning devorini ko'tarishda sinch vazifasini o'tar edi. Umuman, O'zbekiston kutubxonashunoslik fani taraqqiyotining birinchi bosqichiga ta'rif berar ekanmiz, bu davrda o'zbek kutubxonashunosligining amaliy va nazariy asoslari paydo bo'lib, shakllana borganligini qayd qilish zarur.

Kutubxonashunoslik fanining tabaqalanishi uning tarixiy jihatlarini chuqur o'rganish zaruratini vujudga keltiradi. 60–70-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (TDPI) kutubxonashunoslik kafedrasida o'qituvchilarining kutubxonachilik ishi tarixi, kutubxonalar va ularni kataloglashtirish tarixi muammolariga qiziqishi ortib borganligini qayd qilish lozim. 1966-yilda TDPI kutubxonashunoslik va bibliografiya kafedralari o'qituvchilarining ilmiy asarlari to'plami chop etildi. Unda kafedra o'qituvchilaridan N.V.Yaxontovanning "Revolutsiyadan oldingi Turkistonda ilmiy kutubxonalar tarixidan", O.G.Qosimovanning "Toshkent kutubxonalarida chet el vaqtlari matbuotining yig'ma katalogi", Y.B.Abramovning "O'z. SSRda markazlashtirilgan kataloglashtirish

tarixidan” kabi ilmiy maqolalari o‘rin olgan edi. O.G.Qosimova o‘z maqolasida Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olganidan keyin Turkistonda ochilgan yangi tipdagi kutubxonalarning ommaviy, axborot, harbiy, o‘quv yurtlari va maktab kutubxonalari, pullik, shaxsiy va jamoatchilik kutubxonalari, kutubxona va qiroatxonalar hamda keng xalq ommasi uchun ochilgan dastlabki musulmon kutubxonalari va shahar kutubxonalarining paydo bo‘lishi, ularning faoliyati, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilgan bo‘lsa, N.V.Yaxontova o‘z maqolasida kutubxonalarning yana bir turi – ilmiy kutubxonalarga e‘tiborini qaratgan. Natijada 1870–1917-yillarda Turkistonda tashkil qilingan va faoliyat ko‘rsatgan kutubxonalarning umumiy silsilasi, ularning ahamiyati to‘g‘risida bir butun tarixiy bilimga ega bo‘lamiz. Y.V.Abramovning tadqiqotida esa respublikada markazlashtirilgan kataloglashtirish tarixi, uning ahvoli va uning bundan keyingi taraqqiyotini belgilab beruvchi chora-tadbirlar namoyon qilingan. Mualliflar o‘z ishlarida o‘sha davrda kutubxonachilik ishining u yoki bu masalalarini rivojlantirishga hissa qo‘shgan O.V.Maslova, V.N.Smolin, G.A.Arakelyans, A.I.Ageyev kabi kutubxonashunos-bibliograflarning faoliyatiga o‘zlarining ijobiy munosabatlarini bildirishgan.

70-yillarning birinchi yarmida ilmiy kutubxonalar tarixi ham maxsus o‘rganila boshlaganligini ko‘ramiz. 1973-yilda M.A.Rahimov ToshDUda (Toshkent davlat universiteti) “O‘zbekiston SSR ilmiy kutubxonalari taraqqiyoti tarixi (1917–1941-yillar)” mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi [3]. Shu tipdagi kutubxonalarning bundan keyingi davrdagi rivojlanish tarixini B.K.Karimov o‘zining “O‘zbekiston SSRda ilmiy kutubxonalar taraqqiyoti (1941–1970)” mavzusidagi nomzodlik ishida davom ettirgan. Tadqiqot Moskva davlat madaniyat institutida himoya qilingan.

Shunday qilib, respublikada kutubxonashunoslik fani rivojlanishining ikkinchi bosqichiga (1946–1974-yillar) ta’rif berar ekanmiz, quyidagicha umumiy xulosa qilish mumkin:

- Respublika kutubxonalari faoliyati to'g'risida obzor-axborot tarzidagi maqolalar ko'payib bordi;
- Kutubxonalardagi ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va joriy qilish bo'yicha materiallar, to'plamlar nashr qilina boshlandi;
- Amaliyotchi va nazariyotchi kutubxonashunoslarning respublikada kutubxonachilik ishi, uning ahvoli va istiqbollari to'g'risidagi tadqiqotlari chiqq boshladi;
- Ma'lumotnoma tipidagi, lug'atlar tarzidagi nashrlar paydo bo'ldi.

Bundan kelib chiqadigan birinchi xulosa shundan iboratki, bu bosqichda kutubxonachilik ishining umumiy masalalari bilan bir qatorda, uning ayrim yo'nalishlari bo'yicha, jumladan, kutubxonalarning tiplari va ular faoliyatining ba'zi muammolariga (kataloglashtirish, kutubxonalararo abonement, ochiq kitob jamg'armasi va h.k.) bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi. Ikkinchidan, respublikada kutubxonalar ahvolini kuzatib boruvchi va ularni rivojlantirishdan manfaatdor shaxslar hisoblangan amaliyotchi hamda nazariyotchi ilmiy kadrlar yetishib chiqdi va shakllandi (oliy malakali kutubxonachi-bibliograflar tayyorlaydigan oliy kutubxonachilik ta'limining barpo qilinishi). 1974-yildan esa Toshkent davlat madaniyat instituti (TDMI) va uning "Kutubxonashunoslik" (1968-yil), "Bibliografiya" (1968-yil), "Bolalar adabiyoti va bolalar bilan kutubxonachilik ishi" (1974-yil), "Kutubxona fondlari va kataloglari" (1980-yil), "Informatika va kutubxonalarda texnik vositalar" (1977-yil) kabi maxsus kafedralarning tashkil qilinishi unga ijobiy ta'sir ko'rsatdi [4, 272-b].

Mustaqillik yillarida kutubxonashunoslik fanini rivojlantirish muammolari (1991-yildan keyingi davr). O'zbekistonda kutubxonashunoslik fani rivojlanishining to'rtinchi bosqichi 1991-yil va undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning xususiyati shundan iboratki, bu davrga kelib respublikada kutubxonashunoslik fani nazariyasi va kutubxonachilik ishi amaliyotini tashkil qilish borasida eskicha ma'muriy-buyruqbozlik tizimi davrida tarkib topgan qarashlardan xalos bo'lish, istiqloq tafakkurini shakllantirish birinchi o'ringa chiqdi.

Shu sababli fanning ayrim muammolarini ishlab chiqish va o'rganishda milliy xususiyatlarni hisobga olish va aks ettirish, kutubxonachilik ishining iqtisodiy va huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kutubxonalar ishini tashkil qilish muammolarini aniqlash va ishlab chiqish, kutubxonachilik ishini boshqarish va rahbarlik qilishda davlat-jamoatchilik tizimini vujudga keltirish, demokratik jamiyatda kutubxonalarning ijtimoiy roli va uni takomillashtirish masalalari kun tartibida turadi. Jamiyatda iqtisodiy munosabatlar asosida o'zgartirishga qaratilgan yo'lni amalga oshirishni ijtimoiy va ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish borasidagi nazariy tadqiqotlarni faollashtirmay turib, tasavvur qilish mumkin emas. Kutubxonachilik ishi ham ana shu nazariy tadqiqotlar sohasining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, kutubxonashunoslik fani ijtimoiy jihatdan ahamiyatli, kompleks muammolarni tahlil qilib berishi, ularning ishlab chiqilishi esa kutubxonachilik ishining yanada yuksalishini ta'minlashi darkor.

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining tadqiqot obyekti turli tarmoqlar va idoralarga qarashli 11 mingdan ortiq kutubxona-axborot muassasalaridir. Ular 6,3 million foydalanuvchiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatmoqda. Ushbu muassasalarda 83,6 million nusxadagi adabiyotlar saqlanmoqda. Shulardan 3,5 million nusxasi elektron shakldadir. Umuman olganda, bu muammolarni ikkita asosiy va muhim guruhga bo'lish mumkin:

- **Birinchisi** – respublika kutubxonalari ilmiy-tadqiqot faoliyatining istiqbolli yo'nalishlaridan bo'lgan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida kitob va kitob o'qishning rolini o'rganish bo'lsa;
- **Ikkinchisi** – kutubxonalarning yangi sharoitda ishlab turishini, kutubxonalarning o'zaro aloqalari, ularning boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar hamda axborot organlari bilan aloqasini yaxshilash, hamkorlik qilish va muvofiqlashtirish masalalari bilan bog'liqdir;

• **Uchinchidan**, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi respublikada kutubxonachilik ishining funksional va ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirgan holda uning tashkiliy markazi bo'lib kelmoqda.

Bu muammolar respublika ilmiy markazlarining kutubxona turlarini samarali joylashtirish va ulardan unumli foydalanish yo'llarini qidirib topishga bag'ishlangan tadqiqotlarida o'z aksini topadi.

Kutubxonalar tarixi ko'p jihatdan sivilizatsiya, madaniyat va butun jamiyat tarixidir. Shumer va Nineviyaning loy lavhalaridan, Qadimgi Misr papiruslaridan o'rta asr monastirlarining oddiy jihozlari orqali birinchi maktablar uchun darsliklar to'plamiga va ulardan bizning davrimizning bepul ommaviy kutubxonasiga o'tib, kutubxonachilik uzoq yo'lni bosib o'tdi. Bu jarayonda bir qator o'zgarishlar yuz berdi va ularning har biri zamonaviy jamiyat ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq edi. Ushbu maqolada kutubxonalar qariyb to'rt ming yil davomida fan, ta'lim va madaniyatga qanday xizmat qilgani, ularning o'rni, jihozlari hamda ish uslublari qanday o'zgarganligi yetarlicha batafsil ko'rib chiqildi.

Kutubxonalar endi shunchaki dunyoviy donolik ombori emas. Kutubxonaxborot xizmatining zamonaviy tizimi aholining barcha qatlamlarini – yuqori boshqaruv tuzilmalaridan tortib aniq bir shaxsgacha bo'lgan xabardorlik darajasini oshirishga qaratilgan. Jamiyat kutubxonani bosma nashrlar saqlanadigan va tarqatiladigan muassasa sifatida qabul qilishni to'xtatmoqda. Foydalanuvchilar soni ortib borayotgani sababli kutubxona bugungi kunda haqiqiy axborot markaziga aylandi.

Kutubxonalar haqiqatan ham global o'zgarishlarga duch keldi. Ularning arxitekturasi va texnik jihozlanishi o'tmishdagi klassik kutubxonadan tubdan farq qiladi. Jamg'armalar kataloglari kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi tufayli sezilarli darajada o'zgardi. Axborot uzatishning turli kanallariga kirish imkoniyatlari sezilarli darajada oshgan axborot jamiyatida kitobxonlar bilan munosabatlar ham qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Kutubxonachilar o'quvchiga ta'sir o'tkazish falsafasidan axborotning mavjudligi falsafasiga o'tmoqdalar va ular endi sof axborot vositachilariga aylanmoqdalar. Kutubxonachilik sohasi menejment, marketing va innovatsiya kabi tushunchalarni o'ziga jasorat bilan joriy etdi.

Bu kutubxonachilik tarixidagi keyingi yangi sahifa bo'ladi. Uni hozir kutubxonalarda ishlayotgan yoki kutubxona-axborot fakultetlarida tahsil olayotgan yoshlar yozishi kerak. Har xil va asosan kirish imkoni qiyin bo'lgan manbalardan materiallar to'plagan biz kabi ajdodlardan farqli o'laroq, ular uchun zamonaviy axborot bazalari bilan ishlash ancha oson kechadi.

Mamlakatimiz va jahon kutubxonachiligi tarixida yangi sahifa ochadigan barcha ishqibozlarga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oxunjonov E. *Vatan kutubxonachiligi tarixi: darslik* / E. Oxunjonov; mas'ul muharrir A.O.Umarov; O'zR Madaniyat ishlari vazirligi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004. – 192 b.

2. Qosimova O. *O'zbekiston kutubxonachilik tarixi: madaniyat va oliy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma* / O. Qosimova. – 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 192 b.

3. Талалакина О. *История библиотечного дела за рубежом [Текст]: учебник для вузов* / О. И. Талалакина. – Москва: Книга, 1982. – 272 с.

4. Umarov A. *Mamlakat kutubxonachiligi islohotlar yo'lida: muammolar va yechimlar // Central Asia – 2006: Fan, ta'lim, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish: konferensiya materiallari*. – Urganch – Xiva, 2006. – B. 10–16.

5. *Управление современной библиотекой: настольная книга менеджера*. – Москва: ОГИ, 1999. – 128 с.

Zebiniso Xudayberdiyeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: xudayberdiyevazebiniso2@gmail.com*

Soatmurod Xushboqov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishi talabasi
E-mail: soatmurodxushboqov3@gmail.com*

OILALARDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB VA MAHALLA KUTUBXONALARI HAMKORLIGI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oilalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda maktab va mahalla kutubxonalarining hamkorligi, ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni hamda mutolaa jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oilaviy mutolaani rivojlantirishning samarali usullari, pedagogik va psixologik suhbatlar, so'rovnomalar o'tkazish jarayonlari, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan. Maqolada kitobning inson ma'naviy hayotidagi o'rni badiiy-uslubiy yondashuv asosida ham ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kitobxonlik, mutolaa, kutubxona, mahalla kutubxonasi, maktab kutubxonasi, oilaviy mutolaa, pedagogik suhbat, psixologik yondashuv, so'rovnoma.*

COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND COMMUNITY LIBRARIES IN DEVELOPING A READING CULTURE IN FAMILIES

***Abstract.** This article highlights the cooperation between school and neighborhood libraries in developing a reading culture in families, their role in educating young people, and issues related to organizing the reading process. It also analyzes effective methods of promoting family reading, pedagogical and psychological interviews, conducting surveys, as well as existing problems and their solutions. The article further explores the importance of books in human spiritual life through a literary and stylistic approach.*

***Keywords:** reading culture, reading, library, neighborhood library, school library, family reading, pedagogical interview, psychological approach, survey.*

Kitob – insoniyat tafakkurining bebaho xazinasini, ma'naviyatning yorqin chirog'idir. Inson qalbiga ezgulik, mehr va tafakkur nurini olib kiradigan ham aynan kitobdir. Donishmandlar bejizga “Kitob – qalb davosi” demaganlar. Chunki kitob o'qigan insonning dunyoqarashi kengayadi, fikrlashi teranlashadi, hayotga bo'lgan munosabati o'zgaradi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oilada shakllangan mutolaa muhiti bolaning kelajakdagi ma'naviy kamolotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Kechqurun ota-onaning farzandi bilan birgalikda kitob mutolaa qilishi oiladagi mehr-oqibatni mustahkamlab, farzand qalbida ilmga muhabbat uyg'otadi.

Shu sababli maktab va mahalla kutubxonalarining oilalar bilan hamkorligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Oilaviy kitobxonlikning ahamiyati

Oilaviy kitobxonlik jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Oila – insonning ilk tarbiya maskani. Bola ilk bor ertakni ona allasi bilan, kitobni esa ota-onasi qo'lida ko'radi. Agar oilada kitobga mehr bo'lsa, farzandning qalbida ham mutolaaga muhabbat shakllanadi.

Kitob o'qish inson hayotida quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- tafakkurni rivojlantiradi;
- nutq boyligini oshiradi;
- mustaqil fikrlashni shakllantiradi;
- ma'naviy tarbiyaga xizmat qiladi;
- yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi [1, 33-b].

Ayniqsa, badiiy adabiyot inson qalbini tarbiyalaydi. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi buyuk adiblarning asarlari yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va ezgulikka undaydi.

Maktab kutubxonalarining vazifalari

Maktab kutubxonalarini o'quvchilarning bilim olishida muhim axborot markazi hisoblanadi. Ular nafaqat darsliklar bilan ta'minlaydi, balki yoshlarni badiiy va ilmiy adabiyotlar olamiga olib kiradi.

Kutubxonaga kirgan bola kitob javonlari orasida go'yo yangi bir olamni kashf etadi. Har bir kitob uning qalbiga yo'l topuvchi ma'naviy ko'priklar vazifasini bajaradi.

Maktab kutubxonalarining asosiy vazifalari:

- o'quvchilarni kerakli adabiyotlar bilan ta'minlash;
- mutolaa madaniyatini shakllantirish;
- kitob targ'ibotini olib borish;
- kitobxonlik tadbirlarini tashkil etish;
- ota-onalar bilan hamkorlik qilish [2, 58-b].

Bugungi kunda elektron kutubxonalar va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yoshlarning axborot olish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Mahalla kutubxonalarining o'rni

Mahalla – milliy qadriyatlar va ma'naviy tarbiya maskani. Mahalla kutubxonalarini esa ushbu maskanning ilm va ma'rifat o'chog'i hisoblanadi.

Oilalarda kitobxonlikni rivojlantirishda pedagogik va psixologik suhbatlar bilan bir qatorda, bobolarimiz, buvilarimiz hamda mahalla oqsoqollarining o'rni ham nihoyatda muhimdir. Chunki xalqimiz azal-azaldan kattalarning hayotiy tajribasi, nasihati va ma'naviy merosiga tayangan holda farzand tarbiyasini yo'lga qo'ygan. Ayniqsa, bobo va buvilar tomonidan aytiladigan ertaklar, rivoyatlar, tarixiy voqealar hamda pand-nasihatlar yosh avlod qalbida kitobga, ilmga va ma'rifatga muhabbat uyg'otadi. Ko'plab oilalarda buvilar kechki payt nevaralariga ertak aytib berishi yoki bobolarning buyuk ajdodlar, tarixiy qahramonlar va olimlar haqida hikoya qilishi bolalarda mutolaaga qiziqishning shakllanishiga xizmat qiladi. Bola avval tinglash orqali ma'naviy oziqa olsa, keyinchalik mustaqil ravishda kitob o'qishga intiladi [3, 46-b]. Shu bois xalq og'zaki ijodi va oilaviy suhbatlar kitobxonlik madaniyatining ilk poydevori hisoblanadi.

Mahalla oqsoqollari ham yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda

muhim o'rin tutadi. Ular tomonidan tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, kitobxonlik kechalari, adabiy suhbatlar va nasihat davralari yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Oqsoqollar o'z hayotiy tajribasi orqali ilmning qadri, kitobning inson kamolotidagi o'rni hamda ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida ta'sirchan fikrlar bildiradi. Shuningdek, mahallalarda "Bobolar o'qigan kitoblar", "Buvijonlar tavsiya etgan ertaklar", "Avlodlar uchrashuvi", "Bir oila – bir kitob" kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish oilaviy mutolaa muhitini yanada mustahkamlaydi [4, 12-b]. Bunday tadbirlar katta avlod va yoshlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni kuchaytirib, milliy qadriyatlar davomiyligini ta'minlaydi.

Demak, oilalarda kitobxonlikni rivojlantirishda maktab va mahalla kutubxonalari bilan bir qatorda bobolar, buvilar hamda mahalla oqsoqollarining boy hayotiy tajribasi va ma'naviy merosidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yosh avlodning ma'naviy barkamol, bilimli va kitobsevar inson bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Mahalla kutubxonalarda tashkil etiladigan:

- "Eng kitobxon oila" tanlovlari;
- kitob yarmarkalari;
- mutolaa kechalari;
- adabiy uchrashuvlar;
- she'rxonlik tadbirlari
- aholining kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi [5, 74-b].

Ba'zan birgina she'r, yoki kichik hikoya inson qalbida katta o'zgarish yasashi mumkin. Shu sababli kutubxonalar faqat kitob saqlanadigan joy emas, balki inson qalbini tarbiyalaydigan ma'naviyat maskani sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik va psixologik suhbatlarning ahamiyati

Oilalarda kitobxonlikni rivojlantirishda pedagogik va psixologik suhbatlar muhim o'rin tutadi. Bunday suhbatlar orqali ota-onalarga bolalarda mutolaa madaniyatini shakllantirish usullari tushuntiriladi.

Pedagogik suhbatlarda:

bolalarning yoshiga mos adabiyot tanlash;

- kunlik mutolaa vaqtini tashkil etish;
- oilada kitob o'qish an'analarini shakllantirish;
- farzandlarni rag'batlantirish usullari;
- haqida tavsiyalar beriladi.

Psixologik suhbatlar esa bolalarning qiziqishi, ruhiy holati va kitob o'qishga bo'lgan munosabatini o'rganishga yordam beradi. Chunki har bir bolaning qalbiga eltuvchi yo'l turlicha bo'ladi. Kimdir ertakni sevadi, yana kimdir sarguzasht asarlar orqali kitob olamiga kirib boradi.

So'rovnomalar o'tkazishning ahamiyati

Maktab va mahalla kutubxonalari oilalar o'rtasida so'rovnomalar tashkil etish orqali kitobxonlik holatini tahlil qilishi mumkin.

- So'rovnomalar yordamida:
- oilalarda qancha kitob o'qilishi;
- bolalarning qiziqadigan janrlari;
- elektron va bosma kitoblarga munosabat;
- mutolaa uchun ajratiladigan vaqt;
- kutubxona xizmatlaridan foydalanish darajasi aniqlanadi [6, 23-b].

Bu ma'lumotlar asosida kutubxonalar aholining ehtiyojiga mos loyihalarni ishlab chiqadi. Natijada kitobxonlik tadbirlari yanada samarali tashkil etiladi.

Mutolaa madaniyatini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati

O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholining kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-sonli qarori kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini

rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda kutubxonalar faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, 2026-yil 15-yanvardagi PQ–9-sonli qaror asosida:

- kitobxonlikni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi;
- “Kitob – ma’rifat manbai” dasturi yo‘lga qo‘yildi;
- “Mutolaa” platformasidan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi;
- umumta’lim maktablarida kitobxonlik klublari tashkil etilishi belgilandi.

Mazkur qarorlar jamiyatda ma’naviy muhitni mustahkamlash va yoshlarni kitobxonlikka keng jalb etishda muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kutubxonalar hamkorligining samarali usullari

Maktab va mahalla kutubxonalari quyidagi yo‘nalishlarda samarali hamkorlik qilishi mumkin:

1. Oilaviy mutolaa loyihalari.

“Bir oila – bir kitob” loyihasi orqali ota-onalar va farzandlarning birgalikda kitob o‘qishi rag‘batlantiriladi.

2. Sayyor kutubxona xizmatlari.

Chekka hududlarda mobil kutubxona xizmatlarini yo‘lga qo‘yish kitobxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Kitobxonlik aksiyalari.

Mutolaa haftalıkları, she’rxonlik kechalari va kitob tanlovlari yoshlarni kitobga yaqinlashtiradi.

4. Elektron resurslardan foydalanish [7, 36-b].

Elektron kutubxonalar va audio kitoblar zamonaviy kitobxonlikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Muammolar va yechimlar

Bugungi kunda ayrim oilalarda telefon va internetga ortiqcha qiziqish sabab kitob mutolaasiga kam vaqt ajratilmoqda. Bundan tashqari, ayrim kutubxonalarda zamonaviy adabiyotlar yetishmaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun:

- zamonaviy badiiy adabiyotlarni ko'paytirish;
- kutubxonalarning moddiy bazasini mustahkamlash;
- oilaviy mutolaa an'alarini rivojlantirish;
- yoshlar o'rtasida kitob targ'ibotini kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, kitob inson qalbini nur bilan boyituvchi bebaho ma'naviy xazinadir. Oilalarda kitobxonlikni rivojlantirishda maktab va mahalla kutubxonalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik va psixologik suhbatlar, so'rovnomalar, kitobxonlik tadbirlari hamda zamonaviy texnologiyalar orqali oilalarda mutolaa muhiti shakllanadi.

PQ–3271 va PQ–9-sonli qarorlar asosida amalga oshirilayotgan islohotlar esa jamiyatda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Zero, kitob o'qigan jamiyatning kelajagi porloq, ma'naviyati yuksak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh. *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.* – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 260 b.
3. Mirziyoyev Sh. *Yangi O'zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 320 b.
4. Yo'ldoshev E. *Kutubxonashunoslik asoslari.* – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. – 240 b.
5. Alimuhamedov A. *Axborot-kutubxona faoliyati.* – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 180 b.
6. Rasulov R. *Mutolaa madaniyati va yoshlar tarbiyasi.* – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. – 124 b.
7. Xudoyberdiyev T. *Oilaviy tarbiya va ma'naviyat.* – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 120 b.

Zebiniso Abduganiyeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası o'qituvchisi
E-mail: abduganiyeva1956@gmail.com*

AXBOROT-RESURS MARKAZLARI TIZIMIDA MULOQOT

MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalari kutubxona-bibliografik xizmati jarayonida kutubxonachi va kitobxon o'rtasidagi muloqot madaniyatining nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida O'zbekistonning uchta yetakchi oliy o'quv yurti – Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazlarining faoliyati qiyosiy o'rganilgan. Muallif tomonidan Axborot-resurs markazlarida muloqotning sohaviy ixtisoslashuvga (texnik, yuridik va fundamental-akademik) bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim platformalari va raqamli texnologiyalar sharoitida virtual muloqot etikasi va nizoli vaziyatlarni bartaraf etish usullari tadqiq etilgan.*

***Kalit so'zlar:** muloqot madaniyati, bibliografik xizmat, kutubxonachi, kitobxon, oliy ta'lim, raqamlashtirish, netiket, nizolarni boshqarish.*

COMMUNICATION CULTURE IN THE INFORMATION RESOURCE CENTER SYSTEM: A COMPARATIVE ANALYSIS

***Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical foundations of communication culture between librarians and readers in the process of library and bibliographic services at higher education institutions. Within the framework of the study, the activities of the Information Resource Centers of three leading universities in Uzbekistan – the Tashkent State Transport University, the Tashkent State University of Law, and the National University of Uzbekistan – were comparatively examined. The author identifies the specific characteristics of communication in Information Resource Centers that are influenced by sectoral specialization (technical, legal, and fundamental-academic fields). In addition, the article explores*

the ethics of virtual communication and methods for resolving conflict situations in the context of educational platforms and digital technologies.

Keywords: *communication culture, bibliographic services, librarian, reader, higher education, digitalization, netiquette, conflict management.*

Axborot-resurs markazlarida xizmat jarayonida kutubxonachi va kitobxon o'rtasidagi muloqot madaniyati shunchaki oddiy muomala emas, balki kutubxonaning ijtimoiy nufuzini hamda foydalanuvchi axborot ehtiyojlarining nechog'lik sifatli qondirilishini belgilovchi asosiy omildir. Zamonaviy kutubxonachi nafaqat kitob beruvchi yoki texnik xodim, balki axborot dunyosidagi yo'l boshchi, pedagog va psixolog hisoblanadi. Kutubxonashunoslik ilmining asoschisi, professor Sh.R. Ranganatan o'zining mashhur "Kutubxonachilik ilmining 5 qonuni" asarida ushbu munosabatlarning negizini belgilab bergan edi [1]. Uning "Har bir kitobxonga o'z kitobi" va "Kitobxonning vaqtini tejang" degan tamoyillari bevosita muloqot madaniyatiga daxldor bo'lib, xodimdan kitobxonga xuddi "do'stona sherik" (friendly partner) sifatida yondashishni va muloqotni ortiqcha vaqt yo'qotmaydigan tarzda tashkil etishni talab qiladi. O'zbekiston axborot-kutubxona tizimida xizmat ko'rsatish etikasini rivojlantirish va xodimlarning kasbiy qiyofasini shakllantirish masalalari Milliy kutubxonaning davriy nashrlarida tizimli ravishda tahlil qilib kelinmoqda. Shu bois, xizmat ko'rsatish madaniyati kutubxonachidan yuksak kasbiy mahorat va muloqot etikasiga qat'iy rioya qilishni talab qiladi. Muloqot madaniyatining poydevorini xushmuomalalik, empatiya va bag'rikenglik (tolerantlik) tamoyillari tashkil etadi. Kutubxonachi har bir murojaat qiluvchini ochiq chehra bilan kutib olishi, uning yoshi, millati va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bir xilda hurmat ko'rsatishi lozim. Taniqli kutubxonashunos olim Y.N.Stolyarov kutubxona tizimini to'rt tarkibiy qismdan (kitob, kitobxon, kutubxonachi va moddiy-texnik baza) iborat deb biladi va xodim bilan foydalanuvchi o'rtasidagi muloqotni ushbu tizimning yashovchanligini ta'minlovchi "asab tolasi" deb ataydi [2]. Olimning fikricha, kutubxonachining kasbiy madaniyati uning psixologik tayyorgarligi bilan o'lchanadi. Ya'ni, muloqot paytida

kutubxonachi kitobxonning nafaqat tili bilan aytayotgan soʻzlarini, balki uning ichki ehtiyojini – noverbal belgilar, nigohi yoki hayajoni orqali ham tushuna olishi, yuksak empatiyaga ega boʻlishi kerak.

Bibliografik xizmat jarayonidagi muloqot bir nechta izchil bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Dastlabki bosqichda psixologik aloqa oʻrnatilib, xodim bor diqqatini keluvchiga qaratadi. Ikkinchi bosqich – bibliografik suhbat (intervyu) jarayoni boʻlib, unda koʻpincha oʻz istagini aniq ifodalay olmaydigan kitobxonga toʻgʻri yoʻnaltiruvchi va ochiq savollar beriladi. Bibliografiya nazariyasi boʻyicha yirik olim O.P.Korshunov ushbu jarayonni alohida tadqiq etib, “bibliografik intervyu” tushunchasini ilmiy asoslab bergan [3]. Olimning taʼkidlashicha, kitobxon murojaat qilganda koʻpincha oʻz ehtiyojini mavhum shaklda ifodalaydi (masalan, kitob nomini yoki muallifini notoʻgʻri aytadi). Muloqot madaniyati shunda namoyon boʻladiki, kutubxonachi qoʻpol yoki siyqasi chiqqan savollar bilan emas, balki ilmiy-pedagogik dialog orqali kitobxonning asl maqsadini aniqlab olishi lozim. O.P.Korshunov bu fenomenni “Axborot ehtiyojini shakllantirish madaniyati” deb ataydi. Oʻzbekistonning zamonaviy axborot-kutubxona tizimida ushbu muloqot madaniyati va xizmat koʻrsatish jarayonlarini tashkil etish soʻnggi yillarda butunlay yangi bosqichga qadam qoʻydi. Mamlakatimizda bu faoliyat Oʻzbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi [5]. Yirik milliy va hududiy axborot-kutubxona markazlarida “Kutubxonachining kasbiy etikasi kodeksi” amal qilayotgan boʻlib, u xodimlar zimmasiga foydalanuvchilar bilan xushmuomala va xolis munosabatda boʻlish majburiyatini yuklaydi. Shu bilan birga, Oʻzbekiston kutubxonalarida muloqot madaniyatini tashkil etishda sharqona lutf, milliy mentalitet, kattalarga hurmat va yoshlarga izzat koʻrsatish kabi qadriyatlar kasbiy odobning asosiy mezoni sifatida qabul qilingan. Respublika kutubxonalarida xizmat koʻrsatishning tashkiliy tuzilmasi “Kitobxon uchun qulay muhit” konsepsiyasi va ochiq fondlar tizimiga asoslangan. Bu esa kutubxonachi va kitobxon oʻrtasidagi rasmiylik toʻsiqlarini kamaytirib, muloqotning maslahatlashuv ruhida

kechishini ta'minlaydi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun inklyuziv xizmat ko'rsatish va maxsus psixologik yondashuv usullari ham tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. Kutubxona amaliyotida uchrab turadigan nizoli vaziyatlarni oqilona boshqarish, xodimlarning muomala madaniyatini yuksaltirish maqsadida tizimda doimiy ravishda trening va seminarlar tashkil etib kelinmoqda. Bugungi raqamli asrda muloqot madaniyati an'anaviy zalardan virtual makonga ham ko'chmoqda. Kutubxonashunos olimlarimiz (M.Rahmatullayev, A.Mamatojiyev) bugungi kunda muloqot madaniyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) rivojlangan davr nuqtai nazaridan tahlil qilmoqdalar [6]. O'zbekistonda elektron kataloglarning yagona tizimi, kutubxonalarning rasmiy saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi Telegram-botlar va "Virtual ma'lumot" (virtualnaya spravka) xizmatlari izchil yo'lga qo'yilgan. Olimlarning fikricha, zamonaviy kutubxonachi virtual muhitda xizmat ko'rsatishda tarmoq etikasi qoidalariga qat'iy rioya qilishi, savollarga tezkor, aniq va imlo xatolarsiz javob qaytarishi davrning bosh talabidir. O'zbekistonning zamonaviy oliy ta'lim makonida kutubxonachi va kitobxon o'rtasidagi muloqot madaniyati sohaviy ixtisoslashuv, akademik talabchanlik hamda tizimli raqamlashtirish jarayonlarining o'zaro uyg'unligida namoyon bo'ladi. Bu borada mamlakatimizning uchta yirik va nufuzli oliy o'quv yurti – Toshkent davlat transport universiteti (TDTU), Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYUU) va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti (O'zMU) axborot-resurs markazlarining tajribasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Transport universiteti sharoitida muloqot asosan muhandislik-texnik terminlar, logistika, lokomotiv va havo transporti tuzilmalariga oid maxsus chizmalar hamda sohaga xos bo'lgan "tezkorlik va aniqlik" tamoyiliga tayanadi; bu yerda kutubxonachidan texnik tilni mukammal tushunish talab etiladi. Bundan butunlay farqli ravishda, Yuridik universitetda ushbu munosabatlar qat'iy huquqiy rasmiylik, kodekslar va qonun hujjatlarining tili hamda o'z haq-huquqlari va normativ me'yorlarga juda talabchan bo'lgan bo'lajak yuristlarning kasbiy xarakteri asosida shakllanadi. Mamlakatimizning bosh klassik oliygohi hisoblangan Milliy universitetda esa

muloqot muhiti universallik, chuqur fundamental ilmiylik va ensiklopedik keng qamrovlilik xususiyati bilan ajralib turadi, chunki bu yerda kutubxona xodimi bir vaqtning o'zida ham kimyogar yoki fizik, ham filolog yoki tarixchi olimning intellektual darajasiga moslashishi shart. Shunga qaramay, ushbu uchta universitet kutubxonachilarining kundalik faoliyatida ko'plab umumiy va majburiy kasbiy mezonlar mavjuddir. Birinchidan, har uchala maskanda ham ilmiy faoliyatning rivojlanishi munosabati bilan, kutubxonachilar professor-o'qituvchilar, doktorantlar va magistrning murakkab bibliografik so'rovlarini jahonning yetakchi ilmiy-tahliliy bazalari (Scopus, ScienceDirect, Web of Science) vositasida aniqlashtirib, ularga an'anaviy xizmat ko'rsatish doirasidan chiqqan holda "ilmiy sherik" (partnyor) sifatida yondashadilar. Ikkinchidan, bakalavriatning boshlang'ich kurslariga qabul qilingan talaba yoshlar bilan muloqotda milliy "ustoz-shogird" an'analariga sodiq qolgan holda pedagogik-psixologik takt bilan munosabatga kirishish, ularni kamsitmasdan, katta axborot oqimidan kerakli manbalarni saralash va kataloglardan foydalanishni bag'rikenglik bilan o'rgatish har bir xodimning kasbiy burchi hisoblanadi. Uchinchidan, ta'lim tizimining raqamlashtirilishi natijasida Axborot-resurs markazlaridagi muloqotning salmoqli qismi virtual makonga ko'chgan bo'lib, Hemis platformasi, elektron kutubxona tizimlari, rasmiy veb-saytlar va maxsus Telegram-botlardagi "Virtual ma'lumot" xizmatlari orqali masofaviy aloqa yo'lga qo'yilgan; bunda kutubxonachilardan tarmoq etikasi qoidalariga rioya qilgan holda tezkor va imlo xatolarsiz javob qaytarish talab etiladi.

Nihoyat, imtihonlar, sessiyalar va bitiruv ishlari himoyasi davrida kitobxonlar oqimining keskin ortishi natijasida yuzaga keladigan psixologik zo'riqishlar, navbatlar yoki kitob yetishmovchiligi bilan bog'liq nizoli vaziyatlarni sharqona vazminlik, ichki nizomlar va vaziyatni yumshatuvchi muqobil takliflar yordamida bartaraf etish ushbu kutubxonalarning umumiy yutug'idir. Xulosa qilib aytganda, TDTU, TDYUU va O'zMU axborot-resurs markazlarida to'g'ri tashkil etilgan kutubxonaviy muloqot madaniyati shunchaki texnik xizmat ko'rsatish sohasi emas, balki bo'lajak muhandislar, huquqshunoslar va olimlarning ijtimoiy odob-axloqini,

madaniy qiyofasini shakllantiruvchi oliy ta'lim tizimining eng muhim madaniy-
ma'rifiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Axborot-resurs markazlari xizmati jarayonida yuksak muloqot madaniyati – bu shunchaki texnik qoidalar yig'indisi emas, balki xodimning psixologik bilimlari, kasbiy mahorati va insoniy fazilatlarini mujassamlashgan yuksak san'atdir. O'zbekiston kutubxonalarida milliy an'analar va raqamli texnologiyalar uyg'unligida tashkil etilayotgan ushbu muloqot tizimi jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish va intellektual salohiyatli avlodni shakllantirishda muhim madaniy ko'prik bo'lib xizmat qilmoqda. Muomala madaniyati yuqori bo'lgan insonlar jamiyatda, oilada va ish faoliyatida doimo muvaffaqiyatga erishadilar va atrofdagilarning samimiy hurmatiga sazovor bo'ladilar. Axborot-resurs markazlari tizimida muloqot madaniyati foydalanuvchilarga sifatli axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Muloqot jarayonida xodimlarning kasbiy etikasi, nutq madaniyati, axborot bilan ishlash malakasi va foydalanuvchilarga individual yondashuvi xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-resurs markazlarida an'anaviy va raqamli muloqot shakllarining uyg'unlashuvi foydalanuvchilar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish imkonini bermoqda.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, turli axborot-resurs markazlarida muloqot madaniyatining rivojlanish darajasi moddiy-texnik baza, kadrlar salohiyati va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga bog'liq. Yuqori darajadagi muloqot madaniyati foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini tez va samarali qondirish, ularning markaz faoliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, axborot-resurs markazlari faoliyatida muloqot madaniyatini takomillashtirish, xodimlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish axborot-kutubxona xizmatlari sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2011.
2. Ранганатан Ш. Пять законов библиотечной науки / пер. с англ. – Москва: Книга, 1970. – 200 с.
3. Столяров Ю. Библиотека как система / Ю.Н.Столяров. – Москва: Книжная палата, 1989. – 255 с.
4. Коршунов О. Библиографоведение: общий курс: учебник / О.П.Коршунов. – Москва: Книжная палата, 2000. – 336 с.
5. Пирмедова Х. Развитие университетских библиотек Узбекистана // Менеджмент вузовских библиотек. Университетская библиотека на треке изменений: материалы XXII Международной научно-практической конференции (Минск, 25–27 октября 2022 г.) / Белорусский государственный университет. – Минск : БГУ, 2022. – Электронный ресурс. – Режим доступа: elib.bsu.by.
6. Pirmedova X. Oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarida xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi // O'zbekiston kutubxonachiligi. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 24-31.
7. Pirmedova X. Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida raqamli transformatsiya jarayonlari // TDYUU ilmiy maqolalar elektron arxivi. – Toshkent, 2023. – Elektron resurs: [murojaat vaqti: 2026 йил 10 июнь].